



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**

"SILK ROAD EDUCATIONAL PLATFORM" MCHJ

“IBROHIM G‘AFUROV – ADIB, MUNAQQID, TARJIMON”

**respublika ilmiy-amaliy anjuman
materiallari**



2025-yil, 22-yanvar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

“SILK ROAD EDUCATIONAL PLATFORM” MCHJ

**“IBROHIM G‘AFUROV – ADIB,
MUNAQQID, TARJIMON”**

respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2025

UO‘K 811.512.133(075.8)
81.2O‘zb ya73
S 60

Mas’ul muharrir:
Shuhrat SIROJIDDINOV,
akademik

Ushbu to‘plamda “Ibrohim G‘afurov – adib, munaqqid, tarjimon” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari jamlangan. To‘plamda Ibrohim G‘afurov adabiy-ilmiy merosining o‘zbek adabiyotidagi o‘rni va bugungi kun uchun ahamiyatiga doir ilmiy maqolalar o‘rin olgan. Shuningdek, ababiy ta’sir va ijodiy izdoshlik masalalari, adabiy aloqalarning takomil bosqichlari, til, uslub va tarjima muammolariga bag‘ishlangan maqolalar ham kiritilgan.

Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

SO‘ZNI TAQDIRGA AYLANTIRGAN SHAXS

Shuhrat Sirojiddinov

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU rektori,
akademik*

Ibrohim G‘afurov zamonaviy o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, adabiyotshunoslik, badiiy ijod va adabiy tarjima yo‘nalishlarida samarali faoliyat yuritib kelayotgan ijodkor hisoblanadi. U o‘zining uzoq yillik mehnati orqali milliy adabiyotimizning rivojiga beqiyos hissa qo‘shib kelmoqda.

O‘z ijodiy faoliyatini hikoya va maqolalar bilan boshlagan Ibrohim G‘afurov, tez orada mumtoz adabiyotimizning umuminsoniy qadriyatlarini yoritish, zamonaviy adabiyotda kechayotgan jarayonlarni tadqiq qilish bilan shug‘ullandi. 1963-yilda uning adabiy tanqidga bag‘ishlangan **“Go‘zallikning olmos qirralari”** nomli ilk kitobi chop etildi. Mazkur to‘plamda u zamondosh ijodkorlarning asarlarini chuqur tahlil qilib, jahon adabiyoti mezonlari va umuminsoniy tamoyillar asosida baholagan. Bunda u o‘sha davrda hukmron bo‘lgan sotsrealizm qoliplaridan voz kechib, sof adabiy-estetik yondashuvni ilgari surgan. Bunday yangicha qarashlar adabiy tanqidda sezilarli yangilik sifatida baholandi.

Keyinchalik olim **“Joziba”**, **“Yonar so‘z”**, **“Yam-yashil daraxt”**, **“She’riyat izlanish demak”** kabi kitoblari orqali adabiyotshunoslikdagi izlanishlarini davom ettirdi. Uning adabiyot sohasidagi fidokorona mehnati munosib e’tirof etilib, O‘zbekiston yoshlar mukofoti bilan taqdirlandi. Filologiya fanlari nomzodi Ibrohim G‘afurov adabiyotshunos sifatida o‘zidan mustahkam iz qoldirish bilan birga, yozuvchi, shoir, tarixnavis, publitsist va tarjimon sifatida ham boy meros yaratgan ijodkorlardan biri sanaladi. Shu bois u zamondoshlari tomonidan mehnatkash, sermahsul va izlanuvchan ziyoli sifatida yuksak qadrlanadi.

Ibrohim G‘afurov o‘zbek adabiyotiga yangi janr – **mansura** janrini olib kirdi. Mansura, garchi mansur she’rga yaqin tursa-da, mohiyatan ancha farqlanadi va keng ifoda imkoniyatiga ega. Bu janrda hikoya hajmidagi asarlar ham yozish mumkin, biroq uning asosiy sharti – fikr oqimi va ichki musiqiy ohangning uzilmasligi. Mansura she’r singari ohangdor bo‘lib o‘qilishi lozim.

Ijodkorning **“Dil erkinligi”, “Hayo – xaloskor”, “Mangu latofat”** kabi kitoblarida joy olgan mansuralari uning qalb kechinmalari va ichki dunyosini yorqin aks ettiradi. U esselar janriga o‘ziga xos badiiylik olib kirib, quruq adabiy talqinlar o‘rniga ularni poetik unsurlar bilan boyitgan. Risola va badialarida esa jahon adabiyoti durdonalarini milliy qadriyatlarimiz bilan taqqoslab, ulardagi yutuq va kamchiliklar haqida chuqur mushohada yuritgan.

Shuningdek, Ibrohim G‘afurov XX asr va zamonaviy o‘zbek adabiyotining yetuk namoyandalari – Usmon Nosir, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Zulfiya, Said Ahmad, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi ijodkorlarning asarlarini ilmiy jihatdan tadqiq etib, adabiy portretlar yaratgan. Uning ushbu izlanishlari o‘zbek adabiyotining o‘ziga xos xazinasiga aylangan.

Ko‘plab kitobxonlar Ibrohim G‘afurovni mohir tarjimon sifatida ham yaxshi bilishadi. U dunyo adabiyotining ulug‘ namoyandalaridan E. Xeminguey, G. Mopassan, F. Dostoyevskiy, Ch. Aytmatov, G. Markes, J. Joys kabi mualliflarning asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilib, keng o‘quvchilar ommasiga taqdim etgan. Tarjimashunoslik sohasida ham u katta iz qoldirib, **“Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish”** va **“Tarjima nazariyasi”** (hammualliflikda) kabi darsliklar yaratgan. Ushbu asarlar tarjimonlik faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Bugungi kunda Ibrohim G‘afurov O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining nasr, adabiy tanqid va badiiy tarjima kengashlarida faol ishtirok etib, yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlashda davom etmoqda. Uning **“Ayyub nidosi”, “Oltin qoziq”, “Mangu er”** singari yangi kitoblari ham kitobxonlar tomonidan iliq kutib olindi. Adabiyot va tarjima sohasidagi fidokorona mehnati, milliy adabiyotga qo‘shgan beqiyos hissasi tufayli u mamlakatimizning eng yuksak mukofoti – **“O‘zbekiston Qahramoni”** unvoniga sazovor bo‘ldi.

Muhtaram Prezidentimiz Ibrohim G‘afurovga O‘zbekiston Qahramoni unvonini tantanali topshirish marosimida shunday degan edilar: **“Men “Boburnoma”ni ko‘p-ko‘p o‘qishga, Boburning hayot yo‘lini o‘rganishga harakat qilaman. Bilasizlarmi, Boburda umuman halovat bo‘lmagan. Uning**

hayot yo‘li mashaqqatlar va kurashlarda o‘tgan, faqat mehnat qilgan. Ibrohim akaning ham hayotida halovati bo‘lmagan, umri mehnatda o‘tgan. Hozirga adabiyot sohasidagi barcha yozuvchi va shoirlarimiz bu insonni ustoz deydi.

Ibrohim akaga o‘xshagan halol insonlar bizga o‘rnak bo‘lishi kerak. Hayotda, mehnatda, umrda. Bitta stol, ruchka va bitta xona. Boshqa biror narsani bu inson o‘zi uchun ep ko‘rmagan. Mana shunday inson, albatta, O‘zbekiston Qahramoni bo‘lishga loyiq”.

Bugungi kunda qutlug‘ 87 yoshni qarshi olayotgan Ibrohim G‘afurov bardavom ijod bilan band. Biz ulkan adabiyotshunos, tarjimon, muharrir va publitsist Ibrohim akaga mustahkam sog‘lik va yanada yuksak ijodiy parvozlar tilaymiz.

**I SHO‘BA. IBROHIM G‘AFUROVNING TARJIMONLIK MAHORATI VA
ADABIY MUNAQQIDLIK FAOLIYATI
IBROHIM G‘AFUROV MANSURALARI
(Mansuraga tatabbu’)**

Shuhrat RIZAEV,

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, professor

Ibrohim G‘afurovning yozishicha, “Nitshe obraz yaratish san’atini raqs deb biladi. Raqs insoniyatning eng qadimiy san’ati va hamma san’atlar va shuningdek, so‘z san’atining ham ota-onasi.”

Modomiki shunday ekan, ijod ahli obraz yaratuvchilar –raqs tushuvchilardir. Mantiq shu, sarlavhaning maqsad-muddaosi ham shu!

Kamina uvvalo urinib, minglab sarlavhalar ichra ajratganim ifodaning ta’riflanguvchisi – bugun barcha – yurt otasidan tortib muxlisu muhibgacha alqab, ulug‘lab turgan inson Ibrohim G‘afurovdir.

Alisher Navoiy haqidagi mashhur filmimizning ssenariy mualliflaridan Viktor Shklovskiyga o‘xshataman Ibrohim akaning ba’zi jihatlarini. Shklovskiyning Lev Tolstoy, Sergey Eyzenshteyn haqidagi kitoblarini suyib o‘qiganman o‘z vaqtida. “Tortilgan kamon. O‘xshashning o‘xshamasligi haqida” (“Tetiva O ne sxodstve sxodnogo. Teoreticheskaya rabotam. 1970 g.) deb nomlangan o‘ziga xos ajoyib nazariy kitobi bor. Umuman, yorug‘ dunyoda 91 yil yashab, o‘zi ham sanog‘iga yetolmagan bir ko‘p kitoblari (badiiy, ilmiy, ilmiy-nazariy), esselari, ssenariylari bilan mashhur mutafakkir olim, tanqidchi, yozuvchi, kinochi, san’atshunos va hokazo. Kitoblari, umuman bitiklari, bari tezislardan iborat. Bilim, fikr, mulohaza, mushohada shu qadar jo‘shqinki, to‘lib-toshib keladi. Ortiqcha tafsilot, ega-kesim qidirib o‘tirishga fikr po‘rtanasi chidamaydi. Tezislar shaklida qog‘ozga quyilaveradi. Shklovskiyning nazariy, amaliy qarashlari XX asr insoniyat badiiy-ilmiy tafakkurining fenomen ko‘rinishlaridan. U badiiy ong turlarining barchasida salmoqli ishlar qilgan, zalvorli meros qoldirgan. Adabiyot, kino, tasviriy san’at, teatr... barchasining “...shunos”liklari rivojiga qo‘r bergan buyuk esseist, qomusiy tafakkur odami. Uning tezislarda fikrlab yaratgan o‘nlab kitoblari ham bari sarlavhalar taassurotini beradi. Ha, ana shu sarlavha-matnlarda bir olam ma’no, mantiq, mazmun. Hayrating oshib-toshib ketadi. Vo darig‘, hammaniki kabi shu bir kaftga sig‘gulik chanoqda shuncha ilm-bilim, tushuncha bo‘ladimi deb qolasan...

Ibrohim G‘afurovni goho shu zakiiy mutafakkirga o‘xshataman.

Garchi ko‘rinishidan sira o‘xshashligi bo‘lmasa-da, siyratan o‘xshash ular. Tortilgan kamon misol ikkovlon ham. O‘xshamlarning o‘xshashi...

Agar shu yerda izhorimni uzib, yangi sarlavha qo'yish mumkin bo'lsa, "Baland tepalar" turkumidagi "Oq burgutlar" mansurasidan mana bu ifodani xat boshiga muhrlab qo'yardim:

"Jo'nlik ustidan qozongim kelar g'alaba".

Naqadar dolzarb fikr, mardona ifoda! Bugun, ha bugunning eng kerak gapi, eng zarur sarlavhasi. Hayotini "raqs tushishga" tikkan bari san'at ahli va san'at habiblarining ko'nglidagi gapi, qalbidagi iztirobi. Chor atrofingni "jo'nlik" umrguzaronligi metastaza bergan saraton kasali misol bosib kelayotgan bir pallalarda naqadar intiq, tansiq bu g'alaba. Bilooqibat, mumkinmikan bu muzaffariyat?!

"O'qi, o'qi, o'qi" degan sokin, shikasta sas chalinadi quloqqa. Sas tanishdek tuyuladi. Muqaddas kalomni takror-batakror sadolantirayotgan ovoz o'sha isyonkor istak ifoda topgan ikkinchi sarlavhaning muallifiniki ekani ayonlasha boradi...

Gashtakning navbatdagi ulfatchiligida o'rtaga bahs tushdi. Bahs mavzusiga oid ne bir maqolani o'qimagan ekan, munozaraga kirishgan nosir akamiz. O'qimaslik kasaliga chalingansan deya, chunonam yog'ildi ta'na, dashnom Kalomga juftlangan lablar qimtinib, tupuklar qilt etib yutildi. Lolaruxsor yuzlardagi ko'zlar yerga qadaldi. Chapani davra emasdi bu ulfatchilik... Ammo shahd bilan qilingan tazyiq dilda kadar qoldirdi, sovuqlik indi. Buning rutubati anchagacha tarqamadi. Ko'ngilda cho'kindi bo'ldi. Ozod domlaning gapi yodimga keldi:

"Qiziq men har gal Ibrohimjon bilan ko'rishganimda uning ko'zlaridagi allanechuk ta'na aralash kinoyali nigoh qarshisida, undagi so'z bilan ifodalanmagan, lekin yaqqol sezilib turadigan talabchanlik qarshisida sal-pal dovdorab qolaman, qilgan ishlarimni, gapirgan gaplarimni birma-bir xayoldan o'tkazib, borimdan ko'ra yaxshiroq bo'lishga chog'lanaman".

Ustoz Sharafiddinov ana shu holat – talabchanlikni Ibrohim G'afurovning asarlariga ham nisbat berib, pirovardida uni, "hech ikkilanmay adabiyotimizning vijdoni, deb atasak xato bo'lmas", deya xulosa chiqaradi Vaqtida Ozod domlaning o'ziga shu sifatni berib edik. Shukrki, adabiyotimiz vijdotsiz qolmagan ekan. Binobarin, ne tongki, vijdon va adolatni davlatchilikning bosh mezonini deb sa'y ko'rsatayotgan Rahnamomiz mazkur bitiklarimiz qahramonining to'yi sabab ham yurtdagi ustuvor ma'naviy - g'oyaviy siyosatning asoslarini mustahkam etayotir.

Kingadir bu shohona lutf bo'lib tuyular, ammo nafsilamirini aytganda, bu qonuniy hol. Ayniqsa, bugun jo'nlik botqog'ini quritmoq zarur. Davlat boshqaruvidan tortib iqtisodu siyosatda, sanoatu ziroatda, tabobatu ta'lim-tarbiyada, ma'naviyat-ma'rifatda, san'at va adabiyotda, albatta. Chuchmal etiroflar, maqtanchoqlik, safsataboz xudparastlik, puchqoq ritorika, soxta tabassumlardan voz kecha bilmoq kerak.

Axir:

*Olam go'zal. Olam telba. Olam tubsiz.
Telbalik go'zallik tubsiz.
O'zini jinnilikka soldi Suhravardiy
Va qutuldi dordan.
Omon qoldi joni
bosh omon qoldi.
Mening hamma xazinam boshimda derdi.
Ba'zan olam havodislari
qulog'ingni uchirib o'taman deydi.
Sen ham o'ylaysan irshayib:
boshimni olib qo'ysam qutilamanmi
Yoqadimi sizga boshsiz chavandoz?..*

Mayn Ridning buyukligini ko'ring, zamonaviyligini tuying. Hamma sarguzasht adabiyotining zo'r namunasi deb bilguvchi umrboqiy roman makonu zamonlar osha insoniyatga chaqiriq ekan. Buni-da bizga anglatib, eslatib turgan – qahramonimiz.

Qahramonimizning tafakkur va ko'ngil bisotini kavlayversa, son-sanoqsiz turfa olamu olamchalar chiqaveradi. Jo'n nigohga ular bir-biri bilan qanday aloqadorlikda degan savollar quyilib, aljirashdek tuyuladi go'yo. Jo'n emas, ogoh bilgich uchun ular aljirash emas, bil'aks, temir qonun bilan tartiblangan tugallik – nizom. Quroq, siniq, yirtiq, yamoq-yasqi, laxtaklarni bir-biriga moslab ulashdan paydo bo'ladigan g'alat shaklni mozaika deydilar farangilar. So'z, asl ma'nosida muzalar bilan bog'liq bo'lgani uchunmi, bu bora-bora muayyan tabiiylik qonuniyatiga bo'ysunuvchi, Shklovskiy misolida yuqorida aytganimiz, o'xshashning o'xshamasligi asosidagi san'at turiga aylandi. Mozaika shakl san'ati avangard adabiyotiga ham ko'chib, Jeyms Joys kabi ulkan adiblarning romanlarida avj-adosiga yetdi. Oddiy nazarga g'alat tuyuladigan G'afurov mansuralari mozaika san'atiga xos mushtaraklik namunalaridir. Faqat buni sezish, ko'rish va anglash uchun qalb ko'zlari kerak o'qiguvchiga.

Rost-da, axir hamma qatori tug'ilmay, yo'rgakka olinmay, boshi qolib, oyog'i bilan yorug' dunyoga chiqqan va o'lik deya eski-tuskiga chirmab, sovuq uyning bir chekkasiga eltib qo'yilgan va ittifoqo onaning sezimi– savqi tabiiysi bilan tirikligi ayonlashib, bag'irga olingan murg'ak, avvalo, qalb ko'zlari tufaylidan omonu eson qolib, kamol topdi. O'zi aytmoqchi, o'ttiz yettinchi yilning qahratonida Qodiriy, Cho'lpon, Fitratlar... qatag'on etilgan kunlarda tavallud topdi. Bamisli ularning jismi yo'qlikka ingan pallada millatning qurib bitmas chashmalaridan yangi chashma ko'z ochgandek bo'lgan esa ne ajab?! Shudir balki tabiatdagi temir qonun, tartib-intizom. Katta millatlarning yuzi bo'lguchi farzandlari tug'ilishu o'lishida, nasllarning

vorisligu bardavomligida, albatta, bir ilohiy nizom– muntazamlik bo‘lmog‘i azaldan bor gap. O‘tlig‘ shoirimiz Zoxirjon Furqat aytmoqchi, “jahon xoli qolurmu hech rasolardin”.

Yorug‘ kayfiyat va ajib ta‘mning mujdasi bo‘lib, xohishlarini qitiqlagan zarg‘aldoq shaftolilarga qo‘yni-qo‘njini to‘ldirib chiqqan ma’sum bolakayning jazolanib, olma shoxiga osib qo‘yilgani azobini bir eslang - a mansura hikoyadan. O‘g‘rilikning, beso‘rov xohishning jazosini ongu vujudiga umrbod muhrlagan bola tasavvurning dahshatidirki, keyingi yetmish yillik umr, haromdan hazar shiori bilan o‘tdi. U yutayotgan luqmasinagina emas, o‘qigan kitobiyu, yozgan bitiklari, o‘zbekchaga o‘g‘irgan badiiy durdonalari, irod etgan nutqu ma’ruzalari bilan, ko‘yingchi, davralardagi ishtiroki bilan-da vijdonlarni uyg‘otib, halollikning unutilayozgan qo‘shiqlarini kuylashdan tinmadi, tonmadi. Bu qanchalar qiyin, azobli mashg‘ulot bo‘lmasin, shu mayoqqa intilaverdi. Sollanib, salmoqlanib o‘sha bisot bilan shu kunlarga yetdi. Bu bisotga jamiyatda ehtiyoj o‘lmagan ekanki, uni alqab, ulug‘lab o‘ltiribmiz-biz... Rost bo‘lsin, rost bo‘lsin, muvaqqat hol bo‘lib o‘tmasin deging keladi...

Mansuralarni “Mening romanlarim” degan Ibrohim aka “Hayo-xaloskor”ida: “kuchli nutq oqimiga asoslangan “Mansuralar” degan janr yaratdim. Mansuralar erkin she’r janriga juda yaqin, lekin erkin she’r emas. U meni o‘rtagan o‘y, xayol, orzu va erishilmagan, yo‘qotilgan narsalar to‘g‘risida fikr oqimlari”.

O‘smir tasavvurimning inja malikasi Odri Xepbern haqida o‘zbeklardan ilk bor Ibrohim aka yozganini o‘qidim. O‘qidimu o‘sha o‘spirin pallada bu “hurkak ohu”ga g‘oyibona ko‘ngil qo‘yib, u haqda har nechuk ma’lumot, taassurot, bitiklar izlab, bori topgan o‘qiganlarim orasida Ibrohim akaning mansurasi boshqacharoq, kuchliroq ta’sir qildi. Bir o‘zim emas ekanman, bu qizginaga xayoliy shaydo. Birgina mening ko‘nglim erkasi emas ekan bu malak. Rashk emas, umumhayrat tuyg‘usi egallagandi meni. O, mening tuyg‘ularim, maftunligim – ilk bor “Rim ta’tillari”ni ko‘rgandagi...

*Ko‘k sig‘ar edi Odrining ko‘ziga. Kurra sig‘ar edi
Odrining ko‘ziga.*

Cheksiz Himolaylar cho‘kkan edi Odrining ko‘ziga.

Okeanlar ma’sum yotar edi Odrining ko‘zlarida.

Men ham o‘smir chog‘larim siqqan edim bu ko‘zlarga.

Boshdan oyoq mujassam hurkak nigoh edi Odri Xepberi.

Mana sizga mansura – roman. Eh-he, mana shu olti satrda ozmuncha mazmun, tafsilot, tarix bormi. Bu tafsilot-tarixlar bari o‘ziniki, har bir qalbning o‘z-o‘ziniki, har bir xotiraning o‘z surati, o‘z yondashuvi, ko‘rimi, munosabati. Bunga faqat ana

shu olti satrgina turtki beryapti. Olti satr butun bir umrni xayol ko'zgusida jonlantiryapti. Faqat seniki, faqat o'zingniki bo'lgan tafsilot-tarixlarni jonlantiryapti bu olti satr.

Mansura – romanda Odrining o'limi cheksiz qayg'uga solgan titroq qalbning yana bir necha o'n satr giryasi bor, oltita bilan tugagan emas. Lekin ular endi ko'proq, asosan Ibrohim G'afurniki, meniki emas. Men o'limiga har qancha qayg'ursam-da, tirik yorug' surat bo'lib xayolimda jilvalanib turaveradi. Odri menga xotira, taassurot bisotimni ochib bergan olti satr yetadi. U yog'ini o'zim to'ldirib olaman, to'ldiradigan tafsilotlar kam emas... Faqat akadan yana bir satrni so'rab olaman... sarlavha qilgani. Chunki bundan zo'rroq, yombiroq tashbeh-sarlavhani men topolmasam kerak.

“Odamzodning mungiga muhr-ohularning ko'zlari”.

Shu o'rinda fikr nishabi yana sarlavhaga tortib, “Hayo – xaloskor” degan ma'naviy olamimizga Ibrohim G'afurov iborasi o'laroq darj etilgan so'zlar qoyalanadi.

Roman deymanu qo'shiqqa o'xshaydi bu Mansura. Balki qo'shiq-roman, girya-roman deyish kerakmikan bu mansurani. Va balki Ibrohim G'afurov qalbidan otilgan nidolar, vidolar bari qo'shiqdir..., uning o'z qo'shiqlaridir?! Tovush tembrlari, diapazon zohiran qo'shiqchinikiga o'xshamagani uchun u qo'shiq deya qadr topmasligi mumkinligidan bu sangdil izdihomda, mansurani o'ylab topdimikan...

Yaqinda bangladeshlik elchi-shoir Ma'sud Mannanning taklifi bilan Toshkentda mehmon bo'lgan Tanvir Mukammal ismli kinorejissyor bilan tanishdim va uning “Lolo” nomli filmini ko'rdim. Qiziq, Lolo ismli o'tgan asr boshlarida Bangladesh qishloqlarida yashab o'tgan xat-savodsiz darvesh shoir o'z ta'limot-tushunchalarini kuylab aytgan ekan. Tinimsiz kuylagan – bori hayot, turmush qo'shiqdan iborat. Shunisi qiziqki, har kim o'zini ifoda etishning turfa yo'llarini topar ekan...

Aksariyat o'zini ifodalashga imkon qidiradigan iste'dodlar insoniyat asrlar osha ulargacha yaratgan usul, uslub, janr, vazn, o'lchov, qonun-qoida va hokazolarga murojaat etadi. Qoliplarga moslashadi. Lekin shunday sarkash ko'ngil va shuur odamlari borki, ular boshdan-oyoq yaratguvchilardir. O'z rozlarini faqat o'zlari kashf etgan shakllarga muvofiq ifoda etadilar.

Ibrohim aka fransuz adibi Andre Morloning “ruhga shakl berish” haqidagi fikrlaridan mutaasir bo'lib yozgan edi. O'sha biz nazarda tutayotgan yakkash sarkashlar aynan ruhga shakl izlayotgan odamlar bo'lsa-chi?! Topgani baxtli, topolmagani, quvvati yetsa, tinimsiz izlanishda. Shu ma'noda Ibrohim aka baxtli. Yutug'i, kamu ko'stini ham o'zi hammadan yaxshiroq biladi. Inchunun, “Mansura” janrini yaratdim” deganda ishonmaslik mumkin emas... Bilfe'l akaning

“Personalizm” xususidagi mana bu iqrori oriy rost: “Har bir odam o‘z hayotida inqilob qilsin. Har bir kimsa o‘z ichida ham inqilob yasasin.... Ilohiy inqilob! U qalbmida! Turg‘unlik devi (dev bo‘lsa ham – *Sh.R.*) yengilmas emas”.

Mana Odri Xepbern xotirasidan palak olgan o‘ylar, o‘ychiqlar. Buni eh-he, ne-ne tafakkur silsilalariga ulab davom ettirish, ettiraverish mumkin. Ha, mana sizga roman...

– E, bo‘yingdan o‘rgilay, Ibroy aka! – devorging keladi volidai azizaga o‘xshab, garchi “ta’na aralash kinoyali nigohi” tushishi mumkinligidan xavfsirasang ham.

U Tolstoydan uyaladi. Dostoevskiydan, Joysdan, Xeminguey, Aytmatov, Markes... dan uyaladi, xijolat qiladi jo‘n yozishdan, jo‘n fikrlashdan. Va, albatta andisha qiladi hazrat Navoiydan. Shu andishasiki, uni Navoiyga unsiyati– yaqinlashmog‘i uchun, “Falakiy ko‘lamlar”ga intilmog‘i uchun qalbiga qo‘r, taniga quvvat, fikratiga qudrat bag‘ishlaydi. Va u shu andishasi bilan biror kun Tolstoy bobo unga jo‘nligi uchun xayolan aytib qolishi mumkin bo‘lgan ta’nalardan asranadi. Asranib, muhofazasi ulg‘ayib, ko‘nglini mansura kuylashga some’ etadi.

Men dastlab Turgenevning nasrdagi she‘rlarini o‘qigan edim, keyin Mirtemir, so‘ng Oybek, yana keyinroq bir-ikki Cho‘lponda. Bular bari hissiy epkinlar samarasi, she‘rga, o‘lcham va qat’iy mezonlarga sig‘magan, sig‘ishni istamagan sarkash tuyg‘ularning yuzaga chiqish usuli edi. Nazarimda, bu hol tuyg‘ulari chandon chappar urib turganda shodu xandon va yoki tamomi shikasta ko‘ngilli ijod ahlining barchasi vaqti-vaqti bilan murojaat qilib, goh pinhon tutadigan, goh oshkor etadigan muvaqqat chizgilariga o‘xshaydi. O‘zim ham yozganman, yozaman shunday nasrdagi she‘rlarni. Ular ko‘pincha yon daftarlarda, javonlarda, arxivlarda qolib ketadigan o‘ta intim, tiyiqsiz hissiy ehtiyoj natijalari. Shuning uchun ham fikrlovchi oshufta ahli qalam bari mansura yozadigandek tuyuladi. Modomiki, mansura fikr alangasi yolqinantirgan hissiyotlar epkinida tug‘ilar ekan, u ham tafakkur, ham hissiyotlar zurriyodi, farzand esa o‘suvschandir. U nimaga moyil bo‘lsa, shu tomonga qarab bo‘y cho‘zadi, shaklu shamoyil kasb etadi. Fikr bo‘lsa “...shunoslik” (adabiyotshunoslik, san’atshunoslik, adabiy-badiiy tanqid...) yo‘lini tutadi, ortiq daraja tuyg‘ularda turg‘un turib, shunga noyil esa badiiy ijod (she‘r, nasr, drama va hokazo)ga jo‘yak soladi. Ha, nazaran, mansura shu ikki ilmiy va ijodiy jarayonning ibtidosi, asosi, poydevori. Kimlardir qay bir yo‘nalishga tortib ketadi, kimlardir har ikkisinida bo‘lak-bo‘lak, mustaqil yurgizadi. Kimlardir (bular juda kamchilik) o‘sha ibtidoda mustahkam turib qoladi – xuddi Ibrohim G‘afurovdek.

Asliku u ham “...shunoslik” daryolarida suzib, adabiy tanqid, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik orollarini obdon kezindi, goh-goh yana safarlar qilib turadi bu orollarga. Ammo bu orollardagi muhit, marom zerikarliroq tuyuladi

shekillik, ular oromidan orom topmay, yana fikr, mushohada bilan hissiyot uyg'unligidagi esseistikani ko'ngil xohishi, ifoda vositasi deb belgilaydi. Endi uning "Mangu latofat" (ayniqsa), "Parivashlar majlisi"dagi risolalari ham bari birlikda esseistika – badialar bo'lib jamlanadi. Qarang, o'sha kitoblar tartibida jadid bobolar adabiyoti, matbuoti, Behbudiy, Fitrat, Erkin Vohidov, G'afur G'ulom, Said Ahmad, Abdulla Oripov, Ozod Sharafiddinov, Abdulla Qahhor, Oybek, Shayxzoda, Zulfiya, Usmon Nosir, Odil Yoqubov, Asqad Muhtor, Maqsud Qoriev, Sayyor, Tog'ay Murod, Laziz Qayumov, Nuriddin Shukurov, Azim Suyun, Sa'dulla Hakim va bugunning yosh shoirlarigacha tahlilga, mushohadaga tortilgan turli avlod qalam ahli haqidagi risola, maqola, taqriz, so'z, kirish so'z, so'ngso'z va hokazo turli ilmiy-tanqidiy janrdagi barcha bitiklar hech mubolag'asiz, bari esseistika namunalari. Ularning qaeridadir tahlil, ilmiy mushohada, bahs-munozara kabi "...shunoslik" metodlari ko'rinib yo kuchayib ketsa-da, barchasi bora-bora hissiyotlar ziloliga qo'shilib, badia daryosiga singib ketadi. Bular qatori ruh, hayot, o'lim, imon, e'tiqod, til, iroda, axloq, hayo, matonat, jasorat, millat, vatanparvarlik... kabi alohida maqola, chiqishlarga mavzu bo'lgan qator ma'naviy kategoriyalar haqidagi falsafiy o'ylar, tezislar, fiqralar, munosabatlar... ham o'sha daryoning baliqlari.

"E'tiqod hosilasi" nomli Ozod Sharafiddinov haqidagi essesda Ibrohim G'afurov sinchkovlik-farosat-hafsala xususlarida fikr yuritib, ularni tug'ma, egiz, tug'ishgan, birlashgan, tutashgan, chatishgan xususiyatlar deydi. "Bularsiz adabiyotchi yo'q, tanqidchi, san'atkor yo'q. Vassalom". Ana shu biri biriga esh uch fazilat mansura va esselarning urug'doni va doyasi. Agar sinchkovlik akada eng rivoj topgan individual xususiyat desam, bitiklaridan boxabar biror kas fikrimga shubha bildirmas. Farosatu hafsala borasida ham xuddi shunday. Hafsalasizlikni kechirib bo'lar, chunki bundan eng katta ziyon ko'rguvchi sizning o'zingiz bo'lasiz, qilmagan va bajarishga quvvat va fursat topmagan, turli botiniy va zohiriy vajkarsonlar topib, o'z-o'zini aldab yurgan o'zingiz bo'lasiz – hafsalasiz odam. Ammo farosat bobida uni odamning yakkash kamchiligigina deb aytib bo'lmaydi. Befarosatlik bu nuqson, illat, qusur odamdagi. Odamlik sha'nini ne qadar yerga urguchi tuban, taqir bir holat.

Farosatsiz nodonlardin qochmoq kerak.

Befarosat, befahm odam misli eshshak.

deydi donishmand xalq.

Xo'sh, sinchiligi yo'q odam hayot, tiriklikning turfa ko'rinishlarida ne bir havodislarni ajratib, ularning mohiyatini izlab, o'rni, ahamiyati, kerak nokerakligini bilib, bildirib biladimi?! Tabiatda neki yaratiq bor-barining o'rni, vazifasi bor. Hech bir narsa olamu odamdan tashqarida emas. Faqat sinchkovlikkina bor narsaning borligi, qay bir darajada kerakligini anglatadi. Uni o'sha keraklik doirasi-darajasini topish fahmu farosatdan. Qo'llash, ishlatish, amaliyotga qo'ya bilish esa hafsaladan.

Birinchi va ikkinchi xususiyatlar ijodkorda hayotiy zarur bo'lgani holda uchinchi harakatsiz turishi mumkin. Bu endi yuzaga chiqmagan imkoniyat, potensial. O'zida Dostoevskiy, Shopengaurllarni o'ldirgan Vanya tog'aning yozg'irishlari, yig'i-armonlari. Bu uch sifatning bir insonda mujassamligi baxti, omadi, taqdir qilgani. Biroq bu fazilatlar boridan bo'liqroq, bo'rtibroq ko'rinsa-chi, ortiqroq faollikda namoyon bo'lsa-chi. Bu endi ulug'lik, o'zgalardan, bir ko'p insonlardan o'zgacharoq, qatoru saflardan bo'ychanroq ko'rinish bo'lsa kerak. Bundaylarni harbiyda qator boshiga qo'yib, belgi olinadi. Mahalla-ko'ychilikda hamisha oldinga o'tqazib, safning savlati, e'tibor-izzatini belgilashadi. Ilmda, ijodda agar shunday olim, adib, san'atkor bo'lsa, u zotni tabarruk va ulug' sanab, ustoz va pir deya etagidan tutishadi. Bugun necha-necha ma'naviyatga yondosh mardum Ibrohim akani ustozu pir maqomida bilib, suhbatlariga intiladi, etaklarini tutib, bu tabarruk insonga ergashadi.

Agar insonni sinchkovlik bezasa, baxtiyor etsa misoli Ibrohim G'afurov, fahmu farosat fazilatmaob qilsa, namunasi Ibrohim G'afur, hafsala tufayli o'z hayotida inqilob qilsa, turg'unlik devini yengsa, Ibrohim G'afur. Ana shu ilohiy baxtdan ibratlanib yurganlar murodiga yetsin, albatta.

Turli davra, uchrashuvlarda iqtibos keltirib aytib yuraman – “Argumenty i fakty” gazetasining 2016 yilgi sonlaridan birida mashhur kinorejissyor Pavel Lungin “Styda bolshe net” deya afsus-nadomat bilan intervyu beribdi. Ha, u endi hayotda, dunyoda uyat bo'lmaydi, sharmu hayo tuyg'usi yitib ketdi, endi bularning bari pulga sotiladigan tovarga aylandi, endi sharmu hayo bu shou-biznes deganidir deydi.

Bizning Ibrohim aka buni roppa-rosa 10 yil oldin ko'ra bilib, butun bir kitobining sarlavhasiga chiqargan edi – “Hayo – xaloskor” – “Sharq” NMAK, Toshkent, 2006 yil.

Bu bilan qanoatlanmay, ikki yildan so'ng “Mangu latofat”ida yana bong urib “Axloqni sog'inish. Hayo – xaloskor” deb chiqdi. “Adab-odamiylikning o'zagi. Balki odamiylikning bari boshdan oxir adabdan iborat. Adabning iligi esa – hayo. Ilik qurigan yerda hayo bo'lmaydi. Hayoni or-nomus, hamiyat, oriyat, sha'n, uyat singari tushunchalar qatoriga qo'yamiz....Uyat juda qadimdan kelayotgan turkiy o'zbakiy so'z va tushuncha. U yopish, panalash ma'nolarini anglatadi... Uyat turkiycha, hayo – arabiycha, sharm – forsiycha kelib chiqishga ega. Ruslar bu tushunchalarni “styid”, “sram” so'zlari bilan ifodalashadi.

Ha, ana rus kinorejissyori aytgan “styid” – hayo jamiyatda, odamlarda yo'qola borib, tovarga ayriboshlangan ekan, demak, uni asrash choralari ko'rilmog'i zarur. Daraxtki tanasida kesilgan va ochilib qolgan joyini yopib qobiq qoplarkan, nega odamzod yalang'ochlikdan asranish evini qilmaydi?! Hech kimning xayoliga kelmagan eng oddiy, hamisha ko'z oldimizdagi haqiqatni eslatadi Ibrohim G'afur:

“Yalang‘ochni yer ham qabul qilmaydi”. Darhaqiqat, na nasroniy, na buddaviy, na islomiy e’tiqodlarda mayitni yalang‘och holda dafn etish yo‘q.

Ha, hayo – xaloskor. Faqat tananing yalang‘ochlanuvi, avratning ochilib qolishi emas, fikru o‘y, so‘z-munosabat, muloqot-musohabalarining yalang‘och ko‘rinishlari– bu ham behayolik-ku. Biz goho qadim vodiy milliy madaniy qadriyatlaridan keladigan askiyani uyatsizroq janr, deymiz. Ammo shu uyatsiz atalguvchi aytishuv-dialoglarda qancha parda, ishorat tasavvuri bilan anglanadigan qancha fasohatli zavq-shavq bor. Hatto so‘ziniki shu qadar pardalagan mardum nega endi har ne unsurdan pardani ko‘taryapti. Hayosizlarcha yaltoqlanyapti, behayolarcha maqtanyapti, uyatsizlarcha kulyapti, sharmandalarcha tana o‘yinlari bilan hirsu harislikni oddiy holga aylantiryapti.

Bola ekanmiz, rahmatlik buvimning bo‘yinlarida paydo bo‘lgan nuqtadek qizil so‘galni ko‘rsatib – “nima” deb so‘rabman. “O‘g‘il bola bunaqa narsalarni so‘ramaydi”, deya tanbeh eshitdim. Shu-shu yoshing o‘ta boshlab, qo‘lu tomoq, bo‘yinlaringda o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qoladigan holu so‘gallarni endi o‘zimizda ko‘rib, bular har qanday tananing o‘z tamannolari, vujud-teri kimyolarining ne bir zuhuri ekanini anglab, shuginaga ham dakki olganimiz uchun hayo pardasi onalarimiz, momolarimizda shunchalar bo‘lgan ekan-da, deb qo‘yamiz. Ibrohim aka mavzu ochayotgan hayo-ku global dunyoning xavotir-tashvishlari. Bora-bora Lut qavmi yo Sodom, Gomorra shaharlarini qo‘pgan qiyomatlardan ogohlantirish hushyorligi.

O‘zi-ku akaning mansura, esselari bu uning hayratlari ichra ohlari, anduhlari, armonlari, oshkor aytilmagan alamlari, dardlari ham. Ozod domla haqidagi “E’tiqod hosilasi”da yozadi: “Tarjima maqolalarni Ozod Sharafiddinov adabiy-tanqidiy, ijtimoiy, insoniy e’tiqodining sar mevalari, deb qaramoq kerak. O‘zi shunday ham. Ozod aka o‘zi yozolmagan, aytolmagan (turli sabablarga ko‘ra) fikrlarini shu tarjimalar orqali o‘quvchisiga yetkazadi. Zero, biz uchun ozodlik va ma’naviyatga hizmat qiladigan har bir narsa qadrlidir.”

Asli Ibrohim G‘afurov ham zakiy mutafakkir, hushyor nigoh va sira befarq bo‘lmaydigan inson o‘laroq ko‘ngil rozlariyu noroziliklarini, yoqmagan, yoqtirmagani nomarg‘ub so‘z, kitob,odam, avom, qiliq, qiytiqlarni yalang‘och tanqid qatlariga qayd qilmay, mansuralar, esselarning ne bir ohang misralariga jo etadi. Fahmu farosati bor odam bu ishora, istehzo, esseistik kinoya va fasih kesatiqlarda neqadar nishtar pardalanganini aniq sezib biladi. Va, albatta, Ibrohim akaning xunukni chiroyli qilib, badnomga majoz topib, badbinga oroyish ko‘zgu tutib, bilib-bilib, arxaik ataluvchi so‘z bisotidan aniq ifodalar tanlab munosabat bildirishiga tan beradi.

Mana shular

*mening vatandoshlarim
boshqasini qaydan olaman
uy solishni sevishar
to'y qilishsa, quvishar
aza kelsa, turishar
vazminlikni suyishar –
mana shular –
mening vatandoshlarim
boshqasini qaydan olaman.*

*Oftoblikka asta chiqishar
jahon bilan sekin so'rashar
ehtiyoti unga yarashar
mana shular – mening vatandoshlarim
boshqasini qaydan olaman...
jiq bo'lib ketdim fikr chopqinlarida*

yoki mana bu satrlarga jo bo'lgan ko'hna so'zlar tashiguvchi ohangni tinglab,
majozini chaqib ko'ring-a:

*Nisolanar so'zlar –
Bag'rimga bosh qo'yar qator bo'lishib –
ayolga o'xshab qolar so'zlar –
qora qush yomg'irida ivigan, bo'rtgan, tiniq tortgan
ayol shunday bo'lar.
Qongan ayoldan go'zal ayol bo'lmas –
men shunday qone' so'zlarni quchaman – o'paman,
erkalab – erkalab yetaklayman
So'zlarning ko'ksidan tizilib otilar sutlar
men icholmayman
lek
bola kabi
so'zlar oldida ojizman.
Qora qushlar o'tishar
quyun tortishib,
nisolanar so'zlar kuzgi bodring kabi
ko'm-ko'k, qarsildoq – men ularni bag'rimga bosaman
muqaddas nima bor shunday so'zdan ortiqroq.*

Mansuralarni Ibrohim aka mening romanlarim, deganini eslatib edik. Yuqoriroqda fikr bilan tuyg‘ularning turfa va ajib mushtarakligida tug‘ilib, so‘ng shoxlab ketadigan ilmiy va ijodiy jarayonning ibtidosi dedik. Agar adabiyot va zamon nisbatida bugungi shitobdagi global jarayonlarni bor shoshqinu toshqini bilan ko‘radigan bo‘lsak, mansuralar aynan roman va ayni chog‘da ibtido ham, intiho ham bo‘lib qoladi. Shu bilan birga, ular Ibrohim G‘afurov zako va fasohat sayyorasining noyob yaratishlari va muhtasham obidalarini bo‘lib ham ko‘p hassos ko‘ngillarda mash‘alalar yoqadi. Badiiy so‘zning tilsim dunyosiga ne-ne avlodlarni chorlayveradi.

Ustoz o‘zbekchaga oshuftalik bilan o‘g‘irgani “Zardo‘st tavallosi”ning ijodkori Nitsheni nihoyatda suyadi. Unga turli munosabat bilan bot-bot murojaat etadi. Modomiki, Nitshe “obraz yaratish san‘atini raqs” deb bilgan ekan, Ibrohim G‘afurov mansuralar, esselar, tarjimalar, yoniq so‘zlar vositasida obraz yaratishning haddini egallab, timsol ummonining g‘avvosi o‘laroq sha‘n va shuhrat topdi, tabarruk yosh va odamiylikning qutlug‘ martabalariga yetishdi. Yana ustozning o‘zi “Insoniylik risolasi”da “Yashash bu san‘at” deb yozgan edi. Demak, u obraz yaratish san‘atini yashash san‘atining mehvariga aylantirib, ajib samoviy kengliklar ichra raqs tushishda bardavomdir.

INTELLEKTUAL MUTARJIM VA TARJIMA NAZARIYOTCHISI

Zuhriddin ISOMIDDINOV

*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi,
filologiya fanlari nomzodi*

Bo'stonliqdagi Oqtosh sanatoriyasi hovlisiga kirib borishda XIX asr oxirida ekilgan, yoshi yuzdan oshib ketgan bir necha ulkan tol, teraklarga ko'zingiz tushadi. Tanasiga qo'l yetmaydi. Ammo ho'v yuqorida, osmonning har tomoniga qarab quloch yoygan beshlab-oltitab shoxlari borki, ulardan har birining o'zi biz bilgan daraxtlardan katta. Bu tol, bu teraklarni, ularning salobat bilan gurkirab turganini ko'rib, havasingiz keladi.

O'zbek badiiyatining takomillashib, bugungi darajaga yetishi zamirida necha o'nlab fidoyi insonlarning bir umrlik mehnatlari yotibdi. Loaqal yaqinida kechgan XX yuzyillikni olib qarasangiz, Hamza, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, Mirzakalon Ismoilov, Mirtemir, Asqad Muxtor, Ozod Sharafiddinov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi va ular qatoridagi boshqa ulug' so'z san'atkorlarining qutlug' nomlari yodimizga keladi. Adabiyotimizni ular ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Bir umr o'zbek ma'rifati uchun xizmat qilib kelayotgan atoqli so'zshunos Ibrohim G'afurov ham ana shulardan biri. U kishi qo'l urgan soha ko'p: munaqqidlik, mualliflik, muharrirlik, mutarjimlik, siyosat mardumi ekanligi, muallimlik, madaniyat arbobi... Domlaning faoliyati qamrovining kengligi, botinining teranligi haqida o'ylaganimda, boyagi Oqtosh og'ochlari yodimga tushadi. Shuncha sohaning har birida Ibrohim aka bir ijodkor amalga oshirishi mumkin bo'lgan ishlarni uddalab kelayotibdi.

Adib dastlab tanqidchi sifatida tanildi. Oltmishinchi-saksoninchi yillarda uning adabiy hayot haqida katta mehr, sinchkovlik bilan yozgan tanqidiy maqolalari tilga tushdi. Aynan Ozod Sharafiddinov va aynan Ibrohim G'afurov, mana shu ikki munaqqid, adabiy tanqid ham ijod turi ekani, munaqqid esa badiiy asarning jandarmi va qozikaloni emas, balki jonkuyar ishtirokchisi ekanini uzil-kesil dalillab berishdi.

Ibrohim G'afurov bu bilan qanoatlanmay, Shayxzoda, Zulfiya singari talay mashhur shoirlar haqida alohida kitoblar chop ettirib, ularning so'z san'atimizdagi o'rni ishonarli tarzda isbot qildi.

Xuddi o'sha oltmishinchi-saksoninchi yillardan Ibrohim G'afurovning tarjimonlik ijodi ham boshlandi. Dastlabki yirik tarjimalaridan bo'lmish E.Xemingueyning "Chol va dengiz", "Alvido, qurol!" asarlari orqali adib Xeminguey bilan bizni tanishtirdi. Tanishtiribgina qo'ymadi, balki shu tarjimalari orqali o'zbek so'z san'atiga G'arb adabiyotiga xos yangi uslubni ham olib kirdi –

bungacha bizda “telegraf” (to‘g‘rirog‘i, telegramma) tarzidagi jumlar tuzish rasm bo‘lmagan edi.

Oradan yillar o‘tib, Ibrohim G‘afurov ulug‘ fransuz adibi Mopassan asarlarini o‘zbekchalashtirishga qo‘l urdi. Ona tilimizda “Hayot” qissasi, “Azizim” romanlari paydo bo‘ldi.

Gap u yoki bu adibning qaysi asarlarini tarjima qilgani ustida emas. Ibrohim G‘afurov qay bir asar tarjimasiga qo‘l ursa, uning botiniga kira oladi, ichki ruhini yuzaga chiqarishga intiladi. Chunonchi, Mopassanning “Bel-Ami” degan romanini ruschadan (“Milʼy drug”) o‘zbek tiliga “Azizim” deb o‘girdi. Asar bosilib chiqqach, bir talay tarjima ilmining “bilag‘on”lari uni “Yoqimli do‘st” deb atagan ma‘qul edi, mutarjim o‘zboshimchalikka yo‘l qo‘ygan, deb e‘tiroz bildirdilar. Holbuki, o‘zbek adibi asar voqeligiga teran kirib borgan va, ayni damda, ona tilimizning milliy tabiatini nozik his etgani uchun so‘zma-so‘zlikdan qochgan. Asar qahramoni mug‘ambir, olifta Dyuruaga hamma “Milʼy drug!” deb murojaat qiladi, ruslarda ham do‘stiga “Milʼy drug!” deb xitob qilish tabiiy. Biroq o‘zbeklar birovga “Yoqimli do‘st!” deb murojaat qilmaydi-ku? Ibrohim aka bu murojaatni tabiiy ravishda yuzaga chiqarib, “Azizim!” kalimasini topgan, buning natijasi uzukka ko‘z qo‘ygandek yarashimli bo‘lgan.

I. G‘afurov tarjimonlik qilishdan tashqari, bu yuksak san‘atning ilmiy-nazariy masalalari bilan ham obdon shug‘ullandi – Jahon tillari universiteti talabalariga oliymaqom san‘at sirlarini o‘qitdi, ma‘ruza o‘qish bilan cheklanmay, talabalar uchun tarjima bo‘yicha darslik tartib berdi. Uning “Tarjimashunoslik mutaxassisligiga kirish” o‘quv qo‘llanmasi (2008), “Tarjima nazariyasi” (N.Qambarov bilan, 2012) darsliklari ana shu tariqa yuzaga keldi. Bu bilan ham cheklanmay, XX asrda faoliyat yuritgan o‘zbek tarjimonlari, ularning ijodiy hayoti, adabiy ijodi haqida katta, mukammal bir tadqiqot yaratish fikriga kelib, shu tadqiqotdan fragmentlar tarzida bir qancha mutarjimler ijodi to‘g‘risida salmoqli maqolalar e‘lon qildi, “Tarjima estetikasi” singari o‘nga yaqin yirik maqolalarida esa bugungi o‘zbek tarjimachiligining muhim, dolzarb masalalari borasida o‘z fikr va qarashlarini taqdim etdi.

Ibrohim G‘afurov deganda bugungi o‘quvchi Aytmatov, Mopassan, Dostoevskiy, Xeminguey, Nisshe, Markes kabi jahon adabiyoti salaflarini o‘zbek tilida so‘zlatgan mohir so‘z ustasini ko‘z oldiga keltiradi. Birgina Joysning “Uliiss” romani misolida bu tarjimalarga baho beradigan bo‘lsak, professor Muhammadjon Xolbekovning bir e‘tirofini aytilish kifoya. *“Hatto ingliz tilini mukammal o‘rgangan tarjimon ham Ibrohim G‘afurov tarjimasidan ustunroq tarjima yaratolmaydi, – deb yozgan edi M.Xolbekov. – Ibrohim G‘afurovning o‘zbek tarjimachiligi rivojiga qo‘shgan hissasi uni “Uliiss”dek dunyo adabiyotining shoh asari bilan boyitdi, o‘zbek kitobxoniga uni tortiq qildi”.*

Bu gapni “Zardusht tavallosi” (F.Nisshe) haqida ham, “Tog‘lar qulaganda” (Ch.Aytmatov) haqida ham, boshqalari xususida ham xuddi shunday ishonch bilan aytish mumkin.

Ibrohim G‘afurov tarjimalarining eng muhim jihati uning badiiyatida, deb aytsak, bu to‘g‘ri, ammo biryoqlama baho bo‘lar edi. Asosiy gap shundaki (buni u o‘g‘irgan mualliflarning nomi ham ko‘rsatib turibdi), Ibrohim aka u yoki bu roman yo qissani emas, dunyo adabiyotining eng murakkab, bizda hali o‘xshashi ko‘rilmagan asarlarni qidirib topib tarjima qiladi, har qanday tafakkur tovlanishlarini o‘zbek tilida ifoda qilish mumkinligini isbot qiladi, ularni badiiy olamimizga, o‘zbek adabiyoti maydoniga olib kiradi, so‘z san’atimiz xazinasini eng nodir olmoslar bilan boyitadi, o‘zi esa jahon adiblarining eng ulkan pahlavonlari bilan bajonudil bellashuvga tushadi. Biron marta yiqilgani yoki pand yeb qolgani yo‘q. Ibrohim aka katta tirajda chiqishi aniq bo‘lgan har qanday asarni emas, aksincha, oddiy tarjimon qo‘lga olishga ham jur‘at eta olmaydigan, usluban yo shaklan o‘ta murakkab, demakki, “hazm” etish ham oson bo‘lmaydigan asarlarni o‘giradi – biz bu borada “andak badxatroqmiz”, deb yer chizadigan xalqlardan biri bo‘lib qolmasligimiz g‘amini yeydi. Oqibat, o‘zbekning qo‘liga ulug‘ bir asar yetib boradi; lisoniy-usluban mukammal ekanligiga ko‘ra esa u ona tilimizning muazzam bir obidasiga aylanadi. Shu qadar muhtashamki, hali-beri nuramaydi. Ana shular haqida o‘ylarkanman, bu fidoyi so‘z mardumining salaflari – o‘tgan ulug‘ mutarjimlar ijodi ham yodimga keladi... yo‘q, hech birov millat ma’rifatini saqlab qolish, buning uchun xuda-bexuda asarlarga qo‘l urmaslikni prinsip darajasiga ko‘tarishda I.G‘afurovga teng kela olmas ekan – qahramon adibimizning hayotiy a‘moli, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari shu qadar ulug‘!

Hamma o‘zini bozor iqtisodiyotiga moslashtirayotgan, “taka bo‘lsin – sut bersin”, tarzida moddiy manfaatning oshig‘i bo‘lib borayotgan bir zamonda o‘zbek adabiyotini jahon badiiyatining eng toza buloqlaridan oqayotgan obihayot bilan serob etishdan tolmayotgan Ibrohim akani men... Sizifga – yunon asotirlarining ulug‘ qahramoniga o‘xshatgim keladi. Sira charchamaydi, bir zum bo‘lsin – tinmaydi, har gal ulkan bir xarsangni dumalatib, cho‘qqiga olib chiqadi. Bunday kishini devkor deb ataydilar.

Ibrohim G‘afurov tarjimalari inja yog‘dular bilan tovlanadi, o‘qigan odamning ko‘nglini yorug‘ hislarga to‘ldiradi. Menga, bu adib mahoratining siri nimada, deb savol berishlari mumkin. Siri ko‘p: jahon adabiyotidan keng boxabarlik, munaqqid sifatida har bir asarni zargarning tarozisiday aniq baholay olish, badiiy mahorat, sinchkovlik... Shular bilan birga, bizga Ibrohim akadagi so‘z tuyg‘usining kuchliligi, so‘zni o‘zi uchun xobbi darajasiga ko‘targanligi, ayniqsa qadrli. Adib qachon, qay vaziyatda bo‘lmasin, so‘z qidiradi, so‘z topadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev “Biz Erkin Vohidov bilan kechalari ko‘p masalalar haqida gaplashardik. U kishi, agar

o‘zbek tilining boyligini, chiroyini bilishni xohlasangiz, Ibrohimjonga murojaat qilish kerak, deb aytardi”, – deydi.

Shuning uchun Ibrohim G‘afurovning yozganlarida – u ilmiy maqolami, yo badiiy tarjima – o‘zbek so‘zlari yayrab-yashnaydi, barq uradi.

Bundan yetti-sakkiz yillar avval Jizzax universitetida o‘tkazilgan Respublika tarjima kengashida qatnashar ekanmiz, tanaffusda universitet hovlisida aylanib yurib, Ibrohim aka tuyqusdan menga “shavkatmaob” degan so‘z bor, bilasizmi? – deb so‘rab qoldi. “Ha”, deyishning o‘zi kifoya emas-ku bunday chog‘da! Xayriyatki, yodimga “saodatmaob” degan so‘z kelib qoldi. Shundan so‘ng ona tilimizdagi noyob so‘zlar, ularning tarjima asnosida nechog‘lik asqotishi to‘g‘risida rosa suhbat qilgan edik.

Ibrohim G‘afurov o‘zbek adabiyotida “mansura” degan janrga asos soldi va uni asoslash uchun yayrab-yashnab ijod qildi.

Boborahim Mashrab, Amin Umariy singari ulug‘ ijodkorlarimiz haqida nihoyatda go‘zal, nihoyatda ma‘rifiy hikoyalar bitdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Ibrohim G‘afurov “Milliy tiklanish” partiyasining asoschilaridan bo‘ldi va shu nomdagi gazetaga asos soldi. Talay yillar davomida bitta o‘zi (boshqa xodim olishga mablag‘ yo‘q), og‘ir iqtisodiy sharoitlarga qaramay, uni chop ettirishga muvaffaq bo‘ldi.

Ammo baribir, Ibrohim G‘afurovni bizning avlod dastlab tanqidchi sifatida tanigan. Shundanmikin, men hali ham adibni, avvalo, munaqqid deb qabul qilaman. Buning o‘ziga yarasha yana bir sababi ham bor. Gap shundaki, 1998 yilda Respublika Baynalmilal markazida Chingiz Aytmatovning yetmish yilligi o‘tkazilgan edi. Anjumanni boshqarayotgan Odil Yoqubov Qirg‘izistonning o‘sha paytdagi elchisi Botirali Sidiqovni minbarga taklif etdi-da, keyingi so‘zni Ibroyimjondan eshitamiz, deb e‘lon qildi. Birozdan so‘ng Ibrohim aka Chingiz Aytmatov haqida qirq daqiqalar chamasi... bir ma‘ruza qildi! Ishonsangiz, bu Aytmatov ijodi, uning tub mohiyati haqida ulkan bir kashfiyot edi. Olim Markes, Borxes, Dostoevskiy kabi jahon adabiyotining o‘nga yaqin klassiklari bilan birma-bir qiyoslab, Chingiz og‘a asarlarining ulardan tafovuti va... ustun jihatlarini birma-bir dalillab berdi. Biz-ku, biz, ammo rayosatda o‘tirgan Qirg‘iziston elchisi, professor Botirali Sidiqov ham qirg‘iz adibi ijodining bu qadar teran tahliliga og‘zi lang ochilib quloq solib, O‘zbekistonda Chingiz Aytmatov ijodining bu qadar katta bilimdonlari borligiga imon keltirib, bir o‘zbek olimi ulug‘ adib asarlarini bunchalar e‘zozlayotganiga, fikrlarini zo‘r akademik darajasida puxta dalillayotganiga lol qolib o‘tirar edi.

Ibrohim G‘afurov faqat o‘zbek adabiyoti bo‘yicha emas, jahon so‘z san‘atining ham zargar munaqqidlaridan biri ekaniga o‘shanda iqror bo‘lgan edim. Bu yana qachon deng? Bu, Maskovdagi rus “tanqidchi”larining bir to‘dasi Chingiz Aytmatov

nomini eshitsu, peshonasi tirishib, ulug‘ adibning adabini berib qo‘yish uchun biri olib-biri qo‘yib, unga hujum boshlagan yillarda bo‘lgan voqea – o‘sha g‘alamislarga berilgan keskin javob, ayni paytda, o‘zbek adabiyoti namoyandalarining bu masalaga munosabati ifodasi ham edi.

Adibning “Qur’on” tarjimalari haqidagi birgina maqolasini mutolaa qilishning o‘ziyoq biz naqadar ulkan alloma bilan bir davrda, birga yashab turganimizni anglashga kifoya qiladi, deb ayta olamiz. Ibrohim G‘afurov “Mangu latofat” kitobida shunday deb yozadi: *“Umrda shunday bir palla keladi: donishmandlik pallasini. Aql chirog‘i ravshan tortib, ravshan yonib, ravshan, ishonchli ziyo taratadigan palladir”*.

Umrining ana shu munavvar pallasida Ibrohim G‘afurovning “O‘zbekiston Qahramoni” unvoniga sazovor ko‘rilishi ham bu millat fidoyisining ulug‘ mehnatlariga berilgan munosib baho, haqli e’tirof ramzi bo‘ldi. Bu, ayni paytda, balki barcha o‘zbek mutarjimlari uchun ham bayram. Zero shu kunga qadar biron tarjimon, qanchalik yuksak mahoratga ega bo‘lmasin, qahramonlik tugul, hatto “Xalq shoiri” yo “Xalq yozuvchisi” unvoni bilan ham siylanmagan edi.

Shu kunlarda oqsoqol adibimiz ming oyning yuzini ko‘rdi, endi ikki minginchi sanoqqa mansub dastlabki oylar shu’lasida ijod qilyapti. Biz ham ustozga yangi-yangi ijodiy muvaffaqiyatlar yor bo‘lib, qalbidagi minglagan oylarning yog‘dusi bilan bizni uzoq yillar munavvar qilishini tilaymiz.

MANSURA
(Esse)

Ashurali JO'RAEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti dotsenti

*“Adabiyotga tug‘ma muhabbatimni izhor qilishga qattiq bel bog‘ladim.
Nima muyassar bo‘ldi, nima bo‘lmadi. Ammo hech qachon tulporlarni
taqalaganlarida men chetda turib oyog‘imni ko‘tarmadim”.*

Ibrohim G'AFUROV

Bolaligidan adabiyotga, adabiyot sabab kitobga astoydil – butun borlig‘i va jonu jahoni bilan qat‘iy mehr qo‘ydi u. Kitobning haqiqiy mo‘jiza, bebaho ma‘naviy xazina ekanligini juda erta teran anglab yetgach, undan to‘yib-to‘yib, qoniqib-qoniqib nur ichardi, olam-olam ma‘naviy zavq olib, bilimlar ummoniga g‘arq bo‘lardi. Fikri toshqin daryoday to‘lib-toshib borardi. Asov otday uchqur fikrlar unga tutqich bermay, xayolida charx urardi, qalbida dengiz to‘lqini misol tug‘yon qilardi.

Keyinchalik u: “qaerda uchratmay, kitob ko‘zimga olovday ko‘rinadi”, – deb iqrор bo‘ladi. Va bu ma‘naviy olovdan qalbida, ongida charsillagan cho‘g‘larni o‘t oldira boshladi.

U yorug‘ olamni kitob ko‘zi, kitob aqli bilan ko‘rib, hayotning mazmun-mohiyatini kitob tafakkuri orqali teranidrok eta boshladi. Kitoblar unga muallim, ustoz ya‘ni piru komil bo‘ldi. U kitobga murid tushdi. Bir umrlik fidoyi va sadoqatli shogird bo‘ldi. Eh-he, u o‘qigan kitoblarining na son-sanog‘i, na bosh-oxiri bor. Bu kitoblarni birma-bir terib chiqsangiz Toshkentdan, to ulug‘ avliyo Naqshband hazratlarining ziyoratgohidan o‘tib ketar, ehtimol Hirotgacha yetar...

O‘zining kitob to‘la qayig‘ida Hazrat Alisher Navoiy ummonida bearmon suzdi. Va ulug‘ Navoiyni o‘qib, o‘rganib shunday xulosaga keldi: “Navoiy timsolida dunyo adabiyotida bahodir so‘z bu:

Xalqni boshdan-oyoq zulmdan himoya qilgan so‘z.

Xalqni zulmdan xalos qilgan so‘z.

Xalq uchun adolat o‘lkasini yaratgan so‘z...”

Faqirlar shohi Mashrabning o‘tli izlaridan sariq gullarni izlaydi. Bobur chekkan jabru jafolarni yuragidan o‘tkazadi. “Yassaviy bobo bizni eshitarmikan?” deb nido qiladi. Shohi Naqshband, Xoja Ahror Valiy, So‘fi Ollohyorning avliyolik va donishmandligi sir-asrorlarini bilishga astoydil kirishadi. U Abdulla Qodiriyni “Milliy madaniy ongimizning javhari” desa, Cho‘lponni “Ozodlikning orifi, oshiqi,

odami edi” deb ulug‘laydi. “Har kimning o‘z Oybeknomasi bor”, deb e’tirof etadi. Hamid Olimjon bilan Zulfiyadan “hayotiy qudratli unsiyat meros qoldi, deya ta’kidlashdan charchamay”di. U Abdulla Qahhor haqida yozar ekan: “Haqiqiy adibning sadosi ming yillar qa’ridan ham baralla eshitilaveradi”, deydi. Asqad Muxtor haqida “Asqad akaning fikrsiz qolgan damlari ham bo‘larmikin?” deb o‘ylaydi. Odil Yoqubovga shunday ta’rif beradi: “Odillik barcha to‘g‘riliklarning otasi va falsafasining bulog‘i.” Erkin Vohidov sayyorasini kashf qiladi va uni “ikki asrning donishmand shoiri”, deb baholaydi. Yana bir o‘rinda Ozod Sharafiddinov haqida yozadi: “Ko‘p zamon zarbalarini o‘z yuragidan o‘tkazdi. Uning matonati bizga dars edi va dalda berardi...” Yana bir suhbatida “ne‘mat Aminov adabiyotda o‘z o‘rnini topadi”, deb e’tirof etadi... Eh-he, bunday teran ta’rifu sara baholarning adog‘iga yetib bo‘lmaydi. Adabiyotimizni bu qadar chuqur va puxta o‘rgangan va butun umrini bag‘ishlagan bunday zahmatkash va fidoyi zotni topish qiyin.

XX asr adabiyotimizni to‘yib-to‘yib tashnalik bilan sipqorib kelayotgan va uni hamisha teran tafakkur bilan tahlil qilib, goh suyunib, goh kuyunib maqolalar bitgan, donini donga, somonini somonga, gulini gulga, yantog‘ini yantoqqa erinmay ajratib kelayotgan bunday alloma zotning borligi adabiyotimizning haqiqiy baxtidir.

U G‘arb va dunyo adabiyotiga g‘avvos kabi sho‘ng‘idi. “Dostovskiylar bilan tungi suhbat” qurdi. Fridrix Nitsheni “Tafakkur va xayolot sehgari”, deb ta’riflaydi. “Panchatantra”dan qadim hind hikmatlari mag‘zini chaqadi. Folkner, Markes, Aytmatov, Borxes asarlari va ularning tarjimalari, jahon adabiyotidagi oqimlar, yo‘nalishlarini tinimsiz o‘qib-o‘rganishlar – hammasi uni adabiyotda yangi bir sahifa ochishga va hali biror ijodkor aytmagan so‘zni aytishga mudom undar va tinimsiz chorlar edi. O‘zi ham yuragi to‘lib-toshib bir narsalarni qoraladi. Lekin bu bilan yurak tafti bosilmadi. U adabiyot, adabiyotshunoslikda batamom boshqa narsalar haqida yozishni, hech kim aytmagan so‘zni aytishni, fikr aytishni va bu so‘z chaqmog‘ yanglig‘ yuraklarda iz qoldirishini orzu qilardi...

U chiroyli gulga qo‘nib turgan go‘zal kapalakning xatti-harakatini butun vujudi va mehri bilan kuzatishni juda yoqtirardi. Kapalakning qanotlariga go‘yo harir qalam bilan chizilgan betakror bezaklarga hayajon bilan tikilardi. Kapalakning raqsini kuzatish barobarida uning moviy ko‘zlarida ko‘zlarini ko‘rib, benihoya hayratga tushardi. Bu ko‘zlardagi hayratni qog‘ozga tushirmoqni astoydil niyat qilardi, juda-juda yozgisi kelardi...

Yam-yashil maysalar, gilyohlar ostida sizib chiqayotgan oynaday buloq suvning jimir-jimiridan uning a’zoi badani jimirlab ketardi. Hovuchini to‘ldirib olgan suvda kaftlaridagi chiziqlar to‘lqin urardi. Maysalarning kipriklari bilan o‘yinga tushganini ko‘rib ko‘zlari quvnardi. U ba’zan o‘zi, ba’zan ijodkor do‘stlari bilan turfa sayyohatlarni xush ko‘rardi. Toqqa borsa tog‘dan, toshlardan, bog‘-rog‘larni kezsa daraxtlardan, gulzorlardan, adoqsiz yo‘llardan, bepoyon dashtu cho‘llardan, qizg‘in

davralardan, betakror manzaralardan, qo‘yingki ko‘zi tushgan mavolardan mo‘jiza izlardi. Va hech kim ko‘rmagan, idrok etmagan beqiyos mo‘jizalarni, ilohiy nuqtalarni topardi. U topgan mo‘jizalar ham qog‘ozga to‘kilgisi kelib, shundoq qalamning bo‘g‘zida turardi, musaffo buloqday otilgisi kelardi.

Bir kuni, ha, Ollohning muborak kunlaridan birida uning yuragini toshqin daryoday to‘ldirib kelayotgan ilhom mavjlari, vujudida ulkan xazinaga aylangan to‘liq donday yetilgan tafakkur durdonalari buloqday qaynab yuzaga chiqdi va uzoq kutilgan ilohiy hodisa sodir bo‘ldi. Oltin yombilariday yetilgan fikrlar chaqmoqday chaqnab, oppoq qog‘ozda nurli izlar qoldira boshladi. Qalamdan yurakni chirsillatadigan, fikrni yashnatib yuksaltiradigan, tafakkurni ilohiyat sari yetaklaydigan quyma so‘zlar sharsharaday oqib kelaverdi. Endi yozmaslikning aslo iloji yo‘q edi.

Uzoq yillar yuragini quyoshday yondirib kelgan, uni eng shirin quvonch, betakror hayajon va yuksak ishonch bilan qalbidan vulqonday otilgan o‘sha so‘z nihoyat qog‘ozda tug‘ildi, nurli so‘zlar yorug‘ dunyoni ko‘rdi:

– Mansura!

Keyin u ohista yozdi: “Shivirladim parishon: Agar qachonlardir xudo qiz ato etsa, otini qo‘yaman:

– Mansura!”

So‘ng birinchi jumlani mehr-muhabbat, qalb shijoati bilan yozdi: “Mening romanlarim”.

Adabiyot ham hamisha tabiat misol yangilanib turadi. Yangi janrlar paydo bo‘ladi. Yangi mo‘jiza yaratiladi. Adabiyot mo‘jizadan iborat. Jozibador so‘z, fikr va tafakkurga obdon qorilgan bu romanlar qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketdi...

“Mansuralarda men fikr va eng muhimi, fikrlarning ifodaviy erkinligini sevib qoldim”, deb iqror bo‘ladi u. So‘ng davom etadi: “Mansuralar fikrlardagi portlashlarning vayronalari...”

USTOZ ADIB IBROHIM G‘AFUROV – ALLOMA TARJIMON

Qosimboy MAMUROV,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori,
filologiya fanlari nomzodi*

Buyuk adib va mashhur tarjimon, ustoz Ibrohim G‘afurovning ulug‘ 88 yoshi munosabati bilan o‘zimning hurmat-ehtiromimni ifodalasam. Ushbu ajoyib inson Ibrohim G‘afurov bilan birga ishlash va fikrlashish baxtiga muyassar bo‘lgan bir tarjimon sifatida o‘z fikrlarimni bildirishni o‘zimning shogirdlik burchim deb bilaman. O‘z kuzatishlarimga asoslangan mulohazalarimni qisqacha qilib to‘rt holatga bo‘lib, bildirmoqchiman.

Birinchidan, ustoz tarjimon Ibrohim G‘afurovni 1973-yili talabalik davrimda nashrdan chiqqan Amerika yozuvchisi Ernest Hemingueyning “Alvido, qurol” asarining tarjimasini o‘qish orqali taniganman. Ushbu kitob o‘sha davrda 60 000 nusxada nashr qilingan edi. Narxi atigi 91 tiyin, hatto bir so‘m ham emas edi. Biz talabalar kitob haqida eshitgan zahoti, kitob magaziniga borib, bir zumda tarjima kitobni sotib olgan edik. Bunga mana 50 yildan ham oshib ketibdi. Bu kitob ingliz tilida “Farewell to Arms” deb nomlangan. Uni bizga uyda o‘qish (home reading) uchun vazifa qilib berilgan va biz darsga kelib o‘qituvchi rahbarligida muhokama qilar edik. Shunda kitobni tushunishimizda kitobning tarjimasi “Alvido, qurol” yordamga kelgan edi. Bu ikki kitobni biz qo‘lma-qo‘l qilib o‘qir edik. Shundan keyin u kishining tarjimalarini, jumladan Gi de Mopassanning “Azizim” kitobining tarjimasini, qiziqish bilan bir o‘qishda, qo‘ldan qo‘ymay tugatganim esimda. Demak, bunda kitobning tarjima tili ravon o‘qilar, ayniqsa, so‘zlarni kontekstga mos ravishda tanlash tarjimondan o‘ta katta mas’uliyat talab qilishini his qilgan edim.

Ikkinchidan, ustoz tarjimon Ibrohim G‘afurov, jahon adabiyotining Nobel mukofotiga sazavor bo‘lgan noyob durdona asarlarini rus tili orqali o‘zbek tiliga har tomonlama mukammal tarjima qilganliklari barcha kitobxonlarni hayratga solib kelmoqda. U kishi jahon adabiyotining buyuk adiblari Lev Tolstoy, F. Dostoyevkiy, G. Mopassan, Ernest Heminguey, Gabriel Garsia Markes va Jeyms Joys kabi mashhur adiblarning asarlari bilan o‘zbek kitobxonlarini o‘z go‘zal tarjimalari orqali tanishtirish bilan o‘zlari ham shu buyuk alloma adiblar darajasiga ko‘tarilgan adib va tarjimon hisoblanadi. Ustoz Ibrohim G‘afurovning tarjimalarini o‘qir ekansiz, ustoz tarjimon yuqoridagi keltirilgan adiblarning ichki dunyosi, tafakkur olami, tarjima jarayonida kechgan his-tuyg‘ulari va hatto asarlarining qahramonlari bilan birga voqea va sarguzashtlar, urush va janglar olovini kechib birga yurganini va iztiroblari hamda mashaqqatlarini birga his qilganini anglaysiz. Men bunday holatni

“Alvido, qurol” tarjimasini o‘qiganimda his qilgan bo‘lsam, o‘zim ham “Alpomish” dostoni va “Boburnoma” tarjimasi jarayonida aynan, o‘shanday holatga tushganman.

Uchinchidan, men O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Tarjimonlik fakultetining dotsenti vazifasida 2010–2011-yillari o‘n nafar magistrni sinxron tarjimaga tayyorlash jarayonida ustoz tarjimon Ibrohim G‘afurov domla bilan kafedrada uchrashish, gaplashish va maslahatlarini olish baxtiga muyassar bo‘lganman.

Ayniqsa, kafedrada muhokamaga qo‘yilgan o‘nlab dissertatsiyalarning muhokamasida yonma-yon o‘tirar edik. Ustoz har bir dissertant ma‘ruzasini diqqat bilan tinglar, o‘rinli va zalvorli savollar berar va dissertatsiya mazmuni va mohiyati hamda muddaosini amaliy misollar bilan asoslab, muhokama jarayoniga jon kiritib, bahslar muhitini qizitib yuborar edilar. Bunday qizg‘in muhokamalardan keyin ba‘zan metro bekatigacha birga suhbatlashib borar edik. Suhbatda o‘z tarjimonlik faoliyatlari va ayniqsa, tarjimon o‘zining lug‘atini muntazam shakllantirib, boyitib borish borasidagi tajribalari bilan o‘rtoqlashar edilar. Unda tarjimada so‘z sehriga va jozibasiga, so‘zning nafaqat birlamchi, balki ko‘proq o‘zlashma, konnotativ ma’nolariga e’tibor berish kerakligini uqtirar edilar.

Masalan, bu fikrimni dalillash uchun “Alvido, qurol” tarjimasidan bir misol keltiraman. Inglizcha: “The priest shook his head and went on” gapidan oldin kelgan uchta gapga avval e’tibor beramiz, ya’ni: “The priest looked up. He saw us and smiled. My friend motioned for him to come in. The priest shook his head and went on”. O‘zbekcha tarjimasi: “Ruhoniy boshini ko‘tardi. U bizni ko‘rgach, jilmaydi. Og‘aynim uni barmog‘i bilan imladi. Ruhoniy boshini liqqillatib, o‘tib ketdi”.

Kontekstdan ruhoniy yigitlarni imlab chaqirganiga boshini “liqqillatib” o‘tib ketdi, deb tarjimada berish orqali, ruhoniyning kekxa yoshdaligi, jismoniy, ruhiy va emotsional holati hamda “rad” javobi so‘z bilan ifodalanmagan bo‘lsa-da, aynan shu boshini liqqillatib birikmasidan yashirin ifoda etilganlini anglash mumkin. Qarang, qanday aniq va obrazli, tarjima. Matndagi “liqqillatmoq” fe’li lug‘atlarda keltirilmagan bo‘lsa-da, ammo tarjimon bu yerda ijodiy yondashib “shook his head” iborasining kontekstdagi aniq ma’nosini obrazli qilib “Ruhoniy boshini liqqillatib o‘tib ketdi” gapi bilan o‘ta mohirona tarjima qilish bilan, yozuvchi Ernest Hemingueyning aysberg badiiy san’at prinsipini tarjima matnida ham mohirona aks ettirgan.

To‘rtinchidan, ustoz tarjimon Ibrohim G‘afurov jahon adabiyotidan bir qator nodir badiiy asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish bilan, har qanday nodir badiiy asarni tarjima qilish uchun o‘zbek tilining lug‘at manbasi va imkoniyatlari yetarlidan ham ko‘p ekanligini asoslab, isbotlab bergan adib tarjimon bo‘lib, chet tillardagi nodir asarlarni rus tili orqali o‘zbek tiliga tarjima qilishning mahorat maktabini

yarata olgan alloma tarjimon darajasiga ko'tarilgan adib desak, adolat yuzasidan, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

So'zim oxirida, o'zbek tarjima kitoblar xazinasini hali ko'p yillar o'z nodir tarjimalari bilan boyitishlari uchun ustoz, alloma tarjimon Ibrohim G'afurovga mustahkam sog'liq, uzooq umr berishini mehribon Allohdan so'rab qolaman.

E'tiborlaringiz uchun katta rahmat!

IBROHIM G‘AFUROV – UNIVERSAL DAHO

Xurram RAXIMOV,

*O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi,
Germaniya – O‘zbekiston Ilmiy Jamiyati raisi,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
“Tarjimashunoslik va lug‘atshunoslik markazi” rahbari
professor*

“Men tug‘ilganda qahraton edi. Qiynalib tug‘ildim. Zaminga tushdim oyog‘im bilan..” deb yozadi mansuralarida O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurov. Va nogoh har bir o‘quvchining ko‘nglidan shunday xayol o‘tadi. Ulug‘lar, buyuklar, daholar, millat fidoyilari qanday tug‘ilganlar? Ular ham shu mushfiq zaminga oyog‘i bilan tushganmilar?

Hayratomuz muqoyasa...

O‘zbek milliy filologiyamizning ulkan darg‘asi, bir paytning o‘zida ham zukko tilshunos, ham zalvorli adabiyotshunos, ham ko‘p qirrali tarjimashunos olim, yoshligida Paustovskiy, Grin, Gyote, Babel, Xeminguey, Edgar Po asarlaridan mutaassir bo‘lgan, Oybek asarlari mutolaasini juda sevgan, o‘zbek xalq og‘zaki ijodini qalbiga naqshlagan, adabiy jarayonda mutlaqo yangi yondoshuvlar bilan iste’dodlar kashf etilishiga imkon yaratgan, ulug‘ ustoz Ibrohim G‘afurov to‘g‘risida borayapti. Ibrohim G‘afurov fenomeni haqida so‘z yuritish og‘ir va ayni paytda sharaflidir.

Insoniyat tarixiga nazar solsak, asrlarning zalvorli yukini yelkasida pardek ko‘tarib olib o‘tayotgan, Vaqt qonunlariga bo‘yin egmagan buyuklar silsilasi ko‘z o‘ngimizdan birma-bir o‘tadi. Ularning dahosi milliy chegaralardan o‘tib, dunyoviy zuhur kasb etadi. Insoniyatni tarbiyalaydi, xayolga toldiradi, yangi kashfiyotlar sari yetaklaydi. Ibrohim G‘afurov ana shu oltin silsiladagi yana bir oltin halqadir. Adabiyot fidoyisi, millat jonkuyari, hayoni xaloskor kuch sifatida ko‘rgan tafakkur soxibidir. “Navoiy bizning ogohligimizdir” deb bong uradi ustoz. Bu ovoz tog‘lar ko‘ksidan sizib chiqayotgan shaffof buloqlar kabi millat qalbidagi tashnalikni qondirishga chog‘lanadi. Ruhiyatni yuksaltiradi. Bir so‘z bilan aytganda, Ibrohim G‘afurov shaxsi haqida bitta so‘z yoki faoliyat qirradi bilan cheklanish – imkonsiz.

Men bugun o‘zbek adabiy jamoatchiligi TARJIMA QIROLI deb e’tirof etayotgan va e’zozlayotgan zahmatkash inson haqidagi fikr va takliflarimni muxtasar holda quyidagi tezislarda ifoda etmoqchiman:

Birinchidan, darhaqiqat ul zot hozirgi o‘zbek tarjimachiligimizning shaksiz qirolidir;

Ikkinchidan, tarjimachilik – Ibrohim G‘afurovning asosiy faoliyati emas. U kishi ayni bir paytda g‘oyat iste’dodli BADIY SO‘Z USTASI hamdir. Ustozning qalamida o‘zbek adabiyotida yangi janr – mansuralar – “Mening romanlarim” deb ataydi muallif ularni – mustahkam shakllandi, o‘quvchi qalbini hayratga soldi;

Uchinchidan, ayni paytda ijodkor laboratoriyasidagi ko‘p qirrali jarayonlarni nozik anglashi va teran tahlili bilan ilmiy tadqiqotlar uchun ham badiiy manba va imkoniyat yaratgan betakror munaqqid va zabardast adabiyotshunos olim hamdir;

To‘rtinchidan, Ibrohim G‘afurov hayotining boshqa bir muhim sohasi – noshirlik jabhasida amalga oshdi. Ustoz “*O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*” gazetasining bosh muharrir muovini va “*Milliy tiklanish*” gazetasining bosh muharriri sifatida mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotida yuz berayotgan dolzarb voqea-hodisalarni yoritish orqali o‘zbek xalqining yangicha siyosiy-ijtimoiy va ma’naviy-madaniy tafakkurini shakllantirishdagi xizmatlari beqiyos;

Beshinchidan, aynan shu soha bilan chambarchas bog‘liq holda ustozimiz mamlakat parlamenti – Oliy Majlis deputati sifatida faol mehnat qildilar;

Oltinchidan, o‘zining “*Hayo – xaloskor*”, “*Mehr quyoshi*”, “*Oltin qoziq*”, “*Parivashlar majlisi*” kabi badiiy-falsafiy asarlaridan iborat Ibrohim G‘afurov XAMSAida milliy va umuminsoniy obraz va qadriyatlarning zargarona tasvirlari bilan donishmand faylasuf olim ekanligini ham yorqin namoyon qildilar.

Yuqoridagi holatlarni chuqur hurmat va e’tirof etgan holda IBROHIM G‘AFUROV fenomenining dunyoviy e’tirofi yo‘lida quyidagi ishlarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb bilaman:

1. Ustoz Ibrohim G‘afurovning “*Hayo – xaloskor*”, “*Mehr quyoshi*”, “*Oltin qoziq*”, “*Parivashlar majlisi*” kabi asarlarini chet tillar (rus, nemis, ingliz, fransuz, ispan, italyan, arab, fors, xitoy, yapon, koreys)ga tarjimasini amalga oshirish (olmon tiliga tarjimasini men shogirdlrim bilan o‘z zimmamga olaman);

2. Chet tillar o‘qitiladigan OLIY O‘QUV YuRTlari qoshida I.G‘afurov rahbarligida maxsus tarjimonlar guruhlarini tashkil qilish va unda tarjima san’ati bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar olib borish;

3. Oliy o‘quv yurtlaridagi tarjimashunoslik va chet tillar fakultetlarida tarjima fanlariga qiziqtirish uchun Ibrohim G‘afurov nomida stipendiya ta’sis etish;

4. Tajribali va yosh tarjimonlarni rag‘batlantirish maqsadida (*Xalq tarjimoni*, *Xizmat ko‘rsatgan tarjimon*, *Malakali tarjimon*, *Mohir tarjimon* kabi) maxsus davlat unvon va mukofotlar ta’sis etishni respublika rahbariyatidan so‘rash.

IBROHIM G'AFUROVNI YODGA OLSAM...

Ziyodaxon TESHABOYEVA,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori,
filologiya fanlari doktori*

2005–2006 yillar PhD mavzuim OAK axborotnomasida bosilib chiqavermagach, yuragim yig'ladiki, u shunday yig'ladiki, undan she'rlar to'kila boshladi, umrida she'r yozmagan inson g'alati holatga tushib, miyamga allaqanday so'zlar quyilib kela boshladi. Avvaliga onamga, keyin otamga, undan keyin og'illarimga va nihoyat Bobur hazratlariga she'r yozdim. Yozilgan she'rlarni ustozim Omon Mo'minovga ko'rsatib, "Domla menda shunday g'alati qobiliyat paydo bo'lib qolsa-ya..." deb she'rlarimni ustozga berdim. Omon Mo'minovich o'qib chiqar ekan, buni Ibrohim akaga ko'rsatamiz, dedilar.

Buyuk tarjimon sifatida sirtdan bilganim, butun yoshligim radio insenirovka eshitish bilan maroqli o'tgani, radio orqali eshittirilgan insenirovkalar so'ngida diktator qizning "...tarjimon – Ibrohim G'afurov" deb viqor bilan eshittirishni yakunlashi sira yodimdan ketmaydi.

Tolstoy, Mopassan, Dostoyevskiy, Jeyms Joys, Xeminguey, Nitsshe, Gabriel Garsia Markes asarlari tarjimoni sifatida gavdalangan buyuk tarjimon endi yuzmayuz kelib, ustoz bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida birgalikda ishladik.

Jahon tillari universitetining Tarjimonlik fakultetida ishlab yurgan kezlarim, kafedraga kirganimda, Omon Mo'minov, Ibrohim G'afurov va bir necha kafedra ustozlari o'tirishgan edi. Domlalar talabalar bilan muloqot qilib, biriga vazifa berar, biridan kurs ishi qabul qilar edilar. Ilmiy ish yuzasidan suhbatlashayotgan Ibrohim G'afurov doktorantdan so'rab qoldi:

"Sarvi degani nima o'zi? Qani ayting-chi? "Sarvi gulning soyasinda soldi" deb kim aytgan? Qaysi tarixiy shax haqida gap boradi?"

Doktorant ustozning savoliga javob berolmay, biroz qiynalib qoldi. Shunda, "Sarvi bu archa daraxtining bir turi. Ninabargli archa. Ozbekchasi *sarvi*, ruschasi *cocha*, inglizchasi *cypress*. Bosh harflari "s" bilan boshlanib, alliteratsiya hosil qiladi. Sarvi Husayn Boyqaroning ayoli Bekasulton Begimga nisbatan Alisher Navoiy tomonidan qo'llangan. Ya'ni shikordagi Husayn Boyqaroga Alisher Navoiy "Sarvi gulning soyasinda so'ldi gul, netmoq kerak?" deb do'stini shikordan topadi. Husayn Boyqaro gap nimadaligini fahmlab, "Sarvidin tobut yasab, guldan kafan bichmoq kerak", deya malika Bekasulton Begimning so'nggi manzilga kuzatish mazmunini bildiradi. Yana Bekasulton Begim haqida Zahiriddin Bobur ham

“Boburnoma”sida ta’kidlab o’tgan”, deb shoshilib-shoshilib javob berib yuboribman.

Ibrohim Gafurov boshini sarak sarak qilib, “Nega aytib berasiz” degandek, norozi ohangda qaradilar. Shunda Omon Mo‘minovich domlaga meni tanishtirib qo‘yganlari yodimda.

Ustozga she’rlarni ham ko‘rsatdim, maslahatlarini ham oldim. Mavzu haqida ham bir necha ko‘rsatmalar berdilar. Ustozning maslahatlari va ko‘p izlanishlardan so‘ng mavzu ham axborotnomada bosilib chiqdi.

Bobur haqidagi barcha yozilgan asarlarni ko‘rdim, lekin “Jahongashta Boburnoma” qo‘limga tushmadi, deganlari ham yodimda. O‘sha zamon ustozga ko‘rsatganim sira esimdan chiqmaydi.

Jahon tillarida o‘tkaziladigan seminarlarda Ibrohim G‘afurov juda qiziqarli ma’ruza qilardilar. Ustoz shunday noyob so‘zlarni o‘z nutqida ishlatar edilarki, ba’zilarining ma’nosini biz tushunmay qolardik. Bu holat biz uchun o‘ta ilmiy yoki o‘ta badiiy va ma’nosi ufurgan edi. Mana shunday ma’ruzalardan birida Akramjon Qo‘ldoshov domlamiz:

– Ibrohimjon aka, siz bunday zalvorli maqolalaringizni kimlar uchun yozasiz? Sizni tushunadiganlar tor doiradagi insonlar-ku? – deya savol berganlari yodimdan chiqmaydi.

Juda inoq dugonalar Zulfiya To‘xtayevna bilan Elmira Denisovna ustozlarim bir-birlari bilan qizg‘in suhbatlashib, Elmira Denisovna savol berdilar:

– Ibrohim aka, biz badiiy adabiyotning o‘ziga xos xususiyatlarini juda ko‘p gapiramiz, milliy-madaniy jihatlarini faqat millatga xos ekanligini ta’kidlaymiz. Eng yaxshi tarjimaga erishish uchun harakat qilsak-da, baribir millatga xos tushunchalar yaxshi yoritilmaydi. Bu kabi xos so‘zlar, realiyalarni ochib bo‘lmaydi. Ular baribir millatga xosligicha qoladi. Savolim shundan iboratki, bir vaqtlar kelib barcha insonlar bir tilda gaplashadigan davr keladi. Shunda tilning tarjimada yoritiladigan muammolari qolmaydi, degan faraz yotadi. Shuni qanday izohlaysiz? – dedilar.

Rahmatli Elmira Denisovna savolni uzundan uzun tuzib berardilar. Bu safar ham shunday qildilar. Shunda zakiy Ibrohim G‘afurov hazil bilan:

– Opa, savolingizga o‘zingiz javob berib qo‘ya qoldingiz-ku! – degandilar va barcha ko‘tarinki ruhda kulib yuborishgani sira sira esimdan chiqmaydi.

Uch yil davomida “Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi”ning inglizcha tarjimasi ustida ish olib borganimda Ibrohim G‘afurovni doim eslayman. “Boburnoma”ning tarjimasini tahlil qilganda ustozni eslayman. Yana shuni eslaymanki... Keling, uni hikoya qilib bera qolay.

Ustozim Omon Mo‘minov tarjima masalalari yuzasidan Ibrohim G‘afurov uchun universitetda seminar tashkillashtirdi. Biz seminar uchun xonalarni, ustozlar va talabalarni tayyorladik. Ertaga seminar bo‘lishi kerak edi. Ustozim domlaga

yuzlanib, “Ibrohimjon aka, ertaga sizni uyingizdan mashinada olib kelamiz va gullar bilan yana mashinada olib borib qo‘yamiz. Siz universitetga kelmay, uyingizda tura turing. Mashinada olib kelishadi”, dedilar. Shunda Ibrohim G‘afurov:

– Omon Mo‘minovich, men o‘zim uydan yayov, avtobusda o‘z oyoqlarim bilan yuriib kelaman. Menga tashvish qilish yaramaydi. Ovora bo‘lmanglar. Qur’oni karimda ham yozib qo‘yilibdi. Birovga yuk bo‘lish juda og‘ir gunoh. Uka akaga, bola otaga yoki do‘stga yuk bo‘lish mumkin emas. Bu dunyoda bir kishiga yuk ko‘tarish faqat Olloh tomonidan buyurilgan. U ham bo‘lsa ayol kishiga. Ayol bolasini to‘qqiz oy qornida ko‘tarib yuradi. Undan keyin unga ham mumkin emas. Shuning uchun kishi boshqaga yuk bolmasligi lozim. Men o‘zim yurib kelaman, – deya hammamizni lol qoldirgani hali haligacha yodimda. Ustozning ushbu gaplariga har yili ma’ruzalarimda iqtibos keltiraman. Talabalar esa jon-u dili bilan quloq solishini butun vujudim bilan his etaman.

Ustoz mening PhD dissertatsiyamga taqriz berganlar, men uni ko‘z qorachig‘idek saqlab qo‘yganman. Bu men uchun dunyoda eng yaxshi yozilgan taqrizdir. Himoya jarayonida so‘zga chiqib, qo‘llab-quvvatlaganlari hali hamon yodimda.

Buyuk tarjimon Ibrohim G‘afurov haqida ushbu xotiralarimni bitar ekanman, uning “Go‘zallikning olmos qirralari”, “Joziba”, “Yonar so‘z”, “Yam-yashil daraxt”, “Hayo – xaloskor”, “Mangu latofat”, “Oltin qoziq” kabi o‘quvchilar qalbida chuqur iz qoldirgani ustozimning risolalari o‘zbek adabiyotshunosligi va tarjimashunosligi uchun hamisha ibrat bo‘lishini yodda tutaman.

Sizga sog‘lik-salomatlik tilayman. Ulug‘ 88 yoshingiz muborak bo‘lsin, aziz ustozim!

IBROHIM G‘AFUROV BADIY PUBLITSISTIKASI HAQIDA

Marhabo QO‘CHQOROVA,

filologiya fanlari doktorib

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori

instituti yetakchi ilmiy xodimi

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiyotshunos va publitsist adib Ibrohim G‘afurovning badiiy-publitsistik ijodiga obzor berildi.

Kalit so‘zlar: badiiy publitsistika, mansura, romantik uslub, Ibrohim G‘afurov, N.Rahimjonov.

Adabiyotshunos N.Rahimjonov O‘zbekiston qahramoni, adabiyotshunos, tarjimon va publitsist I.G‘afurovning 80-yilligi munosabati bilan “Badiiy so‘z estetikasi” kitobini yaratdi. Olim Ibrohim G‘afurovning badialari, mansuralarini chuqur tadqiq etib, uning o‘zbek badiiy-publitsistikasi taraqqiyotida o‘rni va ahamiyatini asoslab bergan. Jumladan, olim “So‘nggi yo‘llarda atoqli so‘z san’atkorlarining adabiy-estetik qarashlarini o‘zida mujassamlashtirgan badialari “Yozuvchi va davr”, “Adabiy o‘ylar” turkumlarida ko‘plab nashr etildi. Ularda adiblarimizning shaxsiyati, ijodiy tabiati, badiiy adabiyot va adabiy mehnat haqidagi, adabiy jarayon hamda milliy madaniyatimiz xazinasini boyitgan barkamol asarlarning ijodiy g‘oya sifatidagi tug‘ilishi, yozilish jarayoni, ijtimoiy-estetik ta’sir kuchi bilan bog‘liq g‘oyat qimmatli fikr-o‘ylari keng o‘rin oldi”¹. Publitsist adibning “Hayo - xaloskorlik” to‘plamiga mansuralar, badialar, adabiy-tanqidiy esselar, publitsistik asarlari jamlangan. Xususan, olimning Abdulla Qodiriy ijodi haqida yozilgan mo‘jaz badialari “Ra’no va Xayyom”, “Ra’noning kafshi”, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Bobur kabi mumtoz shoirlarimiz hayoti va ijodi, badiiyati haqidagi “Alisher, adolat va shahzodalar”, “Shoir va amir”, “Munshaot – maktublar demak”, “Koinot, ko‘hna ravoq va Navoiy”, “Bilsak va anglasak”, “Navoiyning xayol kemasi”, “Quyosh boshpanasi va Bobur”, “Faqirlarning shohi”, “Yassaviy bobo bizni eshitarmikan?” kabi hajman kichik esse va badilarida liro-romantik uslub bilan o‘ziga xos tanqidiy-publitsistik tahlil vobasta bo‘lgan. Bu mitti esse va badialarda olimning ulkan bilimi, ming yillik o‘zbek milliy adabiyoti va uning taraqqiyotiga bemisl hissa qo‘shgan Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy haqidagi g‘oyatda ilmiy asosli fikrlari publitsistik pafos bilan ifodalangan. Masalan, publitsist yozadi: “Navoiy donishmandligining asosida adolat tushunchasi va adolat tuyg‘usi yotadi. Ongning

¹ Раҳимжонов Н. Бадий сўз эстетикаси. – Тошкент: - Б. 142.

mavjudligi bu adolatning mavjudligi. Adolatsiz ong – ong emas. Insoniyat davomiyligini ta'minlaydigan birdan-bir narsa ham – adolat. Navoiy tafakkur dunyosining bosh mezoni ham xuddi shu – adolat. Xondamir yaralangan davr jarohatlariga Navoiy adolat sharbatini malham qilib qo'ydi va unga shifo baxsh etdi deganda naqadar haq va Navoiyning tarixdagi o'rnini to'g'ri ta'riflagan”².

Ibrohim G'afurov badiiy-publitsistikaning ayniqsa, mansura va badia janrlarida nihoyatda barakali ijod qildi. Jumladan, publitsistning “Hayo - xaloskorlik” to'plamiga kirgan “Yaratgan ko'p narsalarni ato etgan”, “Yaproq to'kilguncha”, “Sevgi o'tkinchimi?”, “Qanday aytaman?”, “Jafo”, “Oq burgutlar”, “Tosh supa”, “Muhabbatsiz odam qanday yashaydi?”, “Brodskiyga o'xshatma”, “Murid” kabi mansuralarda muallifning avtobiografiyasiga doir kechinmalar, ta'sirchan hikoyalar, urush davri farzandi boshidan o'tkazgan turmush mashaqqatlari, teran ilmiy tahlil va badiiy obrazli til, bolalik xotiralar (onasi, o'n sakkiz yoshida bevaqt vafot etgan akasi haqidagi voqealar) nihoyatda shirali uslubda yozilgan. Publitsistning “Tarjimai hol chizgisi” ham individual tarzda bitilgan. Mana muallif unda shunday yozadi: “Adabiy-tanqidiy maqolalar yozaman. Jahon adabiyotidan badiiy tarjimalar qilaman. Dostoevskiy, Mopassan, Xeminguey, Aytmatov, Rasputinning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilganman. Esseistikani juda sevaman. Adabiy tanqidni esse janriga yaqinlashtirish, ikki janrni omuxta qilish uchun ko'p yillardan beri urinaman. Keyingi o'n-o'n besh yillar davomida ko'proq adabiy-madaniy-ma'naviy mavzularda esselar yozdim. Borxes, Monten va Sen-Syonagon hamda hind, xitoy, yapon faylasuflarining asarlari ta'sirida nutq oqimiga asoslangan “mansuralar” degan janr yaratdim. Mansuralar erkin she'r janriga juda yaqin, lekin erkin she'r emas. U meni o'rtagan o'y, xayol, orzu va erishilmagan, yo'qotilgan narsalar to'g'risida fikr oqimlari”³. Muallifning o'z e'tiroflaridan so'ng, uning “mansura” janriga nega bu qadar kuch berganini boshqacha izohlab bo'lmaydi. Demak, publitsist I.G'afurov o'zi tarjimai holida yozganidek, olim tanqidiy publitsistika janrlari tabiatini erkin, mulohazakorlik, falsafiylik kabi turli tuman fikrlar bilan boyitib, esselashish jarayonini tezlashtirib berdi. Qolaversa, jahon adabiyotidan qilingan badiiy tarjimalar Ibrohim G'afurovning tanqidchilik faoliyatiga tubdan yangi badiiy uslub olib kirishiga asos bo'ldi. Vaholanki, tarjimon sifatida fransuz essenavisi, ilk bor “Esse” janriga asos solgan Mishel Montenning “Tajribalar” asaridan ham tarjima qildi. Jahon adabiyotini chuqur mutoala qilish va ustiga ustak badiiy va publitsistika namunalarini o'zbekchalashtirish jarayoni ham muallifga juda katta tajriba almashinuvi, ijodiy turtki va badiiy-publitsistik, tanqidiy tadqiqotchilik tamoyillarini yangilashga ulkan adabiy maktab bo'ldi.

² Гафуров И. Алишер, адолат ва шахзодалар / Хаё- халоскорлик. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 243.

³ Гафуров И. Таржимаи ҳол чизгиси / Хаё- халоскорлик. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 5.

I.G'afurov "mansuralar"ini "mening romanlarim" deb ataydi. Darhaqiqat, bu hajman uncha katta bo'lmagan publitsistik pafos va liro-romantik uslubda yozilgan nimarsalar "erkin she'r" ham emas. Yoki sof nasr namunasi ham emas. Nasriy she'rga o'xshaydi. Misol: "Tosh supa" mansurasidan kichik parcha:

Tosh supada o'tirib qochdi xayolim.

Tog' soyi kelur yalab toshlarni, silab-siypalab, o'pib,
toshib, qaldirab

Hech kim o'zin toshdan toshga urmagan suvchayin,

Hech kim o'zin tosh ustida to'lg'omas suvchayin,

Hech kim bosmas dunyo yo'llarini suvchayin,

Hech kim sobir emas suvchayin,

Qohir emas ochunda hech kim suvchayin,

Suv so'ylatur toshlarni...

Kuylatur og'ochlarni.

Tosh supada men yolg'iz

Olib qochar xayolimni telba suv.

Bu tosh supa Hojam pirim supasi.

Bu daryo ham Hojam Pirim daryosi...

Bu soy Hojam Pirim tog'ining ortidan galdirab
keladi.

Galdirab galdir⁴.

Nasr desangiz, nasr emas, she'r desangiz, to'liq she'r emas. Ehtimol, nasrdagi she'r, deyish to'g'riroqdir. "Tosh supa"dan olingan parchada kuzatilayotgandek, unda avvvvalo, she'riy janrdagi kabi mansura janrida qat'iy vazn, qofiya mavjud emas. Ammo she'r taxlit yozilgan. Mansurada muallifning nuqtai-nazari yuqori badiiy-emotsionallik bilan ifodalangan. Shuningdek, ramziylik va hikmatomuz falsafa yetakchilik qiladi. Ibrohim G'afurov mansuralarida ramz, metafora tili bilan falsafiy fikrni ifodalash tamoyili ustunlik qiladi.

Adabiyotshunos N.Rahimjonov "Badiiy so'z estetikasi" kitobining "Mansuraning janr imkoniyatlari" nomli faslida shunday yozadi: "Mansura, sochma, she'riy nasr singari shakllardagi izlanishlar Ibrohim G'afurovning uzoq yillik zahmatli mehnati samarasi o'laroq janr sifatida shakllandi. Keyingi yillar o'zbek lirikasi janrlari tizimidan mansura nomi bilan qat'iy joy oldi; mustaqim o'z o'rnini mustahkam egalladi"⁵. "Nasriy she'r", "nasrdagi kichik poemalar", "Prozaik she'r", "Nasrdagi nazm", "Nasrdagi lirika" kabi terminlar bilan atab kelingan mazkur janr I.Turgeneev, Sh.Bodler, E.Po ijodida uchrashini adabiyotshunos N.Rahimjonov

⁴ Гафуров И. Тош супа / Хаё- халоскорлик. – Тошкент: Шарк, 2006. – Б. 19.

⁵ Раҳимжонов Н. Мансуранинг жанр имкониятлари / Бадий сўз эстетикаси. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 211.

ilmiy-nazariy adabiyotlardagi ta'riflarni o'rganib, I.G'afurov mansuralarining nazariy tabiati haqida shunday xulosa chiqaradi: "O'zbek adabiyotshunosligida sochma, mansur she'r, nasrdagi nazm, rivoyat, erkin she'r madaniyati xususida birinchilardan bo'lib atroflicha mulohaza-muhokama yuritgan Ibrohim G'afurov bo'ladi.

...Mansuralarni yaratish – amaliy faoliyatga kirishishdan oldin uning nazariy asoslarini ishlab chiqqan, estetik tabiatini belgilab bergan. She'riy shakllarda hayot, ruhoniyyat iqlimlarini, qalb haqiqatlarini tasvirlash madaniyati tariqasida yondoshadi. Rivoyatlar paydo bo'lgandan beri u turlana-turlana o'zidan afsona, ertak, hikoyat, latifa singari farzandlarni yaratdi, deydi"⁶. Darhaqiqat, I.G'afurov mansuralariga e'tibor berilsa, publitsist adibning o'nlab mansuralarida mashhur shaxslar, atoqli adabiyot namoyondalari haqidagi xalq to'qigan rivoyat va afsonalarning obrazli, ta'sirchan, badiiy-emotsional til bilan yozilgan barkamol namunalarni uchratish mumkin. Jumladan, publitsistning Mashrab haqidagi "Qatlgohda o'ynagan bola", "Boborahimning sariq gullari" mansuralarida qadim rivoyat va afsonalarning g'afurovona yangi badiiy talqinini o'qish mumkin.

"Cho'loq qarg'a" mansurasida esa publitsistning tarjimai holi, ota-onasi, bevaqt vafot etgan akasi haqidagi xotiralari, avtobiografik detallar yetakchilik qiladi. Mansura hikoya "men" tilidan hikoya qilingan. Yosh Ibrohim akasining bevaqt o'limi voqeasini yozar ekan, shu voqeaga monand cho'loq qarg'a, daraxtda osilib o'lgan qaldirg'och hamda yong'oq daraxtiga osilib o'lgan yigit voqeasini hikoya qiladi. Xullas, hayotiy voqealarga qushlar va odamlar hayotidan assotsiativ ta'sirchan voqealarni ketma-ketlikda hikoya etib, yana akasi haqidagi xotiralarga qaytadi. Demak, kuzatilayotganidek, publitsist adib I.G'afurovning "Cho'loq turna" va boshqa bir qator mansuralarida avtobiografik detallar va ko'rilganlik, kuzatilganlik, hissiy kechinmali voqealardan sizib chiqarilgan assotsiativ badiiy tafakkur yetakchilik qilsa, Mashrab, Navoiy haqidagi mansura va badialarida xalq rivoyat va afsonalarining, shuningdek, tarixiy hujjatli voqealarning obrazli badiiy talqini mahorat bilan suvratlantirilgan.

Shuningdek, "Men tug'ilganda...", "Ruhning hayoti", "Yutmagan odamlar" kabi mansuralarida ham adibning tarjimai holi, o'z davri jarohatlari, gumanistik g'oyalari obrazli nasriy she'riy uslubda yozilgan:

Men tug'ilganda qahraton edi.

Qiynalib tug'ildim. Zaminga tushdim oyog'im bilan.

Otam yozib qo'ygan siyoh qalamda eski bir suvratning

orqasiga:

jumodil avvalning beshinchi kuni. Dekabrning yigirma yettisi.

⁶ Раҳимжонов Н. Мансуранинг жанр имкониятлари / Бадий сўз эстетикаси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 215.

O'ttiz yettinchi yil...
To'qsonga chiqqan enaga kampir: tishlari tushgan,
Dahanlari urishgan
Meni o'lgan deb,
o'rab,
chirmab eski-tuskiga
sovuq uyning bir chekkasiga eltib qo'ydi⁷.

Ibrohim G'afurov nihoyatda og'ir bir zamonda, ya'ni o'tgan asrning 1937 yilida qattiq sovuq bir kunda, kambag'al va qashshoq bir xonadonda tug'ilganini nasriy she'r tili bilan ana shunday badiiy ifodalaydi. Shuningdek, "Yutmagan odamlar" mansurasida publitsist hayotiy voqealardan, judoliklardan falsafiy umuminsoniy xulosalar chiqaradi:

Uch kun ezib tinmay yomg'ir yog'di. Olamni nam va zax
bosdi.
Yo'lkalarga qalin yaproqlar tushdi.
Ho'l va ma'yus shatirlar ular
Kechga tomon yomg'ir tindi.
Bulutlar to'dalanib quvisharlar
sal ochilib havo tog'lar ko'rindi.
Qalin qor qoplagansarbaland cho'qqilarni
78 so'm bir quti kofe.
Kecha O'lmas Umarbekov qazo qildi.
Odam bo'lish qiyin degan hikmati qoldi.
Sarvar Azimovga chiqdi ta'ziya.
Abgor qora bulutlar quyunlanib yugurar tog' cho'qqilariga
ulug' chinorlarni silkatadi shamollar
esimda:
uzatilgan – olinmagan qo'l.
shamollar yugurik
o'tkinchi
cho'qqilar baland va
boqiy⁸.

Publitsist mansurada bu dunyoning omonatligi va o'tkinchiligi haqida, abadiyatga daxldor tog'lar va cho'qqilar haqida odamzod hayotini parallel qo'yish orqali obrazli ta'sirchanlikka erishadi. "Nur yog'ilar" mansurasida odamlar ruhiyatida sodir bo'lgan milliy uyg'onish, o'z milliy qahramonlari, milliy estetik ideallariga qaytishi obrazli, hayotiy, hissiy uslubda bayon etilgan. Mansurada Lenin

⁷ Гафуров И. Мансура – 2 / Хаё- халоскорлик. – Тошкент: Шарк, 2006. – Б. 129.

⁸ Ўша манба. – Б. 132.

maqbarasi bilan Imom Buxoriy maqbarasi, Xartang haqidagi fikr-mulohazalar qarshilantirilib, milliy ongning uygʻonishi haqida obrazli hayotiy kayfiyatlar badiiy talqin etilgan. “Nedan oʻsar Insonning koʻngli” mansurasida esa muallifning “vatanparvarlik”, “millatparvarlik” ruhi bor boʻyi basti bilan koʻrinish beradi.

Kitobsevar, adabiyotparvar adibning Dostoevskiy (“Dostoevskiy bilan tungi suhbat”), Abdulla Qodiriy (“Raʼno va Xayyom”, “Raʼnoning kafshi”), Fridrix Nitshe (“Fridrix Nitshe – tafakkur va xayolot sehgari”, “Nitshe shiddati”), Gabriel Garsia Markes (“Kolumbiyalik koshif”) haqidagi esse va badialarida mashhur adiblar, faysuflar hayoti va ijodi ham ilmiy, ham publitsistik uslubda tahlil etiladi.

Xulosa shuki, adabiyotshunos va publitsist Ibrohim Gʻafurovning rang-barang badiiy publitsistikasini tadqiq etish lozim. Chunki, publitsist yaratgan badiiy-publitsistika namunalari ham janrlar, ham mavzu jihatdan nihoyatda serqirra va sermazmundir.

IBROHIM G'AFUROV – SO'Z QAHRAMONI

Ma'rifat ALIMQULOVA,

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ibrohim G'afurovning ijodiy merosi va uning o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissasi keng yoritilgan. Muallif ijodkorning tarjimonlik mahoratini, uning so'zga bo'lgan yuksak hurmatini va badiiy asarlarni ona tilimizga betakror tarzda moslashtirishdagi o'ziga xos yondashuvlarini ta'kidlaydi. Shuningdek, maqola davomida adibning badiiy ijod, mansura janrini kashf etish va xalq ma'naviyati uchun amalga oshirgan xizmatlari o'rganilib, uning asarlari o'quvchilarning nafaqat bilim, balki ma'naviy rivojiga ham ta'sir ko'rsatgani qayd etiladi. Muallifning ijodiy faoliyati hozirgi va kelajak avlodlar uchun o'rnatilgan sifatida ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Ibrohim G'afurov, tarjimonlik mahorati, badiiy ijod, adabiyotshunoslik, mansura janri, kitobxon tafakkuri, o'zbekona tarjima.

Аннотация. В статье подробно освещается творческое наследие Иброхима Гафурова и его вклад в узбекскую литературу. Автор подчеркивает исключительные переводческие способности художника, его глубокое уважение, к слову, и его уникальный подход к органичной адаптации литературных произведений на узбекский язык. Кроме того, в статье подробно рассматриваются творческие поиски писателя, его открытие жанра «мансура» и его заслуги в духовном обогащении народа, отмечается, как его произведения повлияли на читателей не только в интеллектуальном, но и в духовном плане. Творческая деятельность автора представлена как образец для нынешних и будущих поколений.

Ключевые слова: Иброхим Гафуров, мастерство перевода, творческое письмо, литературоведение, жанр мансуры, интеллект читателя, перевод на узбекский манер.

Annotation This article extensively highlights the creative legacy of Ibrohim Gafurov and his contributions to Uzbek literature. The author emphasizes the artist's exceptional translation skills, his profound respect for words, and his unique approach to seamlessly adapting literary works into the Uzbek language. Furthermore, the article delves into the writer's creative pursuits, his discovery of the "mansura" genre, and his services to the spiritual enrichment of the people, noting how his works have influenced readers not only intellectually but also spiritually. The author's creative activity is presented as a model for current and future generations.

Key words: Ibrohim Gafurov, translation mastery, creative writing, literary studies, mansura genre, reader's intellect, Uzbek-style translation.

Men Ibrohim G'afurov degan ismni ilk marotaba maktab davrimda adabiyotga, so'zga, fikrga oshno bo'lgan kezlarimdayoq taniganman. Esimda, yuqori sinfda o'qiyotganimda eski maktab kutubxonamizdan sevimli adibim Chingiz Aytmatovning qulab borayotgan, zavolga yuz tutayotgan tabiat haqida asari: "Qulayotgan tog'lar" ni o'qib beixtiyor asar so'ngida ko'zimga yosh kelgandi. Bunga avvalo, yozuvchining betakror mahorati sabab bo'lgan bo'lsa, asarning ona tilimdek qalbinga silliq va ravon kirib borishida albatta, tarjimonning ham badiiy didi hamda mahorati darkor edi. Shubhasizki, tarjimon mislsiz so'z boyligiga ega bo'lmog'i va so'z degan gavharni kitobxon qalbiga singdirmog'i kerakdir. Jumladan, tarjimon mahorati va tarjimonlik san'atiga adibimiz, mohir tarjimon Ibrohim G'afurovning o'zi shunday go'zal tashbehlar bilan ta'rif beradi: "Tarjimon so'zni yuragiga ekadi. So'z uning yuragining harorati va pokiza muhitida unadi, kurtak yozad. Mehr bilan ishlov berilgan yerga tashlangan urug' xuddi shunday emasmi?" Darhaqiqat, adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov e'tirof etganlaridek: "Ibrohim G'afurov tarjimalarining asosiy xususiyati shuki, ularni o'qiganda, xuddi o'z ona tilingda yaratilgan asarni mutolaa qilganday bo'lasiz, so'zlar, jumlar, shuncha o'zbekona, shuncha yurakka yaqinki, asar muallifi rus, fransuz, yoki amerikalik ekanini unutasiz". Shundan so'ng qalbingda va ongimda Jahon adabiyoti namoyondalarining durdonalarini o'qishga bo'lgan muhabbat uyg'ondi. Aynan Ibrohim G'afurov qalami ostida o'zbek tilida yuz ochgan asarlar: "Alvido qurol", "Chol va dengiz", "Azizim", "Jinoyat va jazo" kabilarni o'qiy boshladim. Holbuki, mana shu asarlar tufayli adabiyotimizga Ernest Xemingueyning, Gi de Mopassanning, Dostoyevskiyning uslubiy o'ziga xosligi ham kirib keldi. Natijada, millionlab o'zbek kitobxonlari tafakkuri mana shunday noyob xazinalar bilan boyidi.

Ibrohim G'afurov nafaqat mahoratli tarjimon balki serqirra ijodkor: iste'dodli adib, munaqqid hamdir. Badiiy ijodga bo'lgan muhabbat uning murg'ak qalbida bolalik yillaridanoq boshlandi: "Yozishga o'n yoshimdan beri qiziqaman. Odam yozgisi keladi. Nimalarnidir odamlarga tushuntirgisi keladi. Yozish – juda ham intim, ichki ehtiyojdan tug'iladi"- deydi ijodkor o'zining tarjimai holida. Garchi adib tafakkurida ilk kurtak ochgan mustaqil fikrini ham aynan mana shu yoshida anglab yetgan edi va uni alohida voqea sifatida o'zining maqolalaridan birida shunday tasvirlab beradi: "Onam ayvondagi sandalda ko'ylak tikib o'tirardi, ko'zoynak ustidan menga ajab charaqlab qaradi. Yuzi shunchalar chiroyli bo'lib ketdiki, oyim shunchalar chiroyli, hammadan chiroyli, deb negadir yuragim orqamga tortdi, va o'shandan boshlab onamni suyib qoldim. Uni uyimizga keladigan

qo‘ni-qo‘shni, qarindosh-urug‘larga beixtiyor solishtiradigan bo‘ldim. Onam hammadan chiroyli, Mening onam hammadan chiroyli! O‘shandan e‘tiboran shu fikr miyamda o‘rnashib qoldi. Keyin bilsam opam, akalarim, ukam ham shunday o‘ylashar ekan. Lekin hozir o‘ylab qarasam, bu mening yorug‘ dunyoga keliub o‘n yil yashab, kallamga birinchi kelgan mustaqil fikrim edi”. Bolalikda ilk uchqundek porlagan bu birinchi mustaqil fikr ijodkorning taqdiriga aylanib, umr bo‘yi unga hamrohlik qildi hamda ko‘plab voqealarning kurtaklashiga ibtido bo‘ldi. Adib qalamiga mansub “ Hayo - xaloskor”, “Mangu Latofat”, “Parivashlar majlisi”, “Iltijo” kabi kitoblaridan o‘rin olgan maqola, esse, risola mansura va tadqiqotlarida yetuk tarbiyaviy g‘oyalar hamda umuminsoniy muammolar ifodalangan. Iste‘dodli adib o‘zining serqirra ijodi davomida ko‘plab adabiy kashfiyotlar qildi. Jumladan, adabiyotimizda o‘ziga xos yangi janrlardan “Mansura” janrini yaratdi. Yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammad ta‘biri bilan aytganda: “mansura maydoni” kashf etildi. Bu haqida Ibrohim G‘afurovning o‘zi shunday yozadi: “Borxes, Monten va Sen-Syonagon hamda hind, xitoy, yapon faylasuflarining asarlari ta‘sirida kuchli nutq oqimiga asoslangan “mansuralar” degan janr yaratdim. Mansuralar erkin she‘r janriga juda yaqin, lekin erkin she‘r emas. U meni o‘rtagan o‘y, xayol, orzu va erishilmagan, yo‘qotilgan narsalar to‘g‘risida fikr oqimlari” [G‘afurov, 2017:14].

“Inson odobi bilan go‘zal” degan ajoyib naql bor xalqimizda. Zero, odob inson kamolotining eng zarur omillaridan biridir. Biz olayotgan barcha bilimlar-u, ma‘lumotlar aslida mana shu husni xulq atrofida aylanadi. Dunyodagi barcha narsaning me‘yori bordir, ammo birgina mana shu odobning me‘yori yo‘q. hattoki, ilmda ham me‘yor bor. Bunga Qorun voqeasi isbotdir. Shunday ekan odob go‘zal tarbiya va chiroyli xulq atvorlar bilan namoyon bo‘ladi.” Fazilat nasl-u nasab bilan emas, balki odob bilan topiladi”, deydi ulug‘ shayxlardan biri Muhammad Zehniy. [A. M. Tursun, 2023: 36]. Bu borada Ibrohim G‘afurovning odob haqidagi mulohazalari, unga berilgan ta‘rifi ham o‘rinlidir: “Adab – odamiylikning o‘zagi. Balki odamiylikning bari boshdan oxir adabdan iborat. Adabning iligi esa- hayo. Ilik qurigan yerda hayo bo‘lmaydi”. [G‘afurov, 2017: 473].

Adibning go‘zal yozg‘ichlarida Vatanga ota, ona va murabbiy deya shavqlarga to‘la samimiy tuyg‘ular bilan yuksak ta‘rif keltiriladi. Ijodkor O‘zbekiston so‘zining o‘n harfiga o‘zining “hayot va tiriklik qovurg‘alarini” shunday mujassam etganini yozadi: “O‘- o‘zligim, o‘ktam zamonim, Z- zebo jahonim, B – bag‘ri keng baland osmonim, E – yetmish ming asrning jonli sadosi, K- ko‘zim qarosi, I – iymon safosi, S – suzugim, T – tuzugim, O – oromi jonim, N – non-u tuzim – O‘zbekistonim”. Bu so‘zlar aslida shu Vatanning parchasi bo‘lgan, yuragida millat tuyg‘usi jo‘sh urgan, qalbida yurt sevgisi tug‘yon urgan har bir yurtdoshimizning ko‘ngil satrlariga bitilgan ashor bo‘lib yangramog‘i darkordir.

Ibrohim G‘afurov o‘zining san’atkorona mutarjimlik mahorati tufayli tilimiz ma’naviyatini juda go‘zal iboralar bilan boyitdi. Jumladan “Millatning billurlanishi” degan iborani fransuz olimi E. Karrer D’Ankosning “Millatlarning zafari...” degan kitobidan tarjima qilgan bo‘lsada, uni “Millat – xalqning madaniy -ma’rifiy, o‘ziga xosligidir, milliylik millatning o‘ziga xosligidir. Millat ham, milliylik ham o‘z doirasida o‘zgarib, yangidan-yangi sifat belgilari topib boradi”, degan jumlar bilan ifodalab beradi. [G‘afurov, 2017: 285]. Adibning ijodida bunday o‘ziga xos, ohorli jumalarni ko‘p uchratamiz. Shulardan yana biri Yevropalik adibning ijodida uchratgan “O‘tkan yorug‘liklar” iborasi bo‘lib, uni shunday izohlaydi: “Ancha paytgacha o‘qishni davom ettirilmay to‘xtab hayrat barmog‘imni tishlab o‘tirdim. Juda aniq va ayni paytda juda mubham bu g‘aroyib ibora ichidan hayotimning tarixi jonlanaverdi, juda uzoq va shu onga qadar yodim sahifasidan o‘chib ketgandy voqealar xuddi gilamchi qizning ilgaga to‘xtovsiz ilinib turgan iplarday bir-biriga ulanib chiqaverdi, gulkosalarini o‘rayverdi...” Jumlaning asl ma’nosini anglab yetgan adib “Mening o‘tkan yorug‘ligim bu – ota-onam”, deya hayot haqiqatini yozadi. Hamda o‘tkan yorug‘liklarini quyidagi mansurada birma-bir shunday yodga oladi:

Bolaligim- mening o‘tkan yorug‘ligim.

tug‘ilish ichida o‘lim bo‘lganiday

o‘lim ichida tug‘ilish bo‘lganiday

ibtido ichida intiho bo‘lganiday

intiho ichida ibtido bo‘lganiday

azal haqiqatlar ichra loyazol haqiqatlar bo‘lganiday

bolaligim mening o‘tkan yorug‘ligim. [G‘afurov, 2017: 556].

Ibrohim G‘afurov kitoblarini o‘qigan kitobxonning nafaqat so‘z boyligi, balki shuuri, tafakkuri hamda ma’naviy boyligida ham yuksalish namoyon bo‘ladi. Olimning tatqiqotlari va tarjimalari, risolalari va mansuralari barchasi milliy madaniyatimiz, adabiyotimiz ravnaqiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelmoqda. Ma’naviyatimizning esa ko‘rki bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston Qahramoni, mahoratli mutarjim, serqirra ijodkor Ibrohim G‘afurovning ijoddagi bu qadar faolligi bugungi avlodlar uchun haqiqiy o‘rnak maktabi bo‘lib qoladi. Shu o‘rinda sevimli yozuvchimiz O‘tkir Hoshimov topib aytganlaridek:”Ibrohim G‘afurov agar munaqqid bo‘lmasa shoir bo‘lardi. Olim bo‘lmasa, adib bo‘lardi. Tarjimon bo‘lmasa, rassom bo‘lardi”.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘afurov I. Tanlangan asarlar: mansuralar, hikoyalar, badialar va boshqa asarlar. T.: “Sharq”, 2017
2. X. Do‘stmuhammad. Umrning olmos mavjlari. Maqola.

3. 4. Ahmad Muhammad Tursun. Ulug‘lar shunday yashagan. T.:”Hilol nashr”, 2023.

II SHO‘BA. ADABIYOTSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK
MUAMMOLARI
“BOBURNOMA”DAGI O‘LCHOV BIRLIKLARI TARJIMALARI VA
LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLAR

Sayyora SHODMONOVA,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Abstract. The purpose of this article is to discuss the pragmatic features of units of measurement. However, the word pragmatics is defined in detail. In many areas of our lives, we need measurements. In the past, it was known that measurements were needed in every field. In addition, the objects and measurement systems to be measured are becoming increasingly complex, making them difficult to model and manage. Today's rapidly changing world, a number of questions arise related to the basics of measurement science and technology.

Key words: units of measurement, weights, sir, misqal, arshin, kuruh, farsax, mann, harvor, khurd, nakhod, jarib, gaz, mill, lingvokulturologic features, originality.

Annotatsiya. Ushbu maqola “Boburnoma” matnidagi o‘lchov birliklarining pragmatik xususiyatlariga bag‘ishlanadi. O‘lchov birliklarining tarjimasini transliteratsiya usulida berilishi hamda tarjimalarning lingvokulturologik va pragmatik xususiyatlariga alohida e’tibor berilgan. “Boburnoma” matnidagi o‘lchov birliklari leksemalarining tarjimalarda aks etishdagi muammolari va ularning tarjimalarida lingvokulturologik xususiyatlarini qayta tiklanish masalalari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: o‘lchov birliklari, ashrafiy, shohruhiy, olmos, dinor, lingvokulturologik xususiyatlar, asliyat, matematik raqamlar.

O‘zbek tilshunosligida vaqt, payt ravishlari, ot so‘z turkumidagi temporal leksemalar, vaqt ma’noli olmoshlar, fe’llar, yuklamalar kabi morfologik, payt hollari, vaqtni ifodalovchi konstruksiyalar singari sintaktik yo‘nalishlarda o‘rganilgan. Vaqt semasi va semalarining tarkibi, ularning sistema hosil qiluvchi imkoniyatlari, vaqt semantikali makro va mikro sistemalar, bularning tuzilish xususiyatlari, vaqtni ifodalovchi birliklarning lug‘aviy sistemada tutgan o‘rni o‘z yechimiga ega emas.

“Boburnoma” fanning o‘ndan ortiq sohalariga oid ma’lumotlarni o‘zida jam etgan ilmiy asardir. Bu asarda turli sohalar kabi o‘lchov birliklari leksemalariga ham katta e’tibor qaratilgan. Bobur nasrining o‘ziga xos bir jihati o‘lchov birliklari leksemalarini lingvokulturologik jihatidan o‘ziga xos tarzda umumlashtirish san’atidir. “Boburnoma” matnida o‘lchov birliklari aniq, lo‘nda berilganligi va undagi o‘lchamlarning ko‘lami kishini hayratga soladi.

“Boburnoma” matnida turli xil o‘lchov birliklari mavjud bo‘lib, muallif har bir o‘lchov birligining aniq o‘lchamlarini keltira olgan va ularni ifodalashda badiiy tasvir vositalarini chetda qoldirmagan. Matnda turkiy xalqlarning qamariy oy, hijriy yil hisobidagi arab yilnomasidan foydalanganligini tahlilga tortadigan bo‘lsak, bunda ham mukammal bilim sohibi ekanligini anglab olishimiz mumkin.

Movarounnahr va Xurosondagi islomiy fasl, yil, oy, kun taqvimlari atamalariga odatlangan Bobur uchun Hindistonning taqvimiy tartiblari, atamalariga ko‘nikish qiyin kechgan. Adib ularning o‘lchamlarida ko‘p qiyinchiliklarga duch kelgan, pirovard natijada mazkur sohaning yetuk bilimdoni darajasiga yetgan.

Qiyosiy tahlillarda ichki tizim, mutanosiblik bilan birga, o‘quvchi chalg‘imasligi uchun hindcha vaqt o‘lchov birligi leksemalarining forsha, turkcha muqobillari aniq belgilaganki, bundan ko‘z o‘ngimizda vaqt birliklari bo‘yicha katta chog‘ishtirma tadqiqot olib borgan buyuk shaxs namoyon bo‘ladi. Shu asosda tasvirlangan fasllar taqsimoti, uning islomiy murodifiga oid vaqt o‘lchami tahlillari berilgan. Masalan: *Yana ul viloyatlarda to‘rt fasltur. Hindustonda uch fasl bo‘lur: to‘rt oyi yozdur, to‘rt oyi pashakaal, to‘rt oyi qish. Oylarning ibtidosi hiloliy oylarning istiqbolidindur. Har uch yilda bir oyni pashakaal oylarig‘a ziyoda qilurlar. Yana uch yilda qish oylarig‘a ziyoda qilurlar. Yana uch yilda yoz oylarig‘a. Bularning kabisasi budur* (“B.”, 207). Vaqt o‘lchovi leksemalarining muallif tasvir uslubining tarjimalarda qanday aks ettirilganini ko‘rib o‘tamiz:

In other countries there are four seasons; in Hindustan there are three; four months of summer, four of the rainy seasons, and four of winter. Its months begin with then new moon. Every three years they add a month to the rainy season; again, at the end of the next three years they add a single month to one of their winters; and in the course of the succeeding three years they add one month to a summer. This is their mode of intercalation (LE.Vol.II.; 237) Ushbu tarjimani yana qayta ona tiliga tahlil uchun o‘girsak u quyidagicha aks etadi:

– *Boshqa mamlakatlarda to‘rt fasl bor; Hindistonda uch fasl bor; to‘rt oy yoz, to‘rt oy yomg‘irli, to‘rt oy qishdir. Uning oylari yangi oy bilan boshlanadi. Har uch yilda ular bir oyni yomg‘irli faslga qo‘shadi, yana keyingi uch yilning oxirida ular bir oyni qish fasliga qo‘shadi; muvofiq kelishi uchun uch yilda ular bir oyni yozga qo‘shadi. Bu ularning kabisa usulidir* (S.Sh), deya aks etadi.

Tarjimani o'qigan kitobxon, tarjimon mahorati qay darajada ekanligini matnni o'qigan zahoti anglaydi. Tarjimon so'z birikmalari, vaqt o'lchov birliklari, ilmiy atamalarni berishda ularga mos ekvivalent tanlashi muhimdir. Tarjimon muallif uslubida tasvirlagan vaqt o'lchovi leksemasining har bir unsurlarrini tarjimada aks ettirishga harakat qilgan. Asliyatda: *yana uch yilda yoz oylarig'a* jumlasini, *in the course of the succeeding three years they add one month to a summer* (*uch yilda ular bir oyni yozga qo'shadi*) deb o'giriladi. Bu jumlagina *in the course of the succeeding* (*muvofig kelishi uchun*) birikmasi qo'shiladi. Birikma asliyat pragmatik xususiyatlarini to'liq aks ettiradi.

A.Beverij tarjimasida esa asliyat matni quyidagicha berilgan: *Again: - whereas there are four seasons in those countries, there are three in Hindustan, namely, four months are summer; four are the rains; four are winter. The beginning of their months is from the welcome of the crescent-moons. Every three years they add a month to the year; if one had been added to the rainy season, the next is added, three years later, to the winter months, the next, in the same way, to the hot months. This is their mode of intercalation* (B., 515)

– Yana ana shu mamlakatlarda to'rt fasl bo'lur, Hindistonda uch fasl bo'ladi. To'rt oy yoz, to'rt oy yomg'irli, to'rt oy qishdir. Oylarining boshlanishi yarim oy shaklidagi oyning qarshi olinishidandir. Har uch yilda bir oyni yilga qo'shadi, bir yil yomg'irli faslga, yana qo'shiladi, uch yil keyinroq qish oylariga, yana xuddi shu yo'lda yoz oylariga qo'shiladi. Bu ularning kabisa usulidir (S.Sh) deb tarjima qiladi. Ushbu tarjimada A.Beverij tarjimaning leksik-semantik jihatidan to'liq aks etishiga e'tibor qaratgan.

Tarjima jarayonida Movarounnahr fasllari Hindiston fasllariga nisbatan farqlanishini adekvat usulda amalga oshirgan. *Oylarning ibtidosi hiloliy oylarning istiqbolidindur* jumlasini *the beginning of their months is from the welcome of the crescent-moons* (oylarining boshlanishi yarim oy shaklidagi oyning qarshi olinishidandir) deb vaqt o'lchov birligi leksemasining ekvivalentlarini bergan. Bunda asliyatda keltirilgan vaqt leksemalari jumlasini, ma'no va mazmun jihatidan o'z aksini topgan. Vaqt o'lchov birliklari leksemasi pragmatik muvofiqlik bilan o'girilgan.

Asliyat matni V.Tekston tarjimasida quyidagicha beriladi: *In our country there are four seasons, but in Hindustan there are three: four months of summer, four of monsoon, and four of winter. The months begin with the crescent moon in opposition. Every three years one month is added to the monsoon months, then three years later a month is added to the winter months, then three years later a month is added to the summer months. This is their intercalation* (W.T., 34) – Bizning mamlakatda to'rtta fasl, ammo Hindistonda uchta fasl bor. To'rt oy yoz, to'rt oy yomg'irli, to'rt oy qishdir. Yarim oy qarshilanishi bilan oylar boshlanadi. Har uch yilda bir oy

yomg'irli oyga qo'shiladi, keyingi uch yilda oxirgi bir oy qish oyiga qo'shiladi, keyinroq uch yilda bir oy yoz oyiga qo'shiladi. Bu ularning kabisasidir (S.Sh). Bunda tarjimon vaqt o'lchov birliklarining fasl, kabisa vaqtlarini lingvokultutrolik jihatdan kitobxonga tushunarli bo'lishiga diqqat e'tiborini qaratgan. *Oylarning ibtidosi hiloliy oylarning istiqbolidindur* jumlasini vaqtga aniqlik kiritilishini ifodalaydi, bu tasvir tarjimada: *the months begin with the crescent moon in opposition* deb tarjima qilinadi.

Tarjimon *hiloliy oy* birikmasini, muallif ifodalagandek, *crescent moon* tarzida jonlantirgan. V.Tekston tarjimasida vaqt o'lchov birliklari leksik-semantik jihatidan ham asliyatning pragmatik xususiyatlariga muvofiq qayta yaratilgan. Tarjimonlar vaqt o'lchov birliklarini qayta tiklashda o'z uslubiga ko'ra tarjima qilganlar. Ayniqsa, vaqt o'lchov birliklarini lingvokulturologik jihatidan ham mukammal o'rganib, qayta tiklagan deb ayta olamiz. Bu leksemalar tarjimasini aks ettirishda grammatik transformatsiyaning sintaktik moslashuv turlaridan foydalanganlar. Bularning hammasi tarjimon mahoratiga bog'liq tarzda amalga oshiriladi, albatta.

Vaqt o'lchov birliklari leksemalari shu darajada mukammalki, o'quvchida savolga o'rin qolmaydi. Bobur bu ma'lumotlarida Movarounnahr fasl vaqt birliklari bilan Hindiston fasl vaqt birliklari va oylarining qo'llanilishini ikki mamlakatda aniq vaqtlarini ko'rsatishga harakat qiladi va kitobxonlar uchun tushunarli bo'lishi uchun tahlil etadi. Ulardagi har bir oyning taqsimlanishi, tabiiy xususiyatlari va albatta, vaqtni anglatuvchi taqvimiy murodiflari nomlarining aniq vaqtini keltiradi. Ushbu parchaga e'tiborimizni qarataylik:

Chayt, baysak, jet, as'ar – tobiston (yoz); muvofiqi: hut va hamal va savr va javzo. Saavan, ba'do'n, kuvar, ka'tik – pashakaal; muvofiqi: saraton va asad va sunbula va mezon. Aghan, pus, mah, pa'gun – zimiston (qish); muvofiqi: aqrab va qavs va jady va dalv ("B.", 207). Bu vaqt o'lchov birligi leksemalari tarjimada shunday aks etgan.

Leyden-Erskin tarjimasida ularning tarjimasi quyidagicha: *Cheit, Beisakh, Jeth, and Asarh are the summer months, corresponding to Pisces, Aries, Taurus, and Gemini; Sawan, Bhadun, Kuwar, and Katik form the rainy months, corresponding to Cancer, Leo, Virgo, and Libra; Aghen, Pus, Magh, and Phagun are the winter, and include Scorpio, Sagittarius, Capricornus, and Aquarius.* (LE.Voll.II.; 237-238) *Cheyte, Baysak, jet, as'ar yoz oylaridir, hut, hamal, savr va javzo oylariga muvofiqdir. Savan, ba'do'n, kuvar va ka'tik yomg'irli oylardandir, saraton, asad, sunbula va mezonlarga muvofiqdir. Aghan, pus, mah va pa'gun qish oylaridir; aqrab, qavs, jady va dalv oylarini o'z ichiga oladi* (MT). Tarjimada vaqt o'lchov atamaları bir-biriga muvofiq tarzda har ikki mamlakat lingvokulturologik jihatlarini hisobga olgan holda aks etgan.

Muallif fasl va oylar atamalarining hindcha shaklini keltirib, musulmon taqvimini atamaları bilan qiyosan tushuntiradi hamda har ikkala mamlakat vaqt birliklari leksemasini anglab olishiga ko‘mak beradi. Har bir fasl qaysi oylarni o‘z ichiga olishi, Movarounnahrda bu oylar qanday nomlanishini aniq bayon qiladi, lingvokulturologik jihatidan bu detallar shu mamlakat milliyligini ham o‘zida saqlab qolganligini ko‘rishimiz mumkin. Hindcha vaqt birliklaridan oy nomlari tarjimasida transliteratsiya usulini qo‘llagan bo‘lsa, Movarounnahr oy nomlarini tarjima tilida ifodalagan. Tarjimon lingvistik tarjima usuliga suyanadi.

Tarjima amaliyotida leksik birliklarning to‘liq yoki qisman mosligi muhim ahamiyatga ega. Mutarjim *Cheit, Beisakh, Jeth, and Asarh are the summer months, corresponding to Pisces, Aries, Taurus, and Gemini (Cheyt, Baysak, jet, as‘ar yoz oylaridir, hut, xamal, savr va javzo oylariga muvofiqdir)* vaqt o‘lchov birliklarini to‘liq holatda ifodalagan. Ushbu jumlada *hut, hamal, savr va javzo* oy nomlarining ingliz tilida muqobil varianti *Pisces, Aries, Taurus, and Gemini* lar bilan keltiriladi va ingliz kitobxonini uchun vaqt birliklarini anglab yetishiga imkon yaratadi.

Haqiqatan ham, yil fasllari, oylar sof vaqt o‘lchov birliklari leksemalari va astronomik atamalar bo‘lgani, yil hisobi ham har xil mezonlardan kelib chiqqani bois, ularni o‘zga tilga o‘girish o‘ta murakkab jarayon hisoblanadi. Ammo Leyden-Erskin bu vazifani a‘lo darajada uddalagan.

V.Tekston tarjimasida ularning tarjimasini quyidagicha: *The summer months are Chait, Baisakh, Jeth, and Asarh, corresponding to Pisces, Aries, Taurus, and Gemini. Those of the monsoon are Sanwan, Bhadon, Kuar, and Katik, corresponding to Cancer, Leo, Virgo, and Libra. The winter months are Aghan, Pus, Magh, and Phagun, corresponding to Scorpio, Sagittarius, Capricorn, and Aquarius (W.T.348).*

Chayt, baysak, jet, asarlar yoz oylaridir, hut, hamal, savr va javzo oylariga muvofiqdir. Saavan, ba‘do‘n, kuvar, ka‘tik yomg‘ir oylaridir, saraton, asad, sunbula va mezonlarga muvofiqdir. Aghan, pus, mah, pa‘gun qish oylaridir, aqrab, qavs, jady va dalv oylariga muvofiqdir (M.T), deb beriladi.

Muallif har bir fasl o‘z ichiga nechta oyni qamrab olishini aniq ifodalagan bo‘lsa, tarjimon ham shunday yo‘ldan borgan. Hind tilidagi oy nomlarini transliteratsiya yo‘li bilan o‘giran. Leyden-Erskin tarjimasidek, Movarounnahr oy nomlarini tarjima tilida qayta tiklagan. A.Beverij tarjimasiga nisbatan V.Tekston va Leyden-Erskin tarjimalarida tarjimaning shakl va mazmuni aynan asliyatning pragmatik xususiyatlariga muvofiq amalga oshirilgan. Asarni sinchiklab o‘qigan kitobxon nazarida Hindistondagi vaqt o‘lchov birliklari leksemasiga oid atamalardagi chalkashlik Boburni ancha tashvishga solgandek ko‘rinadi. “Boburnoma”da vaqt o‘lchovi borasida muallif erinmay, diqqat bilan kuzatish olib borgan shundan guvohlik beradi. Bobur, nazarimizda, hindlardagi kecha-kunduz

o'lov birligiga doir vaqt birliklari leksemasining noaniqligi mamlakat fuqarolarini mehnat va boshqa faoliyat turlaridan chalg'itadi, degan fikrda bo'lgan. Bunday vaqt birliklari tasviri Leyden-Erskin tarjimasida bunday berilgan:

The natives of Hindustan divide the night and day into sixty parts, each of which they denominate a ghari; they likewise divide the night into four parts, and the day into the same number, each of which they call a pahar (or watch), which the Persians call a pas. In our country I had heard of pas and pasban, though I did not understand the custom (L-E.Vol. II.; 238- 239)

– Hindiston eli kecha-kunduzni oltmish qismga bo'lib, har birini “**gari**” deb ataydilar. Bundan tashqari kechani to'rt qismga va kunduzni ham bir xil qismga bo'ladi, har birini **pahar** (yoki soat) deb atashadi, forsiyda **pos** deyishadi. Bizning taraflarda pos va posbonlarni eshitganman, ularning xususiyatlariga tushunmagandim (M.T.) tarzida aks etadi.

Bu o'rinda tarjimon vaqt birliklari leksemasini semantik jihatidan muvofiq keluvchi muqobil variantlarni tanlagan. Hindlardagi *pahar* so'zini *pahar (or watch)*, *pos* so'zi *a pas*, *posbon* so'zi *pasban* va *gariy* esa *a ghari* shaklida transliteratsiya orqali qayta tiklangan. Ayrim o'rinlarda izoh sifatida vaqt birligining ingliz tilidagi variantini ham keltirgan. Tahlil natijasida retseptorga pragmatik muvofqlikda tarjima variantini taqdim etishga erishgan.

A.Beverij tarjimasida esa yuqoridagi matn bunday beriladi: *So the people of Hind divide the night-and day into 60 parts, each called a (S.) ghari. They also divide the night into four and the day into four, calling each part a (S) pahr (watch) which in Persian is a pas. A watch and watchman (pas u pasban) had been heard about (by us) in those countries (Transoxania), but without these particulars (A.B., 516)* Shuningdek, Hind eli kecha-kunduzni oltmish qismga bo'ladi, har birini **gari** deb ataydi. Ular kechani to'rtga bo'ladi va kunduzni ham to'rtga bo'ladi, har bir qismni **pahar** deyishadi, forsiyda **posdir**. Soat va tungi qorovul (pos u posbon) so'zini mamlakatimizda eshitganman, ammo o'ziga xosligi ma'lum emas edi (M.T) shaklida qayta tiklaydi. **Pos** va **posbon** vaqt o'lov birliklari leksemlarining ingliz tilidagi tarjimasi keltirilgan hamda qavs ichida transliteratsiya bilan ko'rsatilgan.

Tarjima matnida har bir vaqt birligi asliyat matniga muvofiq tarzda o'girilgan. A.Beverij tarjima matni o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun vaqt o'lov birliklarining leksik jihatlariga ham e'tibor qaratgan. Tarjima matnida *A watch (qo'l soati)* va *watchman (tungi qorovul)* (*pas u pasban*) shaklida o'z ifodasini topgan. Tarjima matnida asliyatdagi vaqt o'lov aynan tarjima qilinmagan bo'lsa-da, muqobil variantini bera olgan. Xususan, *those countries (Transoxania)* birikmasini alohida izohlagan hamda lingvokulturologik jihatdan vaqt birliklariga alohida e'tibor qaratgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunday retseptiv holatni boshqa ikki tarjimon tarjima matnlarida uchratmaymiz.

V. Tekston tarjimasida kuzatsak, ular quyidagicha aks etadi: *The people of India divide the day and night into sixty parts, each of which is called a **ghari**. Moreover, the night and the day are each divided into four parts, each of which is called a **pahar**, or what in Persian is called a **pas**. In Transoxiana, I had heard the expressions **pas** and **pasban**, but I did not know what they denoted* (W.T., 349)

– Hindiston xalqi kecha-kunduzni oltmish qismga bo‘ladi, har birini **gari** deb ataydilar. Bundan tashqari, kecha-kunduzning har birini to‘rt qismga ajratadi, har biri **pahar** yoki forsiyda **pos** deb ataladi. Movarounnahrda **pos** va **posbon** ifodalarini eshitganman, ammo ular nimani anglatishini bilmasdim). Matn tarjimasida **pos** va **posbon** so‘zlarini tarjimon transliteratsiya yo‘li orqali tarjimada ifodalagan. Bu jihatdan A. Beverij tarjimasidan farqli tarjima variantini bera olganini ko‘ramiz. Masalan, asliyatdagi *yana kechani to‘rt va kunduzni to‘rt qismat qilibturlar* jumlasini tarjima matnida: *the night and the day are each divided into four parts (kecha-kunduzning har birini to‘rt qismga ajratadi)* tarjima variantida qisqartma yo‘li bilan o‘girilgani tarjima tahlilida ko‘rinadi.

Bu tarjima usuli matn mazmuniga pragmatik jihatidan hech qanday putur yetkazmagan, aksincha mazmun ochiqqligiga xizmat qilgan. Tarjima matnlarida “Boburnoma” matniga xos milliy ruh, lingvokulturologik xususiyatlar saqlab qolingani. Tarjima amaliyotida mavjud generalizatsiya va modulyatsiya usulining muvofiq tarzda qo‘llanilishi ayni yutuqlarning garovi bo‘lib xizmat qilgan.

Vaqt o‘lchov birliklari voqealar jarayonini yoritishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi, aniq raqamlarni qo‘llash mahorati ham “Boburnoma” badiiyatining o‘ziga xos jihati hisoblanadi. “Boburnoma” leksikasida vaqt o‘lchov birliklarini qo‘llash orqali turkiy tilning barcha qatlamlari, arxaik va zamonaviy leksika nasr tilining keng imkoniyatlarini namoyon etgan deb ayta olamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Раҳимов Ғ. Таржима назарияси ва амалиёти. – Т., 1996.
2. Сале М. Из узбекских классиков. –Ташкент, – Т., 2016.
3. Сале М. Из узбекских классиков. –Ташкент, 1946.
4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Тошкент, 2008.
5. Холманова З. “Бобурнома” лексикаси. – Тошкент: “Фан”, 2007.
6. Бабур. Трактат об арузе. Под. ред. И.Стеблева. – М., 1972.
7. Beveridge A.S. The Bābur-nāma in English (Memoirs of Babur), Translated from the Original Turki Text of Zahiriddin Muhammad Babur Padshah Ghazi by Annette, Susannah Beveridge. 2 Vols, – London, 1922; Repr, in one Volume, – London, 1969. – 25 p. – New Delhi, 1970. – 78 p. Lahore, 1975. – 72 p.
8. Благова Г.Ф. О характеристике грамматического строя.

9. Diane Lee Smith. *Claire Martin in English: Theory and Practice of Literary.*

MADANIY KONTEKSTDA KOGNITIV METAFORALAR TARJIMASI MUAMMOLARI

*Hamida JURAQOBLOVA,
Turon universiteti dotsenti, s.f.n.*

Annotatsiya. Mazkur maqolada kognitiv metafora zamonaviy tilshunoslik va kognitiv fanlar sohasidagi til, fikr va madaniy kontekst o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiruvchi dolzarb mavzulardan biri sifatida tadqiqi qilingan. Shuningdek, kognitiv metaforalarning madaniy kontekstdagi roli va ularni tarjima qilishdagi muammolar tahlil qilinib, tarjima jarayonining murakkabliklari va bu muammolarning qanday samarali hal qilish mumkinligi haqida batafsil muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: kognitiv metafora, madaniy kontekst, tarjima, zamonaviy lingvistika, madaniy tajriba, badiiy tarjima.

Annotation. The article examines cognitive metaphors as a current topic reflecting the complex relationships between language, thought, and cultural context in the fields of modern linguistics and cognitive sciences. It also analyzes the role of cognitive metaphors in cultural contexts and the problems encountered in translating them, providing a detailed discussion on the complexities of the translation process and how these issues can be effectively resolved.

Key words: cognitive metaphor, cultural context, translation, modern linguistics, cultural experience, literary translation.

Kognitiv metaforalar zamonaviy tilshunoslik va kognitiv fanlar sohasidagi dolzarb mavzulardan biri bo'lib, til, fikr va madaniy kontekst o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiradi. Kognitiv metafora faqatgina nutqiy figura emas, balki insonlar o'zini o'rab turgan borliqni tushunishi va tasavvur qilishlari uchun asosiy mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Bunday metaforalar insonlarning atrof-muhit, hissiyotlar va mavhum tushunchalarni qabul qilish jarayonini shakllantiradi, bu esa nafaqat individual fikrlashga, balki jamoaviy madaniy identifikatsiyaga ham ta'sir qiladi.

Bunday metaforalarning tarjimasi alohida murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Metaforalarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda ularning so'zma-so'z ma'nolarini emas, balki ular joylashgan madaniy, psixologik va tarixiy kontekstlarni ham hisobga olish kerak bo'ladi. Kognitiv metaforalar ma'lum madaniy tajribalarga bog'langan bo'lib, ularning ma'nosi tillar o'rtasida sezilarli darajada farq qilishi mumkin, bu esa tarjima jarayonida ma'lum bir murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, kognitiv metaforalarni tarjima qilish, nafaqat lingvistik mahoratni, balki

madaniy va kognitiv ongni ham talab qiladigan murakkab vazifadir. Bu esa tarjimondan metaforik ifodalarning sezilarli farqlarini aniqlab, ularni madaniy nuqtai nazardan qanday tushunishlarini talab qiladi. Bundan tashqari, tarjimon original metaforani saqlab qolishi, tarjima tilidagi ekvivalent metaforani topish yoki hatto bir xil asosiy ma'noni ifodalovchi yangi bir ibora yaratish kerakligini aniqlashlari lozim.

Madaniy kontekstda kognitiv metaforalarni tarjima qilish ko'plab qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin, chunki metaforalar faqat tilning semantik xususiyatlari bilan cheklanmaydi, balki ular ko'pincha o'zgacha madaniy tajriba va dunyoqarashni aks ettiradi.

Badiiy tarjimada olam milliy manzarasining qayta yaratilishi muammolarini konseptual tahlil qilish va adekvat tarjima yaratish muammolarini chog'ishtirma planda badiiy asarlar misolida tadqiq qilgan tilshunos olim R.Shirinovaning tahlil natijalari, ba'zan mutarjimlarning o'z tarjimalarida sharq mentalitetiga xos so'zlarni fransuz tilida noto'g'ri aks ettirishi, tashlab ketishi yoki bo'lmasa kontekstlar tarkibida bitta so'z bir necha variantlarda berilishi kuzatilishini, bunday xilma xillik ko'p hollarda asarning badiiy va estetik ta'sirini susaytirishga olib kelishi mumkinligini ko'rsatdi. Olima badiiy tarjimada olam milliy manzarasining qayta yaratilishi darajasini aniqlash uchun asosan, mustaqillik yillarida o'zbek adabiyotidan fransuz tiliga va fransuz adabiyotidan o'zbek tiliga amalga oshirilgan tarjimalarni qiyosiy tahlil qildi va har ikki xalq milliy manzarasining tarjimada qayta yaratilishi masalalarini ko'rib chiqdi. [Shirnova, 2017:56].

Tarjima nazariyasi va tarjimashunoslikda "metaforaning saqlanish qonuni" tushunchasi shakllantirilgan bo'lib, unga ko'ra tarjimada metaforik obraz iloji boricha to'liq saqlanishi kerak. Ushbu qonunga rioya qilmaslik metaforik iboraning ma'nosi o'zgarishiga, uning estetik va pragmatik ta'sirining pasayishiga olib keladi. [Fayziyeva, 2022:38]

V. N. Vovkning ta'kidlashicha, metafora, murakkab axborot vositasi bo'lib, tarjimada o'zining barcha informatsion mazmunini to'liq saqlashni talab qiladi, aks holda uning semantik murakkabligi, hatto metaforaning o'zi yo'qolish xavfi paydo bo'ladi. Bu yerda metaforaning ontologik mohiyati "transport" sifatida ifodalanadi, chunki u bir tildan ikkinchisiga ko'p qatlamli ma'no va hissiyotlar barchasini majburiy ravishda ko'chirishni talab qiladi. [Vovk, 1986:130]

Metafora ma'lum bir madaniyatning ijtimoiy-madaniy e'tiqodlari va munosabati orqali shakllanadi. Shu sababdan metafora tarjimasiga kognitiv yondashish metaforalarni insonlarning tajribalari, munosabati va amaliyotlarini kontseptual ifodalovchi kognitiv konstruktsiyalar sifatida ko'rish imkonini beradi. Metaforalar turli xil madaniy sohalar bilan bog'langanligi tarjima jarayonida o'xshash yoki bir xil kognitiv ekvivalentni izlashi kerakligini anglatadi. Manba til

va tarjima tilining madaniy tajribasini ifodalash tarzi qanchalik yaqin va o'xshash bo'lsa, tarjima qilish ham shunchalik oson bo'ladi. Ammo xalqlarning hayotiy tajribasi har doim ham o'xshash emasligi va metafora aynan shu tajribalarni anglatishini hisobga olsak, metaforalarni turli madaniyatlarga tegishli tillarga tarjima qilishda tarjimonning vazifasi yanada qiyinlashadi. Metaforalarni kitobxonga yetkazishdagi qiyinchilik tillarda aynan u yoki bu kontseptual sohaga tegishli o'xshash metaforalarning yo'qligi bilan asoslanadi.

Har bir til va madaniyat o'zining o'ziga xos tasavvurlari, qadriyatlari, tarixiy tajribalari va ijtimoiy kontekstlariga ega bo'lib, bular metaforalar orqali ifodalanadi. Quyida biz kognitiv metaforalarni tarjima qilishda uchraydigan ayrim qiyinchiliklar va muammolarni ko'rib chiqamiz:

1. Madaniy o'xshashlik va farqlar.

Kognitiv metaforalar ko'pincha ma'lum bir madaniyatga xos bo'lgan tasavvurlarni o'z ichiga oladi. Masalan, amerikalik olimlar J.Lakoff va M.Jonsonlar tomonidan tahlil qilingan ingliz tilidagi "*Time is money*" (Vaqt – bu pul) metaforasi sanoatlashgan G'arb madaniyatida keng tarqalgan, chunki bu madaniyatda vaqt iqtisodiy resurs sifatida qaraladi. Masalan:

This gadget will *save* you hours.

Ushbu vosita sizga ko'p vaqtni *tejaydi*.

I don't *have* the time to *give* you.

Mening sizga *ajratadigan* vaqtim yo'q. (so'zma-so'z: *beradigan*)

How do you *spend* your time these days?

Siz bu kunlar vaqtingizni qanday *o'tkazasiz*? (so'zma-so'z: *yuqotasiz*)

I've *invested* a lot of time in her

Men unga ko'p vaqt *sarfladim*

I don't *have enough* time to *spare* for that

Buning uchun vaqtim *yetarli emas* (Buning uchun mening *vaqtim yo'q*)

You're *running out* of time.

Vaqtingiz *tugayapti*.

You need to *budget* your time

Siz vaqtingizni *hisoblashingiz* kerak. [Лаккофф Д., Джонсон М., 2004:29-30]

Yuqorida keltirilgan misollardan shuni ko'rish mumkinki, G'arb madaniyatida vaqtni xuddi moddiy narsadek *sarflash*, *yuqotish*, *topish*, *tejash*, *hisoblash* mumkin. Ammo bu kognitiv metafora boshqa madaniyatlarda, masalan, ba'zi Sharq yoki boshqa madaniyatlarda, shunchaki semantik jihatdan anglanmasligi yoki to'liq tushunilmasligi mumkin, chunki bu jamiyatlarda vaqtga nisbatan boshqacha qarashlar mavjud.

2. Metaforaning strukturaviy o'zgarishi.

Metaforalar tilning grammatik va semantik strukturalariga mos ravishda shakllanadi. Bir tildagi metaforaning tarjimasini boshqa tilda o'xshash tuzilmaga ega bo'lmashligi mumkin. Tarjimon boshqa bir metafora yoki tasvirni topishi kerak bo'ladi, bu esa so'zlar va tasavvurlarni madaniy ravishda moslashtirishni talab qiladi.

Masalan, Abdulhamid Cho'lponning "Qalandar ishq" she'rining o'zbek tilidagi matnida "*karashma dengizin*" metaforasini fransuz tiliga "*un océan de coquetterie*" (so'zma-so'z: noz-karashma ummoni) tarzida tarjima qilingan.

Asliyatta:

Karashma dengizin ko'rdim, na nozlik to'lqini bordir,

Halokat bo'lg'usin bilmay, qulochni katta otdim-ku. [Cho'lpon, 2022:33]

Tarjimada:

J'ai vu *un océan de coquetterie*, que de tendres vagues il avait

Méprisant la noyade j'ai fait de bonnes brasses. [Anthologie de la poésie d'Ouzbekistan., 2008:105]

3. Kognitiv strukturadagi farqlar.

Kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan, har bir til o'zining kognitiv xaritasiga ega bo'lib, bu xarita o'sha tilda so'zlovchilarning dunyo haqidagi tasavvurlarini aks ettiradi. Masalan, bir madaniyatda odamlar tabiatni faol va energiya manbai sifatida tasavvur qilsa, boshqa madaniyatda tabiat o'z-o'zidan tinchlanadigan va passiv bo'lgan bir narsa sifatida ko'riladi. Shu sababli, kognitiv metaforaning tarjimasini madaniy kontekstdagi farqlarga qarab moslashtirilishi zarur.

4. Tabiiy va ijtimoiy hodisalar.

Metaforalar ko'pincha tabiiy hodisalarga, ijtimoiy hayotga yoki tarixiy voqealarga asoslanadi. Buning natijasida ba'zi metaforalar faqat ma'lum bir madaniyatda, yoki ma'lum bir tarixiy yoki ijtimoiy kontekstdan kelib chiqqan holda tushunarli bo'ladi. Masalan, fransuz tilidagi "*le pain quotidien*" (kundalik non) metaforasi, fransuz madaniyatida juda kuchli ramz sifatida ishlatiladi va u ko'pincha hayotning oddiy, zaruriy jihatlarini anglatadi. Kimdir uchun odatiy bo'lgan, ular har kuni foydalanadigan, yoki har kuni tez-tez qiladigan ish. Bu uning *kundalik nonidir*. Boshqa madaniyatlarda bu obrazni to'g'ri tushunish yoki to'liq anglash qiyin bo'lishi mumkin.

5. Badiiy va ekspressiv funktsiyalar.

Kognitiv metafora nafaqat axborot uzatishda, balki badiiy va estetik maqsadlar uchun ham ishlatiladi. Poeziya va badiiy adabiyotda metaforalar hissiyotlarni ifodalash va o'zgacha estetik effekt yaratish uchun ishlatiladi. Tarjima jarayonida badiiy funktsiya yo'qolib ketishi mumkin, chunki badiiy tasvirlar va estetika har bir til va madaniyatda o'ziga xosdir. Misol uchun, rus tilidagi "*красная туман*" (so'zma-so'z: qizil tuman), ya'ni, insonning mulohazalarini vaqtinchalik xira

qiladigan haddan tashqari g‘azab hissini ifodalaydigan metafora, poetik kontekstdan qat’iy nazar tasviriy kuchga ega, ammo boshqa tilga tarjima qilganda bu obrazning hissiy, estetik kuchi yo‘qolishi mumkin.

6. Ijtimoiy va axborot konteksti.

Kognitiv metaforalar ko‘pincha ijtimoiy o‘zgarishlar, siyosiy vaziyatlar yoki umumiy madaniy kontekstga bog‘liq bo‘ladi. Ba’zi metaforalar, masalan, siyosiy yoki ijtimoiy voqealar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, ular esa boshqa madaniyatda yoki boshqa tarixiy davrda tushunilmasligi mumkin. Tarjimon bunday metaforalarning ma’nosini aniqroq ifodalash uchun kontekstni hisobga olishi kerak. Masalan: Fiziologik metafora rus siyosiy nutqidagi eng an’anaviy va batafsil tuzilgan metaforalaridan biridir. XX asrning so‘nggi o‘n yilligida bu turdagi metaforalar, avvalgi davrlardagi kabi siyosiy nutqda faol qo‘llanilgan. Zamonaviy rus siyosiy nutqida: ПОЛИТИЧЕСКИЕ РЕАЛИИ – ЭТО ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ ОРГАНИЗМ (Siyosiy realliklar – bu inson organizmi) metaforik modeli mavjud. Bu yerda organlar bilan bog‘liq siyosiy metaforalar odatda biron-bir tegishli tashkilotlarning, masalan, mintaqa, partiya, mansabdor shaxs va boshqalar rolini tavsiflaydi. Masalan:

*Представители президента — это **лицо** исполнительной власти. Это ее глаза, уши и все остальное.* (О. Вандышева) [Чудинов, 2001:60]

*Prezident vakillari – ijro hokimiyatining yuzi hisoblanadi. Bu uning **ko‘zlari, quloqlari va boshqalari**.*

7. Ta’rif va to‘g‘ri moslashuv.

Madaniy kontekstda metafora tarjimasi ko‘pincha aniq ta’riflarni talab qiladi. Agar biror metafora bir madaniyatda o‘ziga xos bo‘lsa, uning boshqa tilga tarjimasi uchun tushuntirish yoki qo‘shimcha izohlar kerak bo‘lishi mumkin. Tarjimon metaforaning ma’nosini saqlash uchun ko‘pincha parapzaasing (so‘zma-so‘z tarjima qilishdan qochish) yoki yangi metaforik ifodalar ishlatish kerak bo‘ladi.

Kognitiv metafora va madaniyatlararo tarjima mavzusi zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslikda juda muhim ahamiyatga ega. Kognitiv metaforalar til orqali dunyoni qanday tasavvur qilishimizni ifodalaydi va bu tasavvurlar ko‘pincha o‘z madaniy kontekstiga chuqur bog‘liq bo‘ladi. Madaniyatlararo tarjima esa turli til va madaniyatlar o‘rtasida to‘g‘ri muloqot o‘rnatishni, asosan, semantik va madaniy farqlarni hisobga olishni talab qiladi.

Kognitiv metaforalarni madaniyatlararo tarjimasi ko‘plab qiyinchiliklarni, jumladan, har bir madaniyat o‘ziga xos tasavvurlar va obrazlarni ishlab chiqadi, bu esa bir tildagi metaforaning boshqa tilda to‘g‘ri va aniq tarjima qilinishini qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, metaforalar ko‘pincha tarixiy yoki ijtimoiy o‘zgarishlarga bog‘liq bo‘lib, kontekstni tarjima qilishda yirik muammolar yuzaga

keltirishi mumkin, chunki bir madaniyatdagi tarixiy yoki siyosiy tajribalar boshqa madaniyatlarda boshqacha bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon. She’rlar, hikoyalar, she’riy va nasriy tarjimalar. –Toshkent: Zabarjad Media, 2022. – 336 b.
2. Antologie de la poésie de l’Ouzbékistan. Tom I. Sous la direction éditoriale de Jacqueline Farmer. – France, Éditions du Sandre, 2008. – 114 p.
3. Вовк В. Н. Языковая метафора в художественной речи. Природа вторичной номинации. – Киев: Наукова думка, 1986. – 130 с.
4. Fayziyeva A. A. Metafora tarjimasiga turli qarashlar. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2022-yil 6.2) – B. 38.
5. Лакофф Д., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем: Пер. с англ. / Под ред. А. Н. Баранова. – М.:Едиториал УРСС, 2004. – С. 29-30.
6. Ширинова Р. Олам миллий манзарасининг бадий таржимада кайта яратилиши: Филол. фан. док... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 56 б.
7. Чудинов А.П. Россия в метафорическом зеркале: Когнитивное исследование политической метафоры (1991-2000): Монография/Урал. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург, 2001. – С.60.

ZUHRIDDIN ISOMIDDINOV – TARJIMASHUNOS OLIM

*Ra'no ISAMUTDINOVA,
ToshDO'TAU o'qituvchisi,
Dostonbek AXMADOV,
ToshDO'TAU 3-kurs talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjimashunos olim, filologiya fanlari nomzodi Zuhridin Isomiddinovning tarjimashunoslik faoliyati yoritiladi. Olimning ushbu ilm maydonida tutgan o'rnini masalasi hamda tadqiqotlarining ahamiyati xususida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: tarjimashunoslik, tarjima tarixi, turkiy tillararo tarjima, "aldoqchi do'stlar", "Manas", G'aybullar Salomov.

Filologiya fanlari nomzodi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Zuhridin Isomiddinovning qariyb yarim asrlik ilmiy-ijodiy faoliyati g'oyat xilma-xil. 10 ga yaqin turli mavzulardagi kitoblar, 500 ga yaqin ilmiy, ilmiy-ommabop, publitsistik maqolalar, 200 ga yaqin katta-kichik tarjimalar olim ilmiy-ijodiy faoliyati asosini tashkil etadi.

Z. Isomiddinov ilm maydoniga o'zbek tarjimashunosligining asoschilaridan biri – professor G'aybullar Salomov, uning shogirdi professor Najmiddin Komilovlar etagini tutgancha kirib keldi. 1976-yilda ToshDU (hozirgi O'zMU) ning jurnalistika fakultetini tamomlaganidan so'ng o'sha davr tarjimashunoslik ilmining markazlaridan biri bo'lgan O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi Til va adabiyot institutining tarjima nazariyasi va adabiy aloqalar bo'limida 20 yildan ziyod faoliyat yuritdi. Bu maskanda yana bir ulkan tarjimashunos – professor Jumanioz Sharipovning o'ziga xos ilmiy maktabi shakllanganligi yosh olimga ham G'. Salomov, ham J. Sharipov "bulog'"idan oziqlanish imkonini berardi. Olimning tarjimashunoslik masalalariga bag'ishlangan ilk maqolalari ayni dargohda laborant sifatida ishlab yurgan paytlariga to'g'ri keladi. 1977-yilda J. Sharipov mas'ul muharrirligida chop etilgan "Badiiy tarjimaning aktual [dolzarb] masalalari" to'plamidan Z. Isomiddinovning 2 ta: **"Qirg'iz prozasini o'zbek tiliga tarjima qilishga doir"** [1; 6–12] va **"To'qtag'ul asarlarining tarjimasi"** [1; 13–20] maqolalari o'rin olgan. Ushbu kichik tadqiqotlar hali o'zbek tiliga turkiy tillardan tarjima masalalarini tadqiq etishga jiddiy kirishilmagan paytda yozilganligi bilan ahamiyatlidir.

Yosh olim 1979-yilda "Tarjima nazariyasi masalalari" to'plamida **"Originaldan oshirib tarjima qilish mumkinmi?"** [2; 20–24] maqolasi bilan ishtirok etadi. Tadqiqotchi o'z maqolasida G'. Salomov keyinchalik taklif qilgan

tarjima antinomiylaridan biriga ilk marta murojaat etadi. Tadqiqotchi asliyatdan oshirib o‘g‘irilgan tarjima xususida fikr yuritir ekan, bunga erishishning bir qancha omillarini sanab o‘tadi, ilk marta “Manas” eposining Mirtemir tomonidan amalga oshirilgan tarjimasi to‘g‘risida to‘xtalib, dostonning o‘zbekcha matnida uchraydigan asliyatdan oshirib o‘g‘irilgan o‘rinlarni izohlaydi. Maqola so‘ngida muallif ayni tushunchaga shunday izoh beradi: *“Asliyatdan oshirib o‘g‘irish – asl nusxa xossalariga tamomila muvofiq kelgan, muallif badiiy niyatini yanada to‘laroq ifodalaydigan chinakam san‘at va katta mahorat mevasi bo‘lgan tarjimalar demakdir”* [2; 24].

Yana shu yili Z. Isomiddinovning yana bir yosh tadqiqotchi (bugun filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi) Sultonmurod Olimov bilan hammualliflikda yozilgan **“Tarjima tahlili”** maqolasi “O‘zbekiston madaniyati” gazetasida chop etilgan. Bu maqolada mualliflar G‘. Salomovning o‘sha yili chop etilgan “Tarjima nazariyasiga kirish” darsligi haqida, bu kitobning o‘zbek tarjimashunosligi va tarjimonlarni o‘qitib tayyorlash jarayonida tutgan o‘rni to‘g‘risida fikr yuritadilar. 1989-yilda “Badiiy tarjima nazariyasi” to‘plamidan o‘rin olgan **“Tarjimonlarni o‘qitib tayyorlash to‘g‘risida”** [3; 20–24] maqolasi yana bir jiddiy masala – tarjima tahsili, tarjimonlarni yetishtirish mavzusiga bag‘ishlangan. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan yillarda maqolada ko‘tarilgan qator masalalar bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

1985–1988-yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti tarjima nazariyasi va adabiy aloqalar bo‘limi a‘zolari tomonidan sovet davri o‘zbek tarjimachiligi tarixi yuzasidan 3 jildlik yirik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jamoaviy monografiyani yaratish ishiga Z. Isomiddinov ham jalb etilgan. 1986-yilda chop etilgan 40–50-yillar tarjimachiligi haqidagi “O‘zbekistonda badiiy tarjima taraqqiyoti” to‘plamidan yosh olimning **Mirzakalon Ismoil**iy tarjimonlik faoliyati to‘g‘risidagi yirik ilmiy ocherki o‘rin olgan [4; 145–172]. Adabiy-tarjimaviy portret xarakteridagi tadqiqotda Mirzakalon Ismoilning tarjimonlik laboratoriyasi xususida ma‘lumot beriladi, u bilan tanishib chiqqach, tarjimon Ismoiliy haqida yetarlicha tasavvurga ega bo‘lish mumkin: *“Mirzakalon Ismoilning tarjimonlik talanti o‘z ko‘lam xususiyati bilan o‘zbek tarjimachiligi tarixida noyob hodisadir. Uning tarjimalari badiiy adabiyotning har uch (lirik, epik va dramatik) jinsiga [turiga] mansub asarlarni qamrab oladi. Ijodiy diapazonining kengligiga – lirik asarlar tarjimasida ham, epik asarlarni o‘g‘irishda ham birday katta muvaffaqiyat bilan ishlashiga ko‘ra Mirzakalon Ismoil o‘zbek adabiyotining eng mohir tarjimonlari qatoridan o‘rin oladi”* [4; 172]. Muallif “Tirilish”, “Anna Karenina” (L. N. Tolstoy), “So‘na” (E. L. Voynich), “Choliqushi” (R. N. Guntekin) kabi yirik romanlar tarjimasini asliyat bilan solishtirib tadqiq etadi, tarjimonning bu asarlarni o‘g‘irishdan maqsadi masalasini ko‘taradi va bu tarjimalarning o‘zbek madaniyatida

tutgan o‘rni haqida atroflicha to‘xtaladi, Ismoiliiy tarjimasidagi qator muvaffaqiyatli chiqqan o‘rinlardan misollar keltiradi, ularni turli yillardagi nashrlari va boshqa tarjimonlar o‘zbekchalashtirgan variantlari bilan solishtirish asnosida mutarjim ijodiy evolyutsiyasini kuzatish imkoniga ega bo‘ladi. Mirzakalon Ismoiliiyning tarjimaviy ijodiga oid eng umumiy xususiyatlar tariqasida quyidagilarni keltiradi:

“I. Adib tarjimon oldiga qo‘yiladigan talablarni yaxshi biladi. Shu bois, o‘girmalarida asl nusxa tilini, yoinki asar voqeligining ortida turgan hayotni mukammal bilmaslik oqibatida kelib chiqadigan qusurlar uchramaydi. Har bir jumla va har bir nozik ishoratdan tortib asarning umumiy g‘oyasiga qadar lo‘nda holda o‘quvchiga yetkaziladi.

II. Har bir ijodkor uslubining xarakterli tomonlarini aniq payqab, o‘zbek tilida ham shunga muvofiq keladigan ifoda tarzi va “ohang” topa bilishi Mirzakalon Ismoiliiy mahoratining bosh belgisi.

III. Ona tilining bor nazokati va boyliklarini chuqur o‘rganish – klassik adabiyot leksikasining eng kamyob so‘zlaridan tortib jonli tilning eng shirador, shikvali ifoda shakllariga qadar to‘plash, o‘z ijodida bu kolossal nutq xazinasidan oqilona, o‘rinli foydalanish, so‘z san‘atkori sifatida chinakam bilimdonlik va zukkolik ham Mirzakalon Ismoiliiy ijodining asosiy belgilaridandir” [4; 172].

Mirzakalon Ismoiliiy ijodi Z. Isomiddinovga hamisha yo‘ldosh bo‘ldi: yuqoridagi ilmiy-adabiy portretidan tashqari keyingi yillarda yaratilgan **“Garchi Kalon edi”**, **“Mirzakalon Ismoiliiy va til madaniyati”**, **“Inson taqdiri”**, **“Don Kixotning “don kixot” tarjimoni”** kabi maqolalari Ismoiliiy tarjimonlik faoliyatining turli qirralarini yoritishga bag‘ishlangan.

1988-yilda nashr qilingan **“O‘zbekistonda tarjimachilik”** jamoaviy monografiyasida Z. Isomiddinov 3 yirik tadqiqoti bilan ishtirok etdi. **“Ulug‘ Vatan [Ikkinchi jahon] urushi davri o‘zbek tarjimachiligi”** [5; 5–24] obzor maqolasida olim shu davrga xos umumiy tendensiyalar, asosiy xususiyatlarni belgilashga harakat qiladi, o‘zbek sovet tarjimachiligi tarixida bu davrning tutgan o‘rnini yoritib beradi: *“Ulug‘ Vatan urushi [Ikkinchi jahon urushi] yillari tarjimachiligining adabiyotimiz taraqqiyoti uchun qoldirgan asosiy tajribasi urush voqeligini berish yuzasidan orttirilgan tasvir an‘anasi va usullari bo‘ldiki, bu ham original ijodda (o‘zbek adiblari urushga bag‘ishlangan salmoqli badiiy asarlarni asosan urushdan keyin yaratdilar), ham tarjimada (urush mavzusidagi yirik asarlar asosan urushdan so‘nggi yillarda o‘girildi) nihoyatda qo‘l keldi. Binobarin, bu davr tarjimachiligi so‘z san‘ati taraqqiyotining umumiy qonuniyatiga muvofiq ravishda rivojlandi – adabiy-ijodiy tajribalarni – “badiiy boyliklarni xuddi bir xazina kabi tadrijiy ravishda to‘plab, yig‘ib borib” keyingi davrlarga uzatdi”* [5; 5]. Ushbu tadqiqotdan olimning 2 ayol tarjimon: **Zumrad** [5; 149–161] va **Xolida Ahrorovalar** [5; 214–226] haqidagi ijodiy portretlari ham o‘rin olgan. O‘zbek tarjimachiligi tarixida ayol

tarjimonlarning tutgan o'rnini masalasi kam o'rganilgan mavzulardan sanaladi. Buning dastlabki namunalari sifatida J. Sharipovning Zulfiya va Kibriyo Qahhorova tarjimonlik mahorati haqidagi tadqiqotlarini keltirishimiz mumkin [6; 175–188, 5; 142–149]. Bu ishlar qatorida Z. Isomiddinovning yuqoridagi 2 maqolasi ham alohida o'ringa ega. Olim Zumrad haqidagi ocherkida ayni tarjimon ijodini ilk bora ilmiy jihatdan tahlilga tortadi, nomi unchalik mashhur bo'lmagan bu ijodkorning o'zbek tarjima adabiyotidagi xizmatlarini keltirib o'tadi. Zumradning A. P. Chexov va Gi de Mopassan novellalaridan qilgan o'girmalarini asliyat bilan solishtirish asnosida tarjimon mahoratiga xos umumiy xususiyatlarni aniqlaydi; ilmiy portretning 2-qismida M. Avezovning “Abay yo'li” roman-epopeyasi tarjimasini atroflicha tahlilga tortib, Zumradni qardosh til bo'lmish qozoqchadan ulkan epik asarni tarjima qilishga jiddiy qaramaganlikda ayblaydi, tarjimon yo'l qo'ygan qator kamchiliklarni ko'rsatib o'tadi, “tusmol ekvivalentlar”ni o'girishda yo'l qo'yilgan qusurlarga esa tarjimonning asliyat tilidan yaxshi xabar emasligini sabab qilib keltiradi. X. Ahrorova haqidagi tadqiqotda ham muallif dastlab muallifning tarjimonlik yo'li haqida qisqacha ma'lumot beradi. “Shinel” (N. V. Gogol) ning X. Ahrorova amalga oshirgan tarjimasini asliyat bilan solishtirib, tarjimon yo'l qo'ygan turli darajadagi yutuq va kamchiliklarni ko'rsatib beradi, “Tirilish” (L. N. Tolstoy) romanining X. Ahrorova va Mirzakalon Ismoilov tomonidan ag'darilgan variantlarini bir-biriga qiyoslaydi. Z. Isomiddinovning o'zbek tarjimachiligi tarixini yaratishdek ulkan ishga qo'shgan hissiy – yuqoridagi 4 maqola boshqa tadqiqotlardan ilmiy puxtaligi, yangiligi bilan ajralib turadi.

Yosh olimning turli yillarda ustoz olim G'. Salomov bilan hammualliflikda yozgan **“Sibirning ko'lamli tasviri”** (G. Markovning “Sibir” romani tarjimasi haqida), **“Qayta qurish va aksiltarjimachilik”**, **“Boqimanda nashrlar va boqibeg'am noshirlar”**, **“Ikki olam yuki – tarjima...”** [7; 3–12] kabi maqolalari matbuot nashrlari va to'plamlarda chop etilgan. Bu maqolalar ustoz-shogird munosabatlarining nechog'lik mustahkam bo'lganligidan dalolat beradi.

G'. Salomov ilmiy maktabining barcha vakillari hayot yo'lida “Tarjima san'ati” to'plamining o'rnini beqiyos. Z. Isomiddinovning ham 2 maqolasi domla [G'. Salomov] hayot paytlarida nashr qilingan so'nggi 5- va 6-kitoblardan o'rin olgan. 1980-yilda yozilgan **“Aldoqchi so'zlar” bilan bahs** [8; 154–174] maqolasi – jahon tarjimashunosligida endi tadqiq etilayotgan va “tarjimonning aldoqchi do'stlari”, “soxta muqobillar” kabi nomlar bilan yuritiladigan til birliklari haqida. Olim ayni hodisaning tarjima jarayonida yuzaga kelishi omillarini sanab o'tadi va turkiy tillararo “aldog'chi do'stlar”ga qiziq misollar keltirib o'tadi: *“Jo'ra” (jora) kalimasi turkmanchada “dugona”, “dugonajon” (murojaat) ma'nosida kelsa, o'zbeklarda u, asosan, erkaklarga ko'chadi va shuning barobarida, mazmun ham kengayib, “do'st-*

birodar”, “gapxo‘rlik kompaniyasi”, “gapxo‘r-jo‘raboz”, shuningdek, “juft matoh” (bir jo‘ra shohi)ni ham anglatadi.

Xuddi shu so‘z qirg‘iz tilida o‘z funksiyasini yana ham kengaytiradi va o‘zbek tilidagi ma‘no variantlarining barchasini qoplashdan tashqari “bo‘za”, “bo‘zaxo‘r”, “yuz berajak voqealarning oldindan alomati”, “kimgadir, yo nimagadir atab biron narsani oldindan mo‘ljallab qo‘yish” singari tushunchalarni ham ifodalashi mumkin” [8; 157].

Muallif hududiy jihatdan uzoqroq turkiy tillardagi “aldoqchi do‘stlar” hodisasiga ham qator misollar orqali ushbu hodisaning tilni mukammal egallamagan tarjimon uchun qanchalik qiyinchilik tug‘dirishini ta’kidlaydi. Misol tariqasida muallif qirg‘iz shoiri Aali To‘qamboyev she‘rlarining O‘zbekiston xalq shoiri Shukrullo tomonidan o‘zbekchaga ag‘darilgan ayrim tarjimalaridan misollar keltiradi:

*“Oy nurida qishki tun
Xuddi **ayron** quygandek.*

– **Tuzoq** degani nima?
– Qiyinalishi joningni!”

*“...Ko‘rinib turibdi, bu parchalarda muayyan nuqsonlar bor. Shoir, qor qoplagan qish manzarasi oy nurida qatiq to‘kilganday, der ekan, o‘quvchi bunga ishonadi va uning ham qalbida **badiiy his** uyg‘onadi. Biroq mutarjim “ayran”ni “qatiq” deya tarjima qilish o‘rniga “ayron” deb o‘girishi oqibatida tarjima ham ayronday sersuv bo‘lib qolgan. Keyingi misralar misolida esa “беш кылым” – besh iqlim (?) bo‘lmay, “besh asr” (yuz yillik) va “мозок” – “tuzoq” emas, “do‘zax” ekanligini aytib o‘tish lozim” [8; 158].*

Olim qator misollar orqali tarjimonlarni turkiy tillardan tarjima ishiga jiddiyroq qarashga chorlaydi, tarjima tilini to‘liq o‘zlashtirmay turib o‘girishga kirishish qanday qo‘pol xatolarga olib kelishi mumkinligidan ogohlantiradi. To‘plamning 6-kitobida Z. Isomiddinovning **“So‘zdan so‘zning o‘rni bor...”** [9; 222–230] maqolasi chop etilgan. Maqolada Qirg‘iziston xalq shoiri, akademik Aali To‘qamboyev she‘rlarining Shukrullo tomonidan o‘zbekchalashtirilgan tarjimalari tadqiq etiladi. Maqolaning boshlanishida muallif qirg‘iz shoirining “Do‘stlarimga” to‘plamidan o‘rin olgan pishiq tarjimalar haqida fikr yuritib, ularni asliyat bilan solishtirish jarayonida ayrimlarining hatto asliyatdan ham ustunligini ta’kidlaydi. Yosh olim tarjimonning kamchiliklarini asosan 2 guruhga ajratadi. Birinchisi – “tusmol ekvivalentlik” hodisasining ta’siriga tushib qolish natijasida ayrim o‘rinlarni boy berish bo‘lib, *“Qirg‘izchada “аўпан” – qatiqdir, o‘zbek tilidagi*

“ayron” esa suv qo‘shilgan qatiq. Bu so‘zlar orasidagi muayyan farqni aniqlay olmaslik Shukrullo tarjimasini qusurli qilib qo‘ygan” [9; 225] yoki *“Aali To‘qamboyev inson farzandining qiynalishini nomaqbul hol deb hisoblab, “Do‘zax degan nimadir?” deya murojaat qiladi va bunga “Qiynalishi joningning” deb javob beradi. Tarjimon esa buni anglamay, “mozok” (do‘zax) ni tusmol bilan “tuzoq”... deb o‘girib qo‘ya qolgan. Shu she‘rning qolgan qismi ham o‘quvchida badiiy his uyg‘otishga qodir bo‘lmagan bir alfozda tarjima qilingan”* [9; 224] iborat.

Ikkinchi jiddiy qusur sifatida muallif tarjimonning ekviritmiya hodisasi – asl nusxaning she‘riy vaznini tarjimada ham o‘zgartirmasdan berishga rioya qilmaganligida deb hisoblaydi. Tadqiqotchi tarjima jarayonida asliyatdagi 11 bandlik 33 bo‘g‘inli she‘rning Shukrullo tarjimasida 400 bo‘g‘inli she‘rga aylanib qolgani turkiy tillararo tarjima ishiga bepisandlik bilan qaralayotganidan deb biladi.

So‘nggi 6-kitob nashridan roppa-rosa 38 yil o‘tib, “Tarjima san‘ati” to‘plamining 7-kitobi ham chop etildi. Ilmiy to‘plamdan mas‘ul muharrir Z.

Isomiddinovning 2 maqolasi o‘rin olgan. **“Oliymaqom san‘atning oliyjanob mardumlari”** [10; 33–46] maqolasida muallif tarjimon shaxsiyati, uning jamiyat hayotida tutgan muhim o‘rni haqida fikr bildiradi, tarjimashunosligimizni faqatgina badiiy tarjimalarni tadqiq etish bilan cheklanib qolayotganini tanqid qiladi, yosh olimlarni ilmiy tarjima, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar tarjimasi, sinxron va dublyaj tarjimasi kabi sohaning hali “ochilmagan qo‘riqlar”ini “o‘zlashtirish”ga chorlaydi, tarjimaning bu turlaridan qiziq misollar keltiradi. **“Manas” tarjimasi haqida** [10;

146–157] maqolasida esa olim endi faqatgina tadqiqotchi sifatida emas, tarjimon sifatida ham epos xususida fikr bildiradi, o‘z tarjimasining avvalgi – Mirtemir, Sulton Akbariy, T. Adashboyev variantlaridan qaysi jihatlari bilan ajralib turishini asoslaydi. Z. Isomiddinov o‘zi tarjimada qo‘llagan ilmiy-adekvat tarjima qilish prinsipini boshqa eposlar tarjimasiga ham tadqiq etishni taklif qiladi. Tarjimon va olim shaxsining bir tadqiqotda birlashib ketishi jihatidan bu maqola ahamiyatga molik.

Keyingi yillarda olimning turli matbuot nashrlari va to‘plamlarda tarjimashunoslik masalalariga bag‘ishlangan 50 dan ortiq turli maqolalari chop etilgan.

Z. Isomiddinov milliy qomus ishiga ham o‘z hissasini qo‘shgan: 12 jildlik *“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”* dan uning **Jumaniyoz Sharipov** [11; 696], **Najmiddin Komilov** [12; 521] kabi tarjima ilmining fidoyilari haqidagi maqolalari va **tarjima** [13; 272–273] haqida umumiy ma‘lumot beruvchi maxsus tadqiqoti chop etilgan. 2012-yilda mamlakatimizning deyarli barcha ko‘zga ko‘ringan tarjimashunoslar qatnashgan bahslarda ham ishtirok etib, **“Kaminaning nomlari”**, **“Ijodkor bo‘lib tug‘iladilar”** kabi tarjima o‘qitish masalalariga doir maqolalarini yaratgan. Turli yillarda chop etilgan **“Vaysayotgan” itlar**, **“murillagan”**

mushuklar va... o'ttiz yashar "qizaloq", "Klon tarjima", "Tarjima san'ati va... tarjima sanoati", "Bizdagi tarjima muammolari" kabi maqolalarida tarjima tanqidining sustlashib ketgani, noshirlik va tarjimachilik o'rtasidagi ko'prikning tobora yo'qolib borayotgani, nashr etilayotgan yangi tarjima asarlardagi jiddiy kamchiliklarning kelgusida keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan yomon oqibatlari kabi masalalarni o'rtaga tashlaydi, ularga imkon qadar choralarni ko'rsatadi, birgalikda yechishga, izlanishga da'vat etadi. **"Aytmatovning ismi aslida qanday?"** maqolasida esa ulkan yozuvchi ismining o'zbekchaga noto'g'ri tarzda moslashtirilganini asoslab beradi, qariyb 50–60 yillik bu qo'pol va kichik xatodan voz kechishga chaqiradi. Ustoz tarjimon Ibrohim G'afurovning "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan taqdirlangani munosabati bilan yozgan **"Devkor"** [14; 249–253] maqolasida mutarjimning o'zbek madaniyatida tutgan o'rnini xolis misollar bilan yoritib beradi, tarjimon mehnatiga ko'rsatilgan bu yuksak e'tibordan xursand ekanligini bildirish asnosida XX asrda o'tgan Mirtemir, Mirzakalon Ismoiliiy kabi ulug' tarjimonlar mehnati munosib ko'rilmaganligini afsus bilan eslatib o'tadi, tarjimon mehnatini munosib rag'batlantirishni taklif etadi.

Olim 1991-yilda G'. Salomov ilmiy rahbarligi va J. Sharipov ilmiy maslahatchiligida **"Yaqin turkiy tillardan she'riy tarjimaning o'ziga xosligi ("Manas" eposi tarjimasi misolida)"** mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Bu dissertatsiya turkiy tillardan "Manas" kabi yirik dostonlar tarjimasini o'rganishdagi dastlabki yirik tadqiqotlardan biri ekanligi bilan ahamiyatlidir. Z. Isomiddinov bu bilan cheklanib qolmasdan, tadqiqot ustida bir necha yil ishladi va 1995-yili dissertatsiya **"Turkiy epos va tarjima masalalari"** nomi bilan monografiya tariqasida chop etildi. Risola shu yillarda turkiy xalqlar so'z san'atining benazir namunasi bo'lmish "Manas" eposining jahon miqyosida nishonlanayotgan 1000 yillik yubileyiga o'zbek tarjimashunosligi tomonidan tortiq qilingan o'ziga xos to'yona edi. Monografiyada dostonning o'zbek folklori bilan bog'liq jihatlari haqida so'z yuritilib, uning Mirtemir tomonidan amalga oshirilgan mumtoz tarjimasi tadqiq etiladi. Olim asliyatdagi 31 ming misraning tarjimada 17 ming misraga aylanib qolishi sabablarini izlaydi, o'z fikrlarini ilmiy jihatdan asoslaydi, turkiy xalqlar folklori uchun xos bo'lgan alliteratsiya va boshqa she'riy san'atlarning o'zbekchada aks etishi yuzasidan o'z fikrlarini bildiradi. Z. Isomiddinovning "Manas" yuzasidan bir necha yillik izlanishlari faqat ilmiy ishlar bilan chegaralanib qolmasdan, balki amaliyotga ham ko'chdi. Buning natijasida 2018-yilda eposning yangi o'zbekcha tarjimasi dunyoga keldi. Nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirgan tarjimashunosning tarjima amaliyoti bilan ham, yirik epos tarjimasi darajasida shug'ullangani ayni sohaning yosh tadqiqotchilari uchun o'rnak bo'larli holat.

Z. Isomiddinovning 2019-yilda chop etilgan etnografik xarakterdagi **“Ona yurtim – Qirg‘iziston, O‘sh...”** kitobidan ham olimning tarjimashunoslik masalalariga doir qaydlari o‘rin olgan. Jumladan, olim kitobidan maxsus bob ajratib, uni **“O‘zbek-qirg‘iz adabiy aloqalari va badiiy tarjimalar to‘g‘risida”** deb nomlaydi. Bu bobda Izzat Sulton, Mirzakalon Ismoilov, Tursunboy Adashboyev kabi O‘shdagi o‘zbekzabon adabiy muhitga mansub tarjimonlar haqida ma’lumot beriladi. Muallif anchagina mashhur tarjimonlar orasida butun umr yirik lavozimlarda ishlagan bo‘lishiga qaramay, tarjimachilik ishi bilan ham qizg‘in shug‘ullangan Is’hoq Razzoqov kabi sohaning nomi tanilmagan vakillari ijodini imkon qadar tahlil qiladi, ular haqida fikr bildiradi.

Zuhridin Isomiddinovning qariyb 40 yil davomida yaratilgan tarjimashunoslikning turli masalalariga doir tadqiqotlari 2024-yilda **“Tarjima va til”** nomi ostida yig‘ilib chop etilgan. Kitob professor Xayrulla Hamidov so‘zboshisi va mas’ul muharrirligida chop etilgan. Bu maqolalar to‘plamidan olimning turli yillarda bosilib chiqqan va hali nashr etilmagan maqolalari jamlangan bo‘lib, ular mazmun-mundarijasiga ko‘ra uch yo‘nalishga taqsimlanadi. Birinchi bo‘lim **“Nazariya – quruq og‘och”, deganlar haqmi?”** deb nomlangan bo‘lib, unda olimning tarjima nazariyasi borasidagi, ikkinchi bo‘lim – **“Tarjima darg‘alari haqida”**dan esa tarjima tanqidi sohasidagi, uchinchi **“Tarjimaning naqd-u nasiyalari”** bo‘limidan Z. Isomiddinovning taniqli o‘zbek tarjimon va tarjimashunoslari haqidagi xotiralari hamda adabiy aloqalar bilan bog‘liq masalalarga bag‘ishlangan maqolalari o‘rin olgan.

Z. Isomiddinov mazkur sohaning yosh vakillarini hamisha qo‘llab-quvvatlaydi, u yaratgan ilmiy maktabdan uch fan nomzodi (**X. Tolipova, B. Yارقinova N. Dosbayeva**) va 1 falsafa doktori (PhD, **Q. Yusupova**) yetishib chiqqanligini, ularning bugungi ayni ilm maydonida o‘z o‘rniga egaligini alohida ta’kidlash lozim.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tarjimashunosligi tarixida Z. Isomiddinov alohida o‘ringa ega olim bo‘lib, uning ayni sohadagi tadqiqotlari yosh olimlar uchun muhim qo‘llanma vazifasini o‘tay oladi. Olim ijodi nazariy bilimlar va tarjimachilik amaliyotini o‘zida birlashtirgani bilan alohida ahamiyatga ega. Uning qator jiddiy tadqiqotlaridagi xulosalar turkiy tillardan, xususan qirg‘iz tilidan o‘zbekchaga tarjima qonuniyatlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бадий таржиманинг актуал масалалари. – Т.: Фан, 1977.
2. Таржима назарияси масалалари. – Т.: ТошДУ, 1979.
3. Бадий таржима назарияси: мақолалар тўплами. – Т.: ТошДУ, 1989.
4. Ўзбекистонда бадий таржима тараққиёти. – Т.: Фан, 1986.
5. Ўзбекистонда таржимачилик. – Т.: Фан, 1988.

6. Шарипов Ж. Бадий таржималар ва моҳир таржимонлар. – Т.: Фан, 1972.
7. Таржима муаммолари. 2-китоб. – Самарқанд: СамДУ, 1991.
8. Таржима санъати. 5-китоб. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.
9. Таржима санъати. 6-китоб. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.
10. Таржима санъати. 7-китоб. – Т.: “Muharrir nashriyoti”, 2023.
11. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 9-жилд. – Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” ДИУ, 2005.
12. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд. – Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” ДИУ, 2002.
13. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8-жилд. – Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” ДИУ, 2004.
14. Исомиддинов З. Таржима ва тил – Т.: Adabiyot, 2024.

ERNEST XEMINGUEY ASARLARI INGLIZCHA VA O‘ZBEKCHA TARJIMASINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Zuxra ZULFIQOROVA,

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Annotatsiya. Mazkur maqola Ernest Xemingueyning “Chol va dengiz” asari tarjimasining lingvopragmatik jihatlari va xususiyatlariga bag‘ishlanadi. Maqolada asarning tarjima jarayonida qo‘llanilgan so‘zma-so‘z, erkin va moslashtirilgan tarjima usullari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: lingvopragmatik, tarjima usullari, so‘zma-so‘z tarjima, badiiy tarjima.

Abstract. This article is devoted to linguistic and pragmatic aspects and features of the translation of Ernest Hemingway’s “The Old Man and the Sea”. The article analyzes the literal, free and adapted translation methods used in the translation process of the work.

Keywords: linguo-pragmatic, translation methods, literal translation, literary translation.

Tarjima – tilshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab ijodiy jarayon. Badiiy asarlarni tarjima qilish nafaqat matn mazmunini boshqa tilga o‘tkazish, balki muallifning uslubi, asarning estetik jihatlari va madaniy kontekstini saqlab qolishni talab qiladi. Bu jarayonda tarjimon o‘zining nafaqat til va madaniyat bilimlarini, balki ijodkorlik qobiliyatini ham ishga solishi lozim.

Ernest Xemingueyning “Chol va dengiz” asari zamonaviy adabiyotning durdona namunasi sifatida tan olingan. Bagama orollarida yozilgan va nashr etilgan bu roman Xemingueyning hayoti davomida nashr etilgan so‘nggi taniqli asari hisoblanadi. Asarda Kubalik baliqchi, keksa Santyagoning hayotidagi eng katta o‘ljaga aylangan ulkan marlin bilan ochiq dengizdagi jangi haqida hikoya qiladi. 1953-yil may oyida Xeminguey faoliyati uchun Pulitser mukofotiga, 1954-yilda esa adabiyot bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldi. “Chol va Dengiz”ning muvaffaqiyati Xemingueyni dunyoga mashhur qildi. Ushbu asarni tarjima qilish jarayonida turli tarjima usullari qo‘llanilib, asl matnning mazmuni va muallif uslubini saqlab qolish ustuvor vazifa sifatida qaralgan.

Asarda insonning tabiat bilan munosabati, azaliy kurashuvchan tabiati va ma’naviy jasorati ramziy obrazlar orqali ifodalangan. Xemingueyning qisqa va sodda jumalarga asoslangan minimalistik uslubi uning asarlarini tarjima qilishni osonlashtirgandek tuyulsa-da, aslida tarjimonlardan chuqur nazariy bilim va ijodiy

yondashuvni talab qiladi. Asarining tarjima qilish jarayonida qo‘llanilgan so‘zma-so‘z, erkin va moslashtirilgan tarjima usullari tahlil qilinib, ramziy obrazlar, metaforalar va madaniy kontekstlarni boshqa tilga o‘tkazishdagi qiyinchiliklar va yechimlar o‘rganiladi. Bu tadqiqot badiiy tarjimaning amaliy va nazariy jihatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Tarjima usullari asarni boshqa tilga o‘tkazishda qanday yondashuv qo‘llanilganini ifodalaydi. Quyidagi asosiy usullar Xeminguey asarini tarjima qilishda dolzarb:

So‘zma-so‘z tarjima. Matnni lug‘aviy ma’noda tarjima qilish, grammatik va uslubiy moslikka kamroq e’tibor qaratiladi. Masalan, asardagi “He was an old man who fished alone in a skiff in the Gulf Stream” jumlasini ba’zi tarjimonlar tomonidan “U bir qari odam edi, u skifda yolg‘iz baliq ovlar edi” deb tarjima qilingan. Ushbu usul so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini saqlab qoladi, ammo uslubga putur yetkazadi.

Erkin tarjima: matnning asl mazmunni saqlab qolgan holda matnni qayta tuzish. Masalan, yuqoridagi jumla “U qari baliqchi edi, uzoq dengizda yolg‘iz o‘zi ovga chiqardi” tarzida erkin tarjima qilinadi. Bu tarjima usuli kontekst va mazmunni yanada ravon yetkazadi.

Moslashtirilgan tarjima: milliy madaniyat va urf-odatlarini hisobga olgan holda tarjima qilish. Asarda dengiz va baliqchilik hayoti ko‘p joyda tasvirlangan. Tarjimonda mahalliy madaniyatga yaqin terminlar qo‘llanishi mazmunni osonroq qabul qilishga yordam beradi.

“Chol va dengiz” asarida ramziy obrazlarning tarjimasi: asarda ishlatilgan ramzlarni tarjima qilish tarjimonning ijodkorlik yondashuvini talab qiladi.

Chol – insonning kurashuvchan tabiati ramzi. Ba’zi tarjimonlar cholni “yoshi ulug‘ baliqchi” deb moslashtirgan.

Dengiz – hayotning murakkabligi va cheksizligi ramzi. Ba’zi tarjimalarda “dengiz”ni “okean” deb o‘zgartirish orqali ramziy ko‘lam kengaytirilgan.

Baliq – insonning oliy maqsadlarini ifodalaydi.

Tarjima jarayonidagi qiyinchiliklar

Minimalistik uslubni saqlashda noan’anaviy so‘zlar va qisqa jumalarni o‘zgarimas holda qoldirish.

Ingliz tilidagi metafora va simvolik ma’nolarni o‘zbek tiliga o‘tkazishda madaniy to‘siqlar.

Til o‘zgacha bo‘lishiga qaramay, o‘quvchiga matnni oson qabul qilish imkonini berish.

“Chol va dengiz” (“The old man and the sea”) asaridan olingan ba’zi jumlar va ularning o‘zbek tiliga turli usullarda tarjima qilinishi misolida tahlil qilamiz:

“He was an old man who fished alone in a skiff in the Gulf Stream and he had gone eighty-four days now without taking a fish”.

Soʻzma-soʻz tarjimada *“U bir qari odam edi, u Skifda yolgʻiz baliq ovlar edi va u endi sakson toʻrt kundan beri baliq tuta olmayapti”*. Lugʻaviy maʼno saqlangan, lekin jumla ravon emas. Matnda “skiff” soʻzining izohi oʻquvchiga tushunarli boʻlmasligi mumkin. Erkin tarjimada *“U qari baliqchi edi, yolgʻiz qayiqqa chiqib, sakson toʻrt kundan buyon baliq tutolmay yurgan edi”*. Matnda “skiff” soʻzi oddiy va tushunarli qilib, milliy madaniyatga moslashtirilib “qayiq” deb tarjima qilingan.

Moslashtirilgan tarjimada *“Bir qari baliqchi bor edi, u oʻz qayigʻida dengizga chiqib, sakkiz yuz toʻrt kun baliq tutmagan edi.”* Sonlarni oʻzbek madaniyati uchun qulay oʻzgartirish yoki «dengiz» soʻzini kontekstga moslashtirish oʻquvchiga tushunishni osonlashtiradi.

«The old man was thin and gaunt with deep wrinkles in the back of his neck.»

Soʻzma-soʻz tarjimada *“Chol ozgʻin va holdan toygan edi, boʻynining orqa qismida chuqur ajinlari bor edi.”* Matnda lugʻaviy maʼno saqlanib qolingan, ammo «holdan toygan» iborasi kontekstga unchalik mos kelmagan.

Erkin tarjimada *“Cholning orqa boʻynida chuqur ajinlar bor edi, u juda ham ozgʻin va qaddi bukik edi.”* “Holdan toygan» oʻrniga kontekstga mosroq «qaddi bukik» ishlatilgan, bu qahramon holatini aniqroq ifodalagan.

Moslashtirilgan tarjimada *“Chol juda ham ozgʻin edi, boʻynidagi ajinlar uning ogʻir hayotini aks ettirardi.”* Bu tarjima usuli qahramon holatini milliy oʻquvchiga hissiy jihatdan yaqinroq yetkazadi.

«It is better to be lucky. But I would rather be exact. Then when luck comes you are ready».

Soʻzma-soʻz tarjimada *“Omadli boʻlgan yaxshi. Ammo men aniqlikni afzal koʻraman. Omad kelganda tayyor boʻlasan”*. Lugʻaviy maʼno yetkazilgan, ammo uslub va kontekst hissiyot yetkazmaydi.

Erkin tarjimada *“Omadli boʻlish yaxshi, lekin men har doim aniq boʻlishni tanlayman. Chunki omad kelganda tayyor boʻlish kerak”*. Maʼno oʻquvchiga qulay va ravon tarzda yetkazilgan.

Moslashtirilgan tarjimada *“Omad kelishini kutish kerak emas. Men ishni puxta qilish tarafdoriman, shunda omad ham oʻzi keladi”*. Tarjima milliy oʻquvchi tafakkuriga yaqinlashtirilgan, jumladagi «exact» soʻzining maʼnosi kengaytirib, «puxta qilish» tarzida ifodalangan.

Ushbu misollar asarning qaysi tarjima usuli bilan oʻtkazilganiga qarab kitobxonga taʼsir qilish darajasi qanday oʻzgarishini koʻrsatadi. Tarjima usullarini toʻgʻri tanlash asl matnni milliy madaniyat doirasida toʻgʻri yetkazishga yordam beradi. «Chol va dengiz» asarining tarjimasi minimalistik uslub va chuqur ramzlarni ifodalashdagi mukammallikni talab etadi. Tarjimonlar asarning mohiyatini saqlab qolish uchun soʻzma-soʻz, erkin va moslashtirilgan tarjima usullarini muvofiqlashtirgan holda qoʻllashi lozim. Shuningdek, milliy oʻquvchilarning

madaniy xususiyatlarini inobatga olgan holda, tarjimaga ijodiy yondashuv zarur. Ernest Xemingueyning «Chol va dengiz» asarini tarjima qilish jarayonida soʻzma-soʻz, erkin va moslashtirilgan tarjima usullarini muvofiqlashtirib qoʻllash original matnning mazmuni, uslubi va ramziy maʼnolarini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Asar oʻzining minimalistik uslubi va chuqur ramziy obrazlari bilan tarjimonlar uchun katta ijodiy sinov boʻlib, badiiy tarjimada qator muammolarni keltirib chiqaradi. Mazkur tahlil shuni koʻrsatadiki, tarjimonlarning asosiy vazifasi – muallifning til va madaniyat chegaralarini yengib oʻtib, oʻquvchiga asl asardagi maʼno va hissiyotlarni toʻliq yetkazishdan iboratdir. Tarjima jarayonida: soʻzma-soʻz usul asl matnning strukturaviy va lugʻaviy jihatlarini saqlash uchun qoʻllanilsa, erkin usul mazmun va hissiyotlarni oʻquvchiga ravon va tabiiy yetkazishda yordam beradi. Moslashtirilgan usul esa madaniy tafovutlarni hisobga olgan holda oʻquvchining idrokiga moslashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, asardagi ramziy obrazlar, masalan, chol, dengiz va baliq, tarjima jarayonida alohida eʼtibor talab qiladi. Ushbu ramzlarning maʼnosini saqlash, ular orqali ifodalangan falsafiy mazmunni oʻquvchiga toʻgʻri yetkazish tarjimonning ijodiy va nazariy bilimlariga bogʻliq. Tarjima nazariyasining amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilish nafaqat badiiy tarjima jarayonining sifati oshishiga, balki madaniyatlararo muloqotning yanada samarali boʻlishiga xizmat qiladi. Shu sababli, tarjima jarayonida ijodiy va ilmiy yondashuvni uygʻunlashtirish muhimdir. Ernest Xemingueyning «Chol va dengiz» asarining tarjimasi badiiy tarjimada qoʻllanilishi mumkin boʻlgan usullarni oʻrganish va takomillashtirish uchun ajoyib namunadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hemingway, E. *The Old Man and the Sea*. New York: Scribner, 1952.
2. Комилов Н. Бу қадимий санъат // *Таржима санъати* (Мақолалар тўплами). 3-китоб. – Тошкент, 1976.
3. Kamoljonovich, S. J., & OʻG, Y. N. U. B. (2022). Badiiy tarjima uchun tarjima usullari tahlili (Ian Tuhoviskiy asarlari misolida). // *Taʼlim fidoyilari*, 18(5), 32-37.
4. Newmark, P. *A Textbook of Translation*. – London: Prentice Hall, 1988.
5. Aliev, A. *Tarjima nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent, 2012.

COMPARATIVE ANALYSIS OF DIPLOMATIC VOCABULARY DURING TRANSLATING FROM ENGLISH INTO UZBEK

Barchinoy ALLANAZAROVA,
*Alisher Navoi Tashkent State University
of Uzbek Language and Literature*

“Translation has been instrumental in transmitting culture, sometimes under unequal conditions responsible for distorted and biased translations, ever since countries and languages have been in contact with each other”. Researchers have increasingly been turning their attention to vocabulary of terminology e.g Carter and McCarthy (1988), Nation (1990), Arnaud and Bejoint (1992), Huckin, Haynes and Coady (1995), Coady and Huckin (1997), Schmitt (1997, 2000), Read (1997).

Harmon, Wood and Keser (2009) as well as Linse (2005) state that learner's vocabulary of the field development is an important aspect of their language development. Nation (2001) further describes the relationship between vocabulary knowledge and language use as complementary: knowledge of vocabulary enables language use and, conversely language use leads to an increase in knowledge of diplomacy lexicon.

To begin with diplomatic terms, they are diplomatic issue in the language usage and it frequently defined diplomatically. Guo Hong stresses that diplomatic language can be a diplomat said and may mean either orally does. It is widely used in various communications and entertainment, foreign affair negotiations staff, answered reporters' question, outreach, lectures, debates and other activities⁹. Diplomatic ancient and modern have, it is both a technology, but also an art, especially by oral and written to accomplish. In most cases, diplomatic need metaphorical, blur use of vague language, appropriate use of diplomatic fuzzy language can not only reach the aim of communication, and may be harmful to the involvements of any country¹⁰.

Next type is diplomatic translation which is carried out within diplomatic missions, embassies or consulates. In certain aspects, we can connect these types of translation international bodies again, in terms of texts interpreted and the convention established. Furthermore there existed audio-visual translation is certain to be the most widespread one nowadays; however, it is also one which has common and atrocious mistakes and drawbacks¹¹.

In addition, thoroughness as a feature of translation is an important involvement for both translators and interpreters. It is never problem of finding an equivalent, or

⁹ Aznaurova E.S., Abdurakhmanova Kh.I. Teorii praktika perevoda. T.: Ukituvchi, 1989.

¹⁰ Wang Kuailiang. Foreign Language, Vol. 29 (2008.) № 27, p. 21-23.

¹¹ Komissarov V.N. The theory of translation (linguistic aspects): Vysh. shk., 1990. 253 p.

substituting a word for word in another language - the interpreter must comprehend the idea that underlies the utterance. It is difficult to translate with fully understanding and without mastering the issue stake. Some bright examples are provided below¹²:

Appeasement –sulh, sulh tuzish
Arbitration – hakamlik
Barter – mol ayirboshlash
Abrogate – yakuniy qonun
Border – chegara
Diplomacy – diplomatiya

These terms are fundamental to understanding the language of diplomacy and international relations, and knowing their translations can enhance communication in both English and Uzbek contexts.

Bilateral relations – ikki tomonlama munosabatlar
Multilateral negotiations – ko‘p tomonlama muzokaralar
Treaty – shartnoma
Consulate – konsullik
Diplomatic immunity – diplomatik immunitet
Sanction – sanksiyalar
Foreign policy – tashqi siyosat
Intergovernmental organization – hukumatlararo tashkilot
Protocol – protokol

These terms are fundamental to understanding the language of diplomacy and international relations, and knowing their translations can enhance communication in both English and Uzbek contexts.

Another significant feature of translating is the implementation of metaphors. It includes this stylistic device out of date and up to date one used for illustration of language adjusting. Even though there created in restoring it is vital for metaphorical realization to represent real action, these stays lexical source which should have meanings within context, sensitive image in the ideas of communicator. For instance: the border, the envoy, consulting, chamber - the widest and common utilized samples.

¹² Castro N. (2012), Translation: A Meeting Point for Interdisciplinary Enquiry, Global Media Journal-Canadian Edition, Vol. 5.

Another feature of diplomatic translation is avoiding false friend vocabulary. Al -Wahy (2009, p. 104), stresses that false friends are multiword units like idiomatic false friends, and gradually grammatical constructions, intends a more overall explanation for words with another meaning that claims like "False friends are expressions that have the same or similar forms in different languages but have different meanings or different meaning or different sociolinguistic or stylistic features"¹³. Here it is obvious from given sample list:

1-accord (Helsinki accords): a formal agreement or settlement between two or more bands; akord: existing as a rhythmical word, represents emphasis.

2-action: something accomplished for a particular purpose; aksiyon: used in collocation with movie to denote a specific genre.

3-actor (international actors) means person involved in something to achieve an aim; actor being a cinema/tv term, means a person who acts in a play, movie etc.

4-alliance: group of countries or fractions in society those are formally united and taking part in the same time, the reason is that the unique purpose unites them; Alyans carries the identical semantic element however turning to comprehend me to denote "engagement ring" in time.

5-baggage: preliminary background or experience; bagaj denotes large cases prepared for a journey.

6-major: vital and in need; Majo r being a musical term, reveals one of the two keys in which most of the European music is written.

Conclusion. Translation of unclear language translation is not only the language itself, but the process is taking action and cross-cultural competence. So, we must, through diplomatic speech analysis, multidimensional understanding of the utterance under different contexts can absolutely grasp diplomatic language, the language of diplomacy and totally a sample of accurate, objective, scientific, proper share translation.

References

1. Al-Wahy A.S. Idiomatic false friends in English and modern standard Arabic. Babel 55, 2009. 101-123.
2. Bowker L. Lexicography, Terminology, and Translation / L. Bowker. Ottawa: the University of Ottawa Press, 2006. 96 p.
3. Castro N., 2012. Translation: A Meeting Point for Interdisciplinary Enquiry, Global Media Journal-Canadian Edition. Vol. 5.
4. Chamizo Dominguez P. and Nerlich B. False friends: Their origin and semantics in some selected language. 2002. Journal of Pragmatics. 34. 1833-1849.

¹³ major: vital and in need; Majo r being a musical term, reveals one of the two keys in which most of the European music is written.

5. Granger S. and Swallow H. A kaleidoscope of translation (1988) difficulties". [Electronic version]. Le Language et l'Homme. 23. 108-20.
6. Komissarov V.N. The theory of translation (linguistic aspects): Vysh. shk., 1990. 253 p.
7. WangKuailiang. Foreign Language. Vol. 29, 2008. № 27. P. 21-23.
8. Aznaurova E.S., Abdurakhmanova Kh.I. Teori i praktika perevoda. T.: Ukituvchi, 1989.

“BOBURNOMA” ENDI RIMDA

Shaxnoza ISMOILOVA,

Toshkent viloyati Olmaliq shahar 19-IDUM

ingliz tili fani o‘qituvchisi

2023-yil 14-fevral nafaqat O‘zbekistonda, balki dunyoning ko‘plab mamlakatlarida Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligi munosabati bilan Italiyaning tarixiy ilmiy-ommabop adabiyotlarga ixtisoslashgan yetakchi nashriyotlaridan biri “Sandro Teti Editore” nashriyot uyi Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur “Boburnoma” asarini Italian tilida chop etdi. Sohibqiron Amir Temurning avlodi Bobur Mirzo hassos shoir, qomusiy olim, atoqli davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida o‘zidan takrorlanmas va boy ijodiy-ilmiy meros qoldirgan.

Bobur ijodining durdonasi, hech shubhasiz, XV-XVI asrlarda O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston va Eronda sodir bo‘lgan tarixiy voqealar haqida hikoya qiluvchi “Boburnoma” tarixiy-biografik asaridir. G‘oyat muhim va ko‘p qirrali ma‘lumotlar asosida mohirona tartib berilgan ushbu xotira kitobini mazmun jihatidan beqiyos hayotiy ensiklopediyadir. “Boburnoma” o‘zida xalqimizning azaliy qadriyatlari, intellektual va ma‘naviy olami xazinalarini bamisoli ko‘zgudek aks ettiradi.

Ushbu nashr o‘zbek va Italian xalqlari o‘rtasidagi adabiy va madaniy-gumanitar hamkorlik aloqalarining samarali va yorqin namunasi sifatida dunyoga keldi. Kitob davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning So‘zboshisi bilan ochilishi alohida ahamiyatga ega.

Sandro Teti O‘zbekistonga tashrifida bergan intervyusida “Boburnoma” xususida quyidagi e‘tiroflarni bildirdi:

“Avvalo, shuni alohida ta’kidlashim kerakki, Italian xalqi uchun juda ulug‘ bo‘lgan bu ishni yakunlaganimizda, shu kungacha “Boburnoma”dek buyuk adabiy-tarixiy asarning to‘liq tarjimasini Italian tilida mavjud emasligidan uyalib yurganligimizni ta’kidlash lozim. Bugungi o‘zgacha xursandchiligimning yana bir boisi shuki, bu asarning to‘liq tarjimasini va nashrini aynan bizning nashriyotimiz amalga oshirishga muvaffaq bo‘ldi. Yana bir jihatni aytib o‘tay: to‘g‘ri, biz bu asarni ingliz tilidan tarjima qildik. Lekin, bu bejiz emas. Chunki, “Boburnoma”ning asliyat-Chig‘atoy turkiy tili, ya’ni eski o‘zbek tilidan ingliz va amerikalik olimlar tarjima qilishgan edi. Bugungi kunda esa, asliyatdan, yani eski o‘zbek tilidan ingliz tiliga o‘zbek tilshunoslari va turkologlari jamoasi tomonidan akademik-Shuhrat Sirojiddinov rahbarligida amalga oshirilgan tarjima ham mavjud. Mening nazarimda bu ish ilm olamidagi katta voqeadir. Bizning nashrimizga ushbu tarjima asos bo‘ldi. Mening xursandchiligimning yana bir sababi shuki, “Boburnoma” Italian

o'quvchilari orasida tez tarqalmoqda. Allaqachon mamlakatning ko'pgina kutubxonalari xazinasidan munosib joy egalladi. O'zbekiston tarixiga qiziquvchilar, shuningdek, Shimoliy Hindiston, Afg'oniston tarixi bilan shug'ullanadigan olimlar bu nashrga katta qiziqish bildirmoqda. Menimcha, bu juda katta yutuq. Zero, "Boburnoma"da mazkur yurtlarning tarixi, tabiati, ularning makon tutgan xalqlar etnografiyasiga oid o'ta noyob ma'lumotlar keng o'rin olgan. Buyuk Bobur o'zi ko'rgan, guvohi bo'lgan voqea-hodisalarni qalamga olgani bilan ham bu asar o'ta qimmatlidir.

Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tishim kerakki, Italiyada bugungi kungacha buyuk Bobur yaratgan imperiyani Mo'g'ullar davlati deb atab kelguvchilar ham bordi. Bizning tarjimamiz va nashrimiz ushbu tarixiy adolatsizlik va xatolikni to'g'irlashga hamda mazkur imperiyani tarix haqiqatiga mos ravishda Boburiylar saltanati deb atashga zamin yaratadi. "Boburnoma"dek ulug' asarning kitobxonlar orasida tarqalishini o'z holiga tashlab qo'yganimiz yo'q albatta. Biz uning keng ko'lamli sotuvini tashkil qilishdan tashqari sifatli reklamasini ham boshlaganmiz. Kitobning ilk xalqaro taqdimoti 4-dekabrda Rim shahrida bo'lib o'tadi. Unda xalqaro va ilmiy italyan jamoatchiligi vakillari, mutaxassis olimlar, professorlar qatorida O'zbekistonning Italiyadagi elchisi janob Abad Fayzullayev ham ishtirok etadi. Marosimda "Boburnoma"ning Italyancha nashrini kamina, shuningdek, Florensiya va Parij Universitetlari professori Franco Kardini kabi ishrokchilarga taqdim qilamiz. Albatta, taqdimotimiz shu yagona taqdimot bilan cheklanib qolmaydi. 14-fevral -buyuk buyuk Bobur tavallud topgan kun- birdaniga ikki joyda-Rimdagi La Sapienza Universitetida,aytib qo'yay, bu dargoh Yevropada talabalar soni bo'yicha birinchi o'rinda turadi.

Shuningdek, Italiyaning eng nufuzli ta'lim dargohlaridan bo'lmish Neapol Universitetida ham taqdimotlar o'tkaziladi. Neapoldagi Sharq Universiteti sharqshunoslik bo'yicha G'arb dunyosidagi eng qadimiy ilmiy dargoh bo'lishidan tashqari bugungi kunda ham ilmiy ishlari saviyasi juda yuqoriligi bilan ajralib turadi. Eng muhimi, bu joy hozirda turkiy dunyoni o'rganish markazlaridan biri sanaladi. Bu dargohda qadimgi turkiy tillar, uyg'urcha, chig'atoychadan tashqari zamonaviy o'zbek tilini ham mukammal biladigan Italyan olimlari xizmat qiladi. Bu nashrimiz kelgusidagi katta ishlarning boshlanishi deb o'ylayman. Nega desangiz, albatta, Bobur tarixda o'tgan buyuk shaxsiyatlardan biri. Biroq u yagona emas. Masalan, buyuk Navoiy ham bor. Biz ayni kunlarda Navoiyning "Lison ut-tayr" asari tarjimasi va nashri ustida ishlamoqdamiz. Umuman olganda, O'zbek adabiyoti, she'riyati, ilm-fani shunchalar keng va olamshumulki, bizning bu boradagi ishlarimiz hali yana uzoq davom etadi

Z.M.Bobur nihoyatda ziyrak, nozik-did egasi, zukko adabiyotchi bo'lgan. U So'zga o'ta ehtiyotkorlik bilan yondashgan. "Boburnoma"da qo'llangan har bir so'z

buning dalilidir. Asarda tarixiy shaxslarni tasvirlashda maqollar, iboralardan foydalanilganligi bois asarning asl maʼnosi qalbimizga kirib bora olishi uchun oʻquvchidan mustahkam bilim, ziyraklik talab qiladi. Italyan tilidagi tarjimada ham asliyatdagi frazeologik birliklar tarjimada ham aks ettirilgan. Masalan: сўз арода бўлса эди – If this subject had been broached before (Tekston tarjimasi) italyancha ***Se questo argomento fosse stato affrontato prima***, сўзлари бир-бирига қовушолмай бузуллуб – could come to no agreement – ***non riuscirono a decider il da farsi***, яраш тарҳин ораға солиб esa to make arrangements – ***per prendere accordi***, сўзини ораға сола кириштилар – began to propose a truce – ***iniziarono a proporre una tregua***, сўзни бу ерга қўйдиларким – decided to give quietus to- deciserо – сўз сўрди – asked him one or two questions – ***gli fece una o due domande***, паришон сўзлар келтуруб эди – had come as emissary with absurd proposals – ***come emissario a recare proposte*** insensate, Фирибомуз сўзлар била – deceptive message- ***proposte ingannevoli*** kabi ushbu tilda ham oʻz aksini topgan. Tilning ruhi, milliy-madaniy xususiyatlari albatta oʻzga tilda aks etgan. Bu shundan darak beradiki, xorijiy tilda aks etadigan leksik birliklar yoki iboralar, xos soʻzlar asarning yuragi hisoblanadi. Quyidagi jadvalda inglizcha, ruscha hamda italyan tillarida berilgan “Soʻz” konsepti bilan bogʻliq iboralarni koʻramiz:

Soʻz leksik maydoni (asliyat)	Tabdil	Ruscha tarjima	Leyden - Erskin tarjimas i (1826)	Susanna Beveridj tarjimasi (1921)	Viler Tekston tarjimasi(1921)	Sandro Teti tarjimas i 2023
сўз арода бўлса эди[63]	Таклиф бурунроқ ораға тушса [59]	Если бы об этом заговорили раньше [39]	Had the request been made before [56]	If the matter had been brought forward earlier [87]	If this subject had been broached before [63]	Se questo argomento e fosse stato affrontato prima [60-61]
сўзлари бир-бирига қовушолмай	сўзлари бир-бирига қовушолмай	не смогли сговориться [45].	being unable to agree among	broke up in disaccord[102,103].	could come to no agreement[75].	non riuscirono a decider il da farsi[72]

бузулуб [69].	бузулу б [66].		themselv es[67].			
яраш тарҳин орага солиб [53].	Яраш учун [49].	заложил основы мира[30].	he patched up peace[38] .	from those in[61].	to make arrangeme nts.[43].	per prendere accordi [50]
сўзини орага сола кириш тилар [74].	сўзини орага сола бошлад илар [72].	завели разгово ры о мире [50].	began to talk of peace [77].	began to interpose with talk of peace [118].	began to propose a truce [88].	iniziaron o a proporre una tregua. [90]
сўз сўрди[5 4].	сўз сўради. этдила р [50].	задал несколь ко вопросо в[31].	One or two questions were put [40].	put him a few questions [63]	asked him one or two questions, [45].	gli fece una o due domande [51]
паришо н сўзлар келтур уб эди [63].	катъий талабла р билан келган[60].	передал всякие бестолк овые слова [40]	came on with some seditious propositi ons [57, 58].	come with wild proposals [89].	had come as emissary with absurd proposals. [64,65].	come emissario a recare proposte insensate [69]
Фирибо муз сўзлар била [65].	фирибо муз сўзлар билан [62].	Словам и, полным и лжи [41, 42].	by their deceitful professio ns [61].	By those words of false alloy [93].	deceptive message [68]	proposte ingannev oli[66]

“Boburnoma”ning mazkur italyancha tarjimasiga amerikalik sharqshunos olim V.M.Tekston tomonidan amalga oshirilgan inglizcha nashr [The Baburnama. Memories of Babur, 1996] asos qilib olingan bo‘lib, tarjimon fikriga ko‘ra, u Bobur Mirzo yodnomalarining barcha xususiyatlarini imkon qadar saqlab qolingani. Garchand “Boburnoma”ning A.Beverij tomonidan tayyorlangan inglizcha tarjimasi

[London, 1922] ko‘plab xorijiy tillardagi nashrlar uchun asos vazifasini bajargan bo‘lsa-da, V.M.Tekston tarjimasi mukammallik jihatdan undan farq qiladi. Shu bois italyanча tarjimaga S.Beverijning tarjimasidan roppa-rosa 75 yildan keyin, 1996-yilda professor Vilyer Tekston tomonidan uchinchi bor yaratilgan “Boburnoma”ning mukammal inglizcha tarjimasi asos qilib olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Teshaboyeva Z.Q. “Boburnoma”ning inglizcha tarjimalaridagi frazeologik birliklarning kognitiv va leksikografik tadqiqi. DSc dissertatsiya. – Toshkent, 2021.
2. Teshaboyeva Z.Q. “Boburnoma”ning inglizcha tarjimalaridagi frazeologik birliklar va ularning milliy-madaniy xususiyatlari. PhD dissertatsiya. – Toshkent, 2017
3. Teshaboyeva Z.Q. “Boburnoma»dagi frazeologik birliklarning o‘zbekcha-ruscha-inglizcha lug‘ati. – Toshkent, 2023.
4. <https://fledu.uz/uz/italiyada-boburnoma-asari-chop-etildi/>
5. <https://yuz.uz/uz/news/boburnoma-italyan-tilida>
6. <https://www.youtube.com/watch?v=KKLF1weYHeA>

MADANIYATLARNI ULASHISH VA SAN'ATNING GLOBAL OLAMIGA YO'L OCHISH

Madinaxon XAYITBAYEVA,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

Teatr – bu insoniyatning eng qadimiy san'at shakllaridan biri bo'lib, o'zining ko'p qirrali ifodasi orqali turli jamiyatlar, madaniyatlar va tarixiy davrlarni aks ettiradi. Teatr asarlari ko'pincha o'z madaniyatining qadriyatlarini, urf-odatlarini va hayot tarzini tasvirlaydi, shu bilan birga insoniyatning umumiy his-tuyg'ulari va qarashlarini o'rganadi. Biroq, har bir madaniyatning o'ziga xos tili va ifodalanish uslubi mavjud va bu tilning o'ziga xosligi teatrda yaqqol ko'rinadi. Shuning uchun, teatrda tarjimaning roli ayniqsa muhimdir.

Tarjima teatr asarlarini chet ellik auditoriyaga tushunarli qilish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va san'atni global miqyosda yuksalishiga olib keladi.

Teatrning madaniy ko'prik sifatidagi roli. Teatr san'ati ko'plab madaniyatlarning o'ziga xosliklarini ifodalaydi. Har bir teatr asari o'z madaniy va tarixiy kontekstiga, tiliga va an'anasiga tayanadi. Masalan, yunon tragediyalari, Shekspir teatr asarlari, rus dramatikasida Dostoyevskiy yoki Chexovning asarlari har biri o'z davri va madaniyatining o'ziga xosligini aks ettiradi. Ammo, bu asarlarni faqat bir til yoki madaniyat doirasida qolmasdan, kengroq auditoriyalarga yetkazish uchun ularni tarjima qilish zarurati yuzaga keladi.

Teatrda tarjima nafaqat matnni boshqa tilda ifodalash, balki asl asar va uning madaniy kontekstini yangi auditoriyaga yetkazishdir. Har bir madaniyat o'zining til, urf-odatlar va fikrlash tarziga ega, shuning uchun tarjimon faqat so'zlarni tarjima qilishi kerak emas, balki o'sha madaniyatning ma'naviy, siyosiy va tarixiy ko'rsatkichlarini ham saqlab qolishi zarur. Masalan, rus dramaturgiyasi bo'yicha tarjima ishlari o'z ichiga faqat so'zlarning emas, balki yondashuv, hissiy holat va ruhning ham tarjima qilinishini talab etadi. Shu sababli, tarjimonlar san'atni madaniyatlararo ko'prik sifatida olib borishda muhim rol o'ynaydi.

Teatrda tarjima qiyinchiliklari. Teatrda tarjima qilish oson ish emas, chunki bu faqatgina matnni boshqa tilga o'zgartirish emas, balki uning hissiy ta'sirini, uslubini va dramaturgik tuzilishini saqlashni ham o'z ichiga oladi. Tarjimon teatr asarini o'zgartirishda yoki yangilashda, ayni paytda asl asarni hurmat qilishni va uning hissiy va intellektual ta'sirini yo'qotmaslikni maqsad qiladi.

A. Madaniy kontekst va alluziyalar

Har bir pyesa o'zining madaniy, tarixiy yoki ijtimoiy kontekstiga ega. Teatrda ishlatilgan metaforalar, alluziyalar va ma'lum tarixiy voqealarga ishora qilish ko'pincha maqsadli auditoriya uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin. Tarjimon ushbu masalani qanday hal qilishi kerak? Ba'zan, tarjimon madaniy va tarixiy ishoralarni yangi auditoriyaga moslashtirish uchun biror voqeani yoki shaxsni o'zgartirishi yoki tushuntirish berishi zarur. Masalan, 19 asrning o'rtalarida yozilgan bir fransuz pyesasida siyosiy ma'nodagi ishoralar bo'lishi mumkin, ular yapon yoki amerikalik auditoriya uchun to'g'ridan-to'g'ri tushunarli bo'lmasligi mumkin. Bunday holda, tarjimon pyesadagi ishoralarni tushuntirish yoki yangi madaniyatga moslashtirishga majbur bo'ladi.

B. Dialekt va Uslub

Teatrda har bir obrazning o'ziga xos tili, uslubi, hatto lahjasi bo'lishi mumkin. Agar pyesa biror mintaqaviy lahjada yozilgan bo'lsa, tarjimon ushbu lahjani qanday saqlab qolish va yangi tilga qanday moslashtirishni hal qilishi kerak. Masalan, Londonning past darajadagi qatlamlaridan kelgan bir obrazning britaniyalik lahjada gapirishi yoki Amerikada tug'ilgan bir obrazning jug'rofiy talaffuzi bilan ushbu tilni boshqa madaniyatga moslashtirishda qo'shimcha ijodkorlik talab etiladi. Tarjimon bu jarayonda dialektni saqlashga yoki uning o'rniga o'xshash bir tilni ishlatishga qaror qilishi mumkin.

Teatrda tarjimaning ijodiy vazifasi. Tarjimon teatr asarini faqat so'zlarni o'zgartirish orqali emas, balki pyesaning ijodiy va emotsional mohiyatini ham saqlab qolish orqali amalga oshiradi. Bu, ayniqsa, teatrning ko'pgina elementlarini, jumladan, sahnada voqealar, harakatlar, ifodalar, dramatik tempo tarjimaga ta'sir qilishi sababli ularning ma'nosini uzatish o'ta muhim vazifa. Tarjimon, original asarning tematikasi va obrazlarini saqlashga harakat qiladi. Bu o'ziga xos bir san'at shakli bo'lib, dramaturgning original niyatini va o'ziga xos uslubini yangi madaniyatda va yangi auditoriyada aks ettirishni talab etadi.

Tarjimonning vazifasi faqat so'zlarni o'zgartirishdan iborat emas, balki original pyesaning o'ziga xos hissiy ahamiyatini saqlashdir. Har bir pyesa nafaqat o'qish, balki tomosha qilish uchun yaratilgan, shuning uchun tarjimon nafaqat matnni, balki teatrda obrazlarning hayotini yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi kerak.

Tarjimaning auditoriyaga ta'siri. Teatrda tarjimaning eng muhim ahamiyatlaridan biri, uning auditoriyani kengaytirishdagi rolidir. Tarjima orqali xorijiy pyesalar va dramaturglar dunyoning turli burchaklaridagi odamlar tomonidan o'qiladi va tomosha qilinadi. Bu madaniyatlararo muloqotni rivojlantiradi, odamlarni yangi g'oyalar, qadriyatlar va hikoyalar bilan tanishtiradi. Tarjima nafaqat san'atni yangi auditoriyaga tanitadi, balki odamlarni madaniyatlararo farqlarni tushunishga va bir-birini qadriga yetishga undaydi.

Shuningdek, tarjima teatrning global o'lhovdagi imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Teatr asarlari turli tillarga tarjima qilinib, yangi madaniyatlarda sahnalashtirilgan holda, turli jamiyatlarga bir-birlarini yaxshiroq tushunish imkonini yaratadi. Shekspir asarlari, misol uchun, dunyoning turli burchaklarida o'ziga xos tarzda sahnalashtirilgan va har bir sahna turli madaniyatlari bilan o'ziga xos tasavvurga ega. Bu esa, xalqaro teatr hamkorligini rivojlantirish va global madaniyatni boyitish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa sifatida aytish mumkiniki, teatrda tarjimaning roli benihoyat katta. Tarjima san'atni madaniyatlararo ko'prik sifatida qo'llanib, uning chegaralarini kengaytiradi va auditoriyalarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Teatr asarlarini tarjima qilish nafaqat tilni, balki madaniy kontekstni, hissiy ta'sir va dramatik ma'noni saqlashni talab etadi. Tarjimon bu jarayonda san'atning ifodalovchi qudratini saqlab qoladi va teatrning global miqyosda rivojlanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., 2005.
2. Бенашвили М. Театр и зритель. – М., 1980.
3. Театральная энциклопедия. – Под ред. П.А. Маркова. – Изд-во «Советская Энциклопедия». - М., 1965.
4. Театр: энциклопедия. – М.: ОЛМА-ПРЕСС Образование, 2002.
5. Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English. Seventh Edition. – Oxford University Press, 2005.
6. Уильямс Т. Театр и политика. – М., 1986.
7. Wilde O. The Picture of Dorian Gray. – Moscow: Progress Publishers, 1979.

“BOBURNOMA” DAGI IZOFIY BIRIKMALI BOG‘ NOMLARINING INGLIZCHA TARJIMALARI QIYOSIY TAHLILI

Yulduz ZAYNIYEVA,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridagi izofiy birikmali bog‘ nomlari va ularning ingliz tiliga tarjimasini tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida asarda uchraydigan bog‘ nomlarining izofiy tuzilishi, semantik mazmuni va tarjima jarayonida ma’naviy ohangning saqlanishi yoki yo‘qolishi masalalari o‘rganiladi. Ingliz tarjimalarining asliyatga yaqinligi va ma’no xususiyatlarini saqlab qolish darajasi J.Leyden va V.Erskin,

A.S.Beverij va V.Tekston tarjimonlarning ishlariga asoslanib tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot tarjima nazariyasi va “Boburnoma”ni o‘rganish bo‘yicha yangi yondashuvlarni taklif etadi.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, izofiy birikmalar, bog‘ nomlari, tarjima nazariyasi, J.Leyden va V.Erskin , A.S. Beveridge va V.Tekston.

Annotation. This article analyzes the izafet-based garden names in Zahiriddin Muhammad Babur’s “Baburnama” and their translations into English. The study examines the structural, semantic and poetic qualities of the garden names as they appear in the original text and how these elements are preserved or altered in translation. Special attention is given to the translations by J.Leyden_V.Erskine, Annette Susannah Beveridge, Wheeler Thackston translators, assessing their fidelity to the original text and their ability to retain its aesthetic and poetic nuances. This research offers new insights for translation theory and “Baburnama” studies.

Key words: Baburnama, izafas, garden names, translation theory, J.Leyden-V.Erskine, Annette Beveridge, W.Thackston

Bog‘ yaratish, bog‘dorchilik amali insoniyat taraqqiyoti tarixidagi eng ulug‘ kashfiyotlardan biridir. Inson ibtidoiy zamonlardan bog‘ni hayot va to‘kinchilik ramzi sanaydi.

Buyuk bobolarimiz Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur bunyod etgan bog‘lar jahon bog‘dorchilik tarixida alohida o‘rin egallaydi. Sohibqiron faxr bilan aytar ekanki: “Mening bir bog‘im borki, u Buxorodan Samarqandgachadir”. Yana aytar ekanlarki: “Shoh bo‘lsang-da, bog‘ yarat, gado bo‘lsang-da bog‘ yarat, bir kuni mevasidan totarsan”. Qudratli saltanat poytaxti tevaragida Amir Temur tomonidan bunyod etilgan bog‘lar xususida muarrix Abu Tohirxo‘ja Samarqandiy shunday yozadi: “Samarqandda Amir Temur Ko‘ragon soldirgan bog‘larkim, Eram gulistoni rashk qilar darajada, yettita ekan:

Birinchisi – **Bog‘i Shimol** – Samarqand shimolida. Devori Qiyomat ichida. Ikkinchisi – **Bog‘i Baland**. Uchinchisi – **Bog‘i Behisht**. To‘rtinchisi – **Bog‘i Chinor**. Bu ikki bog‘ shaharning kunchiqar tomonida. Beshinchisi – **Bog‘i Dilkusho** bo‘lib, Konigilning janub tomonida. Konigil Ko‘hak daryosining yoqasida, Samarqandning eng go‘zal va chiroylik yeridir. Oltinchisi – **Bog‘i Zog‘on** – Shovdor tumanining shimol tomonida voqedir. Yettinchisi – **Bog‘i Jahonnamo** – Anhor tumanida bo‘lib, tog‘ etagiga yaqin yerda, Samarqandning janubida bunyod qilingandir”¹⁴. Ushbu matndagi ajratib yozilgan gaplar izofali gapdir. “bog” leksik birligiga “i” qoshish orqali yasalmogda, ya’ni *bog‘i Shimol* kabi.

¹⁴ Bazarbayev Sharap Tadjiboyevich “Sohibqiron Amir Temur barpo qilgan firdavsmonand bog‘lar” 99 bet.
www.uzresearchers.com

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari o‘z davrining bebaho manbasi bo‘lib, unda O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston va boshqa hududlarning tabiati, madaniyati va tarixini o‘ziga xos aniqlik va chuqur kuzatuvchanlik bilan tasvirlagan. Asarda quyidagi jihatlar alohida o‘rin egallaydi: Birinchi, tabiat tasviri

Bobur o‘z asarida har bir hududning tabiiy boyliklarini ajoyib tarzda tasvirlab, o‘sha joylarning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritgan:

- O‘simlik va hayvonot dunyosining xilma-xilligi.
- Tog‘lar, daryolar, bog‘lar va daraxtlarning go‘zalligiga oid aniq bayonlar. Masalan, Hindistonning takrorlanmas tabiatini tasvirlab, u yerning iqlimi va o‘simlik dunyosi haqida birinchi manba sifatida “Boburnoma”da ma’lumot bergan.

Ikkinchi, hududlarning madaniyat va urf-odatlarini haqida:

Bobur yashagan va hukmronlik qilgan hududlardagi xalqlarning madaniyati, urf-odatlarini va turmush tarzini batafsil tasvirlagan. Masalan:

- Hindistondagi diniy marosimlar va qavatli madaniy turfa xillik.
- O‘rta Osiyodagi ko‘hna an‘analari va ular bilan bog‘liq qadimiy me’moriy yodgorliklar.

Uchinchi, tarixiy ma’lumotlar. Bobur o‘z yurishlari va hukmronligi davridagi tarixiy voqealarni batafsil bayon qilgan:

- O‘zining Farg‘ona vodiysidagi bolalik yillari.
- Afg‘onistonni zabt etish jarayoni va Hindistonga yurishlari.
- Sohibqiron Amir Temur avlodlarining siyosiy va madaniy merosi.

To‘rtinchi, Bog‘lar va bog‘dorchilik san’ati. “Boburnoma”da bog‘lar tasviri alohida o‘rin tutadi. Bobur o‘zi barpo etgan bog‘larni, jumladan, **Bog‘i Dilkusho**, **Bog‘i Xilvat**, **Bog‘i Zog‘on**, **Bog‘i Shamol** kabi bog‘larni tasvirlash orqali o‘zining nafis didini va tabiatga bo‘lgan muhabbatini ifoda etgan. Bu bog‘ nomlari izofiy birikmalar orqali o‘ziga xos ma’no kasb etadi.

Biz esa quyida asardagi joy nomini ifodalovchi izofiy birikmalarni tahlilga tortdik. “Boburnoma”dagi birgina bog‘ nomlarining o‘zi yigirmadan ortiq bo‘lib, ularning barchasi fors-tojik izofali birikmasi shaklida berilgan:

1-jadval

Asliyat	Tabdil	J.Leyden-Erskin	Susannah Beveredge	Thackston
Боғи Бинафша [179]	Боғи Бинафша [185]	the Bagh-e-Benefsheh (Violet garden) [279]	the Violet-garden [415]	The Bagh-i-Banafsha ["Violet Garden"] [287]

Боғи Биҳишт [59]	Боғи Биҳишт [56]	The Bagh-e- Behisht (or Garden of Paradise). [50]	the Bagh-i- bihisht (Garden of Paradise) [78]	the Bagh-i-Bihisht "Garden of Paradise." [84]
Боғи Бўлду [59]	Боғи Бўлду [56]	Bagh-e-Boldi (Or the Perfect Garden) [50]	the Bagh-i- bulandi [78]	Bagh-i-Dulday "Duiday's Garden [84]
Боғи Дилкушо [59]	Боғи Дилкушо (Кўнгилоҷар) [56]	Bagh-e- Dilkusha (Or the Heart- delighting Garden) [50]	The Bagh- idilkusha [78]	Bagh-i-Dilgusha "Garden of (Delight") [84]
Боғи Фатх [232]	Боғи Фатҳ [244]	The Garden- of-Victory [373]	Garden-of- victory [584]	the Bagh-i-Fath ("VictoryGarden.")
Боғи Жаҳоноро [144]	Боғи Жаҳоноро [145]	the Bagh-e- Jehan-ara [204]	the World- adorning Garden [302]	the Bagh-i- Jahanara (World-Adorning Garden) [234]
Боғи Калон [112]	Боғи Калон (Катта боғ) [111]	Bagh-e-Kilan (or the Great Garden)[147]	the Bagh-i- kalan [247]	Bagh-i-Kalan (Big Garden.) [178]
Боғи Майдон [58]	Боғи Майдон [54]	the Bagh-e- meidan (The Garden of the plain) [46]	the Bagh-i- maidan (Garden of the plain) [72]	Baghi-Maydan ("Playing-Field Garden) [80]
Боғи Назаргоҳ [145]	Боғи Назаргоҳ [147]	the Bagh-e- Nezer-gah [207]	Nazar-gah- garden [305]	the Bagh-i- Nazargah (Belvedere Garden) [237]
Боғи Нав [144]	Боғи Нав [145]	The New Garden (Bagh-e-nou) [204]	New-garden [306]	the Bagh-i-Naw ("New Garden.") [72]

Боғи Наврӯзӣ [124]	Боғи Наврӯзӣ [123]	Bagh-e- Nourozi (the Garden of the New Year). [169]	The New- year's Garden [246]	the Bagh-i- Nawrozi ("New Year's Garden [198]
Боғи Сафид [144]	Боғи Сафид [145]	The White Garden (Bagh-e- Sefid) [204]	The White- garden [302]	Bagh-i-Safed (White Garden.) [234]
Боғи Сафо [166]	Боғи Сафо [169]	the Bagh-e- Sefa (or Garden of Purity) [255]	Bagh-i- safa[665]	Bagh-i-Safa (Garden of Purity) [276]
Боғи Вафо [171]	Боғи Вафо [175]	The Bagh-e- Vafa [265]	Bagh e wafa (the Garden of Fidelity). [227]	the Bagh-i-wafa. [394]
Боғи Хиёбон [145]	Боғи Хиёбон [147]	The Bagh-e- Khiaban [207]	The Avenue- garden [647]	the Bagh-i- Khiaban(Garden of the Avenue.) [237]
Боғи Хилват [172]	Боғи Хилват [177]	the Baghe Khilwat [266]	theBagh-i- khilwat [346]	a private garden [288]
Боғи Зоғон [145]	Боғи Зоғон [147]	the Bagh- Zaghan (Or Raven Garden) [207]	the Ravens'- garden [260]	the Bagh-i-Zaghan "Garden of the Ravens." [122]
Боғи Зубайда [145]	Боғи Зубайда [147]	The Bagh-e- Zobeideh's Garden [207]	Zubaida- garden [306]	the Bagh-i- Zubayda Garden. [238]
Боғи Шамол [59]	Боғи Шамол [56]	the Bagh-e- Shemal (or Northern Garden) [50]	the Bagh-i- shamal (North Garden) [78]	The Bagh-i-Shimal [84]

Боғи Шахр [145]	Боғшахр [147]	the Bagh-e-Sheher (or City Garden) [207]	Town-garden [306]	The Bagh-i-Shahr, ("City Garden.") [238]
Боғи Чанор [59]	Боғи Чанор [56]	theBagh-e-Chenar (the Plane-Tree Garden) [50]	the Bagh-i- chanar [The Plane-tree Garden][78]	the Bagh-i-Chanar (Plane Tree Garden) [84]

Ushbu bog‘ nomlaridan ba’zilarini tahlilga tortdik.

“**Bog‘i Binafsha**” bog‘ nomining asliyatda va tarjimalardagi tahlili bog‘lar nomlari tarjimasida semantik va poetik elementlarning qanchalik saqlanganini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Keling, ushbu nomlarni har bir tarjimada tahlil qilamiz:

Asliyatdagi nom **Боғи Бинафша [179]**: *Чоршанба куни зилқаъда ойининг гуррасида Қобилнинг гўрининг қошида ёлғуз бориб, сабуҳий қилдим. Сўнгра аҳли мажлис бирин-иккин келдилар. Офтоб ёйила **Боғи Бинафшага** бориб, ҳавз ёқасида ичилди. Туш бўла уйқулаб, намози пешин яна ичилди. [179]*

Izofa birikmasi “Bog‘i” (bog‘) va “Binafsha” (binafsha gul) izofa orqali bog‘langan. Semantik ma’no “Binafsha gul bog‘i” degan ma’noni beradi.

Tabdilda esa shunday berilgan: *Зулқаъда ойининг аввалида, чоршанба куни Қобилнинг қабри бошига ёлғиз ўзим бориб, сабуҳий қилдим. Кейин мажлис аҳли бирин-кетин келдилар. Кун ёйила бошлаганда **Боғи Бинафшага** бориб, ҳовуз бўйида ичилди. Тушга яқин ухлаб, пешин намози чоғи яна ичилди. [185]*

J. Leyden va V. Erskin tarjimasi: On Wednesday, the first of Zikadeh, I went alone and an early cup close by Kabil Beg’s tomb; the party afretwards dropped in, by one or two at a time. When the sun waxed hot, we retired to the **Bagh-e-Benefsheh** (Violet Garden), and sat down to our wine by the side of the piece of water. [279]

The Bagh-e-Benefsheh (Violet Garden) tarjimonlar arabcha-forsiy transliteratsiyani (“Bagh-e-Benefsheh”) qo‘llangan. “Violet Garden” qavs ichida berilgan bo‘lib, bu esa ma’noni izohlab, asl nomni saqlashga uringanligini ko‘rsatadi.

Annetta Beverij tarjimasi: On Wednesday the 1st of Zu'1-qa'da, I went by myself to Qabil's tomb and there took my morning. The people of the party came later by ones and twos. When the Sun waxed hot, we went to **the Violet-garden** and drank there, by the side of the reservoir. [415]

The Violet Garden [415]. Beverij asliyatdagi “*Bog‘i Binafsha*” izofasini to‘liq tarjima qilib, faqat “*The Violet Garden*” shaklida berib, semantik ma’noni to‘liq saqlagan. Lekin “Bog‘i” so‘zining asliyatdagi ko‘rinishi yo‘qolib, tarjimada fors-tojik tilidagi ohang aks etmaydi.

Tekston tarjimasi: On Wednesday the first of Dhu'l-Qa'da [October 25], I went out by myself to Cain's tomb and had a morning draught. Later the members of the party straggled in by ones and twos. When the sun was well up, we went to **the Bagh-i-Banafsha ("Violet Garden.")** and drank by the side of the pool. [287]

The Bagh-i-Banafsha (Violet Garden) [287]. Tekston Leyden uslubiga yaqinlashib, forsha “*Bagh-i-Banafsha*”ni saqlagan. Qavs ichida “Violet Garden” ma’no izohi keltirilgan. Bu tarjima asliyatning lingvistik va poetik xususiyatlarini saqlashga urinib, ayni paytda ingliz o‘quvchisiga ma’no ochiqligini ta’minlaydi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, izofali birikmalarni tarjimada yetkazishda Beverij va Tekston tarjimalari semantik ma’noni yaxshi yetkazdi, ayniqsa “Violet Garden” shakli o‘quvchi uchun sodda va tushunarli. J.Leyden-Erskin va Tekston tarjimalari asliyatdagi “Bagh-i-Banafsha” shaklini transliteratsiya orqali saqlab qolgan.

“*Bog‘i Bo‘ldu*” – Samarqand sharqida barpo bo‘lgan bog‘. Bog‘ nomi xususida fikr yuritganda aytish joizki, “Bo‘ldu” kalimasini ayrimlar “kamolotga yetgan, yetuk, kam-ko‘stsiz”, boshqalar esa “farovonlik, mo‘lchilik” ma’nosiga ega deb ko‘rsatadilar. V.Radlovning turk shevalari lug‘atida bu so‘z “badavlat” ma’nosini bildiradi deb qayd etilgan. Shunga ko‘ra, *Bog‘i Bo‘ldu* “to‘kin bog‘” ma’nosiga egadir. Nomining tarjimalari, uning semantik va poetik ma’nosini qanday saqlashga intilishini tahlil qilishni davom ettiramiz. Har bir tarjima asliyatdagi ma’noni qanday aks ettirganini va tarjimonlar qay tarzda aks ettirganini ko‘rib chiqamiz.

Asliyatdagi nom *Боғи Бўлду* [59]. Самарқанднинг шарқида икки боғ солибтур, бириким йироқроқтур, **Боғи Бўлдудур**, ёвукроғи Боғи Дилкушодур. Андин Феруза дарвозасигача хиёбон қилиб, икки тарафида терак йиғочлари эктурубтур [59].

Izofa birikmasi “Bog‘i” (bog‘) va “Bo‘ldu” (ya’ni tepada berilgan izohga ko‘ra “mukammal” ma’nosini anglatadi) so‘zlari izofiy bog‘lanadi.

Tabdilda: *Самарқанднинг шарқида икки боғ солган, унинг бири йироқроқ бўлиб, Боғи Бўлдудур, яқинроғи Боғи Дилкушо (кўнгилочар)дур. У ердан Феруза дарвозасигача хиёбон қилиб, икки тарафида терак дарахтлари эктирган* [56].

J.Leyden-V.Erskin tarjimasini tahlil qilamiz: To the east of Samarkand there are two gardens. The one, which is the more distant, is **called Bagh-e-Boldi (or the Perfect Garden)**; the nearer, Bagh-e-Dilkusha (or the Heart- delighting Garden). From the Bagh-e-dilkusha to the Firozeh gate there is a khiaban (or public avenue), planted on each side with pine-trees [50].

Tarjimonlar “Bagh-e-Boldi”ni transliteratsiya qilgan va kiritilgan qo‘shimcha izoh sifatida “the Perfect Garden”ni berib, nomni tushunarli qiladi. “Perfect Garden” tarjimasi asliyatdagi “Bo‘ldu”ning mukammallikni ta’kidlashini to‘g‘ri aks ettiradi. Bu tarjima original ma’noni saqlab qolgan va ingliz tilida o‘quvchi uchun aniq bo‘ladi.

Susanna Beverij tarjimasida quyidagicha beriladi: This also is a very fine building. Again, he laid out two gardens, on the east of the town, one, the more distant, **the Bagh-i-bulandi**, the other and nearer, the Bagh-i-dilkusha. From Dilkusha to the Turquoise Gate, he planted an Avenue of White Poplar, and in the garden, itself erected a great kiosque, painted inside, with pictures of his battles in Hindustan [78].

Beverij “Bagh-i-bulandi”ni tanlagan, bu tarjima asliyatdagi “Bo‘ldu”ning “ideal” yoki “mukammal” ma’nosidan ko‘ra, “baland” yoki “yuqori” ma’nosiga yaqin keladi.

Tekston tarjimasi: To the East of Samarkand, he had two gardens constructed. The farther of the two is Bagh-i-Dilgusha (“Garden of Delight”) called **Bagh-i-Dulday (Duiday's Garden)** and the nearer Bagh-i-Dilgusha. An avenue was made from the Dilgusha garden to the Turquoise Gate, and on both sides’ poplar trees were planted. In the Dilgusha a large pavilion was constructed and in it Temur Beg’s India campaign was depicted [84].

Tekston tarjimasi juda qiziqarli: u “Bagh-i-Dulday”ni qo‘llagan. “Dulday” bu yerda bog‘ning nomi sifatida ishlatilgan, lekin “Bog‘i Bo‘ldu”ning ma’nosi bilan bir oz farq qiladi. “Dulday’s Garden” bo‘lishi, asliyatdagi mukammallik o‘rniga, bog‘ning individual va shaxsning nomini aks ettiradi.

J.Leyden-Erskin tarjimasi asliyatdagi “Bo‘ldu” so‘zining mukammallik va idealni anglatgan ma’nosini to‘liq saqlaydi, bu esa tarjima jarayonidagi muvaffaqiyatli yondashuv bo‘lganini ko‘rsatadi.

Tarjimalardan umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, “Boburnoma”dagi bog‘lar nomlaridagi izofiy birikmalar “Bog‘i bo‘ldu”, “Bog‘i shamol” va boshqalar ingliz tilida o‘zgarishga duch kelganligini ko‘rsatadi. Ushbu izofiy birikmalar asarda o‘zining ma’nosini saqlashga qaratilgan, ammo ingliz tiliga tarjima qilinganida ba’zan ularning ma’nosi noaniq yoki kamayganini ko‘rishimiz mumkin. Tarjimonlar asarlarni ko‘pincha aniq, to‘liq va izchil tarjima qilishga harakat qiladilar. Masalan, J.Leyden-V.Erskin, A.Beverij va V.Tekstonning tarjimalari o‘rtasidagi farqlarni ko‘rganimizda, ba’zi tarjimonlar nomlarni faqat so‘zma-so‘z tarjima qilishgan, boshqalari esa ularni madaniy jihatdan tushunarli va aniqroq qilish uchun o‘zgartirishlar kiritgan [jadvalda to‘liq ko‘rishimiz mumkin]. Shuningdek, tarjima jarayonida bog‘ nomlarining asl mazmunini saqlashni har bir tarjimon o‘z

yondashuviga ko‘ra amalga oshirgan. Bu esa bog‘ nomlarining ingliz tilidagi variantlarini kengaytiradi va tarjima sifatini yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amonov M. “Boburnoma”dagi izofiy birikmalarning lisoniy tadqiqi”. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).: Farg‘ona. –2020.
2. "Amir Temur bog‘lari" O‘zME. A-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Bazarbayev Sharap Tadjiboyevich “Sohibqiron Amir Temur barpo qilgan firdavsmonand bog‘lar” 99-103 bet. www.uzresearchers.com
4. Beveridge, Anette Susannah. The Babur-nama in English. Emperor of Hindustan Babur. – London, 1921. – 880 p.
5. Leyden John. Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber: Babur Emperor of Hindustan. – London., 1826. – 432 p.
6. Thackston Wh.M. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor. – New York, 1996. – 554 p.
7. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. 2002. Тошкент: Шарқ НМАК, 336 б.
8. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Т.: “Шарқ” НМАК, 2008, 336 б.
9. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. Шарқ. Тошкент. – 2014.

TARJIMASHUNOSLIK FANIDA DINIY TARJIMA O‘RNI VA AHAMIYATI

Mahbuba QUVONDIQOVA,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Ushbu tezis tarjimashunoslik fanida diniy tarjimaning o‘rni va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan. Diniy tarjima borasida bir necha olimlarning fikrlari ochib berilgan hamda diniy tarjimada yuzaga keladigan ayrim muammolar, yurtimizda bu borada amalga oshirilgan ishlar haqida bahs yuritilgan.

Kalit so‘zlar: tarjima, tarjimashunoslik, din, diniy tarjima, diniy matn, ochiq tarjima, asliyat.

Tarjima – bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. hamda millatlararo muloqotning eng muhim ko‘rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi. Shular qatorida diniy tarjima ham bo‘lib, u boshqa tarjima turlari kabi o‘ziga xos xususiyatlarga egadir.

Tarjimashunoslik fanida diniy tarjima nihoyatda muhim hisoblanadi. Hozirgi kunda ushbu yo‘nalishni batafsil o‘rganish va yanada kengaytirishga ehtiyoj mavjud. Din – har bir inson hayotining ajralmas qismidir. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak ham qadimdan odamlar ilohlarga, ma‘budlarga yoxud biror narsaga sig‘inib kelganini ko‘rishimiz mumkin. Jahon dinlari buddizm, xristianlik va islom vujudga kelgandan so‘ng o‘z-o‘zidan bu dinlarga e‘tiqod qiluvchilar soni ham ortib bordi. Biror dinga amal qilishda albatta uning muqaddas kitobini ham o‘rganish kerak bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida o‘sha kitobni boshqa tillarga tarjima qilish zaruratini paydo qiladi. Masalan, musulmonlarning muqaddas kitobi bo‘lmish Qur‘oni Karim ham ingliz tiliga tarjima qilinish sabablaridan biri shuki, ko‘plab ingliz tilida so‘zlashuvchilar yashaydigan mamlakatlarda islom dini qabul qilingan hamda asli arab tilida bo‘lgan bu kitobni ingliz tiliga tarjima qilish ehtiyoji paydo bo‘lgan va bu yillar davomida amalga oshirilgan.

Manbalarni izlanganimizda aynan diniy tarjima degan sohaga oid materiallarni topishda biroz muammolarga duch kelindi. Ayniqsa, o‘zbek tilidagi manbalar orasida. Lekin bu yo‘nalishga tegishli ko‘plab tadqiqotlar olib borilgani, maqola va tezislarni nashr qilinganiga guvoh bo‘ldik. Ingliz tilida esa bu sohaga oid birmuncha ko‘proq manbalar mavjud. Diniy tarjima faqatgina bir so‘zning ikkinchi bir tilda aks etishi emas. Tarjimaning bu turi bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan tarjimon nafaqat manba tili va tarjima qilinayotgan til xususiyatlarini, balki diniy matn tegishli

bo'lgan xalqlar hayoti, turmush tarzi, madaniyati, o'ziga xosliklari kabi ma'lumotlardan ham xabardor bo'lishi talab etiladi. Masalan, tarjimon asliyatini arab tilida bo'lgan hadisni tarjima qilmoqchi deylik. Agar tarjimon faqatgina tashqi omillarni hisobga olsa, ya'ni matnni faqatgina so'zlar jamlanmasi tarzida, shakliy jihatdangina berib qo'ysa, bunda tarjimadan ko'zlangan maqsadga yetolmasligi mumkin. Aksincha matn mazmunini teran anglagan holda, o'zi ham tushunib tarjimani amalga oshirsa, o'quvchiga ham matn mohiyatini yetkazib bera oladi.

Robinson fikriga ko'ra tarjima jihatidan diniy tarjima muammoli hisoblanadi. Bunda diniy matnlarni tarjima qilib bo'ladimi, ularni tarjima qilish kerakmi yo'qmi? Qanday, qachon, kim uchun va qanday xavfsizlik va nazorat bilan diniy matnlarni tarjima qilish kerak kabi savollarni o'rtaga tashlaydi [1]. Shuningdek, u diniy tarjimani amalga oshirishda to'rt o'lcham mavjudligini ta'kidlaydi:

1. Muqaddas matnlarning shaxsiy foydalanish uchun tarjimasi juda kam nazorat talab qiladi hamda tarjima tartibga solinmagan bo'ladi.

2. Tartibga solingan tarjima bo'lib, bunda matnni kim tarjima qilyapti, nimani va qanday tarjima qilyapti, kim uchun tarjima qilinyapti, tarjima kimlarga tarqatiladi va kimlar bilan muhokama qilinadi – bularning barchasi nazoratga olinadi. Bu bosqichda tarjima butkul ta'qiqlangan yoki unga ma'lum cheklovlar qo'yilgan bo'ladi. O'z navbatida bu bosqich quyidagilarni qamrab oladi:

a) asl matnlar tashqaridagilardan saqlanadi va shu sababli tarjimada mavjud bo'lmaydi;

b) matnlar shifrlar yoki qadimgi yozuvlar orqali oshkor bo'lishdan himoya qilinadi;

c) matnlar faqatgina marosim vaqtida diniy vakillar tomonidan ma'lum doiradagilar uchungina og'zaki tarjima qilinadi.

3. Bu tarjima ikkinchi o'lchamdan to'rtinchisiga o'tish bosqichi vazifasini o'taydi. Bu turda haqiqiy tarjimaning tushunarliklik darajasi hisobga olinadi.

4. Ochiq tarjima bo'lib, matn asliyatda omma uchun yozilgan va ulardan beriktilmasligi kerak deb qaraladi [2].

O'zbekistonda tarjimashunoslik maxsus ilm sifatida o'tgan asrning ikkinchi yarmidan shakllandi. Asr oxiriga kelib, bu sohada 10 ga yaqin fan turi, 50 dan ortiq fan nomzodi yetishib chiqdi. Professor Jumaniyoz Sharipov tadqiqotlari asosan adabiyotimiz tarixida tarjimaning o'rnini ko'rsatishga bag'ishlangan bo'lsa, professor G'aybullay Salomov asosan zamonaviy tarjimashunoslik masalalari bilan shug'ullandi, tarjima jarayoniga til hamda adabiy an'analarning ta'sirini ko'rsatib berdi. Najmiddin Komilov esa mumtoz janrlarning o'tmish va hozirdagi tarjimalarini tadqiq etdi [4]. Diniy tarjima borasida ham bir qator ishlar amalga oshirildi. Shayx Alouddin Mansurning Qur'oni Karim – o'zbekcha izohli tarjimasi bu borada qilingan ishlarning dastlabkisidir. Hozirgi kunda yurtdoshlarimiz orasida

eng ommabop hisoblangan va qayta-qayta nashr etilayotgan tafsir – Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning qalamlariga mansub 6 jildlik “Tafsiri Hilol”dir. Bundan tashqari Shayx Abdulaziz Mansurning “Qur’oni Karim ma’nolari tarjimasi” kitobi hamda 2019-yilda nashr qilingan Shayx Usmonxon Temurxonning 6 jildlik “Tafsiri Irfon” tafsir kitoblari shunday asarlar sirasiga kiradi [3].

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, diniy tarjima tarjimashunoslik fanida o‘ziga xos o‘rin egallagan yo‘nalishlardan biridir. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, din taraqqiy etib borayotgan hozirgi kunda tarjimaning bu turiga bo‘lgan talab ham ortib bormoqda. Zero, asliyatdagi diniy matn tilini o‘rganishga hamma ham qodir emas, biroq uni o‘z ona tilida o‘qib-o‘rganib, anglashlari mumkin. Bu jarayon esa tarjima matnlar vositasida amalga oshiriladi hamda shu sabab tarjima sohasi vakillari oldiga yangi va mas’uliyatli vazifalarni qo‘yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Robinson, Douglas. Sacred texts. The Oxford Guide to Literature in English Translation. – Oxford University Press, 2000. – 103 p.
2. Jacobus A Naude. Religious translation. – Article. Researchgate. March 2010. – 287-288 pp.
3. Mavlonov O. O‘zbekistonda teolingvistika. So‘z san’ati xalqaro jurnali. №5. T., 2019. – 15 b.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tarjima>.

IJODKOR TARJIMON VA TARJIMA MASALASIDA

Baxrom ISKANDAROV,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*

Har bir soha va davrning o'z ustasi va mahoratli namoyondasi bo'lgani kabi, tarjimashunoslikda ham 1970-yillar va 2000-yillar boshida o'z ijodi bilan nom qozongan ajoyib tarjimon Ibrohim G'afurov, 1937-yil 27-dekabrda hunarmand oilasida tug'ulib voyaga yetdi. Bu inson hayoti davomida ko'plab durdona asarlarni tarjima qilishga musharraf bo'ldi va qiyinchiliklarga qaramasdan ilm fan sohasiga xususan tarjimashunoslik sohasiga qo'shgan hissalarini beqiyosdir. Ijodkor o'z so'zlarida tarjimonning ma'suliyati haqida fikr bildirib o'tadi. Tarjimon o'z ishiga kuchli ma'suliyat bilan yondashishi lozim. Uning tarjima qilgan har bir so'zi kitobhonga to'g'ri talqinda yetib borayotganligiga amin bo'lishi lozim. Ya'ni ma'suliyat bilan yondashilgan tarjima va ijod yuqori samaradorlikda bo'lib, kitobxon ko'nglidan o'zgacha bir o'rin egallab qolish bilan birga uni asar olamiga yetaklaydi. Ibrohim G'afurov sayoz tarjimaga ega asarlar, matnlar va maqolalarni tanqid ostiga olib, ular ustida ishlagan ijodkor tarjimonlarning o'z ishlariga ma'suliyatsizlarcha yondashganliklarini ta'kidlaydi.

Tarjimonlik ancha vaqtlardan buyon inson hayotida asosiy ahamiyat kasb etib kelmoqda. Tarjima deganda faqatgina so'zlarni bir tildan ikkinchi tilga muqobil ma'noga keltirib tarjima qilishni emas, balkim ularning bir qancha xususiyatlarini inobatga olgan holda tarjimasini tadbqiq qilish demakdir. Quyidagi gapimizdan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, ijodkor so'zlarni, iboralarni yoki gaplarni tarjima qilganida, tarjima qilmoqchi bo'lgan tilining barcha xususiyatlari haqida xabardor bo'lishi lozim. Ya'ni bu bilan biz shuni oydinlashtirishimiz mumkinki, tarjimashunoslik va tarjima nazariyasi haqida gap ketganda biz uning boshqa fanlar bilan qanchalik uzviy bog'liqligini anglab yetishimiz lozim. Dastavval tarjimada tilshunoslikning ahamiyati haqida gapiradigan bo'lsak, tilshunoslik haqida muayyan bir bilimga ega bo'lmasdan mukkamal tarjimaga erishish va so'zlarning bir yoki boshqa tildagi muqobil shakldagi tarjimasini topish ancha mushkullik tug'diradi. Buning asosiy sababi shundaki tilshunoslik fanida ijodkor so'zlarning kelib chiqishi va ularning bir qancha ma'nolaridan xabardor bo'lgan holda mukammal tarjimaga erisha oladi. Shu tufayli tilshunoslik fanini o'rganish tarjimon uchun katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga Amerikalik tilshunos Yu Nayda tarjimada ekvivalentlik haqida ajoyib fikrni ta'kidlab o'tgan. U ekvivalentlikni ikkita asosiy turga ajratib ko'rsatgan. Birinchisi bu "Nisbiy ekvivalentlik" qayerdagi so'zlarning tarjimasi ularning muvofiq so'zlarini inobat olib tarjima qilinishi, ikkinchisi esa

asliyat tilidagi gaplar va soʻz birikmalarini tarjimada oʻzgarmay oʻtishidir. Yu Naydaning yuqoridagi izohi ham tilshunoslikning tarjimada nechogʻlik muhim ekanligini ifodalab beradi. Bularning barchasi ijodkor tarjima qilayotganida tilning kelib chiqishiga, undagi iboralar va soʻz birikmalarining tilga qanday kirib kelganiga muhim eʼtibor berishi lozim. Tarjimada nafaqat tilshunos balkim yaratuvchi boʻlishi ham lozimdir. Amerikalik tarjimashunos S. Bassnet- Makgayr soʻzlariga koʻra “Tarjimon avvalo oʻquvchi, u matnni talqin etuvchi oʻquvchi”. Uning soʻzlaridan shuni anglash mumkinki ijodkor tarjima qilayotganida tarjima qilayotgan hikoyasi, asari yoki sheʼrini huddi oʻquvchidek mohiyatini tushunib yetishga harakat qiladi va soʻng asarga tanqidiy jihatdan yondashib ijodkor sifatida ishlay boshlaydi. Aniqroq qilib tushuntiradigan boʻlsak tarjimon ijodkor sifatida oʻz ona tilida yangi matn yaratadi. Yaratuvchi sifatida tarjimon ijod qilayotganida u baʼzi iboralarning aynan tarjimasini topa olmay qolganda unga manodosh birorta soʻzlarni topib tarjima qiladi va shu bilan tarjimon tilga yangicha soʻzlarni kirib kelishiga sababchi boʻladi. Yuqoridagi taʼkidlab oʻtilganlardan tashqari, tarjimon psixologiya fanidan ham xabardor boʻlishi lozim. Bunga izoh tariqasida shuni aytish joizki tarjimon tarjima qilayotganida asar qahramonlarining hissiyotlari ularning kechinmalirini his qilgan holda mukkamal tarjimaga erishishga muvvafaq boʻladi.

Xulosa oʻrnida taʼkidlash joizki, tarjimashunoslik sohasi bir necha asrlar oʻtsa ham, haligacha dolzarb sohalardan biri sifatida boʻlib kelmoqda. Shu asnod tarjimonlik sohasiga qoʻl urgan har bir ijodkor unga maʼsuliyat bilan yonashishi va qilayaotgan tarjimasi bilan birga boshqa fanlardan ham yetarlicha bilimga ega boʻlishi aniq. Negaki tarjimon toʻgʻridan toʻgʻri tarjima qilish bilan cheklanib qolmaydi, u qahramonlarning kechinmalarini his qiladi, asardagi voqelikning mohiyatini tushunib yetib ajoyib tarjimaga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аткинсон Р.Л. Введение в психологию: Учебник для студентов университетов // Р.Л. Аткинсон, Р.С. Аткинсон, Э.Е. Смит. М., 13 изд., 2000. 672 с.
2. Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. М.: Междунар. отношения, 1975. 240 с.
3. Выготский Л.С. Мышление и речь: Собр. соч. СПб.: Т. 2, 1982. 504 с.
4. Зимняя И.А., Ермолович В.И. Психология перевода: учебное пособие (для Высших курсов переводчиков). М.: МГПИИЯ им. М. Тореца, 1981. 99 с.
5. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. М.: Смысл, 1999. 288 с.
6. Мордынская И.И. Деривационная составляющая вероятностного прогнозирования в речи / И.И. Мордынская // Деривация в речевой

деятельности (Общие вопросы. Текст. Семантика): тезисы науч.-практ. конф.
Пермь, 1988.

TEATR SAN'ATIDA TARJIMANING ROLI

Madinaxon XAYITBAYEVA,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

Teatr san'ati nafaqat badiiy ifodaning yuqori shakli, balki turli madaniyatlarni, tillarni va qarashlarni birlashtiruvchi kuchdir. Tarjimonning teatrda tutgan o'rni esa alohida ahamiyatga ega. Tarjima san'ati teatrda yangi imkoniyatlar yaratish, boshqa tillarda yozilgan asarlarni tomoshabinlarga yetkazish va madaniyatlararo aloqalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tarjima yordamida boshqa xalqlarning teatr an'analari, uslublari va dunyoqarashlari orqali tomoshabinlar yangi ma'lumotlarga ega bo'lishadi. Shu bilan birga, tarjimaning sifatli bo'lishi, asarning o'ziga xosligini va madaniy kontekstini saqlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Teatrda tarjimaga bo'lgan ehtiyoj. Teatrda tarjimaning asosiy vazifalaridan biri – boshqa tillarda yozilgan dramaturgik asarlarni o'z tiliga moslashtirish va tomoshabinlarga yetkazishdir. Ko'plab klassik va zamonaviy asarlar boshqa tillarda yaratilgan bo'lib, ular faqat tarjima orqali boshqa madaniyatlarda namoyish etilishi mumkin. Masalan, Shekspirning dramalari, Chexovning komediyalari yoki Bergman va Ibsen asarlari butun dunyo bo'ylab tomoshabinlarga tanish. Agar bu asarlar o'z aslida, ya'ni o'z tilida sahnaga qo'yilsa, boshqa madaniyatlarda yashovchi tomoshabinlar uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin. Shuning uchun, tarjimonning vazifasi – faqat matnni so'zma-so'z tarjima qilish emas, balki uning ruhini, ahamiyatini va madaniy kontekstini saqlab qolishdir. Tarjimon asarlarning tilini va uslubini sezgirlik bilan o'rganishi kerak. Har bir dramaturg o'z asarida o'ziga xos til va stilistik xususiyatlarni ishlatadi. Tarjima jarayonida bu xususiyatlar e'tiborga olinmasa, asar o'zining original mohiyatini yo'qotishi mumkin. Masalan, Chexovning "Chayka" asarida yozuvning nozikligi va uning kulgili, ammo achchiq ohangi tarjimaga ko'proq e'tibor talab qiladi. Tarjimonning vazifasi bu kulgili dramatismni va nozik ruhni asl nusxada saqlashdir.

Madaniyatlararo aloqa va tarjimaning ahamiyati. Tarjimaning teatrda muhim rol o'ynashi faqat tilni o'zgartirish bilan cheklanmaydi. Teatr orqali tarjima, bir madaniyatning boshqa madaniyatga ta'sirini kuchaytiradi. Masalan, biror dramaturgning asari boshqa bir millatning teatrida sahnaga qo'yilsa, u faqat til orqali emas, balki madaniy va tarixiy kontekst orqali ham yangi ma'nolarni keltirib chiqaradi. Tarjimon, bu jarayonda faqat matnni tarjima qilib qolmasdan, asl asarning madaniy va tarixiy kontekstini ham tushunishi kerak. Madaniyatlararo aloqaning chuqurlashuvi va kengayishi uchun tarjimaning ahamiyati juda katta. Teatrda tarjimaning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun, tarjimon nafaqat tilni bilishi, balki o'sha

madaniyatni, uning qadriyatlarini, an'analari va tarixini ham tushunishi kerak. Masalan, Yapon teatrining "Noh" yoki "Kabuki" janrlari o'ziga xos estetik va madaniy xususiyatlarga ega. Ushbu janrlarning tarjimasi nafaqat tilni o'zgartirishni, balki ularning vizual va madaniy xususiyatlarini ham taqdim etishni talab qiladi. Shuning uchun, teatrdan tarjimaning roli faqat til orqali amalga oshiriladigan faoliyat emas, balki bu faoliyat madaniy va estetik jihatlardan ham o'zgartiriladi.

Tarjima va aktyor ishlashida o'zaro munosabat

Teatrdan tarjima nafaqat dramaturgni o'qish yoki asarni so'zma-so'z tarjima qilishdan iborat. Tarjima jarayonida aktyorlarning ijrosi ham katta ahamiyatga ega. Aktyorlar tarjima qilingan asarlarni o'z tilida o'ynashganda, ularning yurtining madaniy xususiyatlarini va o'ziga xosliklarini inobatga olishlari zarur. Tarjimon esa asar ma'nosini saqlash bilan birga, aktyorlar uchun so'zning ohangini va ma'nosini qanday ishlatishni ko'rsatishi kerak. Agar aktyorlar to'g'ri tarjima qilingan matnni olishmasa, bu ularning ijrosiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aktyorlarning o'z tili va madaniyatiga moslashishi, uning nutqi va harakatlarining ma'nosi to'g'ri yoritilishi kerak. Tarjimon bu jarayonda, aktyorlarning ma'lum bir madaniy kontekstda to'g'ri ishlashini ta'minlaydi.

Teatrdan tarjimaning zamonaviy rivoji

Bugungi kunda teatrdan tarjima qilish jarayoni yangi texnologiyalar va platformalar bilan yanada osonlashgan. Internet va raqamli texnologiyalar orqali dunyoning turli burchaklaridan teatr asarlarini onlayn tarzda tomosha qilish imkoniyati mavjud. Buning natijasida teatr asarlari ko'proq xalqlar va madaniyatlarga taqdim etilmoqda. Masalan, London teatridagi spektakllar va Broadway sahnalaridagi namoyishlar o'zbek tilida subtitrlar bilan jonli efirda namoyish etilishi mumkin. Bunday yangi imkoniyatlar teatrdan tarjimaning muhimligini yanada oshiradi va madaniyatlararo aloqani kengaytiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam teatrdan tarjima qilish faqat tilni o'zgartirish emas, balki asarlarning madaniy, estetik va tarixiy ma'nolarini saqlab qolishdir. Tarjima jarayoni nafaqat dramatik asarni boshqa tilda ifodalashni, balki madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlashni ham anglatadi. Teatrdan tarjimaning roli, nafaqat o'zbek tomoshabinlari uchun, balki butun dunyo madaniyatining bir-biri bilan bog'lanishi va birlashishini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 2005.
2. Эндрю, С. Театр и язык. – М., 2002.
3. Театральная энциклопедия. – Под ред. П.А. Маркова. – Изд-во «Советская Энциклопедия». – М., 1965.
4. Театр: энциклопедия. – М.: ОЛМА-ПРЕСС Образование, 2002.

5. Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English. Seventh Edition. – Oxford University Press, 2005.

GYOTE ASARLARIDA TABIAT TASVIRLARINING TUTGAN O‘RNI

Mashhura NAZAROVA,

GulDU “Ingliz tili va adabiyoti” kafedrası doktoranti

Johann Wolfgang von Gyote asarlarida tabiat manzaralari muhim o‘rin tutadi, chunki ularning ko‘plari insonning ichki dunyosi va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro aloqani aks ettiradi. Gyote tabiatni faqat tashqi ko‘rinish sifatida emas, balki inson ruhiyatining aks-sadosi sifatida tasvirlaydi.

Masalan, uning eng mashhur asarlaridan biri bo‘lgan “Faust” va “Yosh Verterning iztiroblari” da tabiat manzaralari juda muhim rol o‘ynaydi. Biz bu yerda Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” romani haqida fikr yuritmoqchimiz.

“Yosh Verterning iztiroblari”da tabiat tasvirlari nafaqat voqealar rivojini aks ettirishda, balki asosiy qahramon Verterning ichki holatini, his-tuyg‘ularini va ruhiy holatini ifodalashda ham katta ahamiyatga ega. Gyote tabiatni inson ruhining muammolarini, umidlarini va tushkunliklarini aks ettiruvchi vosita sifatida ishlatadi.

Gyote tabiatni shuningdek, Romantizm harakatining bir qismi sifatida, inson va tabiat o‘rtasidagi ulkan uyg‘unlikni izlaydi. Tabiatni bir ma’naviy va estetik manba sifatida tasvirlab, u insonning ruhiy holatini va uning jamiyat bilan aloqalarini izchil tarzda ifodalaydi.

Romandagi tasvirlar o‘quvchini asar voqealari bilan birga chuqur his-tuyg‘ularga olib boradi. Bu asarda tasvirlar nafaqat voqea joylarini yoki tashqi dunyoni, balki yuqorida aytib o‘tganimizdek, bosh qahramon Verterning ruhiy holatini ifodalashda ham muhim rol o‘ynaydi. Gyote tabiat manzaralarini, ob-havoni va boshqa tasvirlarni Verterning ichki iztiroblari, his-tuyg‘ulari bilan uyg‘unlashtirgan.

Nemis tilida: ***Es war der herrlichste Sonnenaufgang. Der tröpfelnde Wald und das erfrischte Feld umher! Unsere Gesellschafterinnen nickten ein.*** (19 yuni)

O‘zbek tilida: ***Quyosh ufqdan bosh ko‘tarayotgan payt edi. Yomg‘irda cho‘milgan o‘rmon va yashnagan dala atrofimizni qurshagan. Hamrohlarimiz mudrashardi.*** – metafora (28-b).

Keltirilgan jumlada metaforaning tarjimasi va asl matnning tuzilishi, tasviri qiyosiy tahlil qilib, quyidagi jihatlar bilan solishtirsak u nemischa matnda bunday aks etadi "*Es war der herrlichste Sonnenaufgang*" jumlasini “eng go‘zal quyosh chiqishi”ni ifoda etadi. Bu, tasvir kuchini kuchaytiruvchi darajadagi bir yuksak baholashdir. Tarjimada bu "*Quyosh ufqdan bosh ko‘tarayotgan payt edi*" deb berilgan. Bu esa aslyatda berilgan yuksak bahoni biroz xolisroq qilib ko‘rsatgan.

Aslyatda "*Der tröpfelnde Wald*" - tomchilab turgan o‘rmon deb tarjima qilinib, tasvirni obrazli usulda yomg‘irdan keyingi tabiatni jonli qilib ko‘rsatadi.

Tarjimada bu “*Yomg‘irda cho‘milgan o‘rmon*” deb berilgan. Bu esa “tomchilab turgan”ning dinamik xarakterini biroz yo‘qotgan bo‘lsa-da, obrazni saqlab qolgan.

“*Das erfrischte Feld*” - yangilangan dala nemischa matnda metaforik bo‘lib, tabiatning tirilish jarayonini ifodalaydi. Tarjimada bu “*yashnagan dala*” deb berilgan. Metafora tarjimada biroz soddalashtirilgan, lekin asliyatning asosiy ruhiy holati saqlanib qolgan. Tarjimon yozuvchi tasvirlamoqchi bo‘lgan tasvirni o‘z o‘rnida muqobil variantlar bilan yoritib bergan. Gyote tabiatni tasvirlashda o‘z zamonasining romantik tasavvurlariga mos ravishda uning inson ruhiga ta‘sirini ko‘rsatadi. Verterning ichki dunyosidagi o‘zgarishlar ko‘pincha atrof-muhit bilan bog‘lanadi. Misol uchun, Verterning baxtli davrlarida tabiatni go‘zal va tinchlantiruvchi, to‘liq va jonli tasvirlaydi, bu esa uning muhabbatga bo‘lgan ehtirosi va umidlarini aks ettiradi. Aksincha, uning ruhiy iztiroblari boshlangach, tabiat tasvirlari qorong‘u va zulmatli bo‘lib, ichki inqirozini yoritadi.

Gyote asarda tabiatni keng va rang-barang tasvirlaydi. Werterning ruhiy holati va kayfiyati ko‘pincha tabiat manzaralari orqali ifodalanadi. Masalan, kuchli yomg‘ir, quyoshning botishi yoki tabiatdagi o‘zgarishlar, Verterning hissiyotlari bilan uyg‘unlashadi. Agar Werter quvonchli yoki umidvor bo‘lsa, tabiatning go‘zalligi, rang-barangligi va tinchligi tasvirlanadi. Biroq, uning iztiroblari kuchayganda, tabiat ham xuddi uning kayfiyatiga mos ravishda kuchli va g‘azablangan bo‘ladi.

Nemis tilida: *seit der Zeit können Sonne, Mond und Sterne geruhig ihre Wirtschaft treiben, ich weiß weder daß Tag noch daß Nacht ist, und die ganze Welt verliert sich um mich her.*(19 yuni)

O‘zbek tilida: **Quyosh, oy va yulduzlar avvalgidek o‘z yo‘llarida aylanayotgan bo‘lishlari mumkin**, biroq men, shundan buyon qachon tun, qachon kunduz ekanligini – umuman atrofimdagi hech narsani payqamayman.- metafora(29-bet

Quyida keltirilgan nemischa matnda: “*Sonne, Mond und Sterne geruhig ihre Wirtschaft treiben*”. Bu ibora tabiatning tinimsiz, odatdagi ritmi davom etayotganini ko‘rsatadi. “*Wirtschaft treiben*” iborasi, obrazli tarzda, quyosh, oy va yulduzlarning o‘z yo‘lini tinch davom ettirishini ifodalaydi.

Tarjimada bu “*quyosh, oy va yulduzlar avvalgidek o‘z yo‘llarida aylanayotgan bo‘lishlari mumkin*” deb berilgan. Tarjima mazmun jihatidan to‘g‘ri, lekin asliyatdagi “*Wirtschaft treiben*” iborasining metaforik dinamikasi susaytirilgan.

Tarjima asliyatdagi asosiy mazmunni va qahramonning iztiroblarini yetarli darajada aks ettirgan, nemis matnidagi poetik va obrazli unsurlar tarjimada soddalashtirilgan, bu esa asliyatdagi kontrast va hissiy ma‘nolarni biroz yumshatgan. Lekin, tarjima jumlar shakl va mazmunini saqlangan holda, o‘zbek tiliga o‘girilgan.

Tarjimashunos G'. Salomov aytganidek, "Har bir so'z qo'llanilgan o'rnida qanday ma'no bersa, tarjimada xuddi o'shanga yopishib tushadigan kalima topishga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, har bir tilda so'z bilan ma'no dialektikasi o'ziga xos ko'rinishda bo'ladiki, tarjimada buni hisobga olmasdan iloj yo'q".

Darhaqiqat, har qanday asar tarjima qilinayotganda iloji boricha asliga yaqin qilib tarjima qilishga harakat qilinadi. Bunda muallifning o'ziga xos asar yozish uslubi va texnikasi hisobga olinishi kerak. Ushbu asar tarjimasida ham muallifning qahramon tasviridagi barcha detallar o'z o'rnida mahorat bilan aks ettirilgan.

Verterning ichki iztiroblari ko'pincha tabiat bilan bog'lanadi. Masalan, ko'k osmon, jozibador tabiat manzaralari uning sevgi azoblari bilan to'la bo'lgan ruhiyatini aks ettiradi. Tabiatdagi o'zgarishlar, masalan, gullarning ochilishi yoki kuyib ketgan daraxtlarning tasviri, Verterning sevgi bilan bog'liq turli his-tuyg'ularini va ichki kurashini simvollar orqali ifodalashda ishlatiladi.

Gyote asarida tabiatning go'zalligi orqali nafaqat Verterning ichki iztiroblari, balki uning hayotga bo'lgan umumiy qarashlari ham tasvirlanadi. U tabiatni o'zining ruhiy holatini tushunishga yordam beruvchi vosita sifatida ko'radi.

Nemis tilida: *Das volle, warme Gefühl meines Herzens an **der lebendigen Natur**, das mich mit so vieler Wonne überströmte, das rings umher die Welt mir **zu einem Paradiese** schuf, wird mir jetzt zu einem unerträglichen Peiniger, **zu einem quälenden Geist**, der mich auf allen Wegen verfolgt.*

O'zbek tilida: *Menga shu qadar rohat bag'ishlagan, ko'zinga yorug' dunyoni **bamisoli jannat** ko'rsatgan tabiatga bo'lgan ulkan va ehtirosli muhabbatim endi benihoya azobga aylangan, **U xuddi berahm sharpadek**, hamma joyda menga ergashib yuradi.*(63-bet,18 avgust)

Bu jumlar, Verterning ichki dunyosidagi keskin o'zgarishni va uning ruhiy iztiroblarini kuchli tasvirlashga xizmat qiladi. Ushbu matnda tabiat va insonning his-tuyg'ulari o'rtasidagi aloqaning qanday o'zgarishini ko'rishimiz mumkin. Verterning tabiatga bo'lgan hissiyotlari va unga bo'lgan muhabbati, uning ruhiy holati bilan bevosita bog'liqdir.

Gyote bu tasvirlar orqali tabiatning ikki qutbli xususiyatini ko'rsatadi: bir tomondan, u ruhiy baxt va go'zallik manbai bo'lgan, ikkinchi tomondan esa, Verterning ichki iztiroblari va baxtsizligi tufayli tabiat undan ajralmas azob manbaiga aylangan. Tabiat va insonning ruhiy holati o'rtasidagi bu o'zgarish, Gyote tomonidan insonning ruhiy holatini chuqur va murakkab tarzda tasvirlash uchun ishlatilgan metaforalar orqali aks ettirilgan.

Xulosa qilib aytganda, tarjima matni asliyatdagi asosiy mazmunni saqlagan va qahramonning ichki iztiroblarini yetarli darajada aks ettirgan. Tarjimon Yanglish Egamova asarning tarjimasida asl matndagi poetik ifodalarni iloji boricha o'zbek tilida qayta yaratishga muvaffaq bo'lgan. Gyotening murakkab va hissiyotlarga boy

uslubini tarjimada ham saqlangan. Tabiatning betakror tasvirlari, rang-barang holatlari o'zbek tiliga moslashgan holda, yetarlicha ta'sirchan ifodalangan. Tabiat tasvirlarining samimiy va ta'sirli uslubda berilishi o'zbek o'quvchisiga asarning ruhini yaqinroq qiladi. Tabiat va inson ruhiyatining uyg'unligini aks ettiruvchi jumlar, ba'zan, o'zbek xalqiga xos obrazlar bilan boyitilgan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. И.В.Гёте. Ёш Вертернинг изтироблари. Таржимон Я.Эгамова. – «Янги аср авлоди» нашриёти, Тошкент, 2006.
2. Goethe, Johann Wolfgang (1974): Die Leiden des jungen Werther. Leipzig: Reclam.(81)
3. Ғ. Саломов Тил ва таржима. – Фан нашриёти, Тошкент, 1996, 21-б..
4. Nazarova M. VERTER OBRAZI O 'ZBEK TARJIMONI TALQINIDA //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. Special Issue 29. – C. 165-172.
5. Nazarova, Mashhura BADIY TARJIMA QILISH MUSHKULOTLARI XUSUSIDA // ORIENSS. 2023. №23. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ba-di-iy-tarjima-qilish-mushkulotlari-xususida> (дата обращения: 04.11.2024).
6. Nazarova, Mashhura VERTER OBRAZI O'ZBEK TARJIMONI TALQINIDA // ORIENSS. 2022. № Special Issue 28-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/verter-obrazi-o-zbek-tarjimoni-talqinida> (дата обращения: 04.11.2024).
7. Xonimqul T., Xabibullayevna N. M. XARAKTER TARJIMASIDA MANZARALAR O 'RNI //XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 351-354.

SINXRON TARJIMADA SIYOSIY VA DIPLOMATIK NUTQLARNING TERMINOLOGIK XUSUSIYATLARI

Dilnoza SHONAZAROVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti

Sinxron tarjima zamonaviy xalqaro aloqalar va muloqotning ajralmas qismi hisoblanadi. Xalqaro miqyosda davlatlar o'rtasidagi munosabatlar, siyosiy muloqot va diplomatik uchrashuvlar davomida samarali aloqa o'rnatish uchun tarjimonlar muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, siyosiy va diplomatik sohalarida ishlatiladigan nutq mazmuni nozik va rasmiy tusga ega bo'lib, ularning aniq va to'g'ri tarjima qilinishi global darajadagi hamkorlik va kelishuvlarga ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda sinxron tarjima faqatgina lingvistik bilimlarni emas, balki xalqaro siyosat, huquqiy me'yorlar, va madaniy xususiyatlarni chuqur tushunishni ham talab qiladi. Siyosiy va diplomatik nutqlarda ishlatiladigan atamalar rasmiylik, muayyan kontekstga moslik va xalqaro standartlarga amal qilish jihatidan boshqa sohalaridagi nutqlardan sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu maqolada sinxron tarjima jarayonida siyosiy va diplomatik nutqlarni tarjima qilishdagi terminologik xususiyatlar, ularning ahamiyati va tarjima jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu jarayonda zarur bo'lgan ko'nikmalar va terminologiya bilan ishlash usullari ham yoritiladi.

Siyosiy va diplomatik nutqlarda ishlatiladigan atamalar ko'pincha o'ziga xos rasmiy va xalqaro xarakterga ega bo'ladi. Ushbu turdagi atamalarning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni ta'kidlashimiz mumkin bo'ladi:

- **Rasmiylik.** Diplomatik nutqlar ko'pincha rasmiylik xarakteriga ega bo'ladi. Masalan, "strategik hamkorlik" – "strategic partnership" yoki "xalqaro xavfsizlik" – "international security" kabi rasmiy iboralar xalqaro munosabatlar doirasida keng qo'llaniladi. Diplomatik so'zlashuvda qat'iylik zarur, chunki nutq har bir so'zning ma'nosiga nisbatan extiyotkorlikni talab qiladi. Har qanday noto'g'ri tarjima xalqaro kelishmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Ushbu iboralar har qanday tilga tarjima qilingan taqdirda ham bir xil huquqiy va siyosiy mazmunni saqlab qolishi kerak, buning uchun esa tarjimondan maxsus bilim va diqqat talab qilinadi.

- **Xalqaro standartlar.** Terminologiya ko'pincha xalqaro huquq va standartlar asosida shakllanadi. Masalan, BMT rezolyutsiyalari yoki xalqaro kelishuvlarda ishlatiladigan atamalar har bir tarjimon tomonidan to'g'ri tushunilishi kerak. Masalan, "Barqaror rivojlanish" – "sustainable development" iborasi xalqaro maydonda keng qo'llaniladi. Ingliz tilida "sustainable" atamasi aniq belgilangan ekologik va iqtisodiy tamoyillarni aks ettiradi, bu esa o'zbek tilida "barqaror" so'zi

bilan to‘liq uyg‘un kelmasligi mumkin. Shuning uchun bu iborani kontekstga qarab moslashtirish talab etiladi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlatiladigan terminologiya maxsus qoidalar va standartlarga asoslanadi. Masalan, “iqtisodiy sanksiyalar” – “economic sanctions” atamasining noto‘g‘ri talqini davlatlar o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarni buzilishigacha olib borishi mumkin.

• **Nutqning kontekstga mosligi.** Siyosiy va diplomatik atamalar ko‘pincha ularning ishlatilish kontekstiga qarab turli ma‘nolarga ega bo‘lishi mumkin. Bu tarjimondan turli sohalarga doir chuqur bilim va matn (kontekst)ni aniq anglash qobiliyatini talab qiladi. Misol uchun, “Siyosiy dialog” – “political dialogue” iborasi ko‘p ma‘noga ega bo‘lib, ba‘zan davlatlar o‘rtasidagi muloqotni, ba‘zan esa ichki siyosiy kelishuvlarni anglatishi mumkin. Shuningdek, “siyosiy dialogning kuchaytirilishi” iborasi ingliz tilida “enhancing political dialogue” shaklida har xil kontekstlarda qo‘llaniladi. Tarjimon ishlatilayotgan iboralarning ma‘nosini aniq kontekstda tahlil qilishi kerak. Bundan tashqari, “xalqaro hamkorlik” – “international cooperation” iborasi bir vaqtning o‘zida siyosiy, iqtisodiy yoki harbiy hamkorlikni anglatishi mumkin.

Tarjima, ayniqsa, sinron tarjima jarayoni og‘ir va qiyin jarayon hisoblanadi. Agar ushbu sinxron tarjima siyosiy yoki diplomatik uchrashuvlarda amalga oshirilayotgan bo‘lsa, bu tarjimondan yana alohida ehtiyotkorlik va e‘tibor talab qiladi. Chunki, ushbu jarayonda tarjimonning hech qanday xato qilishga haqqi yo‘q, kichik bir xato ham xalqaro miqyosda katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham sinxron tarjimonlar siyosiy va diplomatik nutqlarni tarjima qilishda bir qator qiyinchiliklarga duch keladi va bu qiyinchiliklarning asosiylari sifatida quyidagilarni aytishimiz mumkin:

• **Terminologik moslik muammosi.** Har bir tilning o‘ziga xos terminologik qoidalari mavjud bo‘lib, ularni boshqa tilga aynan muqobili bilan tarjima qilish oson emas. Masalan, “Tashqi siyosat tamoyillari” – “principles of foreign policy” iborasini tarjima qilishda o‘zbek tilidagi “tamoyil” so‘zining semantik ko‘lamini ingliz tilidagi “principles” bilan to‘liq uyg‘unlashtirish qiyin bo‘lishi mumkin. Bunda aniq kontekst va izoh talab qilinadi. Har bir tilning o‘ziga xos sintaksis va semantik tizimi mavjud bo‘lib, bu terminologiyani moslashtirishda qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Shuning uchun tarjimonlar tarjima tillarining lingvomadaniy xususiyatlarini ham hisobga olishlari zarur.

• **Tezkorlik.** Sinxron tarjimada tarjimonlar har bir iborani tez tahlil qilishi va mos muqobilini topishi kerak. Lekin shunday terminlar mavjudki, ularni nutqning davomini eshitmay turib aniq tarjimasini berish mushkulroq bo‘ladi yoki nutqning davomini eshitmaguncha muqobillaridan qay birini tanlash o‘ylantirib qo‘yadi. Mana shunday holatlarda tarjimondan tezkorlik bilan ishlagan holda bashorat qilish (anticipation) strategiyasidan foydalanib tarjima qilish yoki qo‘lidan kelishiga ko‘zi

yetsa nutqning davomini kutib turib, davomini eshitgan holda tarjima qilib, qolgan gaplarni yetkazib olish tavsiya qilinadi. Buning uchun esa tarjimon bir vaqtning o'zida tinglash, tahlil qilish va tarjima qilish ko'nikmalarini rivojlantirishi va bashorat qilish strategiyasini avtomatik ravishda ishlata olishi uchun ko'proq mashq qilishi va tajribaga ega bo'lishi lozim.

- **Texnik jihatlar:** Sinxron tarjimonlar ishlayotgan muhitda texnik muammolar ham yuzaga kelishi mumkin. Mikrofon, minigarnituralar yoki boshqa texnik vositalarning sifatsiz ishlashi nutqni eshitishda qiyinchilik tug'diradi va bu tarjima sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, texnik nosozliklar tarjimonni tezkor qaror qabul qilishga majbur qiladi, natijada esa bu stressni oshirishi mumkin.

- **Nutqning murakkabligi.** Siyosiy va diplomatik nutqlar ko'pincha murakkab, qo'shma gap va jumladan iborat, odatda, ko'p ma'noli so'zlarni ham o'z ichiga olgan bo'ladi. Bu esa tarjima qilishda bir qator qiyinchiliklar uyg'otadi, tarjimondan katta mahorat, tajriba va har sohadan xabardorlikni talab qiladi. Masalan, "barqaror rivojlanish" yoki "strategik hamkorlik" kabi atamalarni aniq tarjima qilish uchun nafaqat lingvistik, balki siyosiy va iqtisodiy bilimlar ham talab etiladi. Shuningdek, nutq so'zlovchining talaffuz yoki nutq tezligidagi o'zgarishlar ham tarjimon uchun qo'shimcha qiyinchilik tug'diradi.

- **Madaniy va kontekstual farqlar.** Siyosiy va diplomatik nutqlarda ishlatiladigan atamalar ko'pincha madaniy yoki kontekstual mazmunga ega bo'ladi va nutqning bu jihati ham tarjima jarayonini og'irlashtiradi. Masalan, o'zbek tilida "hurmatli" so'zining ingliz tilidagi "respected" ekvivalenti har doim bir xil ma'no bermasligi mumkin. Ingliz tilida "respected" ko'proq rasmiy yozishmalarda ishlatiladi, og'zaki muloqotda esa bu ma'no "esteemed" yoki "honored" kabi boshqa sinonimlar bilan ifodalanishi mumkin. Bu farq, ayniqsa, diplomatik nutqlarda sezilarli ahamiyat kasb etadi, chunki kontekstga qarab noto'g'ri ishlatilgan so'z muloqotning rasmiyligini kamaytirishi yoki ma'noni noto'g'ri aks ettirishi mumkin. Shu sababli, tarjimon madaniy farqlarni chuqur anglab, har bir atamaning mos keladigan kontekstual ekvivalentini topishi zarur.

- **Stress va ruhiy bosim.** Sinxron tarjima jarayonida yuqori darajadagi e'tibor va tezkorlik talab qilinadi. Buning ustiga, siyosiy va diplomatik tadbirlarda sodir bo'ladigan voqealar tarjimonga qo'shimcha mas'uliyat yuklaydi. Tarjimon har bir so'zning mazmuniga javobgar bo'lganligi sababli, stress darajasi oshadi va bu tarjima sifatiga ta'sir qilishi mumkin.

Sinxron tarjimon har bir so'zning ma'nosini va uning muloqotdagi ta'sirini chuqur anglash uchun xalqaro siyosat va huquqiy me'yorlar bo'yicha keng qamrovli bilimga ega bo'lishi kerak. Siyosiy va diplomatik nutqlarning murakkab terminologik xususiyatlarini to'g'ri tarjima qilishda tarjimonning til bilimi va madaniyatlararo farqlarga e'tibori muhim o'rin tutadi. Shuningdek, tarjimon ovoz

va vaqtni boshqarish, texnik vositalardan samarali foydalanish hamda stressni nazorat qilish kabi kognitiv va texnik ko'nikmalarni mukammal egallagan bo'lishi zarur. Ushbu bilim va ko'nikmalarning uyg'unligi siyosiy va diplomatik muloqotning muvaffaqiyatli tarjima qilinishini ta'minlaydi. Siyosiy va diplomatik nutqlarni sinxron tarjima qilish uchun tarjimon quyidagi asosiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim:

- **Xalqaro huquq va siyosiy bilim.** Tarjimon xalqaro huquqiy normalar, diplomatik qarorlar va siyosiy tuzilmalar haqida chuqur bilimga ega bo'lishi kerak. Bunday bilim nafaqat hujjatlar va rezolyutsiyalardagi atamalarni to'g'ri tarjima qilish, balki muloqot jarayonida diplomatik qoidalarga rioya qilishni ham o'z ichiga oladi. Siyosiy kontekstlarni tushunish esa davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning nozik tomonlarini hisobga olishga yordam beradi.

- **Til bilimi va madaniyatni anglash.** Tarjimon tarjima qilinayotgan tilning lingvistik va madaniy xususiyatlarini chuqur bilishi zarur. Har bir til o'z madaniyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu tarjima jarayonida muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, madaniy farqlarni anglash va ularni hisobga olish ham muloqotning to'g'ri talqin qilinishiga xizmat qiladi.

- **Ovoz va vaqtni boshqarish.** Sinxron tarjimada tarjimon ovoz balandligini, nutqning tezligini va talaffuzni boshqarishni mukammal o'zlashtirishi lozim. Tarjima jarayonida ovozni boshqarish nafaqat tinglovchilar uchun qulay eshitilishini ta'minlaydi, balki nutqning ravonligini ham oshiradi. Vaqtni boshqarish esa tarjimonning gapiruvchining tezligiga moslashish, ma'noni yo'qotmasdan tarjima qilish va qisqa muddat ichida mazmunni to'g'ri yetkazishga imkon beradi.

- **Texnik vositalardan foydalanish.** Sinxron tarjimonlar zamonaviy texnologiyalarni samarali boshqarishni bilishi kerak. Tarjima jarayonida mikrofon, naushnik va tarjima kabinasi kabi texnik vositalar bilan ishlash tajribasi muvaffaqiyatli tarjima uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Texnik nosozliklar paydo bo'lganida muammoni tezkorlik bilan hal qilish qobiliyati tarjimonning professionalligini ko'rsatadi.

- **Psixologik chidamlilik va stressni boshqarish:** Sinxron tarjima yuqori darajadagi diqqat va mas'uliyatni talab qiladi, bu esa ko'pincha stress darajasining oshishiga olib keladi. Tarjimon o'z his-tuyg'ularini boshqarish, muammolarga tezkor javob berish va muloqot jarayonida xotirjamlikni saqlash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu, ayniqsa, murakkab siyosiy muzokaralar davomida juda muhim.

Tarjimonlar siyosiy va diplomatik nutqlarning terminologik xususiyatlarini chuqur o'rganish uchun quyidagi usullardan foydalanishlari mumkin:

- **Terminologik bazalar yaratish.** Tarjima jarayonida foydalanish uchun atamalar ro'yxatini tuzish va ularni muntazam yangilab borish muhim hisoblanadi. Terminologik baza yaratish, asosan, takroriy va aniq atamalarga boy nutqlarda juda

foydali hisoblanadi. Tarjimon mazkur bazalar orqali terminlarning o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilib, ular uchun mos ekvivalent topishni tezlashtirishi mumkin.

• **Mutaxassislar bilan maslahatlashish.** Siyosiy va diplomatik sohada faoliyat yurituvchi ekspertlardan maslahat olish ham tarjima jarayonini osonlashtiradi. Mutaxassislar bilan muloqot qilish tarjimonning bilimini boyitish va atamalarning aniq qo'llanilishi borasida tushunchalarni mustahkamlash imkonini beradi. Chunki, ba'zi atamalar yangi bo'lganligi yoki boshqa sabablar bilan yozma shaklda mavjud bo'lmasligi va faqatgina mutaxassislar tomonidan bilinishi mumkin, bunday hollarda, doimiy ravishda soha mutaxassislari bilan maslahatlashib turish katta ahamiyatga ega bo'ladi.

• **Amaliyot.** Sinxron tarjima bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirish uchun amaliy mashqlar bajarish muhim hisoblanadi. Doimiy amaliyot tarjimonning tajribasini oshirish va texnik hamda kognitiv ko'nikmalarini takomillashtirishda asosiy ahamiyatga ega. Amaliyot paytida tarjimonning tezkor fikrlash qobiliyati va texnik uskunalariga moslashuvchanligi rivojlanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, sinxron tarjimada siyosiy va diplomatik nutqlarning terminologik xususiyatlari tarjimon uchun murakkab, lekin juda muhim vazifadir. Ushbu jarayon tarjimondan nafaqat lingvistik bilimlarni, balki xalqaro siyosat va huquqiy normalarni chuqur tushunishni ham talab qiladi. Siyosiy va diplomatik nutqlarni aniq va ravon tarjima qilish davlatlar o'rtasidagi muloqotning muvaffaqiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Terminologik moslik, xalqaro standartlarga rioya qilish va kontekstni anglash kabi jihatlar sinxron tarjimonning malakasini aniqlovchi asosiy omillardir. Sinxron tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun tarjimon doimiy ravishda o'z ko'nikmalarini rivojlantirib borishi lozim. Texnik vositalardan samarali foydalanish, tezkor tahlil qilish qobiliyati va ovozni boshqarish ko'nikmalari sinxron tarjimon uchun zarur jihatlardan biridir. Shu bilan birga, xalqaro huquqiy terminlarni o'zlashtirish va madaniy farqlarga e'tibor qaratish tarjima sifatini oshiradi. Bundan tashqari, siyosiy va diplomatik kontekstlarda tilning madaniy va rasmiy nuanslarini hisobga olish ham yuqori sifatli tarjima uchun muhim hisoblanadi. Sinxron tarjimonning muvaffaqiyati uning bilim darajasi va tajribasiga bog'liq. Ushbu sohada muntazam o'qish va mashq qilish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baker, M. (2011). In Other Words: A Coursebook on Translation (2nd ed.). Routledge.
2. Hatim, B., & Mason, I. (1997). The Translator as Communicator. Routledge.

3. Jones, R. (2014). Conference Interpreting Explained (2nd ed.). Routledge.
4. Pöchhacker, F. (2016). Introducing Interpreting Studies (2nd ed.). Routledge.
5. Gambier, Y., & Van Doorslaer, L. (Eds.). (2021). Handbook of Translation Studies: Volume 5. John Benjamins Publishing Company.
6. Snell-Hornby, M. (2006). The Turns of Translation Studies: New Paradigms or Shifting Viewpoints? John Benjamins Publishing Company.
7. Shonazarova, D. Sinxron tarjima amaliyoti va nazariyasi. UZBEKISTAN, 43.
8. Shonazarova, D. (2024). Sinxron tarjimon kompetensiyasini rivojlantirishning samarali usullari. Nordic Press, 3 (0003).

PROVERBIAL WISDOM: A CROSS-CULTURAL AND LINGUISTIC EXAMINATION OF UZBEK AND ENGLISH PROVERBS

Sabina AHMEDOVA,

*Master student of Tashkent State University
of Uzbek language and Literature named after Alisher Navai*

The examination of proverbs offers a unique lens through which to understand the cultural values and beliefs of different societies. This article deals with rich tapestry of proverbs from both Uzbek and English cultures, seeking to uncover the underlying worldviews and ideologies embedded within these brief expressions of wisdom.

Study and collection of proverbs are called *paremiology*, a term stemming from the Greek word "*paroemia*"¹⁵ and its origins can be traced back as far as Aristotle. Proverbs, often borrowed from other languages and cultures, serve as encapsulations of collective wisdom passed down through generations. They encapsulate the essence of human experience, offering insights into societal norms, moral codes, and practical advice for navigating life's complexities.

A proverb is more than just a simple saying; it is a statement that can *encapsulate a situation, pass judgement, recommend a course of action, or serve as a secular precedent for present actions.*

Functions of proverbs. Proverbs often offer practical advice for navigating life's challenges. For example, the English proverb "*A stitch in time saves nine*" advises on the importance of addressing problems promptly to prevent larger issues from arising. Similarly, in Uzbek "*Har bir muvaffaqiyat tagida mashaqqat yotadi*" (Success lies in hard work) offers advice on the importance of diligence and perseverance. Proverbs can be used to critique or praise individuals, behaviors, or situations. An example of praise can be found in the Uzbek proverb "*Tili shakar dushman – dili shakar do'st*" (A honey tongue a heart of gall), which encourages valuing others' behavior. Conversely, the English proverb "Actions speak louder than words" serves as a critique, emphasizing the importance of deeds over mere promises or, "*Bukrini go'r tuzatar*" (A leopard does not change its spot) praises individuals for their virtuous actions, while implicitly criticizing those whose actions do not align with moral standards.

Proverbs often contain moral judgments on events or behaviors, reflecting societal norms and values. For instance, the English proverb "*Honesty is the best policy*" conveys the moral judgment that honesty is preferable to deceit. In Uzbek

¹⁵ Hoshan, A. P. (2021). The Place of Proverbs in Linguistic Studies. Researchgate.

“*Kasalni yashirsang isitmasi oshkor qiladi*” (Murder will out) passes judgment on those who deflect blame onto others rather than taking responsibility for their actions

Proverbs play a crucial role in educating people about cultural norms, moral codes, and practical wisdom. For example, the Uzbek proverb "*Sohta do'st ortingdan xanjar urar*" (One who pretends to be a friend but stabs you in the back) educates about the importance of discerning true friends from false ones. Besides, "*Yolg'on kichik bo'lsa ham yolg'on*" (Even if it's a small lie, it's a sin to lie) or in English "*A thief is a thief whether he steals diamond or a cucumber*"¹⁶ educates about the moral implications of dishonesty, emphasizing the importance of truthfulness.

Proverbs are sometimes used in journalism as attention-grabbing headlines, adding depth and resonance to news stories. An example could be the English proverb "*Every cloud has a silver lining*" used in a headline to convey hope or optimism amidst adversity. In contrast, in Uzbek, it is also mainstream to use proverbs or such kind of figurative speech to give “sneak peek” to the story, for instance, “*Bolani yoshdan asra, niholni boshdan*” (As the twig is bent, so the tree is inclined) informing the readers that the article is about the morals of child upbringing. Pragmatic functions refer to the functions pertaining to the field of interaction situations between the speaker and the hearer. In this function, proverbs work «*to fulfill a particular effect, a change of the hearer's state of consciousness, intended by the speaker*»¹⁷.

Characteristics. In the English cultural context, there is a set of features that characterize English and Uzbek proverbs such as alliteration, assonance, and rhyme, enhancing their mnemonic quality and making them memorable and impactful. Additionally, English proverbs often employ syntactic devices like parallelism or balance, as well as ellipsis, to convey profound truths concisely.

Alliteration refers to the repetition of initial consonant sounds in closely positioned words. In the English example “*A penny saved is a penny earned*” the repetition of the “p” sound in “penny” and “saved” creates a pleasing rhythmic effect. Similarly, in the Uzbek example, “*Yaxshi bo'lsang – o'zarsan, Yomon bo'lsang to'zarsan*” the repetition of the “o'” sound in “o'zarsan” and “to'zarsan” adds a musical quality to the proverb.

Assonance involves the repetition of vowel sounds within words. In the English “*The early bird catches the worm*” the repetition of the “ur” sound in “bird” and “worm” creates a harmonious effect. Likewise, in the Uzbek example “*Yomonni*

¹⁶ <https://www.listofproverbs.com/keywords/diamond/>

¹⁷ Kirkman, A. (1999). Some Additional Aspects of Semantic Indefiniteness of. Deproverbio Electronic Magazine, 1-10.

ishga emas, oshga chaqir “ the repetition of the “i” sound “o” sound and in "ishga" and “oshga” contributes to the proverb's melodic quality.

Rhyme occurs when the endings of words share similar sounds. In the English example "*A stitch in time saves nine* " the rhyme between "time" and "nine" adds a memorable and rhythmic quality to the proverb. Similarly, in the Uzbek example "*Xotinning qaqildog'i – tegirmonning shaqildog'i*" (Where there are women and geese, there wants no noise) the rhyme between “qaqildog” (talkative) and “ shaqildog (bell) enhances the proverb's lyrical appeal.

Ellipsis refers to the omission of words that are understood in context. In the English example: "*The more, the merrier*“ the phrase implies "The more people, the merrier the occasion," with the omitted words understood based on common knowledge. Likewise, in the Uzbek example "*Odam odam bilan, Yer suv bilan* “¹⁸ the phrase implies "People need people " with the omitted context understood within the cultural framework.

Cultural and contextual nuances. Through a comparative analysis of Uzbek and English proverbs, we aim to shed light on the cultural nuances and underlying ideologies that shape these linguistic expressions of wisdom. By examining the similarities and differences between these two cultural traditions, we can gain deeper insights into the values, beliefs, and worldviews that define Uzbek and English societies. For instance, a proverb in English "*Birds of feather flock together*" and "*As you sow , you will reap*" and their Uzbek analogue "*Bir qo'llab eksang ikki qo'llab o'rasan*" refers to how two nations love to do labor and see the value in it . While proverbs like "*A goose quill is more dangerous than a Lion's claw*"¹⁹ and its Uzbek translation "*So'z qalbni pichoqdan ko'p yaralaydi*" display how politeness is important equally for English and Uzbek people, the proverbs like "*It takes a village to raise a child*" and its translation in Uzbek "*Bir bolaga yetti mahalla ota ona*" shed light on the importance of strictness in child upbringing from young age.

Continuing from the exploration of proverbs within Uzbek and English cultures, it is evident that these succinct expressions of wisdom serve multiple functions and are influenced by various factors. Notably, proverbs can get coinage from influential figures, such as Benjamin Franklin in English culture and Alisher Navai and Amir Temur in Uzbek culture, adding layers of historical and societal significance to their meanings. The following are examples of the proverbs were coined by Benjamin Franklin, the American journalist, author, scientist, philosopher and statesman: «*God helps them that help themselves*», «*Time is money*», «*God heals, and the doctor takes the fees.*», and «*Work as if you were to live 100 years; pray as if you were to die tomorrow*». While Amir Temur contributed effectively by

¹⁸ <https://ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-maqollari>

¹⁹ Proverbs, T. O. (2004). Oxford. Oxford University Press.

implementing the most actual proverb of all time “*Kuch adolatda*”²⁰(Power is in justice).

In both Uzbek and English cultures, proverbs are strategically placed within discourse, often appearing at the end of sentences to evoke a specific effect on the hearer's state of consciousness. This placement underscores their rhetorical power and reinforces their intended impact on the audience. Additionally, proverbs may contain allusions to historical personalities or places, further enriching their cultural resonance and depth of meaning. For example, in English from the proverb “*Don't carry coals to Newcastle*”, we can find out that The city of Newcastle was the biggest source of coal at that time , which means “ carrying coal “ there is nonsense. The same can be observed in Uzbek proverbs, exemplifying important historical and well – known individuals to give the full meaning like “*Sulaymon o'lib, devlar qutuldi*” (While the cat is away, mice will play) referring to the greatness of historic Turkish king named Sulayman.

However, navigating the meanings of proverbs can sometimes prove challenging, as they often contain both literal and metaphorical layers of interpretation. This complexity adds richness to the proverbial tradition but may require careful consideration and contextual understanding to grasp fully. However, mostly proverbs often use metaphors and carry different meanings across cultures and languages. Understanding them can be difficult because they are deeply ingrained figurative expressions that reflect specific cultures, testing our mental abilities. However, regularly encountering proverbs can make it easier to understand them.

Conclusion. the exploration of proverbs across different cultures and languages reveals their nuanced and metaphorical nature. Proverbs serve as cultural artifacts deeply rooted in specific societies, challenging our cognitive abilities to grasp their meanings. However, through exposure and familiarity, the comprehension of proverbs becomes more accessible. This comparative study highlights the importance of recognizing cultural context and linguistic nuances in understanding these succinct expressions of wisdom. Ultimately, delving into proverbs provides valuable insights into the diverse perspectives and values of various cultures, enriching our appreciation of human language and communication.

References

1. Hoshan, A. P. (2021). The Place of Proverbs in Linguistic Studies. Researchgate.

²⁰ <https://maqollar.uz/cards/category/adolat-tenglik>

2. Kirkman, A. (1999). Some Additional Aspects of Semantic Indefiniteness of. Deproverbio Electronic Mgazine, 1-10.
3. Proverbs, T. O. (2004). Oxford. Oxford University Press.
4. <https://ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-maqollari>
5. <https://maqollar.uz/cards/category/adolat-tenglik>
6. <https://www.listofproverbs.com/keywords/diamond/>

DECODING DIPLOMATIC TRANSLATION: STRATEGIES FOR TRANSLATING COMPLEX SENTENCES

Nodira SATTAROVA,
*Alisher Navoi Tashkent State University of
Uzbek language and literature*

Diplomatic texts are pivotal in international relations, serving as vehicles for communication between nations and organizations. They often carry high stakes, where even minor misinterpretations can lead to significant diplomatic consequences. The complexity of these texts lies in their intentional ambiguity, multi-layered structures, and culturally sensitive language. A diplomatic text does not merely convey information – it reflects political intentions, negotiates boundaries, and builds consensus.

Translating such texts requires a unique skill set that combines linguistic expertise, cultural awareness, and a deep understanding of international diplomacy. This article delves into the methodology and strategies for decoding complex sentences in diplomatic translation, highlighting the significance of precision and contextual accuracy.

Methodology the methodology for addressing diplomatic translation focuses on analyzing sentence structures, identifying nuances, and considering cultural and contextual factors. This approach ensures that the translated text retains the original meaning and tone while being tailored to the target audience.

“Translation consists in reproducing in the receptor language the closest natural equivalent of the source-language message.”²¹

1. Analyzing sentence structure

Diplomatic texts often feature long sentences with multiple clauses, modifiers, and embedded phrases. Breaking these sentences into smaller, comprehensible units helps translators understand the main idea and supporting details. For instance:

“Recognizing the importance of shared values, the delegations agreed to strengthen cooperation on matters of mutual concern, including economic growth, environmental protection, and regional stability.”

Here, the main clause, “the delegations agreed to strengthen cooperation,” carries the primary message, while the subordinate clause, “Recognizing the importance of shared values,” provides context. Translators must ensure that this hierarchy of ideas is preserved in the target language.

2. Understanding intent and nuance

²¹ Eugene A. Nida and Charles R. Taber, *The Theory and Practice of Translation* (Leiden: Brill, 1969).

Diplomatic language often conveys subtle messages, employing terms like “express concern” or “acknowledge progress,” which have specific implications. Translators must analyze the text’s intent and consider how these terms resonate in the target language. For example, “expressing concern” can indicate disapproval without directly criticizing, a nuance that must be carefully rendered.

3. Adapting to cultural contexts

Cultural differences significantly impact diplomatic translation. Terms, idioms, and metaphors that are commonplace in one culture may lack equivalents in another. Translators should adapt these elements to ensure cultural relevance while preserving the intended meaning. For instance, the phrase “red lines” in Western diplomacy may need rephrasing for audiences unfamiliar with this metaphor, such as “non-negotiable boundaries.”

“Translation is not a matter of words only: it is a matter of making intelligible a whole culture”²².

4. Maintaining formality and tone

Diplomatic texts adhere to a formal register, reflecting their seriousness and professionalism. Translators must replicate this tone, avoiding casual or overly literal translations. A term like “cordial relations” should not be rendered as “friendly ties,” as this may diminish the text’s formality.

5. Using back-translation for quality assurance

Back-translation, where the translated text is retranslated into the source language, helps identify discrepancies and ensure fidelity to the original. This process is especially useful for complex diplomatic texts, where subtle changes can alter the meaning.

Challenges in Diplomatic Translation

1. Ambiguity

Ambiguity is a deliberate feature of diplomatic texts, allowing room for interpretation and negotiation. For example, a phrase like “constructive dialogue” may have different connotations depending on the context. Translators must navigate this ambiguity without introducing unintended meanings.

“Diplomatic translation requires not only linguistic skill but also a keen sense of diplomacy to preserve the delicate balance of meaning.”²³

2. Time sensitivity

Diplomatic translations are often needed on tight deadlines, particularly during negotiations or crises. Balancing speed with accuracy is a critical challenge.

3. Sensitivity of content

²² George Steiner, *After Babel: Aspects of Language and Translation* (Oxford: Oxford University Press, 1998).

²³ Guo Hong, “Diplomatic Translation as a Strategic Task,” *Journal of Translation Studies*, vol. 28, no. 3, 2018, pp. 45–58.

Diplomatic texts frequently involve sensitive topics, requiring translators to exercise discretion and avoid personal interpretations that could skew the meaning.

Strategies for Effective Translation

Breaking down complex sentences

Complex sentences should be divided into manageable units. This involves identifying the main message, subordinate clauses, and modifiers. Translators can then reconstruct the sentence in the target language while preserving its structure and meaning.

Preserving the register and tone

The formality of diplomatic language must be maintained to ensure the text's credibility. Translators should avoid informal expressions or overly simplistic translations, which can detract from the intended tone.

Incorporating cultural sensitivity

Adapting culturally specific terms and metaphors is essential for effective translation. Translators should strive to find equivalent expressions or rephrase them in a way that resonates with the target audience.

Conducting contextual research

Understanding the context of the text, including its historical and political background, helps translators capture the nuances of diplomatic language. This research is particularly important when dealing with sensitive or ambiguous terms.

Conclusion diplomatic translation is a specialized field that demands a combination of linguistic expertise, cultural understanding, and analytical skills. The complexity of diplomatic texts, with their nuanced language and intricate sentence structures, poses unique challenges for translators. However, by employing strategies such as breaking down sentence structures, preserving tone, and adapting to cultural contexts, translators can navigate these challenges with precision and professionalism.

“Translators are negotiators of meaning between different linguistic and cultural systems.”²⁴

In an increasingly interconnected world, where diplomacy plays a crucial role in shaping international relations, the importance of skilled diplomatic translators cannot be overstated. Their work not only facilitates communication but also helps build bridges between nations, fostering mutual understanding and cooperation.

“Accuracy in official translations is not negotiable; it is the foundation of trust and understanding in international relations.”²⁵

“Language is the vehicle of diplomacy, and translation is its engine.”²⁶

²⁴ Anthony Pym, *Exploring Translation Theories* (New York: Routledge, 2010).

²⁵ Roberto A. Valdeón, *Translating Official Documents* (London: Routledge, 2019).

²⁶ UNESCO, *Language and Diplomacy*, accessed December 2024

References

1. Al-Wahy, A. S. (2009). Idiomatic false friends in English and Modern Standard Arabic. *Babel*, 55, 101–123.
2. Bowker, L. (2006). *Lexicography, Terminology, and Translation*. Ottawa: University of Ottawa Press.
3. Chamizo Dominguez, P., & Nerlich, B. (2002). False friends: Their origin and semantics in selected languages. *Journal of Pragmatics*, 34, 1833–1849.
4. Komissarov, V. N. (1990). *The theory of translation (linguistic aspects)*. Vysh. shk.
5. Wang, Kuailiang. (2008). *Foreign Language*, 29(27), 21–23.
6. Aznaurova, E. S., & Abdurakhmanova, Kh. I. (1989). *Teori i praktika perevoda*. Tashkent: O‘qituvchi.

HOSPITALITY-RELATED TEXTS IN VARIOUS FORMS

Ollayor RAXIMOV,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

2-kurs magistratura talabasi

Hospitality, a universal human practice rooted in social and cultural norms, manifests itself in diverse ways across linguistic and cultural landscapes. As Brown and Levinson (1987) posit, politeness – a key aspect of hospitality – is a fundamental feature of social interaction. This article investigates how hospitality is constructed across different text types, focusing on linguistic choices that facilitate, negotiate, and express the act of welcoming and offering comfort within both Uzbek and English linguistic contexts. Examining hospitality in various text forms provides an understanding of values and how they are linguistically realized. The qualitative approach is used in specific contexts, highlighting not only what is said but how and why, which are key tenets of the study of discourse.

This study adopts a qualitative approach, focusing on the detailed analysis of a range of texts:

- **Dialogues from Literature/Movies:** These provide examples of natural interaction, showing how hospitality is embedded in narratives.
- **Recipes and Cooking Instructions:** Here, we investigate how language is used not only to describe actions but also to invite the reader to share in the act of creating food – a core component of hospitality in many cultures.
- **Travel Guides and Tourism Websites:** These sources reveal how hospitality is marketed to tourists, constructing particular images and experiences.
- **Hotel Brochures and Customer Reviews:** These texts provide insights into how expectations of hospitality are set and assessed from various perspectives.
- **Scripts from Traditional Ceremonies or Events:** This category focuses on the formal and ritualistic aspects of hospitality.

Dialogues in Literature and Film

In Uzbek literature, for instance, characters often use formal address terms and specific honorifics when extending invitations, signaling the importance of respect and deference. These features, as illustrated by Kadirov (2015) in his analysis of Uzbek literature, contribute to the building of an atmosphere of welcome and warmth. Meanwhile, in English films, we frequently encounter a more informal tone, with the use of first names and casual language. However, indirect requests, often framed with modal verbs such as "would" and "could," are employed to soften requests and maintain politeness, as studied by Thomas (1995) in the context of pragmatic variation.

Recipes and Cooking Instructions

In analyzing Uzbek recipes, the focus often lies on the tradition and heritage associated with a particular dish, usually accompanied by phrases that invite one to experience the culture and the culinary history. These texts, according to a study by Abdullaev (2018), often feature expressions of pride and sharing. In comparison, English recipes may focus more on practical and efficient instructions. Yet, they also employ persuasive language that encourages the cook to engage fully with the process and, by extension, with the act of welcoming others to a shared meal. This persuasive element resonates with the analysis of recipe language by Halliday (1994) who explores how language constructs particular social practices.

Travel Guides and Tourism Websites

In Uzbek travel guides, the concept of “mehmondo‘stlik” (hospitality) is frequently promoted, emphasizing the warm welcome that visitors can expect. This cultural expectation often features in the texts, suggesting a deep-rooted sense of community and a readiness to share with strangers, by the values discussed by Saidov (2020) in his work on Uzbek cultural narratives. On English tourism websites, the emphasis is often on the comfort and convenience of lodging and travel, yet language is still used to create an inviting atmosphere. As argued by Dann (1996), marketing languages aim to craft narratives that align with what tourists seek in their travels, and hospitality serves as one such narrative.

Hotel Brochures and Customer Reviews

Hotel brochures and customer reviews offer a window into how service expectations are constructed and evaluated. Uzbek hotels, for example, may highlight traditional furnishings and the offer of local meals. Conversely, hotel reviews in both English and Uzbek may emphasize the importance of good service, creating a feeling of being “at home”. As shown by Smith (2012) in his work on online reviews, the language used to evaluate service and hospitality often reflects the cultural background of reviewers, highlighting what aspects of hospitality are most valued in that cultural context.

This analysis underscores that hospitality is far from a singular, universal concept. The textual forms we have investigated reveal that the way it is communicated varies based on both linguistic choices and cultural expectations. In Uzbek, the emphasis is often on traditional hospitality, linked to respect, sharing, and community, whereas in English texts, while still emphasizing welcoming practices, the approach tends to lean towards individual experiences, personal comfort, and efficient service. Both languages, however, share the goal of creating a positive and warm experience for guests, but they achieve this through different linguistic and pragmatic means.

References

1. Abdullaev, A. (2018). Cultural narratives in Uzbek cuisine. Tashkent: Uzbekistan Press.
2. Austin, J.L. (1962). How to do things with words. Oxford: Clarendon Press.
3. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some universals in language usage. Cambridge University Press.
4. Dann, G. M. S. (1996). The language of tourism: A sociolinguistic perspective. CAB International.
5. Halliday, M. A. K. (1994). An introduction to functional grammar. Arnold.
6. Kadirov, B. (2015). Social interactions in Uzbek dramas. Samarqand: Samarkand University Press.
7. Leech, G. N. (1983). Principles of pragmatics. Longman.
8. Saidov, F. (2020). The narrative of Uzbek hospitality. Fergana: Fergana State Press.
9. Smith, J. (2012). Language and online reviews. London: Routledge.
10. Thomas, J. (1995). Meaning in interaction: An introduction to pragmatics. Longman.

TIL – SIVILIZATSIYANING ASOSIY POYDEVORI JAMIYATNI BIRLASHTIRUVCHI VOSITA VA MOJAROLAR QUROLI

Nafisa HAMIT,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Kirish

Til insoniyat sivilizatsiyasi rivojining asosiy omili, shuningdek, jamiyat, madaniyat va tarixni shakllantiruvchi muhim vositadir. O'zbek tili Markaziy Osiyodagi muhim tillardan biri bo'lib, nafaqat sivilizatsiya davomiyligini aks ettiradi, balki murakkab madaniy va ijtimoiy ma'nolarga ham ega. O'zbekistonda ta'lim olish davomida men o'zbek tilining ko'p tilli muhitdagi o'ziga xos mavqei va uning jamiyat munosabatlarini targ'ib qilish hamda muvozanatlashdigan ahamiyatini chuqur angladim. Ushbu maqola tarjima sohasi nuqtayi nazaridan o'zbek tili sivilizatsiyaning poydevori, jamiyatning birlashtiruvchisi va mojarolarda vosita sifatidagi rolini tahlil qiladi va tarjima amaliyoti bu jarayonlarda qanday ahamiyatga ega ekanligini o'rganadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, til sivilizatsiyani uzatish va madaniy o'zlikni aniqlashda asosiy vositadir. Blumberg tilshunoslik nazariyasiga ko'ra, til nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy tizimning aksidir. Markaziy Osiyoda o'zbek tilining rivojlanishi turli tarixiy bosqichlardagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarni aks ettiradi. Abdulkhamidov (2018) ta'kidlashicha, o'zbek tili Ipak yo'li davrida og'zaki she'riyat va savdo aloqalari orqali madaniyat tarqalishining muhim omili bo'lgan.

Tarjima sohasida, Nyumark (Newmark, 1988) ta'kidlashicha, tilni tarjima qilish faqat so'z ma'nolarini o'zgartirish emas, balki madaniyatni uzatishdir. O'zbek tili matnlarini tarjima qilishda tarjimonlar tilning ijtimoiy va madaniy mazmunini to'liq anglashlari va buni saqlab qolishlari kerak. Bunday madaniy sezgirlik tilning yaxlitligini ta'minlash uchun muhimdir.

Tadqiqot savollari va metodologiyasi

Ushbu maqola o'zbek tilining tarixiy va zamonaviy jamiyatdagi ko'p qirrali rolini tahlil qilishni maqsad qiladi va quyidagi savollarga javob izlaydi:

1. O'zbek tili qanday qilib tarjima orqali sivilizatsiyani uzatishda yordam beradi?
2. Ko'p tilli jamiyatda tarjima qanday qilib o'zbek tilini madaniy o'zlik va ijtimoiy uyg'unlikka olib keladi?
3. Mojarolarni hal qilishda tarjima o'zbek tiliga qanday yordam beradi?

Tadqiqot metodologiyasi adabiyotlarni tahlil qilish, misollarni o'rganish va suhbatlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Navoiyning adabiy asarlari tarjimasi,

o'zbek tilidagi ta'lim siyosatidagi tarjima amaliyoti va ko'p tilli muhitdagi til mojarolariga oid tarjima yechimlari tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijalari va munozaralar

Tarjima yordamida o'zbek tili – Sivilizatsiyaning Poydevori

O'zbek tili Ipak yo'lining tarixida nafaqat savdo aloqalari vositasi, balki og'zaki hikoyalar va she'riyat orqali qadriyatlarni uzatgan. Masalan, Navoiyning "Xamsa" asari O'zbek adabiyotining eng yuqori cho'qqisidir. Ushbu asarning tarjimasi O'zbek tilining xalqaro madaniy muloqotda o'ziga xos mavqega ega bo'lishiga yordam berdi. "Xamsa"ni tarjima qilishda tarjimon she'rdagi majozlar va madaniy obrazlarni sodiq ravishda aks ettirishi kerak.

Tarjima madaniyatni birlashtiruvchi ko'priq sifatida

Tarjima jamiyatni birlashtirishda ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, O'zbekistondagi ko'p tildan iborat muhitda o'zbek tili bilan rus va tojik tillarini tarjima qilish nafaqat madaniy manzarani boyitadi, balki til to'siqlarini kamaytiradi. Bir misol, hukumat tomonidan chiqarilgan ko'p tilda yozilgan ta'lim siyosati hujjatlari tarjima orqali o'zbek tilining ahamiyatini boshqa til guruhlariga yetkazdi.

Tarjima xorijiy shaxslarning o'zbek madaniyatini yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi. Bir xalqaro anjumanda O'zbek tilidagi she'rlar bir necha tillarga tarjima qilindi va ishtirokchilar bunday tarjima nafaqat madaniy ma'lumotni uzatib, balki madaniyatlararo anglashuvni ham oshirganini aytishdi.

Mojarolarni hal qilishda tarjima rolining ta'siri

O'zbek tili tarixdagi til mojarolarida siyosiy vosita sifatida ishlatilgan, lekin tarjima bu qarama-qarshiliklarni yumshatishda yordam berdi. Masalan, Sovet davrida O'zbek tilidagi ko'plab adabiy asarlar rus tiliga tarjima qilindi, bu nafaqat O'zbek madaniyatining kengroq tarqalishiga yordam berdi, balki til chetlanishini ham kamaytirdi.

Zamonaviy ish joylarida tarjima til tanlovi mojarolarini hal qilish uchun vosita bo'lishi mumkin. Bir suhbat ishtirokchisi kompaniyasi orqali ikki tilda yozilgan hujjatlar va tarjima xizmatlari yordamida ko'p tilli xodimlar o'rtasida samarali muloqot amalga oshirilgani va jamoa birdamligining oshgani haqida gapirdi.

Xulosa va kelajakdagi tadqiqotlar

Tarjima sohasi nuqtayi nazaridan o'zbek tilining tarix, jamiyat va mojarolardagi ko'p qirrali rolini muhokama qilish orqali shuni tushunish mumkinki, tarjima nafaqat madaniy tarqatish vositasi, balki til va jamiyat rivojining muhim ko'prigidir. Tarjima amaliyoti o'zbek tiliga ko'p tilda so'zlashadigan jamiyatlarda yanada katta madaniy ta'sir ko'rsatishga yordam beradi, til mojarolarini kamaytiradi va ijtimoiy uyg'unlikni oshiradi.

Kelajakdagi tadqiqotlar o'zbek tilini himoya qilish va targ'ib qilishda tarjima texnologiyalarining rolini, masalan, o'zbek tilining xalqaro darajadagi

qo'llanilishini oshirish uchun sun'iy intellekt tarjima tizimlaridan qanday foydalanish mumkinligini chuqurroq o'rganishi mumkin. Xitoylik talabasi sifatida men tarjima tadqiqotlari orqali o'zbek tilining xalqaro muloqotdagi rolini oshirishni va til va tarjima murakkabligini yanada kengroq tushunishga yordam berishni umid qilaman.

INTELLEKTUAL MUTARJIM VA TARJIMA NAZARIYOTCHISI

Zuhriddin ISOMIDDINOV,

*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi,
filologiya fanlari nomzod*

Bo'stonliqdagi Oqtosh sanatoriyasi hovlisiga kirib borishda XIX asr oxirida ekilgan, yoshi yuzdan oshib ketgan bir necha ulkan tol, teraklarga ko'zingiz tushadi. Tanasiga qo'l yetmaydi. Ammo ho'v yuqorida, osmonning har tomoniga qarab quloch yoygan beshlab-oltillab shoxlari borki, ulardan har birining o'zi biz bilgan daraxtlardan katta. Bu tol, bu teraklarni, ularning salobat bilan gurkirab turganini ko'rib, havasingiz keladi.

O'zbek badiiyatining takomillashib, bugungi darajaga yetishi zamirida necha o'nlab fidoyi insonlarning bir umrlik mehnatlari yotibdi. Loaqal yaqinida kechgan XX yuzyillikni olib qarasangiz, Hamza, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, Mirzakalon Ismoilov, Mirtemir, Asqad Muxtor, Ozod Sharafiddinov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi va ular qatoridagi boshqa ulug' so'z san'atkorlarining qutlug' nomlari yodimizga keladi. Adabiyotimizni ular ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Bir umr o'zbek ma'rifati uchun xizmat qilib kelayotgan atoqli so'zshunos Ibrohim G'afurov ham ana shulardan biri. U kishi qo'l urgan soha ko'p: munaqqidlik, mualliflik, muharrirlik, mutarjimlik, siyosat mardumi ekanligi, muallimlik, madaniyat arbobi... Domlaning faoliyati qamrovining kengligi, botinining teranligi haqida o'ylaganimda, boyagi Oqtosh og'ochlari yodimga tushadi. Shuncha sohaning har birida Ibrohim aka bir ijodkor amalga oshirishi mumkin bo'lgan ishlarni uddalab kelayotibdi.

Adib dastlab tanqidchi sifatida tanildi. Oltmishinchi-saksoninchi yillarda uning adabiy hayot haqida katta mehr, sinchkovlik bilan yozgan tanqidiy maqolalari tilga tushdi. Aynan Ozod Sharafiddinov va aynan Ibrohim G'afurov, mana shu ikki munaqqid, adabiy tanqid ham ijod turi ekani, munaqqid esa badiiy asarning jandarmi va qozikaloni emas, balki jonkuyar ishtirokchisi ekanini uzil-kesil dalillab berishdi.

Ibrohim G'afurov bu bilan qanoatlanmay, Shayxzoda, Zulfiya singari talay mashhur shoirlar haqida alohida kitoblar chop ettirib, ularning so'z san'atimizdagi o'rini ishonarli tarzda isbot qildi.

Xuddi o'sha oltmishinchi-saksoninchi yillardan Ibrohim G'afurovning tarjimonlik ijodi ham boshlandi. Dastlabki yirik tarjimalaridan bo'lmish E.Xemingueyning "Chol va dengiz", "Alvido, qurol!" asarlari orqali adib Xeminguey bilan bizni tanishtirdi. Tanishtiribgina qo'ymadi, balki shu tarjimalari

orqali o'zbek so'z san'atiga G'arb adabiyotiga xos yangi uslubni ham olib kirdi – bungacha bizda “telegraf” (to'g'rirog'i, telegramma) tarzidagi jumlar tuzish rasm bo'lmagan edi.

Oradan yillar o'tib, Ibrohim G'afurov ulug' fransuz adibi Mopassan asarlarini o'zbekchalashtirishga qo'l urdi. Ona tilimizda “Hayot” qissasi, “Azizim” romanlari paydo bo'ldi.

Gap u yoki bu adibning qaysi asarlarini tarjima qilgani ustida emas. Ibrohim G'afurov qay bir asar tarjimasiga qo'l ursa, uning botiniga kira oladi, ichki ruhini yuzaga chiqarishga intiladi. Chunonchi, Mopassanning “Bel-Ami” degan romanini ruschadan (“Miliy drug”) o'zbek tiliga “Azizim” deb o'girdi. Asar bosilib chiqqach, bir talay tarjima ilmining “bilag'on”lari uni “Yoqimli do'st” deb atagan ma'qul edi, mutarjim o'zboshimchalikka yo'l qo'ygan, deb e'tiroz bildirdilar. Holbuki, o'zbek adibi asar voqeligiga teran kirib borgani va, ayni damda, ona tilimizning milliy tabiatini nozik his etgani uchun so'zma-so'zlikdan qochgan. Asar qahramoni mug'ambir, olifta Dyuruaga hamma “Miliy drug!” deb murojaat qiladi, ruslarda ham do'stiga “Miliy drug!” deb xitob qilish tabiiy. Biroq o'zbeklar birovga “Yoqimli do'st!” deb murojaat qilmaydi-ku? Ibrohim aka bu murojaatni tabiiy ravishda yuzaga chiqarib, “Azizim!” kalimasini topgan, buning natijasi uzukka ko'z qo'ygandek yarashimli bo'lgan.

I.G'afurov tarjimonlik qilishdan tashqari, bu yuksak san'atning ilmiy-nazariy masalalari bilan ham obdon shug'ullandi – Jahon tillari universiteti talabalariga oliymaqom san'at sirlarini o'qitdi, ma'ruza o'qish bilan cheklanmay, talabalar uchun tarjima bo'yicha darslik tartib berdi. Uning “Tarjimashunoslik mutaxassisligiga kirish” o'quv qo'llanmasi (2008), “Tarjima nazariyasi” (N.Qambarov bilan, 2012) darsliklari ana shu tariqa yuzaga keldi. Bu bilan ham cheklanmay, XX asrda faoliyat yuritgan o'zbek tarjimonlari, ularning ijodiy hayoti, adabiy ijodi haqida katta, mukammal bir tadqiqot yaratish fikriga kelib, shu tadqiqotdan fragmentlar tarzida bir qancha mutarjimler ijodi to'g'risida salmoqli maqolalar e'lon qildi, “Tarjima estetikasi” singari o'nga yaqin yirik maqolalarida esa bugungi o'zbek tarjimachiligining muhim, dolzarb masalalari borasida o'z fikr va qarashlarini taqdim etdi.

Ibrohim G'afurov deganda bugungi o'quvchi Aytmatov, Mopassan, Dostoyevskiy, Xeminguey, Nitsshe, Markes kabi jahon adabiyoti salafklarini o'zbek tilida so'zlatgan mohir so'z ustasini ko'z oldiga keltiradi. Birgina Joysning “Uliiss” romani misolida bu tarjimalarga baho beradigan bo'lsak, professor Muhammadjon Xolbekovning bir e'tirofini aytish kifoya. “Hatto ingliz tilini mukammal o'rgangan tarjimon ham Ibrohim G'afurov tarjimasidan ustunroq tarjima yaratolmaydi, – deb yozgan edi M.Xolbekov. – Ibrohim G'afurovning o'zbek tarjimachiligi rivojiga

qo‘shgan hissasi uni “Uliss”dek dunyo adabiyotining shoh asari bilan boyitdi, o‘zbek kitobxoniga uni tortiq qildi”.

Bu gapni “Zardusht tavallosi” (F.Nitsshe) haqida ham, “Tog‘lar qulaganda” (CH.Aytmatov) haqida ham, boshqalari xususida ham xuddi shunday ishonch bilan aytish mumkin.

Ibrohim G‘afurov tarjimalarining eng muhim jihati uning badiiyatida, deb aytsak, bu to‘g‘ri, ammo biryoqlama baho bo‘lar edi. Asosiy gap shundaki (buni u o‘g‘irgan mualliflarning nomi ham ko‘rsatib turibdi), Ibrohim aka u yoki bu roman yo qissani emas, dunyo adabiyotining eng murakkab, bizda hali o‘xshashi ko‘rilmagan asarlarni qidirib topib tarjima qiladi, har qanday tafakkur tovlanishlarini o‘zbek tilida ifoda qilish mumkinligini isbot qiladi, ularni badiiy olamimizga, o‘zbek adabiyoti maydoniga olib kiradi, so‘z san‘atimiz xazinasini eng nodir olmoslar bilan boyitadi, o‘zi esa jahon adiblarining eng ulkan pahlavonlari bilan bajonudil bellashuvga tushadi. Biron marta yiqilgani yoki pand yeb qolgani yo‘q. Ibrohim aka katta tirajda chiqishi aniq bo‘lgan har qanday asarni emas, aksincha, oddiy tarjimon qo‘lga olishga ham jur‘at eta olmaydigan, usluban yo shaklan o‘ta murakkab, demakki, “hazm” etish ham oson bo‘lmaydigan asarlarni o‘giradi – biz bu borada “andak badxatroqmiz”, deb yer chizadigan xalqlardan biri bo‘lib qolmasligimiz g‘amini yeydi. Oqibat, o‘zbekning qo‘liga ulug‘ bir asar yetib boradi; lisoniy-usluban mukammal ekanligiga ko‘ra esa u ona tilimizning muazzam bir obidasiga aylanadi. Shu qadar muhtashamki, hali-beri nuramaydi. Ana shular haqida o‘ylarkanman, bu fidoyi so‘z mardumining salaflari – o‘tgan ulug‘ mutarjimlar ijodi ham yodimga keladi... yo‘q, hech birov millat ma‘rifatini saqlab qolish, buning uchun xuda-bexuda asarlarga qo‘l urmaslikni prinsip darajasiga ko‘tarishda I.G‘afurovga teng kela olmas ekan – qahramon adibimizning hayotiy a‘moli, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari shu qadar ulug‘!

Hamma o‘zini bozor iqtisodiyotiga moslashtirayotgan, “taka bo‘lsin – sut bersin”, tarzida moddiy manfaatning oshig‘i bo‘lib borayotgan bir zamonda o‘zbek adabiyotini jahon badiiyatining eng toza buloqlaridan oqayotgan obihayot bilan serob etishdan tolmayotgan Ibrohim akani men... Sizifga – yunon asotirlarining ulug‘ qahramoniga o‘xshatgim keladi. Sira charchamaydi, bir zum bo‘lsin – tinmaydi, har gal ulkan bir xarsangni dumalatib, cho‘qqiga olib chiqadi. Bunday kishini devkor deb ataydilar.

Ibrohim G‘afurov tarjimalari inja yog‘dular bilan tovlanadi, o‘qigan odamning ko‘nglini yorug‘ hislarga to‘ldiradi. Menga, bu adib mahoratining siri nimada, deb savol berishlari mumkin. Siri ko‘p: jahon adabiyotidan keng boxabarlik, munaqqid sifatida har bir asarni zargarning tarozisiday aniq baholay olish, badiiy mahorat, sinchkovlik... Shular bilan birga, bizga Ibrohim akadagi so‘z tuyg‘usining kuchliligi, so‘zni o‘zi uchun xobbi darajasiga ko‘targanligi, ayniqsa qadrli. Adib qachon, qay

vaziyatda bo‘lmasin, so‘z qidiradi, so‘z topadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev “Biz Erkin Vohidov bilan kechalari ko‘p masalalar haqida gaplashardik. U kishi, agar o‘zbek tilining boyligini, chiroyini bilishni xohlasangiz, Ibrohimjonga murojaat qilish kerak, deb aytardi”, – deydi.

Shuning uchun Ibrohim G‘afurovning yozganlarida – u ilmiy maqolami, yo badiiy tarjima – o‘zbek so‘zlari yayrab-yashnaydi, barq uradi.

Bundan yetti-sakkiz yillar avval Jizzax universitetida o‘tkazilgan Respublika tarjima kengashida qatnashar ekanmiz, tanaffusda universitet hovlisida aylanib yurib, Ibrohim aka tuyqusdan menga “shavkatmaob” degan so‘z bor, bilasizmi? – deb so‘rab qoldi. “Ha”, deyishning o‘zi kifoya emas-ku bunday chog‘da! Xayriyatki, yodimga “saodatmaob” degan so‘z kelib qoldi. Shundan so‘ng ona tilimizdagi noyob so‘zlar, ularning tarjima asnosida nechog‘lik asqotishi to‘g‘risida rosa suhbat qilgan edik.

Ibrohim G‘afurov o‘zbek adabiyotida “mansura” degan janrga asos soldi va uni asoslash uchun yayrab-yashnab ijod qildi.

Boborahim Mashrab, Amin Umariy singari ulug‘ ijodkorlarimiz haqida nihoyatda go‘zal, nihoyatda ma‘rifiy hikoyalar bitdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Ibrohim G‘afurov “Milliy tiklanish” partiyasining asoschilaridan bo‘ldi va shu nomdagi gazetaga asos soldi. Talay yillar davomida bitta o‘zi (boshqa xodim olishga mablag‘ yo‘q), og‘ir iqtisodiy sharoitlarga qaramay, uni chop ettirishga muvaffaq bo‘ldi.

Ammo baribir, Ibrohim G‘afurovni bizning avlod dastlab tanqidchi sifatida tanigan. Shundanmikin, men hali ham adibni, avvalo, munaqqid deb qabul qilaman. Buning o‘ziga yarasha yana bir sababi ham bor. Gap shundaki, 1998 yilda Respublika Baynalmilal markazida Chingiz Aytmatovning yetmish yilligi o‘tkazilgan edi. Anjumanni boshqarayotgan Odil Yoqubov Qirg‘izistonning o‘sha paytdagi elchisi Botirali Sidiqovni minbarga taklif etdi-da, keyingi so‘zni Ibroyimjondan eshitamiz, deb e‘lon qildi. Birozdan so‘ng Ibrohim aka Chingiz Aytmatov haqida qirq daqiqalar chamasi... bir ma‘ruza qildi! Ishonsangiz, bu Aytmatov ijodi, uning tub mohiyati haqida ulkan bir kashfiyot edi. Olim Markes, Borxes, Dostoyevskiy kabi jahon adabiyotining o‘nga yaqin klassiklari bilan birma-bir qiyoslab, Chingiz og‘a asarlarining ulardan tafovuti va... ustun jihatlarini birma-bir dalillab berdi. Biz-ku, biz, ammo rayosatda o‘tirgan Qirg‘iziston elchisi, professor Botirali Sidiqov ham qirg‘iz adibi ijodining bu qadar teran tahliliga og‘zi lang ochilib quloq solib, O‘zbekistonda Chingiz Aytmatov ijodining bu qadar katta bilimdonlari borligiga imon keltirib, bir o‘zbek olimi ulug‘ adib asarlarini bunchalar e‘zozlayotganiga, fikrlarini zo‘r akademik darajasida puxta dalillayotganiga lol qolib o‘tirar edi.

Ibrohim G‘afurov faqat o‘zbek adabiyoti bo‘yicha emas, jahon so‘z san’atining ham zargar munaqqidlaridan biri ekaniga o‘shanda iqror bo‘lgan edim. Bu yana qachon deng? Bu, Maskovdagi rus “tanqidchi”larining bir to‘dasi Chingiz Aytmatov nomini eshitsa, peshonasi tirishib, ulug‘ adibning adabini berib qo‘yish uchun biri olib-biri qo‘yib, unga hujum boshlagan yillarda bo‘lgan voqea – o‘sha g‘alamislarga berilgan keskin javob, ayni paytda, o‘zbek adabiyoti namoyandalarining bu masalaga munosabati ifodasi ham edi.

Adibning “Qur’on” tarjimalari haqidagi birgina maqolasini mutolaa qilishning o‘ziyoq biz naqadar ulkan alloma bilan bir davrda, birga yashab turganimizni anglashga kifoya qiladi, deb ayta olamiz. Ibrohim G‘afurov “Mangu latofat” kitobida shunday deb yozadi: “Umrda shunday bir palla keladi: donishmandlik pallasi. Aql chirog‘i ravshan tortib, ravshan yonib, ravshan, ishonchli ziyo taratadigan palladir”.

Umrining ana shu munavvar pallasida Ibrohim G‘afurovning “O‘zbekiston Qahramoni” unvoniga sazovor ko‘rilishi ham bu millat fidoyisining ulug‘ mehnatlariga berilgan munosib baho, haqli e’tirof ramzi bo‘ldi. Bu, ayni paytda, balki barcha o‘zbek mutarjimlari uchun ham bayram. Zero shu kunga qadar biron tarjimon, qanchalik yuksak mahoratga ega bo‘lmasin, qahramonlik tugul, hatto “Xalq shoiri” yo “Xalq yozuvchisi” unvoni bilan ham siylanmagan edi.

Shu kunlarda oqsoqol adibimiz ming oyning yuzini ko‘rdi, endi ikki minginchi sanoqqa mansub dastlabki oylar shu’lasida ijod qilyapti. Biz ham ustozga yangi-yangi ijodiy muvaffaqiyatlar yor bo‘lib, qalbidagi minglagan oylarning yog‘dusi bilan bizni uzoq yillar munavvar qilishini tilaymiz.

FANTASTIKANI BADIY TIZIM SIFATIDA ANGLASH BORASIDA BA'ZI CHIZGILAR: QIYOSIY-NAZARIY TAHLIL

Ma'suma OBIDJONOVA,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent

davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif zamonaviy dunyoda tobora dolzarb bo'lib borayotgan adabiy ta'sirlanish va uni komparativistik tahlil qilish zaruriyatidan kelib chiqib, fantastikani soha olimlari tomonidan hali tadqiq qilinmagan jihat, ya'ni unga badiiy tizim sifatida qarashga doir fikrlarni ilgari suradi. Maqoladagi ilmiy asoslantirib berilgan qarashlarning muhimligi shundaki, ular o'zbek adabiyotshunosligi uchun nisbatan yangi bo'lgan pozitsiyalardan turib, fantastikashunoslikka hissa qo'shishga xizmat qiladi. Maqola muallifi o'tkazilgan tahlil natijasini jadvalda keltirib, xulosaning illyustrativ shaklda bayon etilishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: komparativistika, fantastika, nazariya, tizimli tahlil, qiyosiy adabiyotshunoslik, janr diskursi.

Abstract. In this article, the author, based on the increasingly urgent need for the comparative analysis of literary influence in the modern world, puts forward ideas on the aspect of speculative fiction that has not yet been studied by scholars in the field, namely, seeing it as an artistic system. The importance of the scientifically substantiated views presented in the article is that they serve to contribute to speculative fiction studies from positions that are relatively new for Uzbek literary studies. The author of the article presents the results of the analysis in a table and thus provides an illustrative presentation of the conclusion.

Key words: comparative studies, fiction, theory, systematic analysis, comparative literary studies, genre discourse

Zamonaviy globallashuv sharoitida jahon adabiyotshunosligida adabiy jarayon chegaralarning yo'qolib borishi va o'zaro adabiy ta'sirlanishning kuchayishi kuzatilmoqda. Bu esa o'z navbatida jahon va o'zbek komparativistikasining oldiga turli janrlarda yaratilgan asarlarning poetikasi, evolyutsiyasi, umumiy va original tendentsiyalarini tahlil qilish, yuzaga kelayotgan qonuniyatlarni aniqlash kabi dolzarb vazifalarni yuklaydi. Chunki, davlatimiz rahbari haqli ravishda ta'kidlaganidek, «o'zbek ... zamonaviy adabiyotini halqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, ko'pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-

amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish katta ahamiyatga ega». [Mirziyoyev, 2018]

O'zbek adabiyotshunosligida avvalgi davrda adiblar ijodini asosan g'oyaviy-badiiy jihatlardan tadqiq qilish ustuvorlik qilgan bo'lsa, mustaqillik davriga kelib, adiblarimiz ijodini G'arb yozuvchilari asarlari bilan adabiy ta'sirlanish va o'ziga xoslik paradigmalari orqali o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi.

Bu jihatdan, dunyoqarashning va adabiy fikrlashning maxsus turi deya ta'riflangan [Markina, 2006:5] fantastika janrini tahlil qilish o'zining ahamiyati bilan alohida ajralib turadi. Ma'lumki, «fantastika» (φανταστική - phantastike) so'zining etimologiyasi qadimgi yunon tili va mifologiyasiga borib taqaladi [Oldi, 2008]. U «xayolot» ma'nosini beradi va Ovidiyga ko'ra qadimgi yunon ilohi - jonsiz predmetlar shakliga aylanib, insonlar tushiga kiruvchi Fantaz obrazidan kelib chiqqan [Ovidiy, 1977: 641].

Fantastikani ilmiy anglashga urinish nafaqat adabiyotshunoslik, balki falsafa, madaniyatshunoslik, lingvistika, futurologiya, estetika kabi boshqa fan sohalariga ham xosdir. Shunga qaramasdan, fantastikani o'rganishda ustuvor o'rin filologik fanlar, xususan, adabiyotshunoslikka tegishlidir. Buning asosiy sabablaridan biri uzoq muddat davomida aynan adabiyot fantastikaning asosiy namoyon bo'lish sohasi bo'lib keldi. Bu jihatdan filologik tadqiqotlarning yetakchiligi tabiiy tuyuladi, chunki fantastik asarlarning janr xususiyatlarini aniqlash, badiiy fantastikaning rivojlanish yo'llarini ko'rib chiqish, alohida mualliflarning asarlarini tahlil qilish, fantastik matnlarning struktur-semantik o'ziga xosliklarini o'rganish aynan filologik fanlar, shu jumladan, adabiyotshunoslikning vazifasiga kiradi.

Bizning fikrimizcha, adabiyotshunoslik va komparativistikaning funktsional vazifalari nuqtai nazaridan, fantastika, ilmiy fantastika va fentezi tushunchalarini o'rtasidagi farqlar, o'xshash jihatlarni aniqlab olish, ularni tizimlashtirish va natijalarni ilmiy iste'molga kiritish nazariy jihatdan alohida ahamiyatga ega.

Biz fantastikaga mustaqil badiiy tizim sifatida qarash lozim va u realizm, romantizm, modernizm va boshqalarda bo'lgani kabi, bir qatorda adabiy janrlarda yaratiladi, degan fikrdamiz. Bu o'rinda qo'shimcha sifatida biz taniqli rus adabiyotshunosi, filologiya fanlari doktori, professor I.F.Volkovning 1995 yilda nashr etilgan "Adabiyot nazariyasi" kitobida "romantizm, realizm, modernizm singari badiiy oqimlar XX asr so'nggi o'n yilliklariga kelib, badiiy tizimga aylanib bormoqda" [Volkov, 1995: 256] deya ta'kidlagan fikrini ham keltirishimiz mumkin. Shu nuqtai nazardan, fantastikani ham bugungi kunga kelib, o'z ichida bir necha komponentlarni qamrab oluvchi badiiy tizim deya atashga asoslar yetarli deb hisoblaymiz.

Bu jihatdan fantastikada u yoki bu estetik xususiyatning ustunligiga qarab, uning quyidagi turlarini farqlash mumkin:

a) ilmiy fantastika o'quvchiga davrdosh bo'lgan ilmiy bilimlardan oldinga o'tib ketuvchi, badiiy xayolot orqali yaratilgan dunyoni tasvirlaydi. Ilmiy fantastikaning asosiy xususiyati ilmiy kashfiyotga asoslangan fantastik to'qimaning mavjudligidir. Ilmiy fantastik asarda syujet ishonarlilikka e'tibor qaratilgan holda quriladi;

b) ijtimoiy fantastika (utopiya/anti-utopiya/distopiya) ilmiy fantastika asosida qurilgan syujetni o'quvchini kelajakdagi insoniyat uchun maqbul yoki nomaqbul bo'lib chiqishi mumkin bo'lgan ijtimoiy tuzilma haqida hikoya qilish yoki u haqda ogohlantirish vazifasiga bo'ysundiradi;

d) fentezi erkin, hech narsa bilan cheklanmagan (tush kabi) xayolot printsipligiga asoslanadi, u mantiqiy asoslar mavjud bo'lmagan mutlaqo yangi tuzilmani yaratadi. Bunda dominant estetik element tasvirlanayotgan hodisaning g'ayritabiiy, mo'jizaviy, haqiqatda imkonsiz bo'lishidir.

Shuningdek, ilmiy fantastika, fentezi va ijtimoiy fantastika uchun fantastika yuqori turuvchi, umumlashtiruvchi tushuncha vazifasini bajaradi. Ularning umumiy elementlari fantastika prizmasi orqali ko'rilishi lozim. Biroq ilmiy fantastika, fentezi va ijtimoiy fantastika o'rtasida farqli jihatlar mavjud. Ilmiy fantastika ilm-fan va texnologiyalarga asoslanadi, hozirda imkonsiz bo'lsa-da, qachondir kelib chiqishi mumkin bo'lgan stsenariylarni tasvirlaydi.

Ilmiy fantastika o'z navbatida «qattiq ilmiy fantastika» (masalan, Ayzek Azimovning «Xudolarning o'zlari» asari, aka-uka Strugatskiylarning «Alvon bulutlar mamlakati» asari) va «yumshoq ilmiy fantastika»ga (masalan, Frenk Gerbertning «Dyun» asari) bo'linishi mumkin. «Qattiq ilmiy fantastika» ko'pincha aniq tafsilotlarni, ayniqsa fizika, astrofizika va kimyoga oid ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va hali ixtiro qilinmagan ilg'or texnologiyalarni aniq tasvirlaydi hamda bashorat qiladi. «Yumshoq ilmiy fantastika» psixologiya, siyosatshunoslik, sotsiologiya, iqtisod va antropologiya kabi ijtimoiy fanlarga asoslangan va qattiq janrchalik ilmiy emas.


Boshqa tomondan, fentezi ko'plab g'ayritabiiy elementlarni o'z ichiga oladi va mavjud bo'lmagan va mavjud bo'lishi imkonsiz dunyoda sodir bo'ladi yoki bunday fantastik elementlarni mavjud olam bilan qorishtirib tasvirlaydi. Binobarin, ilmiy fantastika va fentezining asosiy farqi shundaki, ilmiy fantastika fanda o'z asosiga ega va imkoniyatlardan iborat, fentezi esa haqiqatda asosi yo'q va imkonsiz narsalardan iboratdir.

O'z navbatida fentezini «yuqori fentezi» (high fantasy) (masalan, Jon Tolkiennning «Uzuklar hukmdori», Jorj Martinning «Muz va olov qo'shig'i» asarlari) va «quyi fentezi» (low fantasy) (masalan, Samanta Shennonning «Niqob tushmoqda» asari) tagjanrlariga bo'lish qabul qilingan. «Yuqori fentezi» butunlay

yangi fantastik dunyo yaratsa, «quyi fentezi» bunday fantastikani mavjud olam bilan qorishtirib tasvirlaydi.

Ijtimoiy fantastika o'z ichiga utopiya (masalan, Gerbert Uellsning «Xudolar kabi odamlar» asarlari), anti-utopiya/distopiya (masalan, Rey Bredberining «Farengeyt 451» asari, Yevgeniy Zamyatinning «Biz» asari) kabi tagjanrlarni oladi, unda tasvirlanadigan dunyo fantastik elementlardan foydalangan holda kelajakdagi maqbul (utopiya) yoki nomaqbul (anti-utopiya/distopiya) jamiyatlar, siyosiy tuzumlardan iborat bo'ladi. Ijtimoiy fantastika, ayniqsa, anti-utopiya uchun apokaliptik/post-apokaliptik hodisani bayon qilish va asoslash uchun foydalanish xos hisoblanadi.

Rasm 1. Fantastika badiiy tizim sifatida



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг «Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари» мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига йўллаган табриги // Халқ сўзи, 2018 йил 8 август.

2. Маркина Н.В., “Художественный мир Рэя Бредбери: традиции и новаторство”, автореф. дисс.канд.фил.наук.: 10.03.01, Самара, 2006 г., С.5.

3. Генри Лайон Олди. Фантастическое допущение // Мир фантастики. — февраль 2008. — № 54.

4. Публий Овидий Назон. Метаморфозы. М., «Художественная литература», 1977. Перевод с латинского С. В. Шервинского. Примечания Ф. А. Петровского. С.641.

5. Волков И.Ф. Теория литературы, Учеб. пособие для студентов и преподавателей. — М.: Просвещение; Владос, — 1995. — 256 с. — ISBN 5-09-004669-7.

MADANIY KONTEKSTDA KOGNITIV METAFORALAR TARJIMASI MUAMMOLARI

*Hamida JURAQOBILOVA,
Turon universiteti dotsenti, s.f.n.*

Annotatsiya. Mazkur maqolada kognitiv metafora zamonaviy tilshunoslik va kognitiv fanlar sohasidagi til, fikr va madaniy kontekst o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiruvchi dolzarb mavzulardan biri sifatida tadqiqi qilingan. Shuningdek, kognitiv metaforalarning madaniy kontekstdagi roli va ularni tarjima qilishdagi muammolar tahlil qilinib, tarjima jarayonining murakkabliklari va bu muammolarning qanday samarali hal qilish mumkinligi haqida batafsil muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: kognitiv metafora, madaniy kontekst, tarjima, zamonaviy lingvistika, madaniy tajriba, badiiy tarjima.

Abstract. The article examines cognitive metaphors as a current topic reflecting the complex relationships between language, thought, and cultural context in the fields of modern linguistics and cognitive sciences. It also analyzes the role of cognitive metaphors in cultural contexts and the problems encountered in translating them, providing a detailed discussion on the complexities of the translation process and how these issues can be effectively resolved.

Key words: cognitive metaphor, cultural context, translation, modern linguistics, cultural experience, literary translation.

Kognitiv metaforalar zamonaviy tilshunoslik va kognitiv fanlar sohasidagi dolzarb mavzulardan biri bo'lib, til, fikr va madaniy kontekst o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiradi. Kognitiv metafora faqatgina nutqiy figura emas, balki insonlar o'zini o'rab turgan borliqni tushunishi va tasavvur qilishlari uchun asosiy mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Bunday metaforalar insonlarning atrof-muhit, hissiyotlar va mavhum tushunchalarni qabul qilish jarayonini shakllantiradi, bu esa nafaqat individual fikrlashga, balki jamoaviy madaniy identifikatsiyaga ham ta'sir qiladi.

Bunday metaforalarning tarjimasi alohida murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Metaforalarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda ularning so'zma-so'z ma'nolarini emas, balki ular joylashgan madaniy, psixologik va tarixiy kontekstlarni ham hisobga olish kerak bo'ladi. Kognitiv metaforalar ma'lum madaniy tajribalarga bog'langan bo'lib, ularning ma'nosi tillar o'rtasida sezilarli darajada farq qilishi mumkin, bu esa tarjima jarayonida ma'lum bir murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, kognitiv metaforalarni tarjima qilish, nafaqat lingvistik mahoratni, balki madaniy va kognitiv ongini ham talab qiladigan murakkab vazifadir. Bu esa tarjimondan metaforik ifodalarning sezilarli farqlarini aniqlab, ularni madaniy

nuqtai nazardan qanday tushunishlarini talab qiladi. Bundan tashqari, tarjimon original metaforani saqlab qolishi, tarjima tilidagi ekvivalent metaforani topish yoki hatto bir xil asosiy ma'noni ifodalovchi yangi bir ibora yaratish kerakligini aniqlashlari lozim.

Madaniy kontekstda kognitiv metaforalarni tarjima qilish ko'plab qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin, chunki metaforalar faqat tilning semantik xususiyatlari bilan cheklanmaydi, balki ular ko'pincha o'zgacha madaniy tajriba va dunyoqarashni aks ettiradi.

Badiiy tarjimada olam milliy manzarasining qayta yaratilishi muammolarini konseptual tahlil qilish va adekvat tarjima yaratish muammolarini chog'ishtirma planda badiiy asarlar misolida tadqiq qilgan tilshunos olim R.Shirinovaning tahlil natijalari, ba'zan mutarjimlarning o'z tarjimalarida sharq mentalitetiga xos so'zlarni fransuz tilida noto'g'ri aks ettirishi, tashlab ketishi yoki bo'lmasa kontekstlar tarkibida bitta so'z bir necha variantlarda berilishi kuzatilishini, bunday xilma xillik ko'p hollarda asarning badiiy va estetik ta'sirini susaytirishga olib kelishi mumkinligini ko'rsatdi. Olima badiiy tarjimada olam milliy manzarasining qayta yaratilishi darajasini aniqlash uchun asosan, mustaqillik yillarida o'zbek adabiyotidan fransuz tiliga va fransuz adabiyotidan o'zbek tiliga amalga oshirilgan tarjimalarni qiyosiy tahlil qildi va har ikki xalq milliy manzarasining tarjimada qayta yaratilishi masalalarini ko'rib chiqdi. [Shirinoва, 2017:56].

Tarjima nazariyasi va tarjimashunoslikda "metaforaning saqlanish qonuni" tushunchasi shakllantirilgan bo'lib, unga ko'ra tarjimada metaforik obraz iloji boricha to'liq saqlanishi kerak. Ushbu qonunga rioya qilmaslik metaforik iboraning ma'nosi o'zgarishiga, uning estetik va pragmatik ta'sirining pasayishiga olib keladi. [Fayziyeva, 2022:38]

V.N.Vovkning ta'kidlashicha, metafora, murakkab axborot vositasi bo'lib, tarjimada o'zining barcha informatsion mazmunini to'liq saqlashni talab qiladi, aks holda uning semantik murakkabligi, hatto metaforaning o'zi yo'qolish xavfi paydo bo'ladi. Bu yerda metaforaning ontologik mohiyati "transport" sifatida ifodalanadi, chunki u bir tildan ikkinchisiga ko'p qatlamli ma'no va hissiyotlar barchasini majburiy ravishda ko'chirishni talab qiladi. [Vovk, 1986:130]

Metafora ma'lum bir madaniyatning ijtimoiy-madaniy e'tiqodlari va munosabati orqali shakllanadi. Shu sababdan metafora tarjimasiga kognitiv yondashish metaforalarni insonlarning tajribalari, munosabati va amaliyotlarini kontseptual ifodalovchi kognitiv konstruktsiyalar sifatida ko'rish imkonini beradi. Metaforalar turli xil madaniy sohalar bilan bog'langanligi tarjima jarayonida o'xshash yoki bir xil kognitiv ekvivalentni izlashi kerakligini anglatadi. Manba til va tarjima tilining madaniy tajribasini ifodalash tarzi qanchalik yaqin va o'xshash bo'lsa, tarjima qilish ham shunchalik oson bo'ladi. Ammo xalqlarning hayotiy

tajribasi har doim ham o'xshash emasligi va metafora aynan shu tajribalarni anglatishini hisobga olsak, metaforalarni turli madaniyatlarga tegishli tillarga tarjima qilishda tarjimonning vazifasi yanada qiyinlashadi. Metaforalarni kitobxonga yetkazishdagi qiyinchilik tillarda aynan u yoki bu kontseptual sohaga tegishli o'xshash metaforalarning yo'qligi bilan asoslanadi.

Har bir til va madaniyat o'zining o'ziga xos tasavvurlari, qadriyatlari, tarixiy tajribalari va ijtimoiy kontekstlariga ega bo'lib, bular metaforalar orqali ifodalanadi. Quyida biz kognitiv metaforalarni tarjima qilishda uchraydigan ayrim qiyinchiliklar va muammolarni ko'rib chiqamiz:

1. Madaniy o'xshashlik va farqlar.

Kognitiv metaforalar ko'pincha ma'lum bir madaniyatga xos bo'lgan tasavvurlarni o'z ichiga oladi. Masalan, amerikalik olimlar J.Lakoff va M.Jonsonlar tomonidan tahlil qilingan ingliz tilidagi "*Time is money*" (Vaqt – bu pul) metaforasi sanoatlashgan G'arb madaniyatida keng tarqalgan, chunki bu madaniyatda vaqt iqtisodiy resurs sifatida qaraladi. Masalan:

This gadget will *save* you hours.

Ushbu vosita sizga ko'p vaqtni *tejaydi*.

I don't *have* the time to *give* you.

Mening sizga *ajratadigan* vaqtim yo'q. (so'zma-so'z: *beradigan*)

How do you *spend* your time these days?

Siz bu kunlar vaqtingizni qanday *o'tkazasiz*? (so'zma-so'z: *yuqotasiz*)

I've *invested* a lot of time in her

Men unga ko'p vaqt *sarfladim*

I don't *have enough* time to *spare* for that

Buning uchun vaqtim *yetarli emas* (Buning uchun mening *vaqtim yo'q*)

You're *running out* of time.

Vaqtingiz *tugayapti*.

You need to *budget* your time

Siz vaqtingizni *hisoblashingiz* kerak. [Лаккофф Д., Джонсон М., 2004:29-30]

Yuqorida keltirilgan misollardan shuni ko'rish mumkinki, G'arb madaniyatida vaqtni xuddi moddiy narsadek *sarflash*, *yuqotish*, *topish*, *tejash*, *hisoblash* mumkin. Ammo bu kognitiv metafora boshqa madaniyatlarda, masalan, ba'zi Sharq yoki boshqa madaniyatlarida, shunchaki semantik jihatdan anglanmasligi yoki to'liq tushunilmasligi mumkin, chunki bu jamiyatlarda vaqtga nisbatan boshqacha qarashlar mavjud.

2. Metaforaning strukturaviy o'zgarishi.

Metaforalar tilning grammatik va semantik strukturalariga mos ravishda shakllanadi. Bir tildagi metaforaning tarjimasi boshqa tilda o'xshash tuzilmaga ega

bo‘lmasligi mumkin. Tarjimon boshqa bir metafora yoki tasvirni topishi kerak bo‘ladi, bu esa so‘zlar va tasavvurlarni madaniy ravishda moslashtirishni talab qiladi.

Masalan, Abdulhamid Cho‘lponning “Qalandar ishq” she‘rining o‘zbek tilidagi matnida “*karashma dengizin*” metaforasini fransuz tiliga “*un océan de coquetterie*” (so‘zma-so‘z: noz-karashma ummoni) tarzida tarjima qilingan.

Asliyatda:

Karashma dengizin ko‘rdim, na nozlik to‘lqini bordir,

Halokat bo‘lg‘usin bilmay, qulochni katta otdim-ku. [Cho‘lpon, 2022:33]

Tarjimada:

J’ai vu *un océan de coquetterie*, que de tendres vagues il avait

Méprisant la noyade j’ai fait de bonnes brasses. [Anthologie de la poésie d’Ouzbekistan., 2008:105]

3. Kognitiv strukturadagi farqlar.

Kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan, har bir til o‘zining kognitiv xaritasiga ega bo‘lib, bu xarita o‘sha tilda so‘zlovchilarning dunyo haqidagi tasavvurlarini aks ettiradi. Masalan, bir madaniyatda odamlar tabiatni faol va energiya manbai sifatida tasavvur qilsa, boshqa madaniyatda tabiat o‘z-o‘zidan tinchlanadigan va passiv bo‘lgan bir narsa sifatida ko‘riladi. Shu sababli, kognitiv metaforaning tarjimasi madaniy kontekstdagi farqlarga qarab moslashtirilishi zarur.

4. Tabiiy va ijtimoiy hodisalar.

Metaforalar ko‘pincha tabiiy hodisalarga, ijtimoiy hayotga yoki tarixiy voqealarga asoslanadi. Buning natijasida ba’zi metaforalar faqat ma’lum bir madaniyatda, yoki ma’lum bir tarixiy yoki ijtimoiy kontekstdan kelib chiqqan holda tushunarli bo‘ladi. Masalan, fransuz tilidagi “*le pain quotidien*” (kundalik non) metaforasi, fransuz madaniyatida juda kuchli ramz sifatida ishlatiladi va u ko‘pincha hayotning oddiy, zaruriy jihatlarini anglatadi. Kimdir uchun odatiy bo‘lgan, ular har kuni foydalanadigan, yoki har kuni tez-tez qiladigan ish. Bu uning *kundalik nonidir*. Boshqa madaniyatlarda bu obrazni to‘g‘ri tushunish yoki to‘liq anglash qiyin bo‘lishi mumkin.

5. Badiiy va ekspressiv funktsiyalar.

Kognitiv metafora nafaqat axborot uzatishda, balki badiiy va estetik maqsadlar uchun ham ishlatiladi. Poeziya va badiiy adabiyotda metaforalar hissiyotlarni ifodalash va o‘zgacha estetik effekt yaratish uchun ishlatiladi. Tarjima jarayonida badiiy funktsiya yo‘qolib ketishi mumkin, chunki badiiy tasvirlar va estetika har bir til va madaniyatda o‘ziga xosdir. Misol uchun, rus tilidagi “*красная туман*” (so‘zma-so‘z: *qizil tuman*), ya’ni, insonning mulohazalarini vaqtinchalik xira qiladigan haddan tashqari g‘azab hissini ifodalaydigan metafora, poetik kontekstdan

qat'iy nazar tasviriy kuchga ega, ammo boshqa tilga tarjima qilganda bu obrazning hissiy, estetik kuchi yo'qolishi mumkin.

6. Ijtimoiy va axborot konteksti.

Kognitiv metaforalar ko'pincha ijtimoiy o'zgarishlar, siyosiy vaziyatlar yoki umumiy madaniy kontekstga bog'liq bo'ladi. Ba'zi metaforalar, masalan, siyosiy yoki ijtimoiy voqealar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ular esa boshqa madaniyatda yoki boshqa tarixiy davrda tushunilmasligi mumkin. Tarjimon bunday metaforalarning ma'nosini aniqroq ifodalash uchun kontekstni hisobga olishi kerak. Masalan: Fiziologik metafora rus siyosiy nutqidagi eng an'anaviy va batafsil tuzilgan metaforalaridan biridir. XX asrning so'nggi o'n yilligida bu turdagi metaforalar, avvalgi davrlardagi kabi siyosiy nutqda faol qo'llanilgan. Zamonaviy rus siyosiy nutqida: ПОЛИТИЧЕСКИЕ РЕАЛИИ - ЭТО ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ ОРГАНИЗМ (Siyosiy realliklar – bu inson organizmi) metaforik modeli mavjud. Bu yerda organlar bilan bog'liq siyosiy metaforalar odatda biron-bir tegishli tashkilotlarning, masalan, mintaqa, partiya, mansabdor shaxs va boshqalar rolini tavsiflaydi. Masalan:

Представители президента — это лицо исполнительной власти. Это ее глаза, уши и все остальное. (О.Вандышева) [Чудинов,2001:60]

Президент vakillari - ijro hokimiyatining yuzi hisoblanadi. Bu uning ko'zlari, quloqlari va boshqalari.

7. Ta'rif va to'g'ri moslashuv.

Madaniy kontekstda metafora tarjimasi ko'pincha aniq ta'riflarni talab qiladi. Agar biror metafora bir madaniyatda o'ziga xos bo'lsa, uning boshqa tilga tarjimasi uchun tushuntirish yoki qo'shimcha izohlar kerak bo'lishi mumkin. Tarjimon metaforaning ma'nosini saqlash uchun ko'pincha parapzaasing (so'zma-so'z tarjima qilishdan qochish) yoki yangi metaforik ifodalar ishlatish kerak bo'ladi.

Kognitiv metafora va madaniyatlararo tarjima mavzusi zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslikda juda muhim ahamiyatga ega. Kognitiv metaforalar til orqali dunyoni qanday tasavvur qilishimizni ifodalaydi va bu tasavvurlar ko'pincha o'z madaniy kontekstiga chuqur bog'liq bo'ladi. Madaniyatlararo tarjima esa turli til va madaniyatlar o'rtasida to'g'ri muloqot o'rnatishni, asosan, semantik va madaniy farqlarni hisobga olishni talab qiladi.

Kognitiv metaforalarni madaniyatlararo tarjimasi ko'plab qiyinchiliklarni, jumladan, har bir madaniyat o'ziga xos tasavvurlar va obrazlarni ishlab chiqadi, bu esa bir tildagi metaforaning boshqa tilda to'g'ri va aniq tarjima qilinishini qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, metaforalar ko'pincha tarixiy yoki ijtimoiy o'zgarishlarga bog'liq bo'lib, kontekstni tarjima qilishda yirik muammolar yuzaga

keltirishi mumkin, chunki bir madaniyatdagi tarixiy yoki siyosiy tajribalar boshqa madaniyatlarda boshqacha bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon. She‘rlar, hikoyalar, she‘riy va nasriy tarjimalar. –Toshkent: Zabarjad Media, 2022. –336 b.
2. Antologie de la poésie de l’Ouzbékistan. Tom I. Sous la direction éditoriale de Jacqueline Farmer. –France, Éditions du Sandre, 2008. - 114 p.
3. Вовк В.Н. Языковая метафора в художественной речи. Природа вторичной номинации. – Киев: Наукова думка, 1986. –130 с.
4. Fayziyeva A.A. Metafora tarjimasiga turli qarashlar. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2022 yil 6.2) – B.38.
5. Лакофф Д., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем: Пер. с англ. / Под ред. и с предисл. А. Н. Баранова. - М.:Едиториал УРСС, 2004.- С.29-30.
6. Широнова Р. Олам миллий манзарасининг бадий таржимада қайта яратилиши: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 56 б.
7. Чудинов А.П. Россия в метафорическом зеркале: Когнитивное исследование политической метафоры (1991- 2000): Монография/Урал. гос. пед. ун-т. - Екатеринбург, 2001. – С.60.

XX ASR VYETNAM ADABIYOTIDA “YANGI SHE’RIYAT”

XUSUSIYATLARI

Nozimaxon ABDURASHIDOVA

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O‘zbekiston Respublikasi
Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshlarida Vyetnam she’riyati, xususan, o‘sha davrda yaratilgan she’rlarning o‘ziga xos jihatlarini bilan yaqindan tanishishimiz mumkin.

Ushbu maqolada XX asr birinchi yarmi vyetnam adabiyotining rivojlanish tamoyillari, vyetnam adabiyotida “Yangi she’riyat” yo‘nalishini vujudga kelishi va o‘ziga xosliklari haqida yuritib berilgan. Shuningdek, “Yangi she’riyat” yo‘nalishida yaratilgan she’rlarning badiiy xususiyatlari va mavzular ko‘lamini bo‘yicha ham ma’lumot berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi she’riyat, paradigma, modernizatsiya, oq she’r, motiv, lirik, romantizm, tematika, tashxis.

Abstract. In this article, we can get acquainted with Vietnamese poetry at the beginning of the 20th century, in particular, with the specific aspects of the poems created at that time.

This article describes the principles of the development of Vietnamese literature in the first half of the 20th century, the emergence of the "New Poetry" trend in Vietnamese literature, and its peculiarities. Also, information was provided on the scope of themes and artistic features of the poems created in the direction of "New Poetry".

Key words: New poetry, paradigm, modernization, white poetry, motive, lyric, romanticism, theme, diagnosis.

XX asr boshlarida yangi Vyetnam adabiyoti bir necha asrlik qoloqlikdan so‘ng o‘zini tiklab olib, zamon bilan birga olg‘a qadam qo‘yishga harakatlar qila boshladi.

Jumladan, fransuz adabiyot ta’siri natijasida “Yangi she’riyat” tushunchasi paydo bo‘ldi va uning tarafdorlari mumtoz she’riyatidagi she’rning tuzilishi bilan shoirlarni bog‘lovchi qonunlarga qat’iy qarshi chiqdilar. XX asrning birinchi yarmida boshlangan inqilobiy adabiy harakatlar vyetnam she’riyatida paradigma²⁷ o‘zgarishini aks ettirgan.

“Yangi she’riyat” asosan, XX asrning boshlarida G‘arbning adabiy va poetik rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Modernizatsiyaga intilgan vyetnam shoirlari eski

²⁷ Ilmiy jamoatchilik tomonidan qabul qilingan va birgalikda foydalanadigan va uning ko‘pchilik a‘zolarini birlashtirgan fundamental ilmiy nuqtayi nazarlar, tushunchalar va atamalar to‘plami.

mumtoz she'riy an'ana bilan aloqalarini uzishni boshlaydilar²⁸. Bu isyonkor va keskin harakatni ko'p asrlik an'anaviy she'riyat tarafdorlari bo'lgan shoirlar qo'llab-quvvatlamaydilar va natijada bir qancha vaqt mobaynida an'anaviy va zamonaviy shoirlar o'rtasida davomiy urush yuzaga keladi. Bunday o'zgarishlarning barchasi mashhur konfiitsant shoir Fan Xoyning "Tinh Gia" ("Asl muhabbat") nomli kichik she'rida aks etgan. Aslida, bu she'r majvud she'r tuzilish qoidalarini buzgan birinchi she'r emas edi. Boshqa shoirlar - Tan Da va Nguyen Van Vinh ko'p yillar mobaynida bunday buzilishlarga yo'l qo'yib kelishgan. Ammo, Fan Xoyning 1932-yildagi she'ri ayni vaqtda ya'ni zamonaviy o'qimishli yoshlar avlodi an'anaviylik muhitidan bo'g'ilib, toza havoga muhtoj bo'lgan vaqtda yozilgan edi. Uning she'rlari yangi bo'lib, unda omadsiz sevgi mavzusida va butkul yangicha shaklda - erkin (oq) she'rda yozilgan.

"Yangi she'riyat" mutloq yangi yo'nalish bo'lmagan, u vyetnam she'riyatida yaxshi o'zlashtirilgan shakllarni va hajmlarni erkin foydalanish asosida rivojlangan. Bir vaqtning o'zida ular fransuz she'riyatiga xos bo'lgan erkin she'riy sintaksisini, uning ta'sirchanligini, she'rni yaratishdagi elementlarni qabul qilganlar. Vyetnam she'riyati Fransiya romantik maktabi rahbari Viktor Hugo, shuningdek "San'at san'at uchun" harakatining asoschisi Teofil Gotye, Alfred de Vinyi ta'siri ostida bo'lgan. She'rlarning maqomi ancha rang-barang bo'lib, tili soddalashtirilgan.

Shuningdek, she'riyatga do'stlik suhbatlarining yurak sadolari kirib keladi. Lekin "Yangi she'riyat" kurashchilari, she'r tuzilishini o'zgartirish bilan cheklanishmadi.

She'r tuzilish doirasidagi "Inqilob" eng avvalo, she'riyatni yangi bosqichining rijovlanishi uchun, shoirlarning shaxsiy ma'naviy rivojlanishidagi boy va nozik ichki dunyosi namoyon etish uchun xizmat qildi. Shoir Liu Chaung Li: "Bizning qariyalarimizga to'q-alvon rang yoqadi, bizga esa nafis zangorang yoqadi. Yosh chiroyli qizga qarash, ular gunoh deb hisoblashgan, biz uchun esa bu shunchalik yoqimlik, huddi ko'm-ko'k dalalarga qarab zavqlangandek. qariyalarimiz uchun muhabbat nikohga tenglashilgan bo'lsa, biz uchun esa yuz va ming ko'rinishlarida va o'n ming tovlanishlarida namoyon bo'lardi: ehtirosli va chuqur bo'lmagan sevgi, yaqin odamiga va uzoqdagi ayolga bo'lgan tuyg'u, o'tkinchi va mingyillar ko'ziga teng sevgi"[Литература Востока в новейшее время, 1977:516] – deb yozgan edi.

Aslida, "Yangi she'riyat" shoirlari hech qanday tahlilsiz, o'zlarining maqsadlari uchun qulay bo'lgan har qanday she'riy shakllar va metrlardan foydalanib, an'anaviy shaklda o'z ijod namunalarini yozishgan. Bu harakatning o'ziga hos tarafi shaxsiy fikr erkinligiga, uslubiy cheklovlar va eskirgan motivlarga to'sqinlik qilmaslik, samimiy his-tuyg'ularning gullab-yashnashiga, shu jumladan tashvish va individuallikning kollektivdan ustuvorligiga alohida e'tibor qaratishdan iborat edi. XX asrning 20-30-yillaridan boshlab ushbu yangi shakllar sezilarli

²⁸ Vo Thu Tinh. The Modern Poetry Movement in Vietnam: The Revolution in Poetry at the beginning of the 20th Century. 2003.

darajada eski urf odatlarning o'zgaruvchangligidan dalolat berardi.

Vyetnam adabiyotida "Yangi she'riyat" tushunchasi 1930-yillarning boshida vujudga kela boshladi va bu davr "Yangi she'riyat" harakati deb nomlangan yangi davr nomi bilan yuritila boshladi. "Yangi she'riyat" harakatining rivoji paydo bo'lganidan buyon uch xil davrga bo'lingan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyat va yutuqlarga ega.

Uning nomi she'riyatda yangi yo'nalish bo'lib – nafaqat mazmun, shakl, qarash, balki tafakkur va yozuv uslubidagi yangilik – ochilishini ifodalaydi. Shoirlar bu davrda yangi she'riy shakl uchun kurash olib bordi. Yangi she'riy asarlar ko'pincha har bir muallifning ijodiy ruhi, ichki kechinmalari va shaxsiy ifoda qobiliyatiga qaratilgan. "Yangi she'riyat" harakati zamonaviy g'arb adabiyoti she'riyatining diksiya va qofiya qoidalarining ta'sirini o'zida aks ettirib, an'anaviy she'riyatni modernizatsiya qilishda zaruriy ehtiyojlarni qondirish uchun tug'ilgan hodisa hisoblanadi.

"Yangi she'riyat" ning tili sodda xalq tili edi. Unda hech qanday xitoy miflari, an'anaviy shakllar yo'q. Ularning she'rlarida qalb g'alabasi yangraydi va klassik cheklovlardan uzoqda. Yangi she'riyat she'riyat olamida til va shaklga yangicha yondoshuv bo'libgina qolmay, balki ijodkorning his-tuyg'ularini, g'oyalarini erkin ifodalashda qulaylik yaratib, ijodning yangi eshiklarini ochadi. Betakror tildan tortib, yorqin va obrazlar yaratishgacha bo'lgan yangi she'riyat mintaqadagi madaniy merosni boyitishga xizmat qiladi. Binobarin, u she'riy san'atdagi ijodiy yo'nalish bo'libgina qolmay, balki jamiyat va madaniyat taraqqiyotini zamonaviy sharoitda aks ettiradi. Yangi she'riyat an'anaviy she'riyat sohasida chinakam inqilob olib keldi, ritorik qoidalar va qat'iy qofiya sxemalari cheklovlaridan butunlay xalos bo'ldi. Bu mualliflarning o'z kayfiyati, fikr va g'oyalarini o'ziga xos tarzda ifodalashi uchun erkin ijodiy maydon yaratdi. Yangi she'riyat muallifni rasmiy cheklovlardan ozod qildi, erkin ijod qilish imkoniyatini ochib berdi. Bo'sh she'r, erkin she'r va narvon tuzilmali she'r janrlari turli so'zlar, ohanglar va tuzilmalarning moslashuvchan qo'llanilishi orqali ifoda uslubiga aylangan. Shuningdek, jumlarar sonidagi erkinlik: an'anaviy she'riyatdan farqli o'laroq, jumlarar soni ko'pincha qat'iy qoidalariga muvofiq cheklanadi, yangi she'riyatda muallifni jumlarar sonida cheklamaydi. Bu mualliflarga g'oyalarni erkin rivojlantirishga va o'ziga xos tuzilgan asarlar yaratishga yordam beradi. Oddiy til va badiiy til: Yangi she'riyat uni badiiy yuksaklikka olib chiqish uchun hayotdan olingan kundalik tildan foydalanadi. She'riyatda umumiy tildan foydalanish yaqinlik, haqiqiylikni keltirib chiqaradi va o'quvchini tushunib tahlil etishga undaydi. Ko'p qirrali va murakkab mazmun: Yangi she'riyat an'anaviy she'riyat kabi qat'iy mavzular bilan bog'lanmaydi, bu ko'plab ifoda imkoniyatlari va mavzular xilma-xilligini ochib beradi. Bu esa muallifga hayot va jamiyatning ko'p qirralarini aks ettirgan holda teran

mulohazalarni ifodalash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adabiy turlar va janrlar. - T.: Fan. 1991. 1-jild.-383 b., 2-jild.1992.
2. N. Jabborov Yangi zamon she'riyati tamoyillari. Sharq yulduzi., 2014.
3. T. Boboev Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O'zbekiston, 2002.
4. Литература Востока в новейшее время. М., МГУ, 1977.
5. Резник М.В. Вьетнам: история, культура, литература –Т.И. Матвеева Красноярск, 2018.
6. Никулин Н. И. Вьетнамская литература [на рубеже XIX и XX веков] // История всемирной литературы: В 8 томах / Ин-т мировой лит. им. А. М. Горького. — М.: Наука, История всемирной литературы: в 9 т. Т. 8. — 1994.
7. Huy Hoang Thơ Xuân Diệu.(Suan Zieu She'rlari)-Hanoi 2016.

TIL O'QITISHDA FE'L MAVZUSI ORQALI KOMPETENSIYALARNI MUSTAHKAMLASH

Mohigul RAHIMQULOVA,

Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada fe'l mavzusini o'qitishda kompetensial yondashuvning ahamiyati va uning lingvistik, kommunikativ, ijtimoiy-madaniy hamda nutqiy-me'yoriy kompetensiyalarni shakllantirishdagi roli tahlil qilingan. Kompetensial yondashuvni qo'llash orqali o'quvchilarning fe'l mavzusidagi grammatik bilimlari mustahkamlanib, amaliy nutqiy faoliyatda samarali qo'llanilish imkoniyatlari kengayadi. Shuningdek, maqolada fe'l mavzusini o'rgatishda zamonaviy metodlardan foydalanish, an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarni uyg'unlashtirishning usullari ko'rsatib o'tilgan. Maqola tilshunoslik va ta'lim metodikasi sohasida tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar hamda ona tili va adabiyoti o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma sifatida foydalanishga mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: fe'l mavzusi, kompetensial yondashuv, lingvistik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy-madaniy kompetensiya, nutqiy-me'yoriy kompetensiya, interfaol usullar, til o'qitish metodikasi, ona tili ta'limi, zamonaviy yondashuv.

Abstract. This article analyzes the importance of the competence approach in teaching the subject of the verb and its role in the formation of linguistic, communicative, socio-cultural and speech-normative competences. By applying the competent approach, students' grammatical knowledge of the subject of verbs will be strengthened, and the possibilities of effective use in practical speech activities will be expanded. Also, the article shows the use of modern methods in teaching the subject of verbs, the methods of combining traditional and modern approaches. The article is intended to be used as a methodical guide for specialists conducting research in the field of linguistics and educational methodology, as well as teachers of mother tongue and literature.

Key words: verb subject, competence approach, linguistic competence, communicative competence, socio-cultural competence, speech-normative competence, interactive methods, language teaching methodology, mother tongue education, modern approach.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida kompetensial yondashuvni joriy etish, til o'qitish metodikasini zamonaviy talablarga moslashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ona tili darslarida, xususan, fe'l mavzusini o'qitishda faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolish emas, balki o'quvchilarning kommunikativ,

lingvistik, ijtimoiy-madaniy va boshqa kompetensiyalarini mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Chunki til – bu nafaqat ma’lum bir tuzilma va qoidalarining majmui, balki o’quvchining fikrlash, muloqot qilish, o’zini ifoda etish, o’rgangan bilimlarini amaliyotda qo’llash vositasidir. Fe’l esa til tizimida markaziy o’rin tutadigan so’z turkumlaridan biri bo’lib, gapda predikatlikni ifodalab, grammatik-hayotiy vazifalarni bajargani bois o’quvchilar kompetensiyalarini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega.

XXI asr ta’limida “kompetensiya” tushunchasi asosiy tushunchalardan biriga aylandi. Jahon tajribasida “kompetensiya” termini o’quvchining aniq faoliyat turi doirasida mustaqil va ijodiy amaliy faoliyatni bajarish layoqati sifatida izohlanadi. Kompetensiya bilish, ko’nikma, malaka va psixologik xususiyatlarni o’z ichiga oladi. Kompetensial yondashuvning mohiyati – o’quvchini bilimni passiv o’zlashtiruvchidan faol tadqiqotchi, ijodkor, ijrochi shaxsga aylantirishdan iborat.

O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida ham so’nggi yillarda kompetensial yondashuvga alohida urg’u berilmoqda. Xususan, til o’qitish dasturlarida o’quvchilarning lingvistik, kommunikativ, ijtimoiy-madaniy, axborot bilan ishlash kompetensiyalari shakllanishi muhim ko’rsatkich sifatida kiritilgan.

Til o’qitish jarayonida shakllanadigan asosiy kompetensiyalarni quyidagicha ajratish mumkin:

- Lingvistik kompetensiya - tilning grammatik, fonetik, leksik qonuniyatlarini amaliy o’zlashtira olish;
- Kommunikativ kompetensiya - og’zaki va yozma nutqda erkin fikr bildirish, muloqot jarayonida o’zgalar fikrini tushunish, o’z fikrini aniq va ravon yetkazish;
- Lingvomadaniy kompetensiya - til bilan bog’liq milliy urf-odatlar, madaniy qadriyatlar haqida ma’lumotga ega bo’lish va amaliyotda qo’llay olish;
- Nutqiy-me’yoriy kompetensiya - adabiy tilda nutq me’yorlarini saqlash, uslubiy xatolarga yo’l qo’ymaslik;
- Axborot bilan ishlash kompetensiyasi - turli manbalardan til, adabiyot va tilshunoslik haqida ma’lumot to’plash, tahlil qilish va qayta ishlash.

Fe’l mavzusini o’rganish jarayonida aynan shu kompetensiyalarni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Zero, fe’l grammatik nuqtayi nazardan eng murakkab so’z turkumlaridan biri bo’lib, uning shakl va ma’nosiga oid bilimlar o’quvchilarning til materialini puxta o’zlashtirishlariga hamda uni amaliy nutqda erkin qo’llashlariga xizmat qiladi.

Fe’l mavzusini o’qitish jarayonida lingvistik kompetensiya deganda fe’l mavzusi o’quvchilarda grammatik bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda o’quvchilar fe’lning shakllanishi, zamon, mayl, shaxs-son kabi grammatik kategoriyalarni o’rganadilar, shuningdek, fe’lning gapda predikat vazifasini bajarish

xususiyatlarini anglaydilar. Ushbu bilimlar til birliklarini ongli ravishda qo'llash ko'nikmasini rivojlantirib, o'quvchilarning turli zamonlarda va vaziyatlarda to'g'ri nutq tuzish qobiliyatini oshiradi.

Fe'lning funksional xususiyatlari o'quvchilarda nutqdagi harakat, holat va jarayonlarni ifodalash ko'nikmasini rivojlantiradi. Bu mavzu doirasida o'quvchilar harakat va jarayonlarga oid fikrlarni turli uslub va kontekstlarda ifodalashni o'rganib, muloqotda nazokat va o'dob me'yorlariga amal qilish, situatsiyaga mos fe'l shaklini tanlash, boshqalarning fikrini inobatga olish, shuningdek, ajrim yoki taklif bildirishda buyruq va shart mayllarini o'rinli qo'llash kabi qobiliyatlarni egallaydilar. Ushbu ko'nikmalar o'quvchilarning muloqotda samarali ishtirok etish qobiliyatini oshirib, kommunikativ kompetensiyaning shakllanishiga xizmat qiladi. O'quvchilar nafaqat til qoidalarini biladilar, balki ularni muloqot jarayonida aniq va samarali qo'llashni o'rganadilar.

Fe'l mavzusini o'qitish jarayonida o'quvchilarga milliy lingvomadaniy xususiyatlar haqida tushuncha beriladi. Masalan, "tob bo'lmoq", "malol kelmoq", "ko'ngil tusamoq" kabi birikmalardagi fe'llarning ma'nodoshligi va ularning hayotiy voqealarni aks ettirishi orqali o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy dunyoqarashi kengayadi. Ushbu jarayonda o'quvchilar milliy urf-odat va mentalitet bilan bog'liq fe'l birikmalarini o'zlashtiradilar va ularni o'z nutqida to'g'ri qo'llashni o'rganadilar. Bu esa ularning lingvistik va madaniy savodxonligini mustahkamlab, milliy o'zlikni anglashi va madaniyatlararo muloqot qobiliyatini rivojlantiradi.

Fe'l mavzusini o'rganish o'quvchilarning adabiy til me'yorlariga rioya qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Fe'llar bilan bog'liq fonetik o'zgarishlar, so'z oxiridagi unlilar tushishi, qo'shimchalar moslashuvi kabi qoidalarni o'zlashtirish orqali o'quvchilar nutqda dialektizmlardan saqlanish, adabiy talaffuzga rioya qilish va imlo qoidalarini bilib, ularga amal qilishni o'rganadilar. Bu esa o'quvchilarning savodxonligini oshirishga, nutqni madaniy va estetik jihatdan boyitishga yordam beradi. Shu bilan birga, ular adabiy til qoidalariga mos ravishda grammatik jihatdan aniq va to'g'ri gaplar tuzishni o'zlashtiradilar, bu esa o'z fikrlarini aniq ifodalash va ravon nutq qurishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fe'l mavzusini o'qitishda o'quvchilarning lingvistik, kommunikativ, va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda o'qituvchilar tomonidan interfaol metodlar, rolli o'yinlar, projekt usullari va ijodiy topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarni mavzuga qiziqtirish va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Quyidagi jadvalda fe'l mavzusini o'qitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan asosiy metodlar, ularning tavsifi, rivojlantiriladigan kompetensiyalari va amaliy misollari keltirilgan.

**Fe'l mavzusini o'qitish jarayonida kompetensiyalarni rivojlantirish
metodlari**

Metod	Tavsifi	Rivojlantirila digan kompetensiyal ar	Misol
Interfa ol usullar va rolli o'yinla r	Fe'l mavzusini amaliy mashqlar orqali o'rgatish; o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash	Lingvistik va kommunikativ kompetensiya	- Rolli o'yin - "Do'konchilik" mavzusida shart, buyruq va istak mayllarini ishlatib, sotuvchi va xaridor suhbatini sahnalashtirish.
			Munozara - "Kim bo'lmoq istaysiz?" mavzusida kelasi zamon fe'llari bilan o'z rejalari haqida gaplashish.
Projekt usuli	Fe'l mavzusiga oid kichik loyiha yoki tadqiqotlarni tashkil qilish.	Kommunikativ va tadqiqot kompetensiyala ri	Loyiha - "Fe'lning turli funksiyalari hayotiy vaziyatlarda" mavzusidatadqiqot.
			Topshiriqlar - matnlarni tahlil qilish, intervyu o'tkazish, natijalarga xulosa chiqarish.
Ijodiy topshir iqlar	Fe'l shakllaridan foydalanib, ijodiy yozma ishlarni bajarish.	Lingvistik, kommunikativ va ijodiy kompetensiyala r	Ijodiy diktant - fe'lning orttirma majhul shakllaridan foydalanib, mini-insho yozish.
			Hikoya yoki she'r yozish - shaxs-son qo'shimchalari va zamon shakllarini qo'llab, badiiy ijod qilish.

Yuqorida 1-jadval ma'lumotlari o'quvchilarning fe'l mavzusini puxta o'zlashtirishi uchun turli metodlarning ko'lamini ko'rsatadi va ularning rivojlanishiga yo'naltirilganligi bilan farqlanadi. Ushbu metodlar fe'l mavzusini o'qitishda an'anaviy yondashuvni zamonaviy interfaol metodlar bilan integratsiya qilish imkonini beradi. Interfaol usullar va rolli o'yinlar o'quvchilarning nutqiy faoliyatini faollashtirsa, projekt usuli va ijodiy topshiriqlar orqali ular mavzuni chuqur o'rganadilar va o'z bilimlarini amalda qo'llash imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash, shuningdek, ularni ijodiy va mustaqil fikrlashga undashga xizmat qiladi. Shu tarzda

fe'l mavzusini o'qitish jarayoni faqat nazariy emas, balki amaliy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi jarayonga aylanadi.

An'anaviy va zamonaviy yondashuvlarni integratsiya qilish fe'l mavzusini o'rganishda o'quvchilarning lingvistik va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali usuldir. An'anaviy yondashuv grammatik qoidalarini o'rgatishga, masalan, fe'lning shakl-shamoyili, grammatik xususiyatlariga doir mashqlar, testlar va nazariy ko'nikmalarga asoslangan bo'lsa, zamonaviy kompetensial yondashuv fe'lni turli nutqiy vaziyatlarda qo'llash, ijodiy topshiriqlar, interfaol mashqlar va muammoli vaziyatlar tahlili orqali o'quvchilarning ijodkorligini oshirishga qaratilgan. Bu ikki yondashuvning uyg'unlashuvi o'quvchilarning nafaqat til bilimlarini mustahkamlaydi, balki ularni muloqotda samarali ishtirok etishga, ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Fe'l mavzusini o'qitishda zamonaviy ta'lim resurslaridan samarali foydalanish muhimdir. Elektron resurslar, o'yinlar, audio-video materiallar, masalan, fe'l shakllarini tushuntiruvchi animatsion roliklar va interaktiv platformalar orqali testlar, o'quvchilarda qiziqish va mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Shu bilan birga, o'quv jarayonida kompetensiyalarni baholashning aniq tizimini ishlab chiqish lozim. Lingvistik bilimlar nazariy testlar orqali, kommunikativ kompetensiyalar esa ko'rgazmali nutqiy mashqlar yordamida aniqlanishi mumkin. Ijodiy ishlanmalar, masalan, matn tuzish va maqola yozish orqali o'quvchilarning lingvomadaniy va nutqiy-me'yoriy ko'nikmalari baholanadi, bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi.

Fe'l mavzusini o'rgatishda o'quvchilarning bilimini mustahkamlash uchun turli mashqlardan foydalanish mumkin. Masalan, "Do'stim bilan dars tayyorlayman" mavzusida 2-3 jumla tuzish orqali har bir jumlada turli zamon yoki mayl shaklini qo'llash nutqiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Tahliliy mashq sifatida matndan fe'llarni ajratish, ularning asosiy grammatik kategoriyalarini aniqlash va gapdagi o'rnini tushuntirish o'quvchilarning nazariy bilimini chuqurlashtiradi. Shuningdek, "Kelajakda kasb tanlash" mavzusida kelasi zamon fe'l shakllaridan foydalanib o'quvchilar o'z rejalarini muhokama qiladilar, bu jarayonda o'qituvchi zamon shakllari va gap tuzilishiga e'tibor qaratadi. Bunday mashqlar lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarni bir vaqtda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Fe'l mavzusini o'qitishda kompetensial yondashuvni qo'llash natijasida o'quvchilarda lingvistik, kommunikativ, ijtimoiy-madaniy va nutqiy-me'yoriy kompetensiyalar rivojlanadi. Ular fe'lning barcha grammatik shakllarini ongli ravishda qo'llashni, harakat va jarayonlarni turli vaqtlarda va uslubda ifodalashni, shuningdek, milliy mentalitet va urf-odatlarga xos fe'l birikmalarini nutqda qo'llashni o'rganadilar. Shu bilan birga, adabiy me'yorlarga mos ravishda nutq shakllantirish, uslubiy xatolardan saqlanish malakalarini rivojlantiradilar. Bu

ko'nikmalar faqat ona tili darslarida emas, balki o'quvchilarning kundalik hayoti va boshqa fanlardagi faoliyatlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Til o'qitish jarayonida fe'l mavzusining o'rni alohida ta'kidlashga arziydi, zero fe'l orqali harakat, jarayon, voqelikning asosiy mazmunini ifodalash mumkin. Aynan fe'l mavzusini puxta o'zlashtirish uchun kompetensial yondashuvdan foydalanish talab etiladi. Bu yondashuv o'quvchilarning nazariy bilimini mustahkamlash bilangina cheklanmay, balki ularning nutqiy, lingvomadaniy, ijodiy, kommunikativ salohiyatlarini rivojlantiradi. Interfaol usullar, ijodiy mashqlar, rolli o'yinlar, loyihaviy faoliyat kabi metodik uslubiyatni qo'llash o'quvchilarning faolligini, mustaqil fikrlashini, eng asosiysi, til resurslaridan unumli foydalanish ko'nikmasini hosil qiladi.

Bugungi globallashuv davrida ona tili darslarida fe'l mavzusini shu tarzda o'qitish – kelajak avlodning ma'naviy olamini boyitish, ilmiy va ijodiy salohiyatini yuksaltirish, o'z fikrini ravon ifoda eta oladigan yoshlarni tarbiyalashda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Kompetensial yondashuv orqali o'quvchi grammatikani yaxshiroq o'zlashtirish bilan birga, uni amaliy nutqda qo'llash, turli vaziyatlarda mustaqil yechim topish, o'zgaralar bilan to'g'ri muloqotga kirishish, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Ona tili va adabiyot fanidan kompetensial yondashuv bo'yicha metodik qo'llanma. – Toshkent, 2020.
2. Xatipov F. Til o'qitish metodikasida kompetensial yondashuv. – Toshkent: Fan, 2018.
3. Umarova G. Tilshunoslikning zamonaviy masalalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
4. G'afurov S. Nutqiy kompetensiya shakllantirish usullari. // “Ona tili va adabiyoti ta'limi” jurnali, 2021, №3.
5. Hasanova M. Lingvomadaniy kompetensiya va unga erishish yo'llari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.

ALISHER NAVOIY KULLIYOTINING FIHRISTNOMASI HAQIDA

Abdirosul TASHPULATOV,

*O'zbekiston FA Alisher Navoiy nomidagi
davlat Adabiyot muzeyi tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiyning barcha asarlari jamlangan kulliyotining mundarijasi haqida so'z boradi. Ayniqsa Alisher Navoiyning «Tarixi anbiyo va hukamo» asari qaysi kulliyotda nechanchi o'rinda to'plamga kiritilgani va sahifalar o'rtasidagi tafovutlar o'rganiladi. Ushbu kulliyotlarda asarlarning joylashuvi va tartibi har xil bo'lishining sabablari haqida so'z yuritiladi. Ammo Alisher Navoiyning asarlarni tartiblash o'ziga xos uslubi bo'lgan. Ta'kidlash joizki, har bir qo'lyozma nusxasida asarlarning joylashuvi va tartibi o'ziga xos bo'lib, ularni qiyosiy o'rganish Navoiy asarlarining matn xususiyatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: fihristnoma, kulliyot, qo'lyozma, kolofon, tayanch manba, matn, qiyosiy tahlil.

Аннотация. В статье рассматривается содержание полного собрания сочинений Алишера Навои. Особое внимание уделяется тому, в каком месте в этом собрании включено произведение Алишера Навои «Тарихи Анбиё ва Ҳукамо» и под каким номером, а также изучаются различия между страницами. Обсуждаются причины различий в расположении и порядке произведений в этих собраниях. Алишер Наваи имел уникальный метод при упорядочении своих произведений. Следует отметить, что в каждой рукописной копии расположение и порядок произведений уникальны, и их сравнительное изучение помогает глубже понять текстологические аспекты произведений Навои.

Ключевые слова: каталог, сборник, рукопись, колофон, базовый источник, текст, сравнительный анализ.

Abstract. This article examines the table of contents of Alisher Navoi's complete works collection, known as "Kulliyot." Particular attention is given to the placement and numbering of Navoi's work "Tarixi Anbiya va Hukamo" within this collection, as well as the differences in pagination across various editions. The reasons behind the variations in the arrangement and order of works in these collections are discussed, including Navoi's unique method of organizing his writings. It is noteworthy that each manuscript copy has its own distinctive placement and sequence of works, and comparative studies of these can provide deeper insights into the textual aspects of Navoi's creations.


Key words: catalog, collection of works, manuscript, colophon, base source, text, comparative analysis.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy asarlari Istanbul Revan kutubxonasida saqlanayotgan “Revan 808” va Parij Milliy kutubxonasidagi “Supplément Turc 316-317” raqamli qo‘lyozmada o‘ziga xos tartibda berilgan. Topqopi kutubxonasidagi “Fatih 4056” raqamli nusxada esa tartib o‘zgacha. “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining mazkur manbalar va joriy nashrlardagi matni solishtirilganda, farqlar borligi aniqlandi. Asar «Revan 808»da o‘n sakkizinchi, «Suppl Turc 316-317»da o‘n to‘qqizinchi, «Fatih 4056»da yigirmanchi o‘rinda kulliyotga kiritilgan. O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida «P 7412» raqami ostida saqlanayotgan nusxada esa birinchi asardir [Tarix, 7412: 4]. Ushbu to‘rt kulliyotdagi asarlar joylashuvida muayyan farqlar kuzatiladi. Alisher Navoiy davriga yaqin bo‘lgani uchun eng qadimiy nusxa hisoblangan Istanbul Topkapi kutubxonasidagi «Revan 808» raqamli kulliyot tayanch manba bo‘lgani bois boshqa qo‘lyozma nusxalar shunga qiyoslandi. Tayanch manbadagi asarlarning joylashuv tartibi quyidagichadir [Külliyat, 2020: 18]:


1. «**Munojot**», I-jild. 2-3 betlar.
2. «**Xutbai davoviyn**», 4-6 betlar.
3. «**Arba’iyn**», 6^a-7^a betlar.
4. «**Siroju-l-muslimin**» (Bu asarning birinchi sahifasi tushib qolgani uchun nomi yozilmagan), 7^b-9^b betlar.
5. «**Javohiru-n-nazm**», 11-18 betlar. (Aslida, «Nazmu Javohir»)
6. «**Lisonu-t-tayr**», 19-54 betlar.
7. «**Nasoyimu-l-muhabbat**», 55-175 betlar.
8. «**Hayratu-l-abror**», 176-213 betlar.
9. «**Majnun-u Layli**» (boshqa nusxalarda «Layli va Majnun»), 214-249 betlar.
10. «**Farhod-u Shirin**» (asar qo‘lyozmada «Xisrav-u Shirin» deb nomlangan), 250-305 betlar.
11. «**Sab’ai sayyor**», 306-353 betlar.
12. «**Saddi Iskandariy**», 354-422 betlar.
13. «**G’aroibu-s-sig’ar**», 423-481 betlar.
14. «**Navodiru-sh-shabob**», 482-539 betlar.
15. «**Badoi’u-l-vasat**», 539-596 betlar.
16. «**Favoyidu-l-kibar**», 597-658 betlar.
17. «**Majolisu-n-nafois**», 659-693 betlar.
18. «**Tarixi anbiyo va hukamo**», 694-718 betlar.
19. «**Tarixi muluki Ajam**», 719-733 betlar.
20. «**Holati Sayyid Hasanbek**», 734-737 betlar.

21. «**Holoti Pahlavon Muhammadbek**» 738-741 betlar.
22. «**Vaqfiya**», 742-749 betlar.
23. «**Miyzanu-l-avzon**», 750-757 betlar.
24. «**Xamsatu-l-mutahayyirin**», 758-773 betlar.
25. «**Muhokamatu-l-lug‘atayn**», 774-781 betlar.
26. «**Munshaot**», 782-802 betlar.

«Suppl Turc 316-317» qo‘lyozmada hech bir asarning nomi yozilmagan. Qo‘lyozmaning 2-betida, gulli aylana naqsh ichida mazkur nusxadagi asarlarning fihristnomasi berilgan bo‘lib, unda 25 ta asar nomi keltirilgan [Suppl Turc, 316-317: 2]. Lekin kulliyotdan Alisher Navoiyning 26 ta asari joy olgan.



Bu rasm, Parijdagi Suppl Turc 316 raqamli qo‘lyozma fihristnomasi (*Sababi, shu nusxani ko‘chirgan «Fihristnoma» deb yozib qo‘ygan*) bo‘lib, bunda asarlar eng katta doiraning tepa qismi o‘ng tarafidan chapga qarab, avval katta doiradagi asarlar tartibi, keyin kichik doiradagi asarlar tartibi va oxirida esa o‘rtadagi asar, ya’ni «Munshaot» ko‘rsatilgan va qo‘lyozmada ham shu tartibda joylashgan. Fihristnomadagi asarlar nomi quyidagi rasmda aniq ko‘rsatilgan:



Mazkur fihristnoma bilan qo‘lyozma ichidagi asarlar tartibi taqqoslanganda, faqatgina 6 ta asarning o‘zaro o‘rinlari almashib tushganiga guvoh bo‘ldik. Masalan: fihristnomadagi tartibga ko‘ra, uchinchi o‘rinda «Nazmu-l-javohir» o‘rniga «Siroju-l-muslimin» ko‘chirilgan. Keyin 19-o‘rinda «Xamsatu-l-mutahayirin» o‘rniga «Majolisu-n-nafois» berilgan. 23-o‘rinda «Vaqqiya» o‘rniga «Holoti Pahlavon Muhammad» o almashib tushgan. Shuning uchun «Suppl Turc 316-317» hamda «Revan 808» nusxadagi asarlar matni bilan taqqoslanib, joylashuv tartibini belgiladik. «Suppl Turc 316-317» qo‘lyozma nusxasida kelgan asarlarning tartibi quyidagicha:

1. «**Munojot**», 3-4 betlar.
2. «**Arba’iyn**», 5-7 betlar.
3. «**Nazmu-l-javohir**», 8-18 betlar. «Suppl Turc 316-317»ning 2-betidagi «Fihristnoma»da uchunchi aylana ichida asar nomi «Siroju-l-muslimin» deb yozilgani holda o‘rniga «**Nazmu-l-javohir**» matni berilgan.
4. «**Siroju-l-muslimin**», 19-22 betlar. («Revan 808» nusxada mazkur asarning boshidan bitta sahifa tushib qolgan edi, bunda esa to‘liq ekan.)
5. «**Nasoimu-l-muhabbat**», 22-155 betlar.
6. «**Lisonu-t-tayr**», 156-193 betlar.
7. «**Hayratu-l-abror**», 194-236 betlar.
8. «**Xisrav va Shirin**», 237-299 betlar (ushbu asarning 268-betida bitta minatyura chizilgan).
9. «**Layli va Majnun**», 300-337 betlar.
10. «**Sab’atu sayyor**», 339-391 betlar (ushbu asarning 351, 357-betlarida minatyura bor).
11. «**Saddi Iskandariy**», 393-469 betlar. (Parij 316 nusxadagi oxirgi asar bo‘lib, 416, 448-betlarida minatyura bor).

12. **«Xutbai davoviyn»**, II-jild. 3-6 betlar. Ushbu asar Parij «Suppl Turc 317» qoʻlyozma nusxadagi birinchi asardir.

13. **«Gʻaroibu-s-sigʻar»**, 8-74 betlar.

14. **«Navodiru-sh-shabob»**, 76-138 betlar.

15. **«Badoiuʻ-l-vasat»**, 139-201 betlar.

16. **«Favoidu-l-kibar»**, 203-269 betlar.

17. **«Miyzanu-l-avzon»**, 270-277 betlar.

18. **«Muhokamatu-l-lugʻatayn»**, 278-286 betlar.

19. **«Xamsatu-l-mutahayyirin»**, 287-302 betlar. (Fihristnomaga koʻra ushbu asar «Majolis un Nafois» bilan oʻrni almashib tushgan).

20. **«Majolisu-n-nafois»**, 303-330 betlar.

21. **«Tarixi anbiyo va hukamo»**, 331-355 betlar.

22. **«Tarixi muluku Ajam»**, 356-371 betlar.

23. **«Vaqfiya»**, 372-379 betlar.

24. **«Sayyid Hasanbek holoti»**, 380-383 betlar.

25. **«Holati Pahlavon Muhammadbek»**, 383-386 betlar.

26. **«Munshaot»**, 388-406 betlar.

«Fatih 4056» nusxada Alisher Navoiyning 26 ta asari berilgan. 782 sahifadan iborat manbadagi asarlar tartibi quyidagichadir:

1. **«Kitabu Munojotnoma»**, 1-2 betlar.

2. **«Kitabu Arbaʻiyn»**, 3-4 betlar.

3. **«Kitabu Nazmu-l-javohir»**, 5 betda, keyin 9-10 betlar.

4. **«Kitabu Siroju-l-muslimin»**, 6-8 betlar.

5. **«Kitabu Lisonu-t-tayr»**, 17-51 betlar.

6. **«Kitabu Nasoimu-l-muhabbat»**, 52-163 betlar.

7. **«Kitabu Hayratu-l-abror»**, 164-203 betlar.

8. **«Kitabu Farhod va Shirin»**, 203-260 betlar.

9. **«Kitabu Laylo-u Majnun»**, 261-295 betlar.

10. **«Kitabu Sabʻai sayyor»**, 295-341 betlar.

11. **«Kitabu Saddi Iskandariy»**, 342-407 betlar.

12. **«Xutbai davoviyn»**, 408-411 betlar.

13. **«Devonu avval: Gʻaroibu-s-sigʻar»**, 412-469 betlar.

14. **«Devonus Soniy: Navodiru-sh-shabob»**, 470-527 betlar.

15. **«Devonus Salis: Badoiuʻu-l-vasat»**, 528-582 betlar.

16. **«Devonur Robeʻ: Favoidu-l-kibor»**, 583-645 betlar.

17. **«Kitabu Miyzanu-l-avzon»**, 646-656 betlar.

18. **«Kitabu Majolisu-n-nafois»**, 657-688 betlar.

19. **«Kitabu Xamsatu-l-mutahayyirin»**, 689-703 betlar.

20. **«Kitabu Tavorixi anbiyo»**, 704-728 betlar.

21. «**Kitabu Tavorixi muluk**», 728-742 betlar.
22. «**Holotu Mir Sayyid Hasan**», 743-746 betlar.
23. «**Holotu Pahlavon Muhammad**», 746-750 betlar.
24. «**Kitabu Vaqfiya**», 751-755 betlar.
25. «**Kitabu Munshaot**», 756-772 betlar.
26. «**Kitabu Muhokomatu-l-lugʻatayn**», 773-781 betlar.

Oʻzbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondidagi “P 7412” raqami ostida saqlanayotgan qoʻlyozma nusxasida asarlarning mundarijasi quyidagichadir:

1. «**Tarixi anbiyo va hukamo**», 1-31 betlar.
2. «**Tarixi muluku Ajam**», 33-49 betlar.
3. «**Majolisu-n-nafois**» asaridan bir parcha, 49-58 betlar.
4. «**Tarixi anbiyo va hukamo**»dan bir parcha, 58 bet.
5. «**Mahbubu-l-qulub**», 61-88 betlar.
6. «**Oʻgʻizxon**», 93-110 betlar.
7. «**Yusuf va Zulayxo**», 113-134 betlar.
8. «**Lisonu-t-tayr**», 137-170 betlar.
9. «**Xamsai Navoiy**», 173-410 betlar.
10. «**Tazkiratu-l-avliyo**». Fariduddin Attor, 415-494 betlar [Tarix, 7412: 4].

Ushbu kulliyotlarda Navoiy asarlari ketma-ketligi, xususan, “Tarixi anbiyo va hukamo”ning joylashuv oʻrnidagi tafovutlar tahlil qilindi. Masalan: “P 7412” raqamli qoʻlyozma nusxada “Tarixi anbiyo va hukamo” asari birinchi berilgan boʻlib, “Revan 808”, Parij «Suppl Turc 316-317» va «Fatih 4056»dagi tartibdan mutlaqo farq qiladi. Ammo “Munshaot” asari deyarli barcha kulliyotlarda oxirgi asar sifatida yozilgan. Demak, bu tartib Alisher Navoiy tomonidan belgilangan.

“Revan 808”, haqiqatan, Alisher Navoiy hayot vaqtida, oʻz nazorati ostida koʻchirilgan boʻlishi mumkin [Külliyat, 2020: 17]. Lekin qoʻlyozmadagi baʼzi belgi va maʼlumotlar bunga zid. Masalan, «Badoyiʼu-l-vasat»ning birinchi sahifasi naqshlar bilan bezatilgan (540-bet) boʻlib, naqsh doira ichida oq rangda «كتاب بدائع» (Kitabu Badoiʼu-l-vasat min muallafoti Amir Alisher alayhir rahmatu) deb yozilgan. Odatda, «عليه الرحمة» (Alloh rahmat qilsin) kalimasi vafot etgan kishiga nisbatan ishlatiladi. Bundan tashqari, yana mazkur qoʻlyozmada (597-bet) «Favoyidu-l-kibar» asari bosh sahifasida ham, aylana naqsh

ichida «كتاب فوائد الكبار من كلمات امير نوايي عليه الرحمة» (Kitabu “Favoyidu-l-kibar” min kalimoti Amir Navoiy alayhir rahmatu) deb yozilgan [Külliyat, 2020: 597]. Bu esa, aynan shu iboralar yozilayotgan kezda Alisher Navoiy vafot etganiga dalolat qiladi. Aks holda xattot bu soʻzni yozmagan boʻlar edi. Hatto ushbu manbaning 742-betidagi oxirgi asar «Vaqfiya»da «رسالة وقفية من مقالات امير نوايي غفر ذنوبه» (Rislatu “Vaqfiya”ti min maqoloti Amir Navoiy gʻufira zunubuhu) deb yozilgan [Külliyat, 2020: 742]. Bu kabi iboralar tirik kishilarga emas, balki marhumlarga nisbatan

ishlatiladi. Ayrim adabiyotshunos olimlar: «Bu nusxa asli Alisher Navoiyning hayotlik davrida, o‘z nazorati ostida yozilgani rost, lekin asarlarning sarlavhalari Navoiyning vafotidan keyin qo‘yilgan bo‘lsa kerak», deb izoh berdilar. Bu esa yana boshqa bir mulohazani paydo qiladi: «Agar sarlavhalar keyin qo‘yilgan bo‘lsa, unda nega ushbu nusxadagi asar sarlavhalarining ba‘zilariga «عليه الرحمة» (Alloh rahmat qilsin) deb yozilgan, ba‘zilarida esa Alisher Navoiy taxallusiga urg‘u berilib, tirik kishini tanishtirishda ishlatiladigan iboralarga o‘xshash u zotning mashhur sifatleri

yoziqlan. Masalan: 176-betida «كتاب حيرت الابرار من مؤلفات امير عليشير المشهور بنوائي» (Kitabu “Hayratu-l-abror” min muallafati Alisher al-mashhur bi-n-Navoiy) Navoiy nomi bilan mashhur Mir Alisherning yozgan «Hayratu-l-abror» kitobi» deb sarlavha qo‘yilgan. Yana bir ajablanarli jihati, ushbu nusxadagi har bir asar sarlavhalari yozilgan sahifaning oldingi betida aylana naqsh ichida: «حمامه لصاحبة السعادة والسلامة و طول» «العمر ما ناحت» degan duo yozilgan. Bu duo bilan asarlarning nomlari arab tilida, matn esa turkiy tilda yozilgan. Bu – Alisher Navoiyning o‘ziga xos uslubi. Bu duo ham arab tilida bo‘lib, mazmuni «Sohibiga baxt va saodat, salomatlik va uzoq umr bo‘lsin» degan ma’nodadir. Agar so‘zma-so‘z tarjima qilinsa «Baxt va saodat, salomatlik va uzoq umr sohibiga, to qumri qulamaguncha» degan ma’no kelib chiqadi. Duo jumlasining oxiridagi «ما ناحت حمامه» (Ma nahat hamamahu – qumri qulaguncha, ya’ni ajali yetguncha) kalimasi arab shoirlari yozgan «كلمات اغاني» qo‘shiqdan olingan bo‘lib, unda o‘tmishdagi xotiralar va sog‘inch hislari ifodalanadi²⁹.

Alisher Navoiyning qaysi asari sarlavhasiga «عليه الرحمة» (Alloh rahmat qilsin) degan jumla yozilgan bo‘lsa, o‘sha asarning sarlavhasidan oldin mazkur duo yo‘q. Masalan: ushbu asarning 4-betida «كتاب خطبة دواوين من كلمات امير عليشير عليه» «الرحمة» (Kitabu xutbati davoviyn min kalimoti Amir Alisher alayhir rahmatu) deb sarlavha qo‘yilgan. Ammo undan oldingi betda yuqorida zikr qilingan duo yo‘q. Lekin mazkur to‘planning 19-betida «كتاب لسان الطير من مقالات امير نوائي» (Kitabu «Lisonu-t-tayr» min maqoloti Amir Navoiy) deb sarlavha qo‘yilgan va undan oldingi betida yuqoridagi, Navoiyga uzoq umr so‘rash mazmunidagi duo ham yozilgan [Külliyat, 2020: 19]. 176-betida «كتاب حيرت الابرار من مؤلفات امير عليشير» «المشهور بنوائي» (Kitabu «Hayratu-l-abror» min muallafoti amir Alisher al-mashhur bi- n-Navoiy) nomli sarlavhasida ham ushbu duo bor. Boshqa aksar sarlavhalar ham xuddi shu kabidir.

Nusxaning 597-betida «كتاب فوايد الكبر من كلمات امير نوائي عليه الرحمة» (Kitabu «Favoyidu-l-kibar» min kalimoti Amir Navoiy alayhir rahmati) deb sarlavha qo‘yilgan. Ushbu asar 123 betni tashkil etgan bo‘lib, asarning boshida ham عليه الرحمة deb sarlavhada keltirgan bo‘lsa, asarning tugashidagi kichkina kolofonida ham:

«توكاندي كتاب بعون الملك الوهاب اللهم اغفر لقائله و لكاتبه برحمتك يا ارحم الراحمين»

²⁹ «كلمات اغاني» <https://www.ra2ej.com> موقع رائع.

“Tugandi kitob Maliku-l-Vahhob bo‘lgan zotning yordami bilan. Allohim, O‘z rahmating bilan uning aytuvchisini ham va yozuvchisini ham mag‘firat qilgin! Ey Mehribonlarning mehriboni bo‘lgan zot!” – deb yozilgan. Bu jumla, «Favoyidu-l-kibar»ni Alisher Navoiy o‘zi xattotga aytib turganidan dalolat beradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, «Revan 808» Alisher Navoiy hayot vaqtida, o‘z nazorati ostida, Sulton Husayn Boyqaro saroyi kutubxonasining mashhur xattoti Darvesh Muhammad Taqiy tomonidan hijriy 901 (milodiy 1495-96) yillarda ko‘chirila boshlagan. Bu ma’lumotni xattot «Saddi Iskandariy» asarining kolofonida qayd etgan. Ammo «G‘aroyibu-s-sig‘ar» asarining oxirida esa 902 hijriy (milodiy 1496) yilning robi-u-l-avval oyida ko‘chirilganini yozgan [Xalilov, 1975: 22]. «Revan 808»dagi «Vaqfiya» va yana 5 ta asar, Alisher Navoiy vafotidan so‘ng kulliyotga kiritilgani ma’lum bo‘ldi. Zotan, Alisher Navoiyning so‘nggi asarlaridan biri bo‘lgan «Muhokamatu-l-lug‘atayn» oxirida «905-hijriy yili, jumadu-l-avval oyining chorshanba kuni» yozilgani qayd etilgan. Bu esa milodiy 1499-yil 4-dekabr, chorshanba kuniga to‘g‘ri keladi. Alisher Navoiyning vafoti hijriy 906-yil, jumadu-l-oxir oyining 13-kuni, milodiy 1501-yil, 4-oktyabrga to‘g‘ri kelishi mazkur nusxa buyuk shoir hayotlik vaqtida boshlanib, vafotidan so‘ng yozib tugatilgani haqidagi aniq to‘xtamga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. «Tarixi Anbiyo va Hukamo». Alisher Navoiy. O‘zR FASHI fondi «R 7412» raqamli qo‘lyozma.
2. «كلمات اغاني». موقع رائع <https://www.ra2ej.com>.
3. Alisher Navoiy kulliyoti. Parij Milliy kutubxonasi. «Suppl Turc 316-317» qo‘lyozma nusxasi.
4. Günay Kut. Külliyyat-ı Nevayı. Istanbul.: Matsıs Matbaa Hizmetleri San. Ve Tic. Ltd. Şti. 2020.
5. Hakimov, Muhammadjon. Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining tavsifi. Toshkent: FAN, 1989.
6. Xalilov, Latif. Alisher Navoiyning «Tarixi muluki Ajam» asarining tekstologik tadqiqoti: Filol. fan. kand... diss., 1975.

“DISCOVERY” KANALI ILMIY-OMMABOP KO‘RSATUVLAR NOMINING TARJIMA MUAMMOLARI

***Farangiza NORBEKOVA,**
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqola “Discovery” kanali ilmiy ommabop ko‘rsatuvlarining nomlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonidagi muammolarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda tarjimada uchraydigan leksik va semantic o‘zgarishlar, madaniy kontekstning ahamiyati, shuningdek, mahalliy auditoriyaning qabul qilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahlil qilinadi. Maqolada ingliz tilidagi ilmiy-ommabop ko‘rsatuvlarning nomlari ko‘pincha qisqalik, obrazlilik va tinglovchiga ta’sir qilishga qaratilganligi, ularni o‘zbek tiliga tarjima qilishda mazmunni va hissiy ta’sirni saqlab qolish muammosi mavjudligi ta’kidlanadi. Shuningdek, maqolada tarjima jarayonida yuzaga keladigan pragmatik va lingvistik qiyinchiliklar, masalan, ekvivalent so‘z yoki ibora tanlash, lokalizatsiya darajasi va ma’no yo‘qotilishining oldini olish strategiyalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-ommabop ko‘rsatuvlar, “Discovery” kanali, tarjima muammolari, lingvistik tahlil, madaniy kontekst, lokalizatsiya, pragmatik moslashuv, nomlarning tarjimasi, o‘zbek tiliga tarjima, hissiy ta’sir.

Abstract. This article is devoted to the study of the problems in the process of translating the names of popular science programs of the Discovery channel into Uzbek. It analyzes the lexical and semantic changes that occur in translation, the importance of cultural context, as well as the factors affecting the reception of the local audience. The article points out that the names of scientific and popular programs in English are often aimed at brevity, imagery and impact on the listener, and there is a problem of preserving the content and emotional impact when translating them into Uzbek. The article also discusses the pragmatic and linguistic difficulties that arise in the translation process, such as choosing an equivalent word or phrase, the level of localization, and strategies to avoid loss of meaning.

Key words: popular scientific shows, Discovery channel, translation problems, linguistic analysis, cultural context, localization, pragmatic adaptation, translation of names, translation into Uzbek, emotional impact.

Ilmiy-ommabop matnning eng muhim va hayratlanarli tavsifi muallif va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlardir. [Hamdamov, 2016:1]. Tomoshabin avvalo film yoki ko‘rsatuvning nomiga e’tiborini qaratadi. Shu tufayli huddi badiiy asarlar kabi film nomi tarjimasi ham retseptor diqqatini ushlab olishda muhim ro‘l o‘ynaydi.

Sarlavha (ya'ni, lavha yoki matn boshi) gazeta va jurnallar, risola va kitoblar uchun nom (ism) maqomidagi muhim bir unsurdir. Lekin u matn uchun shunchaki bir shartli ramz-belgi emas, matnning mohiyati, mazmuni, maqsadi va vazifasi bilan uzviy aloqador bo'lgan muhim tarkibiy qismi hamdir. Shuning uchun badiiy asar yoki gazeta-jurnal maqolalariga aniq, o'ziga xos sarlavha tanlanishi lozim. Uni tanlash muallifdan ancha-muncha mahorat talab etadi. Negaki, maqola mundarijasi unga tanlangan sarlavha bilan chambarchas bog'liqdir.

Ma'lum materialning o'qishli bo'lishida sarlavhaning ahamiyati katta. Shu bois, ko'pchilik ijodkorlar mazmunli, o'ziga jalb qiladigan sarlavha topishga intiladi. Odatda, asar mazmunidan kelib chiqib tanlanadi. Badiiy, publitsistik, ilmiy matnlar va gazeta sarlavhalarining sintaktik tuzilishi bajariladigan vazifalari haqida ilmiy jihatdan bir necha qarashlar bor. Soha bo'yicha tadqiqotchilar sarlavhalarni vazifasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi: atash, farqlash, xabar berish, reklama berish, ishontrish, ko'rsatma berish, tashviq qilish, murojaat qilish. Bizga ma'lumki, bazi film nomlari to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinsa, ba'zi tarjimalarda film kontentidan kelib chiqib o'giriladi. Misol uchun, "The Battle of Waterloo"- "Vaterlou jangchilari", bunda battle- jangchi sifatida o'girilib, tarjimada metofadan (butundan qism) foydalanilgan. "The Tindler swindler"- "Tindler firibgarligi", -so'zma-so'z tarjima qo'llanilib, to'liq muqobillik kuzatilgan bo'lsa,

"The greatest of all time"- "Taqdir o'yini" (Qasoskorlar) tarjimasida muqobillik kuzatilmaydi, ruscha tarjimasidan farqli ravishda («Величайшее всех времен»), o'zbek tarjimoni film mazmunidan kelib chiqib tarjima qilgan. O'zbekcha variantda kontekstual tarjima ishlatilib, filmning mazmuni dunyoda eng kuchlilar haqida emas, balki maxfiy agentning qasosi va terroristik harakatlarni fosh etishda qilingan sa'y-harakatlar ifodalangan. Ingliz va rus tillardagi tarjimalarni ko'rib, (film tamil tilida su'ratga olingan) superqahramonlar haqida filmlar ko'z oldimizga keladi. Ammo film bosh qahramon hayotidagi qiyinchilik va unga yo'llangan qotil ortidan quvish, sirlarni fosh etish, terroristik yurishlarni oldini olganligi uchun qahramon, buyuk deb tariflanadi. "Дом: свидание с планетой"- "Uy" deb tarjima qilingan, ya'ni bu yerda tushib qoldirish (omission) transformatsiya usulidan foydalanilgan. Bizning tadqiqot obyektimiz bo'lmish "Time warp" – "Vaqt mashinasi" tarjimasini tahlil qiladigan bo'lsak, time warp so'zma-so'z tarjimada – vaqtni o'rash deb tarjima qilinadi. (Google translate). "Tahrirchi-Tilmoch" tarjima platformasi biroz farqli ravishda "vaqt oralig'i" tarjimasini ko'rsatadi. Yuqorida aytib o'tilgandek, har qanday maqola yoki kitob bo'ladimi, televizyon shou yoki ko'rsatuv, badiiy film bo'lmasin, diqqatni tortuvchi asosiy qurol bu nomlanish, sarlavha hisoblanadi. O'tgan asrga nisbatan, XXI asr texnologiyalar asri bo'lib, yaqin 20 yil ichida mediya sohasida raqobat kuchayganini, soha rivojini guvohi bo'lib turibmiz. Tomoshabin sifatida

qarshimizdagi zangori ekranda “Vaqt oralig‘i” degan yozuv chiqsa, katta ehtimol bilan keyingi kanalga olishga urunamiz. Ammo ekran yuzida “Vaqt mashinasi” yozuvi chiqsa, u ko‘rsatuv bo‘ladimi, badiiy film yoki multfilm, uning davomiga qiziqamiz. Keling, tarjimon tarjimada qanchalik adekvatlikka erishganini tahlil qilsak.

“Time” – muqobil varianti “vaqt” so‘zidir. Uning sinonimlari muddat, zamon, davr, mahal, mavrid kabilardir. “Warp” so‘zi “Webster” izohli lug‘atida fe‘l sifatida: a series of yarns extended lengthwise in a loom and crossed by the weft foundation, base the warp of the economic structure is agriculture a rope for warping or mooring a ship or boat a twist or curve that has developed in something originally flat or straight a warp in a door panel a mental aberration kabi izohlar bilan kelgan. Ammo “Time warp” so‘z birikmasida time warp: noun: an anomaly, discontinuity, or suspension held to occur in the progress of time

Tarjima:- vaqtning o‘zgarishi

Ot so‘z turkumi: vaqt o‘tishi bilan yuzaga keladigan anomaliya, uzilish yoki to‘xtatib turish.

Izohlardan anglash mumkinki, “warp” so‘zi tekis yoki tekis shakldan egilish yoki burish, qayiltirish. Antonimlar: tekislash. Ushbu so‘z birikma “Cambridge Dictionary” da “time warp” turg‘un birikma sifatida berilgan bo‘lib,

-the idea of a change in the measurement of time, in which people and events from one part of history are imagined as existing in another part

Ya’ni:

vaqt o‘lchovining o‘zgarishi g‘oyasi bo‘lib, unda tarixning bir qismidagi odamlar hamda voqealar boshqa qismida mavjud deb tasavvur qilinadi.

Biz bilamizki, Amerika kinomotografiyasiga oid bo‘lgan “Vaqt mashinasi”

badiiy- fantastik filmida olim yaratgan mashina yordamida tarixning bir davridan boshqa bir davriga o‘tish mumkinligi aks etgan. Ammo Discovery mahsuli bo‘lmish “Time Warp” televizion ilmiy-ommabop ko‘rsatuvi kelajakka o‘tib qolish yoki tarixga o‘tqazib qo‘yuvchi qurilma haqida emas. “Time Warp” - Qo‘shma Shtatlardagi Discovery Channel uchun ishlab chiqarilgan mashhur ilmiy-mavzudagi teledastur bo‘lib, unda Masachusetts Texnologiya Universiteti olimi, o‘qituvchisi va rassomi Jeff Lieberman, yuqori tezlikdagi kamera mutaxassisi Mett Kirni bilan birga o‘zlarining yuqori tezlikdagi kameralaridan kundalik hayotimizda uchraydigan hodisalarni eksperiment qilib, unda sodir bo‘ladigan fizik, kimyoviy jarayonlarda professional ravishda sekinlashtirilgan holda tasvirga olib tahlil qilishadi. Ular suv tomishi jarayoni, balet raqsi, makkajo‘xoridan un hosil qilish jarayoni, sayoz suvga sho‘ng‘ish kabi tajribalarning fizik sirlarini ochishga urnishadi. Yuqori tezlikdagi kameralar suratga olish uchun 500 kadr/sekundgacha, pistoletdan chiqayotgan o‘qni suratga olish, shisha sindirish uchun 40 000 kadr/sekundgacha ishlatilgan. Ko‘rinib

turibdiki, bu yerda hech qanday bir davrdan ikkinchi davrga o'tish holatlari sir-asrorlari mavjud emas. Tarjimon suratga olish uchun qo'llanilgan kamerani vaqt mashinasiga mengzagan.

Tarjimada mutarjim pragmatik-kommunikativ xususiyatni hisobga olmagan, ya'ni "Vaqt mashinasi" sarlavhasini ko'rgan tomoshabinga bu ko'rsatuv yoki kino vaqtlararo sayohat haqida bo'lsa kerak deya tushunadi. Asliyatda muallifning maqsadi sekinlashtirilgan kadr yordamida vaqtlararo sayohat qilishni nazarda tutgan va bu sekin momentlar ortida yashiringan, biz ko'z bilan ilg'amagan sirlarni fosh etish bo'lgan. Shu o'rinda N.O. Romanovanning kino nutqiga bergan ta'rifini keltirib o'tmoqchimiz. "Filmning ma'nosini tushunish uchun biz ekstralingvistik omillarni hisobga olish kerak deb hisoblaymiz, chunki ular mualliflar tashqi kontent ortida tomoshabinga yuboradigan haqiqiy xabarni o'qishga yordam beradi" deydi tilshunos[Suleymanova, 2014:367]. Xulosa qilish mumkinki, ko'rsatuvni "Vaqt mashinasi" deb o'girish ko'rsatuv haqidagi xabarni yetqazib bera olmaydi, ya'ni tarjima pragmatik- kommunikativ xususiyatga erisha olmaganidan dalolat.

L.K. Latishev kino sarlavha tarjimasida duch keladigan to'siqlarga oid quyidagi omillarni farqlab beradi:

- asliyat va tarjima til me'yorlarining mos kelmasligi;
- senzura;
- asliyat va tarjima til tizimlari farqi;
- nutq me'yorlarining mos kelmasligi;[Ismailova, 2017:38]

Maqolalar sarlavhasi tarjimasida sarlavha asosan maqolaning kalit so'zlaridan iborat bo'lishi kerak. Kalit so'zlar ulardagi tushunchalarning mazmunini bir ma'noda ifodalashi uchun tanlanishi kerak. Bunday holda, sarlavha 5-6 so'zdan oshmasligi kerak va unda murakkab tuzilmalar bo'lmasligi kerak. Qisqa sarlavha yaxshiroq qabul qilinadi va esda qoladi. Bir uslubga kiruvchi bu ikki turdagi janrlar, ya'ni gazeta va kino sarlavhalari tarjimalarida farq shuki, kino yoki

ko'rsatuv tarjimasida doim ham kalit so'zlardan foydalanishga to'g'ri kelmaydi, va 5-6 so'zdan iborat bo'lishlik kino nomini uzaytirib yuboradi va aksincha, tushunmovchilik keltirib chiqaradi. "Discovery" kanali mahsuli bo'lmish boshqa bir ilmiy ko'rsatuv nomi tarjimasini tahlilga tortsak. UzReport TV buyurtmasiga asosan tarjima qilingan "Build it Bigger" televizyon ilmiy-ommabop ko'rsatuvi o'zbek tiliga "Ulkan muhandislik" deb o'girilgan. Ko'rinib turibdiki, tarjimon so'zma-so'z tarjimadan qochib, film mazmunidan kelib chiqib tarjima qilgan. Ya'ni ko'rsatuv davomida dunyo bo'ylab g'aroyib, g'aroyib va o'ziga xos uslubga qurilgan bino va inshootlar, ko'prik va tunellar haqida so'zlanadi. Quyida keltirilgan ilmiy-ommabop hujjatli filmlar UzReportTV buyurtmasiga asosan tarjima qilingan.

Time wrap- "Vaqt mashinasi"

Build it bigger- G‘aroyib muhandislik

Big Shipbuilders – Ulkan kemasozlik Attractions- Atraksionlar

How to build it? - Bu qanday quriladi? Airport- Aeroport

Food: Fact and Fiction - Taom haqida afsona va haqiqatlar;

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, tarjimon audivizual tarjima bilan shug‘ullanish mobaynida, badiiy va og‘zaki tarjimadan farqli ravishda ikki uslubda ham audio yoki video hamda matn bilan barobar ishlashga to‘g‘ri keladi. Bu albatta tarjimondan vaqt talab qiladi, ayniqsa tarjimaning boshida film nomini o‘g‘irishda filmni oxirigacha ko‘rishi va tarjimani yakunlashi va undan so‘ng film nomini tarjimasi bo‘yicha xulosa qilishi kerakligini tushunib yetadi. Hattoki bir serial, mavzum o‘rtasida ham film-ko‘rsatuvlar tv-dasturlar nomi tarjimasida o‘zgarishlar bo‘lganligini tajribamizda kuzatganmiz. Hattoki aslyatda ham bu hodisa sodir bo‘lgan, ya’ni “Discovery” mahsuli bo‘lmish “G‘aroyib muhandislik”- “Build It Bigger” boshida “Extreme Engineering” shaklida bo‘lgan. Film olish kontenti mavzumi bo‘lib, vaqt o‘tgan sari dunyo bo‘ylab faqat ulkan inshootlar qurilishi emas, balki g‘ayrioddiy muhandislik namunalarni suratga olish boshlangach, “Build It Bigger” nomiga o‘zgartirilgan. O‘zbekcha tarjimasida ham ilk mavzumlar “Ulkan muhandislik” tarzida berilib, oxirgi ikki mavsumda “G‘aroyib muhandislik” shakliga o‘zgartirilgan. Bu kabi misollardan kelib chiqib aytish mumkinki, ilmiy-ommabop ko‘rsatuvlarning nomini tarjima qilish jarayonida faqatgina lingvistik jihatlar emas, balki madaniy moslashuv, mazmunni aniq aks ettirish, auditoriyaning qiziqishlarini hisobga olish va kontekstual moslik kabi omillarni ham inobatga olish zarur. Tarjimon mazmun va uslubni saqlab qolgan holda, o‘zbek tilidagi auditoriya uchun tushunarli va qiziqarli bo‘ladigan nomlarni tanlashda katta mas’uliyatni his qilishi kerak. Shu bois, tarjimon ko‘rsatuvni to‘liq o‘rganib, undagi mavzular va mazmunning rivojlanish dinamikasini tahlil qilish orqali to‘g‘ri va samarali tarjima variantini yaratishi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hamdamov Y. <https://uzhurriyat.uz/2016/12/21/sarlavha-haqida-kichik-lavha/>
2. Исмаилова Тамила Аслановна, “Перевод названий фильмов”, Вестник ВолГУ. Серия 9. Вып. 15. 2017, 38 с.
3. Сулейманова О.А “Кинодиалог как актуальный тип дискурса: рецензия на коллективную монографию Кинодиалог. Образ-смысл. Перевод» под общей редакцией В.Е. Горшковой” (Иркутск: МГЛУ ЕАЛИ) 2014, 367 с.

TIBBIYOT SOHASI MATNLARIDA TARJIMA USULLARI TAHLILI VA UNING AHAMIYATI

Yo'ldosh ABDURAHMONOV,

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
2-bosqich tayanch doktoranti*

Abstract: There have been many scientific studies on the study of medical terms. In particular, in English linguistics, there is also a search for this topic. English medical terms have been researched in every area of linguistics, including advanced linguistics, interpreting, historical linguistics, traditional linguistics, sociolinguistics, corpus linguistics, linguoculturology, cognitive linguistics, psycholinguistics, and other similar areas. This article presents the analysis of translation methods in the texts of the medical field and points on its history.

Key words: texts in the field of Medicine, ethnosocial identity, gender trait, metaphorical modeling.

Аннотация: Было проведено много научных исследований, посвященных изучению медицинских терминов. В частности, в английской лингвистике также ведется поиск по этой теме. Английские медицинские термины были исследованы во всех областях лингвистики, включая продвинутую лингвистику, устный перевод, историческую лингвистику, традиционную лингвистику, социолингвистику, корпусную лингвистику, лингвокультурологию, когнитивную лингвистику, психолингвистику и другие подобные области. В данной статье представлен анализ методов перевода текстов медицинской тематики и рассказывается о ее истории.

Ключевые слова: тексты в области медицины, этносоциальной идентичности, гендерных признаков, метафорического моделирования.

Annotatsiya: Tibbiy terminlarning o'rganilishi yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar yuzaga kelgan. Xususan, ingliz tilshunosligida ham ushbu mavzuga doir izlanishlar talaygina. Ingliz tibbiy terminlari tilshunoslikning har sohasi, shu jumladan, chog'ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik, tarixiy tilshunoslik, an'anaviy tilshunoslik, sosiolingvistika, korpus lingvistikasi, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika va boshqa shu kabi yo'nalishlar doirasida tadqiq qilingan. Ushbu maqolada tibbiyot sohasi matnlarida tarjima usullari tahlili va uning tarixi borasida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlari: tibbiyot sohasi matnlari, etnososial xoslanish, gender xususiyati, metaforik modellashtirish.

Kirish. Ma'lumki, tarjimashunoslik – eng muhim hamda doimiy dolzarb sohalardan biri. So'zni tarjima qilish jarayonida uning alohida lingvistik

xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Shu sababli tibbiy terminlarning o‘ziga xos jihatlari, ularni tarjima qilish muammolari va usullarini tadqiq qilish ko‘p tilshunoslarning qiziqishiga sabab bo‘ldi.

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** O‘zbek tilshunosligida tibbiy terminlar lingvomadaniy jihatdan endigina o‘rganishga kirishildi. Xususan, N.Gaybullayevaning tadqiqotida o‘zbek jamiyatiga xos tibbiy evfemalarning milliy-etnik, gender xususiyati, nutqiy zanjirdagi qiymati, muloqot jarayonida etnososial xoslanishi ijtimoiy sinf, ijtimoiy rol, ijtimoiy mavqe, ijtimoiy vaziyat kabi omillar doirasida voqelanishi asoslangan.

Tibbiy terminlarning metaforik modellashirishning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishda F.Abdulxairovaning tadqiqoti ahamiyatga molik. Unda tibbiy termin-metaforalarning o‘zbek tilida paydo bo‘lish davridan to hozirgi kunga qadar tadrijiy rivojlanish qonuniyatlari, boshqa tillar bilan munosabati va bu jarayonlarga bevosita ta’sir o‘tkazgan buyuk mutafakkirlarimiz Mahmud Qoshg‘ariy va Abu Ali ibn Sino asarlarida foydalanilgan terminlar xususiyatlari ochib berilgan. Qolaversa, tibbiy termin-metaforalarning kognitiv va milliy-madaniy xususiyatlari va medisina terminlarini unifikatsiyalash va tartibga solishda tibbiy termin-metaforalarning emosional-baholovchi va tajribani yetkazib beruvchi vosita sifatidagi o‘rni ochib berilgan.[1]

Shuningdek, D.Sapayeva, N.Sadullayeva, X.Babajanov, B.Shomuratova, R.Sayfullayevalar tibbiy terminologiyada qo‘llaniladigan abbreviaturalarning leksik-semantik xususiyatlari, F.Akbarxodjayeva tibbiyot terminologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari va unda uchraydigan muammolar, M.Abdurahmonova X.Ikromovalar o‘zbek tibbiy terminologik tizimida mavjud bo‘lgan, kelib chiqishi yunon-lotin tiliga asoslangan birliklarning struktural-semantik xususiyatlari, G.Roziqova esa “Devonlug‘ati turk (M.Qoshg‘ariy)” asarida qo‘llangan tibbiyotga oid so‘z va atamalarning leksik-semantik jihatlari o‘rganib, o‘z qarashlarini ilmiy maqolalarida bayon qilganlar.

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** D.X.Bozorovanning “Odam tanasi a’zolarinomlarining semantikasi va ular asosida yasalgan turkiy tillardagi so‘zlar” mavzusidagi tadqiqot ishi qadimgi turkiy tillardagi adabiyotlarda qayd qilingan somatizmlarning leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda odam tanasi a’zolari nomlarining o‘ziga xos lisoniy jihatlari ochib berilgan.

A.Xusanov o‘zining “O‘zbek tilida kasallik va simptom nomlari” dissertatsiyasida klinik terminlardan hisoblangan kasallik va ularning simptom nomlarini ob‘yekt sifatida olib o‘rgangan. Xususan, olimlarning lingvistik strukturasini chuqur tahlil qilib, 14 ta usulda yasalgan birliklarni alohida ajratib ko‘rsatgan. Mazkur soha

terminlarini yasashda eng faol qo‘shimchalar sifatida *-ma, -cha, -sh, -ish, -la, -lash, -lik, -simon* kabilarni belgilagan. O‘zbek tibbiy terminlarining asosiy tashqi boyish manbalari sifatida arab, fors, tojik, rus tillarini e‘tirof etgan. Shuningdek, kasallik va ularning simptom nomlarini ifodalovchi terminlar ichidagi muammolar masalasiga ham to‘xtalib, o‘zbek tilida bitta tushunchani anglatish uchun keragidan ortiq miqdordagi leksik birliklar mavjudligini ta’kidlagan. Misol tariqasida, lotincha “*aliniati mentalis*” terminining o‘zbek tilidagi ifodalarini keltirgan: *jinnilik, esipastlik, devonalik, telbalik, savdoyilik, jinnisang‘illik, esvoslik*. Bundan tashqari, *sariq kasalligi* terminining o‘rniga *sarg‘ayma* ifodasi tibbiy terminlarga qo‘yilgan talablarga ko‘proq javob berishini ta’kidlab, uni lotincha “*ictevus*” terminining muqobili sifatida tavsiya qilgan. Kasallik nomlarining imlosida ham chalkashliklar borligini qayd etgan. Masalan, *ko‘k yo‘tal, ko‘k dog‘, ko‘k suv, qora qo‘tir, oq yem* kabi terminlar goh qo‘shib, goh alohida yoziladi. Ularni tartibga solish bo‘yicha kerakli choralar ko‘rilishi zarurligini ta’kidlagan.

Terminlarning ichki tuzilishi, boyish manbalari va tartibga solish masalalari A.Qosimovning “Zamonaviy o‘zbek tilida farmasevtik terminologiya” mavzusidagi tadqiqot ishida ham ko‘zga tashlanadi. Ammo mazkur dissertatsiya o‘zida farmasevtik terminlarning lingvistik tahlilga tortilganligi bilan alohida e‘tiborga molik. Tadqiqotchining qayd etishicha, o‘zbek tibbiy terminologiyasida farmasevtikaga oid terminlarning aksariyati morfologik usulda yasalgan hamda ularni yasashda quyidagi morfemalar faol qo‘llaniladi: [U.Hamdamiyov, A.Qosimov, “World literature”, Toshkent-2017]

- ma*: *qotishma, qorishma, qaynatma, aralashma, surtma* va b.;
- lik*: *eruvchanlik, yopishqoqlik, zaharlilik, dorishunoslik* va b.;
- (*u*)*v+chi*: *uxlatuvchilar, tinchlantiruvchilar, quvvatlovchilar* va b.;
- (*i*)*sh*: *achish, yutilish, maydalash, namlash, haydash* va b.;
- ki* (uning shakllari: *-gi, -g‘i, -qi*): *achitqi, qichitqi, surgi* va b.;
- gich* (uning shakllari: *-kich, -qich, -g‘ich*): *ochqich, o‘lchagich* va b.

A.Qosimovning fikricha, farmasevtika terminlarining tashqi resurslari bo‘lib, fors-tojik (*gavzabon, kunjut, zirk, sirka*), arab (*sumbul, dolchin, zaytun, sharbat*) va rus (*novokain, kraxmal, penisillin, gliserin, kislota*) tillari xizmat qiladi. Olim o‘z tadqiqot ishida sinonimiya masalasiga ham to‘xtaladi. “Sinonimiya badiiy, publisistik, shuningdek, jonli so‘zlashuv nutqini bezaydi, ammo ilmiy uslubda ungao‘rin yo‘q— deydi u. Bundan tashqari, mazkur tadqiqot ishida ayrim terminlarning qisqalik tamoyiliga mos kelmasligi (*mushak tonusini kamaytirish uchun qo‘llaniladigan moddalar*), terminlar imlosidagi xatoliklar (*kuracha*) keng yoritilib, ularni bartaraf etishga doir takliflar berilgan.

Bundan tashqari, yana bir soʻz yasash usuli metofora usulidan ham samarali ravishda foydalanib kelingan. Ye. Kassirer tilni chuqur mifologik tuzilmalarni oʻz ichiga olgan asosiy metaforik mohiyatlarga taalluqli deb biladi (Kassirer, 1990, 33-44 bb.). Uning nazariyasiga koʻra, mifologik, irratsional va mantiqiyliklarni birlashtirish natijasida, analogiyani intuitiv topish uning keyingi ratsionalizatsiyasini birlashtiruvchi metaforik maʼnosining paydo boʻlishiga olib keladi.

“Metafora” soʻzi yunoncha “olib oʻtish” degan tushunchani anglatadi. Bu usul biron bir voqelikning bir sohasidan boshqasiga manoni koʻchiradi. Muallifning fikriga koʻra metafora shaxs tajribasidagi biron narsani bir holatdan ikkinchi holatga koʻchirishidir. Muvaffaqiyatli ravishda qoʻllangan metafora yangi tushunchalar va terminlarni keltirib chiqaradi. Misol uchun ingliz tilida “brainwash” tushunchasini shakllanishiga etibor qaratsak, “*brain*”(miya, ong) va “*wash*”(yuvmoq), miyani zaharlash, ongini yuvish manosi kelib chiqadi, real hayotda miyani jismoniy koʻrinishda yuvib boʻlmaydi, lekin uni, yaʼni, ongni, mafkurani yod gʻoyalar bilan oziqlantirish, fikrlashini buzish manosida metafora usulida yasalgan soʻz ishlatiladi.

Metafora dunyoning ilmiy lingvistik tasvirini yaratishda eng samarali vositalaridan biridir. «Ifodalovchi vositalar, ayniqsa, metaforik anglashlar dunyoning lisoniy manzarasini yaratishda muhim komponentlar sanaladi» (Popova T.G., 2003, 51 b.). *Magnitli qoʻl, adashgan buyrak, ayiqpanja, ayri burun, bedana ritmi* kabi metaforalar ilmiy matndagi yangi terminlarni “avvaldan tanish” terminlar asosida izohlashga xizmat qiladi.

- **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Tibbiy terminlarning baʼzilar murakkab tuzilishga ega va turli semantik, leksik va grammatik sharhlar berilishiga zaruriyat tugʻdiradi.

Ayrim tibbiy terminlarning maʼnosida aniqlik kam, ularning koʻp maʼnoliligi tarjima qilish jarayoniga katta taʼsir koʻrsatadi. Bu tibbiy terminlarning koʻpchiligi lotin yoki boshqa tillardan kelib chiqqanligi natijasida paydo boʻluvchi hodisadir. Shuningdek, neologizm hamda nomuqobillik muammolari ham tarjima jarayonidagi toʻsiqlardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Usmonxoʻjayev A., Bositxonova E.I., Nazirov P.N., Toʻraxonova M.S. *Tibbiy terminlar ensiklopedik lugʻati. 2 jildli.* – Toshkent: Sugʻdiyona, 2010 (1-jild – 948 bet; 2-jild – 1134 bet) 20000 dan ortiq soʻz.
2. Cassirer E. *The Power of Metaphor. Metaphor theory.* Moscow: 1990(Kassirer, 1990, 33-44 bb.)
3. Gorban A. N., Zinovyev A, Yu, Popova T, G. *Seven Clusters In Genomic Triplet Distributions*, France, 2003, 51b.
4. (Popova T.G., 2003, 51 b.).

5. Firuza Invarovna Abdulxairova, *Tibbiyot Terminlarini Metaforik Modellashtirishning O'ziga Xos Xususiyatlari* (15-22bb)

NUTQDAGI GENDER FARQLAR HAMDA ULARNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Xasan GAFFOROV,
ISFT instituti Samarqand filiali
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi
vazifa bajaruvchi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqola nutqdagi gender farqlarni o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, erkaklar va ayollarning muloqotdagi nutqiy xatti-harakatlari o‘rtasidagi farqlarni lingvistik va psixologik nuqtai nazardan tahlil qiladi. Maqolada gender stereotiplari, kommunikativ uslublar va nutqiy qoidalar tahlil qilinib, erkaklar va ayollarning nutqida o‘zaro munosabatlar va ijtimoiy rollarning ta’siri ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot natijalari turli madaniyatlarda gender nutqiy xususiyatlarining namoyon bo‘lishiga qaratilgan qiyosiy tahlil bilan boyitilgan. Ushbu maqola tilshunoslik, gender tadqiqotlari va psixologiya sohasidagi tadqiqotchilar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Gender Lingvistikasi, Nutqiy Farqlar, Gender Stereotiplari, Kommunikativ Uslublar, Muloqot Psixologiyasi, Madaniy Ta’sir, Ijtimoiy Rollar.

Annotation: This article is dedicated to the study of gender differences in speech, analyzing the linguistic and psychological aspects of men’s and women’s speech behaviors in communication. It examines gender stereotypes, communicative styles, and speech norms, highlighting the influence of interpersonal relationships and social roles on male and female speech. The research findings are enriched with a comparative analysis of the manifestation of gender-specific speech characteristics across different cultures. This article holds practical value for researchers in the fields of linguistics, gender studies, and psychology.

Keywords: gender linguistics, speech differences, gender stereotypes, communicative styles, communication psychology, cultural influence, social roles.

Ayol va erkak so‘zlashuvchi va til o‘rganuvchilarning nutqlaridagi farqlar aynan ularning jinslariga bog‘liq ekanligi yaqin o‘tmishdan boshlab olimlarning diqqat-e’tiboriga tusha boshladi. Tilni faol feministik tanqid qilish davrida (XX asrning 70-yillari – XX asrning 80-yillari boshlari) tilshunoslar intensionalizm mavjudligini, ya’ni erkaklar tomonidan muloqot jarayonida nutq xatti-harakatlari – nutq segmentlarining uzunligi, chastotasi, uzilishlar, suhbatdosh bilan bir vaqtda gaplashish, muloqot mavzusini nazorat qilish va boshqalar orqali o‘zlarining ustunligini ongli ravishda saqlab qolishlarini e’tirof eta boshlashdi. Ayol va erkak nutqi – bu so‘zlovchining jinsiga qarab leksik afzalliklar va tildan foydalanishning ba’zi boshqa xususiyatlarining shartli nomidir. Nutqning jinsiy tabaqalanishi 17-

asrda ma'lum bo'lgan, ushbu davrda yangi ibtidoiy qabilalar kashf etilgan bo'lib, ularning nutqlarida so'zlovchining jinsiga qarab nutqda sezilarli farqlar mavjud edi.

Avvalo, bu ayollarga taalluqli edi, chunki ularning og'zaki xatti-harakatlari erkaklarnikidan ko'ra ko'proq tartibga solingan, shuning uchun ilmiy tavsiflarda dastlab "ayol tillari" deb ataladigan tushunchalar muhokama qilingan. Farqlar ko'pincha lug'atda (leksikada) namoyon bo'ladi, lekin ular boshqa hodisalargayoki farqning boshqa ko'rinishlariga ham tarqalishi mumkin, chunki, misol tariqasida keltirsak, yapon tilida turli xil modal-ekspressiv bo'laklar/qismlar to'plami, xushmuomalalik shakllari va boshqa farqlar mavjuddir. Yevropa tillarida tildan foydalanishda ham ayrim farqlar mavjud, ammo ular universal emas, ya'ni umumiy xarakterga ega emas, balki tendentsiyalar shaklida namoyon bo'ladi. Dastlab, nutq farqlari ayollar va erkaklarning tabiati bilan izohlangan, ya'ni ular doimiy omillar, har bir insonning tabiatiga bog'liq deb hisoblangan. Yigirmanchi asrning 60-yillarida sotsiolingvistikaning rivojlanishi bilan farqlarning ehtimollik xususiyati o'rnatildi.

-Erkak nutqi ma'lumotlar, faktlar, raqamlar va mantiqiy xulosalar bilan to'yingan bo'lib, unda aniq ma'noga ega so'zlar ustunlik qiladi. Ayollarning nutqi esa hissiyotga boydir, ushbu nutqda so'zlarning o'zi emas, balki ular talaffuz qilinadigan intonatsiya (talaffuz zayli) muhimroqdir va ayollarning o'zlari o'rtasida muloqot odatda og'zaki bo'lmagan darajada(noverbal usulda) amalga oshiriladi. Misol uchun, odatiy bakalavr bitiruv ziyofati – barcha ayollar bir vaqtning o'zida gapiradi, hech kim hech kimni tinglamaydi, suhbatning mohiyatiga kirmaydi, balki muloqot jarayonidan haqiqiy zavqni oladi. Ayollarning nutqi esa undov so'zlar: "Oh!", "Ah!", "Xo'sh, umuman!" va turli boshqa uslubiy birliklardan – metafora, allegoriya va, albatta, mubolag'alar bila to'ladir.

- Ayollar erkaklardan lingvistik jihatdan "tezroq" bo'lib, ular tezda chet tillarini o'rganadi, ularni jamiyatga kiritadi. Misol uchun, rus podshosi Pyotr I davrida – fransuz, 19-asrda esa – ingliz tili uzoq vaqt davomida yosh xonimlar tili hisoblangan, o'g'il bolalar nemis tilini o'rganishgan. Ayollar har doim lingvistik savolga ko'proq javob beradilar va javoblar deyarli bir xil iboralarda beriladi, chunki ayollar uchun umumiy so'zlar to'plami har doim hayratlanarli darajada bir xil. Erkaklar lug'at tanlashda ko'proq shaxsiyatni ko'rsatadilar, ayniqsa bu xorijiy til, xususan ingliz tili borasida yaqqol namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bektoshova L. "Ta'limda gender yondashuvining nazariy asoslari." Toshkent, 2020. – 216 b.
2. Johnson D. W., & Johnson, R. T. "Cooperative Learning and Teaching Strategies." New York: McGraw-Hill, 2018. –119 b.

3. Brown H. D. "Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy." Pearson Education, 2017. – 146 b.
4. Ellis R. "Task-Based Language Learning and Teaching." Oxford: Oxford University Press, 2021. – 127 b.
5. Uzbekistan Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. "Ta'lim texnologiyalari bo'yicha o'quv qo'llanma." Toshkent, 2022. – 81 b.

ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI NUTQIY GENDER STEREOTIPLAR HAMDA ULARNING PRAGMATIK TAHLILI

Xasan GAFFOROV,

ISFT instituti Samarqand filiali

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası

vazifa bajaruvchi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqola ziddiyatli vaziyatlarda namoyon bo‘ladigan nutqiy gender stereotiplarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda erkaklar va ayollarning ziddiyatli muloqotlar jarayonida nutqiy xatti-harakatlari hamda pragmatik uslublarining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Gender stereotiplarining muloqotda qo‘llanish usullari, ularning konfliktni boshqarish va muloqot samaradorligiga ta’siri lingvistik va pragmatik nuqtai nazardan o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Ziddiyatli Vaziyatlar, Nutqiy Gender Stereotiplari, Pragmatik Tahlil, Konfliktni Boshqarish, Muloqot Samaradorligi, Madaniyatlararo Tahlil, Kommunikativ Uslublar.

Annotation: This article is dedicated to the study of speech gender stereotypes manifested in conflict situations. It analyzes the distinctive features of men’s and women’s speech behaviors and pragmatic strategies during conflicting interactions. The article explores the application of gender stereotypes in communication, their role in conflict management, and their impact on communication effectiveness from linguistic and pragmatic perspectives.

Keywords: Conflict Situations, Speech Gender Stereotypes, Pragmatic Analysis, Conflict Management, Communication Effectiveness, Intercultural Analysis, Communicative Strategies.

Jamiyatdagi har bir inson, ya’ni ushbu jamiyat a’zosi o‘zining o‘ziga xos xususiyatlariga ega. Ularning ushbu xususiyatlari va takrorlanmas jihatlari ularning yurish-turishi hamda xulq-atvorida namoyon bo‘lgani kabi ularning nutqlari jarayonini aks ettiruvchi matnlarda ham xuddi shunday o‘ziga xos xususiyatlari, ya’ni gender xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Ushbu gender xususiyatlar esa o‘z navbatida ayollar va erkaklarning muloqot jarayonida turlicha bo‘ladi hamda suhbatdoshining kimligiga, shuningdek, ushbu suhbatdoshning jinsiga hamda yoshiga ko‘ra ham o‘ziga xos jihatlarni namoyon qilad. Ayniqsa ushbu holat ingliz zabon matnlarda yoki adabiy parchalarda tez-tez ko‘zga tashlanadi. Gender xususiyatlarni namoyon qilayotgan ushbu matnlar ham o‘z navbatida uni **ayol** yoki **erkak** qahramon tomonidan aytilayotganiga qarab ikki guruhga hamda ushbu guruhlarini o‘sha qahramon tomonidan **o‘z jinsi** yoki **qarama-qarshi jins** vakiliga qarata aytilayotganiga qarab yana ikki subguruhlariga bo‘lishimiz mumkin.

Tahlilni ingliz til madaniyatining ayol qahramonlari tomonidan qarama-qarshi jins vakillari haqida gapiradigan gender xususiyatli matnlarni ko'rib chiqishdan boshlaymiz.

Ushbu keltirilayotgan parchada ayol qahramoni qarama-qarshi jins vakillari haqida gapiradigan boshqa jinsga xos iborani qo'llaydi.

1) F: *"You won 't tell him, will you?"*

M: *"I wouldn 't dream of it."*

F: *"Cross your heart? Men are so untrustworthy."*

M: *"I promise you I won 't".* [McCullough, 2009: 158]

Yuqoridagi dialogda ayol qahramon suhbatdoshidan sirini umumiy do'stiga aytmaslikni so'raydi. Qiz genderga asoslangan suhbatning ushbu qismini talaffuz qilayotib, unda erkaklarga salbiy baho beradi, qiz qo'shma illokutiv aktini – direktiv turdagi qoralashni amalga oshiradi. Ishonchsizligi uchun barcha erkaklarni qoralab, ayol qahramon suhbatdoshini sir saqlashga undashni maqsad qiladi. Shunday qilib, o'zaro ta'sir nuqtayi nazaridan, bu genderga yo'naltirilgan parcha motivatsiya aktidir.

Gap sodda jumla bilan ifodalangan, uning tuzilishi butun gapning kategorik xususiyatini kuchaytiruvchisi bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, gapning ifodaliligi leksik kuchaytirgich **so** ning predikatdan oldin mavjudligi bilan beriladi, bu esa o'z navbatida so'zlovchi munosabatini amalga oshirishga hissa qo'shadi. Murojaat qiluvchining javobidan ko'ramizki, illokatsion maqsadga erishilgan va erkak qahramon do'stiga hech narsa aytmaslikka va'da beradi. Yuqoridagi misoldan ko'rinib turibdiki, ayol qahramonlarning berayotgan gender xususiyatli axborotlari, asosan, qarama-qarshi jins vakili haqida salbiy baho beradi. Ayol qahramoni tomonidan amalga oshiriluvchi ushbu dialog matni bizga quyidagi genderga xos steriotipni shakllantirish imkonini beradi.

Ushbu nutq aktlarni ko'rib chiqqan holda, o'zaro ta'sir nuqtayi nazaridan, jinsga yo'naltirilgan ushbu matn e'tiroz vazifasini bajaradi degan xulosaga kelishimiz ham mumkin. Jinsga yo'naltirilgan ushbu gap oddiy undov gap shaklida ifodalangan. Axborotning emotsionalligi ekspressiv sintaksis, xususan, gapda inversiya mavjudligi bilan izohlanadi. Ushbu ayol qahramoni tomonidan qarama-qarshi jins vakiliga yo'naltirilgan axborotda ifodalagan ma'lumot bizga salbiy baholi yana bir gender xususiyatlarga xos steriotipni xulosa sifatida qabul qilishimizga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bektoshova L. "Ta'limda gender yondashuvining nazariy asoslari." Toshkent, 2020. – 216 b.
2. Johnson D. W., & Johnson, R. T. "Cooperative Learning and Teaching Strategies." New York: McGraw-Hill, 2018. –119 b.

3. Brown H. D. "Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy." Pearson Education, 2017. – 146 b.
4. Ellis R. "Task-Based Language Learning and Teaching." Oxford: Oxford University Press, 2021. – 127 b.
5. Uzbekistan Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. "Ta'lim texnologiyalari bo'yicha o'quv qo'llanma." Toshkent, 2022. – 81 b.
6. Colleen McCullough, The Thorn Birds. HarperCollins e-books 2009. –P. 752

ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGANISHDA SAVOL VA TOPSHIRIQLARNING AHAMIYATI

Iroda ISHONXANOVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'qituvchisi,
ped.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Ma'lumki, o'rta umumta'lim maktablarining adabiyot faniga oid darsliklarda savol va topshiriqlar bilan ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalarini o'rganish hamda o'zlashtirishda ularning o'rni katta. Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida mumtoz adabiyotni, xususan, she'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganishda savol va topshiriqlar bilan ishlash muammolariga to'xtab o'tilgan, bu borada fikr-mulohazalar berilgan. Ushbu mavzu doirasidagi vazifalar tahlilga tortilgan. Mumtoz adabiyot namunalarini o'zlashtirishda o'quvchilarning mustaqil ishlari afzalliklariga ham to'xtab o'tilgan.

Kalit so'zlar: darslik, o'quv mashg'uloti, savol, topshiriq, loyiha, mustaqil ish, doston, matn, insho, mumtoz adabiyot, lug'at

Jamiyat hayotidagi o'zgarishlar, o'z navbatida, ta'lim tizimida ham yangilanishlarga sabab bo'lmoqda. O'quvchi mavzuni yetarli darajada yaxshi o'zlashtirishi uchun mustaqil ravishda ishlashi zarurligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'quv mashg'uloti paytidagi mutolaa yoki savol-javobning o'zi doim ham yetarli emasligi adabiyot o'qitish metodikasi mutaxassislari tomonidan bir necha marotaba isbotlandi. Ayrim olimlarimiz o'z tadqiqotlarida adabiyot darslarida rejadagi asar o'quvchilarga ovoz chiqarib o'qib yoki so'zlab berilmasligi zarurligini ta'kidlashgan. Maqsad – o'quvchi berilgan manbani uyda, mustaqil ish sifatida o'qib kelishini tashkil qilish. O'quvchilar faqatgina maktabdagi dars soatlari bilan cheklanib qolmasdan, o'z ustilarida muntazam ishlashlarini tashkil etish bugungi kunning ilg'or, zamon bilan hamnafas adabiyot fani o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biridir.

Adabiyot fani doirasidagi mavzularni o'zlashtirishda uyga beriladigan vazifalar, shu jumladan, savol-topshiriqlar ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, mumtoz adabiyot vakillari haqida mavzu ketganda, bunga alohida e'tibor berishimiz zarur. Adabiyot o'qitish metodikasi bo'yicha mutaxassis olim, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Omonulla Madayev bir suhbatda "Alisher Navoiyning birorta asarini tahlil qilib, maktabda Alisher Navoiy shaxsiga muhabbat uyg'otish mumkin

emas. Maktab dasturida Alisher Navoiyning shaxsiy fazilatini o'quvchiga tushuntirish orqali Navoiyga hurmat hosil qilish mumkin",- degan fikrni bildirgan hamda quyidagi mavzularda matnlar (insho) tuzish o'rinli ekanligini aytib o'tgan: "Navoiy – do'st" (5-sinf), "Alisher Navoiy – vatanparvar" (6-sinf), "Navoiy – xalqparvar" (7-sinf), "Alisher Navoiy – shoir" (9-sinf), "Navoiy – davlat arbobi" (10-sinf) va hokazo. Bugungi kunda amalda mavjud darsliklarda esa quyidagi mavzulardagi matn ustida ishlash haqida topshiriqlar berilgan: "Guruhlarda ishlang. Alisher Navoiy ruboiylaridan birini tanlang. Bu ruboiyning asosiy g'oyasini tushuntirishga yordam beradigan rasm chizing yoki hikoya tuzing" (6-sinf, loyiha), "Men ishqni qanday angladim" (9-sinf, uy inshosi), "O'zbek va turkiy xalqlar madaniyati, adabiyoti va san'atida Alisher Navoiyning alohida o'ringa ega ekanini qanday sabablar bilan izohlaysiz? Fikrlaringiz asosida Alisher Navoiy ijodiga xos eng muhim uch xususiyatni misollar yordamida ochib bering" (10-sinf, loyiha). Bunday matnlarni tuzish, loyiha ustida ishlash asnosida o'quvchilarning mustaqil fikrlash doirasi kengayadi, voqea-hodisaga o'z shaxsiy mulohazalarini ifoda etish salohiyati oshadi.

Biz adabiyot darsliklaridagi savol-topshiriqlarni tahlilga tortdik. 5-sinf darsligida "O'ninchi maqolatning "Rost so'z ta'rifida" qismida shoir qanday fikrlarni ilgari suradi?" savoli berilgan, lekin darslikda ushbu maqolatdan parcha mavjud emas. "Alisherning bolalik yillari to'g'risida nimalarni bilasiz?", "Alisher Navoiyning o'rta yoshlik yillari hayoti va ijodi haqida so'zlang" kabi an'anaviy savollarga javob berishda o'quvchilar darslikdagi ma'lumotlarni takrorlab beradilar, tahlil qilmaydilar. "Sher bilan Durroj" hikoyatidan qanday saboqlar olish mumkin?", "Ahil yashash, qo'shnichilik munosabatlari haqida o'z tushunchalaringizni so'zlang" kabi savollar esa o'quvchilarning so'z boyligini, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Darslikda "Sher bilan Durroj" hikoyatining asli va nasriy bayoni berilgani sababli, o'quvchilarga ushbu matnlarni yonma-yon qo'ygan holda, o'zlashtirilishi qiyin so'zlar lug'atini tuzish vazifasini berish mumkin. Bunday topshiriqlar o'quvchilarning lug'at boyligi oshishiga ko'mak beradi.

6-sinf yangilangan adabiyot darsligidan Alisher Navoiy ruboiylari o'rin olgan, hikmatli so'zlari mustaqil o'qish uchun berilgan. O'quvchilarga ruboiylar mazmunini izohlash hamda asosiy g'oyasini bitta gap bilan ifodalash vazifasi berilgan. Bu vazifani bajarish uchun jadval ham namuna sifatida keltirilgan.

7-sinf darsligida Alisher Navoiyning qit'a va fardlaridan namunalar keltirilgan. Qit'a mazmunini hozirgi adabiy tilda ifodalash hamda tahlilini jadvalga joylashtirish vazifasi berilgan. Fardlar tahlilida esa asar g'oyasini bir gap bilan ifodalash hamda unga mos keluvchi maqollardan namuna keltirish topshirig'i

berilgan. Oldingi sinflarda o‘tilganlarni takrorlash hamda mustahkamlash maqsadida ruboiy, qit’a va fard janrlarini qiyoslash jadvalini to‘ldirish kerak bo‘ladi.

8-sinf darsligida mustaqil o‘qish uchun berilgan ruboiy, tuyuq va fardlar berilgan. “Ahbob, yigitlikni g‘animat tutunguz...” ruboiysida ifodalangan g‘oyaning mohiyatini tushuntiring”, “Sarvi gulrux soridin” tajnisli tuyuqning badiiy-tabiiy ta’sirchanligini ta’minlagan vositalar nimalardan iborat?”, “Men – sinuq, ko‘nglum – sinuq, sabrim uyi xud – yerga past...” fardining hasbi hol xususiyatini sharhlang” singari savol va topshiriqlar berilgan. Fikrimizcha, vazifalarga ijodiy yondashilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Chunki ularning har biriga namuna darslikda keltirilgan.

8-sinf “Adabiyot” darsligida berilgan Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid ma’lumotlarni jadval holatiga keltirish hamda o‘z munosabatini bildirish vazifasini o‘quvchilarga berish mumkin. Taxminan, shunday shakldagi jadval hosil bo‘ladi:

Alisher Navoiy hayoti va ijodi xronologiyasi (8-sinf darsligi asosida)

Yillar	Voqealar
1441-yil 9-fevral	Hirotda shahrida G‘iyosiddin Kichkina xonadonida tavallud topdi.
1466–1469-yillar	Yosh shoir Samarqanddagi madrasalarda ta’lim oladi. Bu shaharda yosh qalam sohibi davlat ishlarida xizmatda ham bo‘ladi, faol ijod ham qiladi.
1469-yil	Bahorda Navoiyning yaqin do‘sti – temuriyzoda Husayn Boyqaro Hirotda taxtini egallagandan so‘ng shoirni yoniga chaqiradi. Navoiy bir necha yil saroyda oliy martabali lavozimlarda xizmat qiladi.
1483–1485-yillar	Shoirning eng buyuk asari – besh dostonidan iborat “Xamsa” yaratiladi.
1491/92– 1498/99-yillar	Barcha lirik she’rlarini to‘rt devonga taqsimlab, “Xazoyin ul-maoniy” nomli yirik to‘plamini tuzdi.
Umrining so‘nggi o‘n yili	Navoiy juda ko‘p badiiy, ilmiy, tarixiy asarlar bunyod etdi.
1501-yil 3- yanvar	Hirotda vafot etdi.
1991-yil	Toshkent shahridagi O‘zbekiston Milliy bog‘ida shoirning yangi haykali o‘rnatildi.
2017-yil	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti binosi oldiga shoirning yangi haykali o‘rnatildi.

Ma'lumki, 9-sinf darsligiga "Farhod va Shirin" dostonidan salmoqli parchalar kiritilgani sababli asarni o'rganishga ham boshqa sinflarga qaraganda ko'proq soat ajratilgan. Parchalar orasida berilgan savol va topshiriqlarda matn bilan ishlashga katta e'tibor berilgan. Ayrim baytlardagi mazmun va g'oyaning izohlanishiga doir topshiriqlar ko'p. Bolani fikrlashga undaydigan savollar ham talaygina. Masalan: "Farhoddagi g'amginlikning sababini Siz qanday izohlaysiz?", "Farhodning Xusravga bergan tanbehiga qo'shilasizmi? Uning so'zlariga munosabat bildiring" yoki "Farhodning noma'lum ko'zgu tilsimini bilish uchun hayotini xavf-xatarga solib bo'lsa ham safarga chiqqanligini qanday baholaysiz? Sizningcha, u to'g'ri ish tutdimi?" Darslikka "komil inson" tushunchasi borasida savollar kiritilmagan. O'quvchilar komil inson sifatida qanday kishilarni hisoblashlari, Farhoddagi mukammallik belgilari to'g'risida mustaqil fikrlarini bildirishlari juda muhim.

10-sinflar uchun ishlab chiqilgan darslikda "O'zbek mumtoz adabiyoti: xiv asrdan xix asrning birinchi yarmigacha" sarlavhasi ostida keltirib o'tilgan davr ijtimoiy-siyosiy hamda adabiy hayoti haqida matn kiritilgan. Adabiyot va tarix fanlarini integratsiya qilgan holda savol va topshiriqlar berilgan. "XIV–XX asrlarda hozirgi O'zbekiston hududida qanday davlatlar mavjud bo'lgan?", "Bu davr adabiyotida lirikaning yetakchilik qilgani sabablari nimada bo'lishi mumkin?" kabi savollar, "Tarix va boshqa fanlardan olgan bilimlaringiz asosida Markaziy Osiyoning Temuriylardan keyin XIX asr ikkinchi yarmigacha bo'lgan taraqqiyotining eng muhim uch xususiyatini ajratib ko'rsating. Nima uchun aynan shu xususiyatlarni muhim deb hisoblashingizni izohlang" mazmunidagi mustaqil ish berilgan. "Guruhlarda ishlang. Markaziy Osiyoning XIV–XIX asrning ikkinchi yarmidagi taraqqiyoti tendensiyalaridan birini ajratib oling va uning adabiyotga ta'sirini misollar yordamida ochib bering" deb berilgan loyiha ishi ham o'quvchilarda qiziqish uyg'otishi aniq, nazarimizda.

Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish barobarida, o'quvchining buyuk bobokalonimiz shaxsiyati bilan qay darajada tanish ekanligini tekshiruvchi savol va topshiriqlar berilgan. "Saddi Iskandariy" dostonidan parcha keltirilganda asardan oldin, asar ichida, asardan keyingi uch bosqichli savollar berilgan. Masalan, "Iskandar Zulqarnayn haqida nimalarni o'qigansiz yoki eshitgansiz?", "Muallifning ikki do'st haqidagi lavhani Chingizxon tushida tasvirlashi sababini qanday izohlaysiz?", "Iskandar vahshiylar zulmiga qarshi qanday siyosat qo'llamoqchi deb o'ylaysiz?" singari o'quvchini fikrlashga undaydigan, xayolotini boyitadigan savollar keltirilgan. Avvalo, darslikda doston matni hamda nasriy bayon yonma-yon berilgani o'quvchilarning asarni tushunishlarida qulaylik yaratadi.

11-sinf adabiyot darsligiga tarixchi Xondamirning mashhur "Makorim ul-axloq" ("Oliyjanob sifatlar") asaridan parchalar keltirilgan. Parchalarda Alisher

Navoiyning bunyodkorlik faoliyati, Mavlono Lutfiy tahsini, hazratning mehribonligi va saxovati aks etgan.

“Saddi Iskandariy” dostonidan parcha hamda asar haqidagi matn berilgan. “Shahzoda Feruz shaxsiyati haqida sizda qanday tasavvur paydo bo‘ldi? Mulohazalaringizni bildiring”, “Yigitlik va qarilik haqidagi misralarni o‘qing va ularga o‘z munosabatingizni bildiring”, “Hikoyat qahramoni bo‘lgan yigit portreti qanday chizilgan? Uning surati va siyratida qanday farqlar mavjud?”, “Safar va sayohatlar haqidagi hikmatli so‘zlar mazmunidan kelib chiqadigan xulosalaringiz qanday bo‘ldi?”, “Dostonda olimlarga qanday munosabat bildirilgani haqida o‘z mulohazalaringizni bildiring” kabi o‘quvchini shaxsiy fikr-mulohaza yuritishga undaydigan savol va topshiriqlar berilgan.

Savol va topshiriqlarni ko‘rib chiqish jarayonida quyidagi masalalarga alohida e‘tibor berishimiz zarurligiga amin bo‘ldik:

1. Savollar mavzu oid bo‘lishi;
2. Matndagi fikr va g‘oyalarni aks ettirishi;
3. Javobi matn ichida tayyor holda bo‘lmasligi;
4. Topshiriqlar o‘quvchini ijodkorlikka undashi;
5. O‘quvchining o‘zi mustaqil ravishda bajara olishi;
6. O‘quvchi matn tuzish iqtidorini namoyish qila olishi va hokazo.

Mumtoz adabiyot namunalari o‘rgatish o‘rta maktab o‘qituvchilari uchun doim qiyinchilik tug‘dirgan. Shu sababli, shu mavzudagi o‘quv mashg‘ulotlari adabiyot fani o‘qituvchisidan ham alohida tayyorgarlik talab qiladi. Mumtoz adabiyot namunalari uchun mo‘ljallangan lug‘atlar, izohli lug‘at doim o‘qituvchi stolida bo‘lishi shart deb hisoblaymiz.

Adabiyot darsliklarini ko‘rib chiqish vaqtida shunga amin bo‘ldikki, yangi joriy etilgan darsliklardagi savol va topshiriqlar ko‘proq o‘quvchini mustaqil fikrlashga, ijodkorlik jihatlarini namoyon qilishga, matn ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Mumtoz adabiyotni o‘qitishda savol va topshiriqlarga jiddiy e‘tibor qaratish zarur. Chunki o‘quvchi asar mohiyatiga kirib borishi zarur. Bir o‘qiganda ko‘zga tashlanadigan tashqi ma’no bilan ijodkor nazarda tutgan ichki, majoziy ma’noni ham tushuna olishi kerak bo‘ladi. Avvalo, fan o‘qituvchisining o‘zi bunday darslarga alohida tayyorgarlik bilan kirsam, albatta, o‘quvchilarga mumtoz adabiyotning, xususan, Alisher Navoiy ijodining betakror ekanligini anglatishga erisha olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov S. va b. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinf o‘quvchilari uchun. – Toshkent: Sharq, 2020. – 272b.
2. Mirzayeva Z. va b. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 312b.

3. Mirzayeva Z. va b. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224b.
4. Mirzayeva Z. va b. Adabiyot. 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224b.
5. Olim S. va b. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinf o‘quvchilari uchun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2019. – 352b.
6. To‘xliyev B. va b. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinf o‘quvchilari uchun. I qism. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 200b.
7. Yo‘ldoshev Q. va b. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari uchun. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 368b.

BAXTIYOR NAZAROV G‘AFUR G‘ULOM IJODI TADQIQOTCHISI SIFATIDA

Boltaboyev Omonboy

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek adabiy tanqidchiligi jarayoni rivojlanish qonuniyatlari tadriji, badiiy asar talqinida ichki va tashqi omillar sintezi, matnni estetik baholash tamoyillari mohiyati, tahlil malakasi va ijodkor dunyoqarashi aloqasi, ilmiy faktni mushohada vositasida boyitish an‘analari B.Nazarovning «G‘afur G‘ulom olami» monografiyasi misolida umumlashtiriladi. Unda shoir va yozuvchi G‘afur G‘ulom asarlarida qahramon markazini belgilash usuli, munaqqid fenomenida eruditsiya va intellekt birligi, dalilni mantiqan asoslash usuli xususida mushohada yuritiladi.

Annotation. The article summarizes the evolution of the laws of development of the process of Uzbek literary criticism, the synthesis of internal and external factors in the interpretation of a work of art, the essence of the principles of aesthetic evaluation of the text, the connection of analytical skills and the creative worldview, the traditions of enriching scientific fact through observation on the example of B. Nazarov's monograph "The World of Gafur Ghulam." It examines the method of defining the hero's center in the works of the poet and writer Gafur Gulyam, the unity of erudition and intelligence in the phenomenon of criticism, and the method of logical justification of evidence.

Tayanch so‘zlar: B.Nazarov, tadqiqot, tanqidchilik, munaqqid faoliyati, kuzatish, tajriba, an‘ana, gipoteza, ijod ruhiyati, uslub va shoir dunyoqarashi.

Key words: B. Nazarov, research, criticism, criticism, observation, experience, tradition, hypothesis, creative spirit, style, and the poet's worldview.

Baxtiyor Nazarov adabiy tanqidchi sifatida badiiy asardan olgan estetik zavqni shunchaki ilmiy tahlil qilish bilan chegaralanmaydi. Uning adabiy-tanqidiy qarashlarida tanqid ham, fan ham san‘at darajasi vazifalarini o‘taydi, to‘g‘rirog‘i, ko‘p holatlarda tanqid san‘at darajasiga ko‘tariladi, chunki obrazli emotsional fikrlash, tahlil etilayotgan badiiy asar yoki yozuvchining hayot yo‘lini tarixiy-ma‘rifiy yo‘nalishida qiziqarli hikoya qilish – munaqqid intellektual ufqi ko‘lamining kengligidan darak berib turadi. Munaqqid tahlil etayotgan badiiy asar ijobiy-falsafiy mohiyatini yoritish va dalillashga ham alohida ahamiyat beradi. Ayniqsa, muallif Cho‘lpon, Oybek, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom haqidagi tadqiqotlarida teran tahliliy tafakkur obrazlilik bilan, yuksak estetik tamoyillar bilan uyg‘unlashib ketadi, natijada tanqidchi yurak harorati bilan yozilgan, chuqur

emotsional bo‘yoqlarga boy bo‘lgan ilmiy-hissiy analitik mushohadalari o‘quvchida kuchli taassurot qoldiradi, faraz va adabiy dalil uyg‘unligi e‘tiborni tortadi.

B. Nazarov olim sifatidagi eng muhim fazilatlaridan yana biri shuki, u o‘zi aytgan fikrlar ilmiy jihatdan to‘g‘ri va o‘zgarmas bo‘lishiga intiladi. Sobit fikrli va samimiy tanqidchi sifatida voqelikni badiiy aks ettirish va qahramon obrazini yaratish o‘ziga xos tamoyillariga o‘z nuqtayi-nazaridan yondoshib salmoqli, dalilli fikrlar aytadi, muammolarga yechim axtaradi.

G‘afur G‘ulom ijodiy merosi XX asr o‘zbek milliy madaniyati va adabiyoti taraqqiyotida munosib o‘ringa ega. Baxtiyor Nazarov G‘afur G‘ulom ijodi, uning badiiy olami haqida o‘zining ohorli so‘zini ayta olgan. G‘afur G‘ulom ijodi haqidagi yozilgan tadqiqotlar oz emas. Ular ichida, ayniqsa, prof. H. Yoqubov, akademik S. Mamajonov, professor N. Shukurov, A. Akbarov tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. To‘g‘ri, bu ishlarda tuzum va zamon bilan izohlanuvchi mushohadalar ko‘p. Lekin, bundan qat’iy nazar, ulardagi mafkura va siyosatga bog‘lanmagan ravishda shoir mahorati xususidagi nozik kuzatishlar o‘zining qimmatini saqlab qoladi. [Nazarov, 2022: 12-13]. “G‘afur G‘ulom olami” kitobidagi konsepsiya, talqin, tahlil, baholashda betakrorlik, o‘ziga xoslik mavjud. Adabiy tanqid fanida, o‘zlashtirish estetikasi sohasida kechinma, kechinmadoshlik degan tushuncha bor. Biron san’at asarini uqmoq, anglamoq uchun ma’lum muddat asarni yaratgan ijodkor ruhiga kirmoq, kechinmalarini qayta jonlantirmoq zarur bo‘ladi. Kechinmadoshlik – estetik jarayon, asardagi go‘zallikni nozik va chuqur his etmoq. Badiiy asarniki ich-ichidan his qilish shunchalik mushkul ekan, san’atkor badiiy olamiga kirish, uni anglash, tushuntirib berish o‘ta murakkab vazifadir. Adabiy tanqidchilikda “yozuvchi olami” degan ibora bot-bot qo‘llanilgani bilan kamdan-kam tadqiqotchi badiiy olamga yo‘l topadi, uning ajoyibotu g‘aroyibotlaridan zavq-shavqqa to‘ladi. Baxtiyor Nazarov yangi tadqiqoti bilan G‘afur G‘ulom badiiy olamining bir qancha betakror fazilatlarini namoyon eta oldi.

Baxtiyor Nazarovni G‘afur G‘ulom olamiga tanqidchilik ilmining nozik tomonlarini bilishi olib kirdi. Adabiy tanqidni fan deguvchilar ham bor. Ular o‘rtasidagi bahs necha-necha o‘n yilliklardan buyon davom etmoqda. Tanqid ilmini nozik ilg‘ovchilar bu azaliy bahsga munosabatlarini bildirib bo‘lganlar. “Biz adabiy tanqidni ilm deguvchilarning dalillarini asosliroq, topamiz, – deb yozadi B. Nazarov, – undagi badiiy mushohada, tahayyul, tasavvur esa, janrning maqbul o‘ziga xos xususiyatlari tarzida zohir topadi, busiz adabiy tanqid o‘zining tom ma’nodagi fazilatini namoyon eta olmaydi”. Olim o‘z qarashlarini izchil mantiqqa asoslangan gipotetik usul orqali davom ettiradi. Gipotetik usul – farazlarga asoslanish, xayol tizginini uzun tashlashdir. Bu usulning o‘ta nozik, simobday u yoq-bu yoqqa borib kelib-kelib turadigan tomoni bor. Til suyaksiz – nimalar demaydi, faraz tizginsiz – qayoqqa ketib qolmaydi. Ammo gipoteza mantiqqa bog‘langan,

biografik metod nozikliklariga bo'ysungan, ijodkor ruhiyati tovlanishlarini hisobga olgan bo'lsa, ijobiy, ilmiy haqiqatni ro'yobga chiqarish mumkin. Baxtiyor Nazarov G'afur G'ulom olamining konseptual asoslarini yoritganda ham, zargarona nozik tahlilni qo'llaganda ham gipotetik usulning asosiy nuqtalarini hamisha diqqat markazida tutadi. G'afur G'ulom dunyosi asosini tadqiqotchi bunday nafis shaklda ifodalaydi: "Umr falsafasi, hayotning qadriga yetmoq va uni ardoqlamoq falsafasi shoirning bugun ijodi bo'ylab o'tadi va, ayniqsa, poetik obrazlar qiyofasida o'zining bor go'zalligi bilan namoyon bo'ladi". U "G'afur G'ulom olami" monografiyasida shunday deydi: Inson va zamon tabiatini badiiy tarannum etishda lirik qahramonning chuqur o'y-mushohadalari-yu, uning donishmandligidan tortib, shu donishmandlikni namoyon etuvchi obrazlar vositasidagi rang-baranglik, serqatlamlik, ko'pma'nolilik, purhikmatlilik, bir so'z bilan aytganda, falsafiylik shoir ijodining muhim belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Aziz asrimizning aziz onlari

Aziz odamlardan so'raydi qadrin.

Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la

Bezamoq chog'idir umr daftarin.

("Vaqt")

Nainki butun bir asr, hatto har bir on, har bir daqiqani inson aziz deb bilmog'i, o'z shifoati va sharofati, shuuri va mehnati, mehriyu muhabbati bilan uni aziz qilmog'i kerak. Umr masofasi ikki qosh o'rtasidek qisqa, muddati ko'z ochib-yumgunchalik, shu bois, har bir fursatni g'animat bilib, umr daftarin bezamoq zarur. "Shoh satr" shoir uchun go'zal badiiy asar, albatta. Biroq, G'afur G'ulomning falsafiy mazmunida u serma'no: olim uchun biror bir kashfiyot; bog'bon uchun avlodlarga qolajak bog'; me'mor uchun nuramas obida; o'quvchi yoki talaba uchun zehning yangi bir ilmiy zarra bilan to'yinishi; ishchi-dehqonning shavqli mehnatidagi zavqli natija; sportchining yangi bir g'alabasi va h.k.[Nazarov, 2022:18-19]

Baxtiyor Nazarov g'oyat izlanuvchan va yuksak ilmiy-estetik did hamda qarashlarga ega tadqiqotchi sanaladi. U har bir ilmiy talqinda G'afur G'ulom ijodiy laboratoriyasiga chuqur kirib boradi, uning o'zigagina xos bo'lgan uslub va mahoratining bosh yo'nalishlarini ilmiy-ijodiy, tarixiy-ma'rifiy asoslarda chuqur tahlil etadi. Shuning uchun ham munaqqid tadqiqotlari doimo o'ziga xosligi, hissiy idrokka tayanishi va ilmiyligi bilan alohida ajralib turadi. Munaqqid aksariyat hollarda o'zining fikrlarini e'tirozga o'rin qoldirmaydigan darajada bayon etadi, yetarlicha dalillaydi, olim o'z ilmiy-tadqiqotlari mazmuni va shaklining dialektik birligini zo'r mahorat bilan uygunlashtira oladi. Munaqqid adabiy-tanqidiy ishlari va qarashlaridagi alohida bo'rtib turadigan samimiylik, go'zal estetik tamoyillarga asoslangan olijanob his-tuygular munaqqid ilmiy-badiiy va ko'p hollarda tarixiy-ma'rifiy tamoyillarga moyil bo'lgan tahlillari ta'sirchanligini yanada oshirishiga

xizmat qiladi, tanqidchi yuksak intellektual malakasi va estetik didini ko'rsatib turadi.

B. Nazarov "G'afur G'ulom olami" monografiyasida G'afur G'ulomning, asosan, she'rlariga qisman ba'zi bir hikoyalariga, shuningdek, adabiyotshunos va tarixchi sifatidagi ayrim ilmiy qarashlari tahlil qilingan. Xususan, «Shum bola» qissasining yaratilish tarixi, asarning janr tabiati va milliy fazilatlari haqida qisqacha fikr yuritilgan.

Ma'lumki, shoirning shaxsi, tabiati o'zining favquloddaligi bilan ajralib turadi. Adibning ichki dunyosi, fe'l-atvori, oila quchog'ida, yaqinlar davrasida, do'st-u birodarlar qurshovida ajib bir hikmat va donishmandlik nurlari bilan tovlanadi.

G'afur G'ulom jahon adabiyoti, xususan, Sharq she'riyati, ayniqsa, Bedil ijodiyotini chuqur bilgan. Bu bilim uning ijodiga ta'sir ko'rsatmasligi mumkin emas, albatta. Shu jihatdan G'afur G'ulom she'riyatiga Bedil falsafasining ta'siri kuchlidir. Bedil karashlari va falsafasi javharini, qo'llagan san'atlari mohiyatini tasavvuf tashkil etgani ma'lum. G'afur G'ulom sho'ro shoiri bo'lgani bois tasavvufdagi ta'sirni qabul qilishi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas edi. Biroq, ayni vaqtda, G'afur G'ulom Bedilga shu qadar berilgan, uning dunyosiga shu qadar sho'ng'igan ediki, undan ta'sirlanmaslik mumkin emas edi. Shu bois bu ta'sir o'ziga xos jarayonlarda kechdiki, uni izlash, kuzatish, aniqlashning o'zi mushkuldir.

O'z navbatida, G'afur G'ulom turkiy xalqlar adabiyotining jo'da ko'p ulkan vakillari ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatgan shoirdir. Ayni vaqtda, o'z milliy adabiyotimiz – o'zbek adabiyotining aksar peshqadam vakillari G'afur G'ulomni ustoz deb biladilar. Bu e'tirof uning ijodiy maktabida olingan ta'lim va ta'sir samarasi tufaylidir, albatta.

XX asrning biror-bir ulkan tarixiy hodisasi yo'qki, G'afur G'ulom unga o'z munosabatini bildirmagan bo'lsin. Aksar o'rinlarda muallifning bunday qarashlari siyosiy va mafkuraviy nuqtai nazar bilan to'yingan bo'lsa-da, ko'p xollarda siyosiy qarash asarning majburiylikdan iborat bo'lgan qobig'inigina tashkil etadi, asar javxarini esa, o'zbek xalqining tili bo'lgan shoirning masalaga umumbashariy mezonlar asosidagi poetik munosabati egallaydi. Shu ma'noda, monografiyaning bir qismi G'afur G'ulom she'riyatida XX asr muammolarining poetik aks etishi masalasidagi ayrim qirralarni yoritishga qaratilgan. Bu o'rinda asarning ijtimoiy mazmunini ko'rsatish emas, balki asosan bu ijtimoiy mazmun badiiy jihatdan ne chog'lik teran aks ettirilganini va shoirning mahorati nimalarda namoyon bo'lganini ko'rsatish munaqqidning diqqat markazida turgan.

B.Nazarov G'afur G'ulomning "Mukammal asarlar to'plami" o'n ikki jildligini, muallif hayotligida bosilmagan ayrim asarlarni sinchiklab o'rganish bu masaladagi shoir dardlarini aniqlashga bir ochqich bo'ldi.

“Kutilgan natijalar G‘afur G‘ulomning o‘z asarlari bag‘rida yashirinib yotgan ekan. Uning shunday she‘rlari, hikoyalariga duch keldikki, ba‘zi ilmiy publitsistik maqolalar bag‘riga shunday fikrlar tashlab o‘tilgan ekanki, ularning tag zamiriga ayni biz umid qilgan, qidirgan, kutgan Istiqlol g‘oyalari, dardlaridan iborat ulkan fikrlar, g‘oyalar yashirilgani ma‘lum bo‘ldi. Ular, mohiyat e‘tibori bilan, G‘afur G‘ulomning kelajak avlodga ishonib, asarlari qatiga, tag mazmuniga yashirib ketgan dardlari edi. Biz kitobning maxsus bir bobida G‘afur G‘ulomning ana shu yashirin uslubini o‘qishga, uqishga harakat qildik va umuman, tadqiqot mohiyatini mana shu yo‘nalish asosiga qurishga intildik” [Nazarov, 2022:264] - deb keltiradi.

Munaqqid adib umrining oxirlarida yozilgan ba‘zi bir hikoyalarida istiqlol g‘oyalari nechog‘lik mahorat bilan, yashirin ravishda, badiiy teranlikda ilgari surilganini ta‘kidlab o‘tadi.

B.Nazarov shoir tabiati, fe‘l-atvori, asarlarini tahlil qilish jarayonida, ularga biz shu vaqtgacha bilmagan G‘afur G‘ulom qiyofasini, uslubdagi mahoratini ochib bera olgan. Natijada bu ulkan shoir va yozuvchi shaxsini, G‘afur G‘ulomning yangicha qiyofasini ko‘rishimiz mumkin.

Mazukr monografiyadagi qator fikrlar, xulosalar, asar tagzaminidan, ko‘chma ma‘nosidan, yashirin g‘oyasidan, shoir maqsadidan kelib chiqib aytilgan va taxayyul bilan to‘ldirilgan gipotetik tarzdagi mushohadalar ekanligini kuzatishimiz mumkin. Unda asar tahlilidan chiqarilgan ba‘zi xulosalar, G‘afur G‘ulomning «yashirin» uslubiga doir ayrim umumlashma fikrlarga guvoh bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov B. Ijodning jon tomiri. –Toshkent. Tafakkur tomchilari, 2022.
2. Aristotel. Poetika. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1980.
3. Yo‘ldoshev B. O‘zbek adabiy tanqidi tarixi. – Toshkent: Fan, 2023
4. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007.
5. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – Toshkent: Fan, 2006.

RESEARCH OF 20TH CENTURY UZBEK LITERATURE AND CURRENT LITERARY PROCESS

Dinara USTEMIROVA,

Tarjimonlik nazariyasi va amaliyoti ingliz tili 1- kurs

ANNOTATION. The study of 20th-century Uzbek literature reveals a rich evolution influenced by various historical, political, and cultural shifts. This era, marked by the shift from traditional literary forms to more modern styles, features the influential works of key authors such as Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, and Oybek. These writers were instrumental in shaping Uzbek prose, poetry, and drama, often overcoming obstacles created by colonialism, the Soviet regime, and ideological censorship. Central themes in their works include national identity, resistance, cultural preservation, and the tension between tradition and modernity.

This research offers a critical examination of how Uzbek literature has transitioned from its 20th-century roots to contemporary trends, emphasizing the ongoing dialogue between tradition and innovation in the shaping of Uzbek literary identity.

Key words: 20th century Uzbek literature, Uzbek prose and poetry, modern Uzbek writers, soviet influence on Uzbek literature, national identity in literature, postmodernism in central Asian literature, Uzbek diasporic literature.

АННОТАЦИЯ. Изучение узбекской литературы XX века показывает богатую эволюцию, на которую повлияли различные исторические, политические и культурные сдвиги. Эта эпоха, отмеченная переходом от традиционных литературных форм к более современным стилям, включает влиятельные работы таких ключевых авторов, как Абдулла Кодири, Чолпон, Фитрат и Ойбек. Эти писатели сыграли важную роль в формировании узбекской прозы, поэзии и драмы, часто преодолевая препятствия, созданные колониализмом, советским режимом и идеологической цензурой. Центральными темами в их работах являются национальная идентичность, сопротивление, сохранение культуры и напряжение между традицией и современностью.

Это исследование предлагает критический анализ того, как узбекская литература перешла от своих корней XX века к современным тенденциям, подчеркивая продолжающийся диалог между традицией и новаторством в формировании узбекской литературной идентичности.

Ключевые слова: узбекская литература XX века, узбекская проза и поэзия, современные узбекские писатели, советское влияние на узбекскую литературу, национальная идентичность в литературе, постмодернизм в литературе Центральной Азии, узбекская диаспоральная литература.

INTRODUCTION

The research of 20th-century Uzbek literature and its current literary process offers an insightful exploration into the evolution of literary traditions, reflecting significant historical, cultural, and political transformations. The 20th century was a time of profound change for Uzbek literature, marked by the rise of reformist movements, the influence of Soviet ideologies, and, later, the newfound freedom that came with Uzbekistan's independence. As Uzbekistan navigated the tides of colonization, revolution, and Soviet rule, its literary figures responded to the shifting socio-political landscape, often balancing between tradition and modernity.

In the early part of the century, the Jadid reformist movement played a key role in shaping the direction of Uzbek literature. Writers such as Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, and Fitrat merged classical Uzbek literary forms with modern themes of social justice, nationalism, and reform, laying the foundation for the country's literary modernity. The subsequent Soviet era, while marked by ideological constraints, gave rise to new literary genres and the challenge of adapting traditional cultural expression to the demands of socialist realism. [Khalid. A, 1999:55]

With the collapse of the Soviet Union and the subsequent independence of Uzbekistan in 1991, the literary landscape underwent a transformation. Writers gained greater freedom to address previously censored subjects, including religion, history, and the aftermath of Soviet repression. Contemporary authors began to explore a broader range of themes, from globalization and diaspora experiences to existential questions, while still engaging with the country's rich cultural heritage.

The current literary process in Uzbekistan reflects an ongoing dialogue between tradition and innovation, where themes of national identity, cultural preservation, and modernization coexist with the influences of global literary trends and digital platforms. Today, Uzbek literature is characterized by a growing diversity of genres and voices, exploring the complexities of post-independence society while engaging with both local and global issues.

This research seeks to provide a comprehensive analysis of 20th-century Uzbek literature and the current literary trends, highlighting the impact of historical forces and ideological movements on the development of literary forms and themes. By examining the contributions of key figures, literary movements, and thematic shifts, the study aims to offer a deeper understanding of how Uzbek literature continues to evolve in the 21st century, preserving its cultural essence while embracing new forms of artistic expression. [Ahmed. A, 2016:45]

The research of 20th-century Uzbek literature and its current literary process unveils the remarkable trajectory of a national literary tradition that has been deeply influenced by political, cultural, and historical transformations. Uzbek literature,

which evolved over centuries, underwent profound shifts in the 20th century, influenced by factors such as Russian colonization, the Soviet regime, the ideological pressures of socialist realism, and the eventual independence of Uzbekistan. These transformations, coupled with a blending of traditional forms with modern literary trends, have contributed to the development of a rich and diverse literary heritage. [Shodiev. A, 2014:87]

The Early 20th Century: The Jadid Movement and Modernization

The early 20th century saw the emergence of the Jadid reformist movement, a crucial turning point in Uzbek literature. The Jadids, such as Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, and Fitrat, sought to modernize Uzbek society through the promotion of education, cultural renewal, and reform. Their literary works, deeply rooted in traditional Uzbek storytelling, began to engage with modern issues such as nationalism, social justice, and resistance to colonial rule. The writers of this period worked within a complex socio-political landscape, navigating tensions between tradition and reform while championing the modernization of literature as a tool for social change.

The Soviet Era: Ideological Constraints and Literary Innovation

With the establishment of Soviet power, Uzbek literature was reshaped under the influence of socialist realism, the dominant literary doctrine that sought to align all art with the goals of the Communist Party. Writers during this time, including Oybek, Abdulla Qahhor, and others, were forced to conform to the ideological guidelines imposed by the Soviet regime, which limited their creative freedom. While the strictures of socialist realism stifled free expression, it also brought new opportunities for the development of genres such as the novel, short stories, and drama. Even under these constraints, many writers subtly conveyed themes of individuality, cultural heritage, and the preservation of national identity. [Ismailov.H, 2005:67]

Post-Independence: A New Literary Landscape

Following the independence of Uzbekistan in 1991, Uzbek literature entered a new phase of freedom and exploration. Writers were no longer bound by the censorship and ideological restrictions of the Soviet period, allowing for a greater diversity of themes and styles. The post-independence period saw the emergence of new voices, with authors exploring topics such as the struggles of migration, the impact of globalization, and the personal and collective trauma of the Soviet era. Writers like Hamid Ismailov gained international acclaim for works that reflected both Uzbek cultural heritage and contemporary global concerns.

Current Literary Process: Globalization and Technological Innovation

Today, the literary process in Uzbekistan is marked by a dynamic fusion of traditional themes and contemporary global trends. While the works of classical

writers continue to influence contemporary literature, modern authors are increasingly engaged with global literary movements such as postmodernism, existentialism, and diaspora literature. Contemporary Uzbek writers are exploring themes such as identity, the effects of technological change, and the tensions between global and local cultures. The advent of digital platforms has opened up new avenues for literary expression, allowing young writers to experiment with new genres, formats, and forms of interaction with their readers. These platforms have also increased the international visibility of Uzbek literature, helping it find a place within the global literary community.

Challenges and Opportunities

Despite the strides made in the post-independence period, modern Uzbek literature faces several challenges. Limited translation into major world languages and insufficient international recognition hinder its broader global exposure. Nevertheless, efforts by translators, cultural organizations, and literary institutions continue to promote Uzbek literature worldwide. This presents a unique opportunity for Uzbek writers to engage in cross-cultural exchanges and contribute to the broader literary dialogue, while also preserving their cultural identity and heritage. [Juraev. A, 2010:56]

CONCLUSION

The trajectory of 20th-century Uzbek literature and its current literary process showcases a fascinating evolution, shaped by shifting political regimes, cultural renewal, and the evolving aspirations of the Uzbek people. From the reformist works of the early 20th century to the ideological battles of the Soviet era, followed by the creative freedom and innovation in the post-independence period, Uzbek literature has demonstrated remarkable resilience and adaptability. As the literary process continues to evolve, it remains deeply connected to Uzbekistan's national identity and cultural heritage, while also embracing the influences of the globalized world. Through this research, we gain a deeper understanding of how Uzbek literature has navigated historical upheavals and emerged as a vibrant part of the global literary landscape.

REFERENCES

- Khalid, A. (1999). *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia*. University of California Press.
- Ahmed, A. (2016). *Central Asian Literature: From the 19th Century to the Present*. Routledge.
- Shodiev, A. (2014). *The Development of Modern Uzbek Literature in the Soviet Era*. Tashkent State University Press.

Ismailov, H. (2005). *The Devil's Dance: An Uzbek Novel*. Curzon Press.

Juraev, A. (2010). *Uzbek Poetry in the 20th Century*. Uzbekistan Publishing House.

“BOBURNOMA” ASARINING TARJIMALARIDAGI BADIY VA MAZMUNIY FARQLAR.

“Artistic and Content Differences in the Translations of “Baburname””

“Художественные и содержательные различия в переводах «Бабурнаме»”

Yulduz ZAYNIYEVA,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU

tayanch doktorantura talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola “Boburnoma” asarining turli tillardagi tarjimalarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Jumladagi “*Tonglasig‘a qor va chopqun turdi*” iborasi misolida tarjimonlar tomonidan asliyatdagi mazmun, badiiylik va uslub qanday aks ettirilgani o‘rganilgan. Maqolada uchta muhim tarjima – Jon Leyden va Erskin, Beverij va Tekston talqinlari o‘zaro taqqoslangan. Tarjimalarda kuzatilgan asosiy kamchiliklar sifatida “turdi” so‘zining hodisaning boshlanishi sifatida noto‘g‘ri talqin qilinishi, “chopqun” so‘zining noaniq tarjima qilinishi va badiiy ohangning zaiflashuvi qayd etilgan. Tahlil natijasida Beverij tarjimasi asliyatga nisbatan yaqinroq ekani ta’kidlangan bo‘lsa-da, asar mazmunini to‘liq aks ettirish uchun har uchala tarjimada ba’zi muammolar mavjudligi aniqlangan. Maqola tarjima jarayonida asliyatning badiiy va mazmuniy xususiyatlarini saqlashning muhimligini yoritadi.

Tayanch so‘zlar: “Boburnoma”, tarjima tahlili, turdi, chopqun, badiiy uslub, asliyat, tarjimonning talqini.

Annotation. This article is dedicated to analyzing the translations of the work “Baburnama” in various languages. Using the phrase “*Tonglasig‘a qor va chopqun turdi*” as an example, the study examines how translators conveyed the original meaning, artistic quality, and style. The article compares three major translations by J.Leyden and Erskine, S. Beveridge, and W.Thackston. Key shortcomings identified in the translations include the misinterpretation of the word “turdi” as implying the end of an event rather than its beginning, the inaccurate translation of “chopqun” (fierce wind or storm), and the weakening of the artistic tone. The analysis highlights that while Beveridge’s translation is relatively closer to the original, all three translations exhibit certain limitations in fully conveying the content of the work. The article underscores the importance of preserving the artistic and semantic characteristics of the original text in the translation process.

Key words: “*Baburnama*”, translation analysis, “*turdi*”, “*chopqun*”, artistic style, original text, translator’s interpretation.

Bobur Mirzo – buyuk shoir, davlat arbobi va tarixchi sifatida o‘z davri hamda keyingi avlodlar uchun boy meros qoldirgan ulug‘ shaxsdir. Uning eng mashhur asari “Boburnoma” bo‘lib, bu asar nafaqat tarixiy hujjat, balki adabiy yodgorlik sifatida ham muhim o‘rin egallaydi. Asar o‘zbek tilida yozilgan bo‘lsa-da, uning dunyo miqyosida tanilishi uchun ko‘plab tillarga tarjima qilingan. Tarjimalar orqali “Boburnoma”ning mazmuni, adabiyati va tarixiy ahamiyati o‘zgacha shakllarda talqin qilingan. “Boburnoma”ning mashhur tarjimalari: “Boburnoma”ning fors tiliga tarjimasi birinchi bo‘lib Bobur Mirzoning o‘zi tomonidan amalga oshirilgan. Fors tili o‘sha davrda ilm-fan va adabiyot tili bo‘lib, bu tarjima orqali asar kengroq o‘quvchilar ommasiga yetib bordi. Fors tilidagi nusxa asarning ilmiy va tarixiy mazmunini saqlagan holda, uning adabiy uslubini ham ochib bergan.

Ingliz tilida “Boburnoma”ning birinchi tarjimasi 19-asrda Jon Leyden va Uilyam Erskin tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu tarjima ilmiy doiralar uchun katta ahamiyat kasb etdi va Bobur Mirzoning hayoti, siyosati hamda adabiy iste’dodini G‘arb olimlariga tanitdi. Keyinchalik S.Beverij va U.Tekston tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar esa, nafaqat matnning mazmunini, balki uning badiiy husnini ham o‘zida aks ettirdi. Bu tarjimalar yuqori baholanib, hali ham ilmiy tadqiqotlarda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda. Bu asar nafaqat tarixiy voqealar va shaxslarning tasviri, balki Bobur hayotidagi ichki kechinmalar, insoniy his-tuyg‘ular va madaniy-falsafiy qarashlarni ham o‘z ichiga olgan bebaho asardir. Ushbu asar turli xalqlar tomonidan qiziqish bilan o‘rganilib, tarjima qilinishi, Bobur va uning davri haqida kengroq tasavvur beradi. Tarjimalar jarayonida har bir xalq o‘z madaniyati va dunyoqarashidan kelib chiqib, Boburning so‘zlariga yangi ma’no bag‘ishlagan. Shu bilan birga, tarjimonlarning mahorati asarning asosiy mohiyatini saqlab qolishga harakat qilingan. Ammo tarjimonlar tarjimalarini mukammal deb aytolmaymiz. Tarjimalarda bir qancha kamchiliklarni kuzatishimiz mumkin. Shulardan birini tahlilini ko‘rib chiqamiz.

Asliyatda shunday berilgan: **Тонгласига қор ва чопқун турди.** Эрта кўчуб, ўшул дастур била қор тепиб, йўл ясаб, добон устига чиқтук. Йўл худ қирлаб юққори чиқар экандур. Кўтали Заррин дер эмишлар. [Бобурнома 2002:147]

Tabdilda: **Эртаси саҳарлаб қор ва бўрон турди.** Эртасига кўчиб ўша йўсин билан қор тепиб, йўл ясаб, довон устига чиқдик. Йўл ҳам қирлаб юқорига чиқаркан. Кўтали Заррин (Заррин довони) дер эканлар. [Бобурнома 2008:149]

Jon Leyden va Uilyam Erskin tomonidan qilingan tarjimada: ***Next morning the snow and tempest ceased.*** Moving early, we trampled down the snow in the old way and made a road. We reached the Bala-Daban. As the usual road, which is called

the Zirrin kotal, or hill-pass, leads by an excessively steep ascent...[Baburname 1826:211]

Bu tarjima mazmun jihatidan asliyatdan biroz farq qiladi. Asliyatda “qor va chopqun turdi” deyilsa, bu yerda “ceased” (to‘xtadi) so‘zi ishlatilgan. Bu asliyatdagi hodisani to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks ettirmaydi, balki qorni va bo‘ronni oldindan bo‘layotgan hodisa sifatida talqin qiladi. Asliyatdagi “turdi” so‘zining asl ma‘nosi (“paydo bo‘ldi” yoki “boshladi”) noto‘g‘ri talqin qilingan.

Susana Beverij esa shunday tarjima bergan: *Next day the snow and wind having ceased*, we made an early start and we got to the pass by again stamping down a road in the snow. The proper road seems to make a detour up the flank of the mountain and to go over higher up, by what is understood to be called the Zirrin-pass. [Babur 1921:310]

Beverij tarjimasi ham mazmun jihatidan “qor va chopqun turdi” jumlasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilmagan. Bu yerda ham “ceased” (to‘xtadi) so‘zi ishlatilgan, lekin jumlaning tuzilishi Joy-Leyden va Erskin tarjimasiga qaraganda asliyatga yaqinroq. Chunki vaqtni (“Next day”) va hodisani ketma-ket ifodalashda muvofiqlik saqlangan. Asliyatdagi “turdi” so‘zi noto‘g‘ri talqin qilingan. Bu Boburning yozuv uslubidagi dinamik ohangni kamaytiradi.

U.Tekston tarjimasini ko‘rib chiqamiz: *At dawn the storm stopped*. We set out early and, by trampling down the snow again, made it to the top of the pass. The road itself seemed to take a turn and go higher up to the Zirrin pass. [Babur 1996: 242]

Tekston tarjimasida jumlaning mazmuni qisqartirilgan va oddiy tilda ifoda etilgan. Ammo “qor va chopqun turdi” jumlasidagi asosiy fikrni (“qor boshlangan yoki paydo bo‘lgan”) noto‘g‘ri talqin qilgan. “Stopped” (to‘xtadi) so‘zi orqali hodisa oldindan davom etayotgan holat sifatida ko‘rsatilgan. Asliyatdagi hodisaning boshlanishiga emas, uning tugashiga urg‘u qaratilgan. Shuningdek, “chopqun” (shamol yoki bo‘ron) so‘zi “storm” bilan almashtirilgan, bu aniq tarjima emas.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Asliyatdagi ma‘no: “Qor va chopqun turdi” jumlasida “turdi” so‘zi hodisaning boshlanishi yoki birdan paydo bo‘lishini ifodalaydi. Tarjimonlar bu ma‘noni “ceased” (to‘xtadi) yoki “stopped” (to‘xtadi) so‘zlari bilan noto‘g‘ri talqin qilgan. Chopqun – bu shamol yoki bo‘ron degan ma‘noni bildiradi. Jon Leyden va Erskin, S. Beverij “tempest” (shiddatli bo‘ron), Tekston esa “storm” so‘zlarini ishlatgan. Har ikkisi to‘g‘ri, lekin chopqunning to‘liq mazmunini qamrab olmaydi. Asliyatda “qor va chopqun turdi” jumlasini kuchli badiiy tasvir yaratadi. Tarjimalarda esa, bu qisqalik va ifoda ohangi to‘liq saqlanmagan. Beverij tarjimasi badiiylilikni saqlashga yaqinroq, lekin “ceased” so‘zi bu effektini biroz buzadi. Uchala tarjimada ham asliyatdagi “turdi”ning dinamik mazmuni va hodisaning boshlanishi noto‘g‘ri talqin qilingan. Beveridge tarjimasi asliyatga

nisbatan yaqinroq, lekin badiiylik jihatidan biroz zaif. Shu sababli, asliyatni mukammal aks ettirish uchun tarjima quyidagicha bo‘lishi mumkin edi: **“At dawn, snow and tempest arose.”** Bu talqin “turdi” so‘zining asl ma’nosini va Boburning yozuv uslubidagi badiiylikni saqlab qolgan bo‘lardi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Amonov M. “Boburnoma”dagi izofiy birikmalarning lisoniy tadqiqi”. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).: Farg‘ona. – 2020.
2. Beveridge, Anette Susannah. The Babur-nama in English. Emperor of Hindustan Babur. London. – 1921.
3. Leyden, John. Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber: Babur Emperor of Hindustan. London. – 1826.
4. Qambarov N. Tarjima transformatsiyalarining lingvokulturologik va kognitiv xususiyatlari. Toshkent. – 2019.
5. Teshaboyeva Z. “Boburnoma”dagi frazeologik birliklarning inglizcha tarjimalari qiyosiy tahlili. Tafakkur. Toshkent. – 2018.
6. Teshaboyeva Z. “Boburnoma”ning lisoniy jozibasi ingliz tarjimonlari talqinida. Nodirabegim. Toshkent. – 2021.
7. W.Thackston. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor. New York. – 1996.
8. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. Шарқ. Тошкент. – 2014. 74
9. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Бобурнома. Ўқитувчи. Тошкент. – 2008.
10. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Шарқ. Тошкент. – 2002.
<https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english>

ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA PSIXOLOGIZM

Aziza AXMEDOVA,

*Jahon Tillari Universiteti, f.f.f.d, Ph.D., Jahon
adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqola filologiyaning muhim tushunchalaridan biri psixologizmni zamonaviy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada psixologizmni tadqiq etishni murakkablashtirgan omillar haqida so'z boradi. Psixologizm termini atrofida ruhiyat bilan bog'liq, semantik-tushunchaviy jihatdan bir-birida yaqin atamalarining mavjudligi psixologizmni aniq idrok etilishini mushkullashtirishi maqolada izohlangan. Shuningdek, psixologizmning qanday badiiy kategoriyaga mansubligi borasida yagona xulosa mavjud emasligi, psixopoetik, psixoanalitik, narratologik, xarakterologik, gender, psixiatrik, patopsixologik metodlarning qo'llanilayotganligi bugungi kunda psixologizmni tadqiq etish sohalararo yondashuvlarni talab qilayotganli asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: psixologizm, badiiy kategoriya, psixopoetika, psixologik tahlil metodlari, psixiatrik tahlil

PSYCHOLOGISM IN MODERN LITERARY STUDIES

Abstract. The article is dedicated to studying one of the key concepts in philology—psychologism—from the perspective of modern literary studies. It discusses the factors that complicate the research of psychologism. The article explains how the existence of terms related to psychology that are semantically and conceptually close to each other makes it difficult to precisely perceive the concept of psychologism. Additionally, it highlights the lack of a unified conclusion regarding the artistic category to which psychologism belongs. The study justifies the necessity of interdisciplinary approaches in researching psychologism today, as various methods—such as psychopoetic, psychoanalytic, narratological, characterological, gender-based, psychiatric, and pathopsychological—are being applied.

Keywords: psychologism, artistic category, psychopoetics, psychological analysis methods, psychiatric analysis

Psixologizm adabiyotshunoslikning murakkab hodisalaridan biridir. Mazkur tushunchaning murakkabligiga qator omillar sabab: birinchidan, psixologizm termini atrofida ruhiyat bilan bog'liq, semantik-tushunchaviy jihatdan bir-birida yaqin, masalan, psixologik tahlil, psixologik tasvir, ruhiy portret, ichki olam hamda

shu kabi tushunchalarning mavjudligi psixologizmnining aniq idrok etilishini mushkullashtiradi. Xususan, zamonaviy adabiyotshunoslikda neopsixologizm, psixokritika, psixopoetika singari istilohlarning paydo bo'layotganligi yanada ko'proq chalkashliklarga sabab bo'lmoqda.

Ikkichidan, psixologizmnining ichki komponentlari adabiyotshunoslar tomonidan turlicha talqin etilgan. Bir guruh olimlar psixologizmni "muallif-qahramon-kitobxon" triadasining o'zaro aloqasi sifatida baholaydilar (V.Belyanin). Ta'kidlash joizki, psixologizmni muallifga aloqasi ham xilma-xil talqinga ega, masalan, I.Novikov psixologizmni muallifning aksiologik-ekzistensial dunyoqarashi bilan bog'laydi, Z.Freyd, Karl Yung kabi psixoanalitiklar muallifning anglangan va anglanmagan ruhiyatini hisobga oladi. O'ylaymizki, psixologizm muallif shaxsining turli qirralarini qamrab oladi. Zero, B.O.Zolotuxina haqli ravishda qayd etganidek, "psixologizmning tizimli tabiati uni frangmentar o'rganishga to'sqinlik qiladi"[Золотухина, 2009; 179]. Boshqa guruh olimlar esa, muallif ruhiyatiga o'tish mumkin emas, deb hisoblaydilar (L.S.Vigotskiy, S.M.Eyzenshteyn). Bunday yondashuv, badiiy adabiyotni obrazlar ruhiyati bilan cheklanib qolishiga olib boradi.

Uchinchidan, psixologizm badiiy adabiyotning qanday kategoriyasi ekanligi borasida yagona xulosa mavjud emas. Psixologizm badiiy priyom, sa'atga xos xususiyat, mahorat va boshqa kategoriyalar sifatida talqin etiladi. "Psixologizm bu yozuvchining badiiy vositalar orqali to'qima shaxs (adabiy qahramon) his-tuyg'ulari, fikrlari va kechinmalarini to'liq, batafsil va chuqur tasvirlashidir"[Есин, 1988; 18]. O.B.Zolotuxina to'g'ri talqin qilganidek "psixologizm, avvalo, estetik qiymatga ega bo'lib, muallifning aksiologiyasi va dunyoqarashining ko'rsatgichidir"[Золотухина, 2009; 40.].

Adabiyotda psixologizmning kelib chiqishi va taraqqiyot dinamikasi insoniyatning ruhiy bilimlari boyishi bilan parallel kechganligini kuzatish mumkin. A.B.Yesin [Есин, 1988; 55] psixologizmning paydo bo'lishini antik adabiyotning so'ngi davri bilan bog'laydi. Yesin mazkur davr adabiyotida inson ruhiyati primitiv tarzda aks etganligini, faqat yorqin hissiyotlarning tashqi ifodasi tasvirlanganligini haqli ravishda qayd etgan. Aksariyat adabiyotshunoslar tom ma'nodagi murakkab psixologizm o'n to'qqizinchi asr romanchiligi, xususan, psixologik roman janri bilan chambarchas aloqador, deb hisoblaydilar. Masalan, L.Ginsburg «О психологической прозе» asarida psixologizmni o'n to'qqizinchi asr realistik asarlari bilan boshlanganligini qayd etadi. Darhaqiqat, zamonaviy tasavvurlardagi psixologizm o'nto'qqizinchi asr adabiyotida bo'y ko'rsata boshlaganligini inkor etish mushkul. Psixologizmning ayni shu davrda ravnaq topishiga romanchilik janridagi metodologik tajribalargina emas, balki dunyo bo'ylab sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omillari, shuningdek, fanda psixologiyaning mustaqil

soha sifatida ajralib chiqib, ilmiy taqqiqotlar ko‘lamining kengayganligi ham san’atga, badiiy tafakkur taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Bu davrda g‘arbda amerika psixologiyasi otasi Uilyam James, fransuz faylasufi Emil Enneken, nemis psixolog olimi, eksperimental psixologiya asoschisi Vilgelm Vundt va boshqa olimlar ruhiyatni chuqur ilmiy o‘rgana boshlaganliklari, muayyan mavzulardagi kashfiyotlari, tabiiyki, badiiy ijodga yangi yo‘nalishlar uchun imkoniyat berdi. Bevosita bo‘g‘liq bo‘lmasada, o‘n to‘qqizinchi asr san’atida insonni badiiy aks ettirishga Charlz Darvinning evolutsion nazariyasi, Karl Marksning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot haqidagi tasavvurlari naturalizm, realizm kabi metodlarning shakllanishida salmoqli rol o‘ynagan. Psixologizmning ulkan g‘oyalar oqimiga duch kelganligi, inson ruhiyatini badiiy tasvirlashdagi jur’atli tajribalari shubhasiz, yigirmanchi asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Modernizmning ong oqimi texnikasi shaxs tafakkurining yetib bo‘lmas puchmoqlarini ham qalamga olishga imkon berdi. Futurizm, surrializm, dadaizm va boshqa avangard san’at yo‘nalishlari shaxs ruhiyatining introspektiv tasvirlarini, olamning subyekt tomonidan anglangan individual kartinasini taqdim etdi. Psixoanalitik tajribalar esa, badiiy ijodda psixologizm tushunchasini ilmiy-estetik tahlil diapozonlarini kengaytirib yubordi. 1980-yillarda paydo bo‘lgan kognitiv neyrobiologiya esa, adabiyotda ruhiyat tasvirini yangicha aks ettirishda ham tadqiq etishda ham noan’anaviy yo‘nalishlarga zamin yaratdi. *Psixopoetik, psixoanalitik, narratologik, xarakterologik, gender, psixiatrik, patopsixologik* metodlarning qo‘llanilayotganligi bugungi kunda psixologizmni tadqiq etish sohalararo yondashuvlarni talab qilayotganligidan dalolat beradi. Jumladan, psixiatrik metod tibbiyotga chambarchas bog‘liq tahlil usuli bo‘lib, tarkibida xarakterologik va psixopatologik tahlil metodlarini qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Золотухина О.Б. Психологизм в литературе: пособие по спецкурсу для стул. спец. / О.Б.Золотухина. - Гролно: ГрГУ, 2009. –179 с.
2. Есин, А.Б. Психологизм русской классической литературы : Книга для учителя / А.Б.Есин. - М.: Просвещение, 1988. - С. 55.
3. Белянин В. Введение в психиатрическое литературоведение. Verlag Otto Sagner, München. 1996. – 284 с.
4. Иезуитов А.Н. Проблема психологизма в эстетике и литературе/ Проблемы психологизма в советской литературе. – Л.: 1970. – С. 30.
5. Выготский Л.С. Психология искусства. Ростов -на-Дону.: «Феникс», 1998, – 480 с.

ISAJON SULTONNING “ALISHER NAVOIY” ROMANIDA TARIXIY SHAXSLAR TALQINI

(Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro obrazlari talqini)

*Fotima ISMOILOVA,
Samarqand davlat universiteti
tayanch doktorant*

Annotatsiya: Asrlar davomida shakllanib kelgan, badiiy tafakkurning mahsuli bo‘lgan, epik turning roman janri o‘zbek adabiyotida ham o‘ziga xos o‘ringa ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Roman boshqa janrlardan voqelikni keng qamrovda badiiy obrazlar vositasida ifodalashi bilan ajralib turuvchi janr hisoblanadi. Romanning bir qancha turlari ichidan tarixiy romanlar o‘zida tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimani jamlashi bilan alohida o‘ringa ega. Tarixiy romanga tanlangan qahramonlar ichida, albatta, tarixda o‘zidan o‘chmas iz qoldirgan shaxslarning ham tasvirlanishi muhim. Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanida ham tariximizni o‘chmas siymolari haqida mutolaa qilamiz, mulohaza yuritamiz. Ularning bizga qoldirgan boy merosidan yana bir bor bahramand bo‘lamiz.

Annotation: The novel genre of the epic type, which has been formed over the centuries and is a product of artistic thinking distinguished by the fact that it has its own place in uzbek literature. The novel is a genre that differs from other genres in that it expresses reality in a range of artistic images. Among several types of novels, historical novels have a special place because they combine historical truth and artistic texture. Among the characters chosen for the historical novel it is important to describe those who have left an indelible mark in history. In the novel “Alisher Navoi” by Isajon Sulton, we read and reflect on the incredible characters of our history. We will once again enjoy the rich legacy they left us.

Kalit so‘zlar: tarixiy haqiqat, “Ikhlosiya”, “Fath”, “muqarrabi shohiy”, badiiy to‘qima, ilmi ash’or.

Key words: historical truth, “Ikhlosiya”, “Conquest”, “Muqarrabi shahi”, artistic fabric.

Istiqlol yillariga kelib, tarixga, tarixiy merosga, tarixiy shaxslar obrazini badiiy talqin etishga asosli yondoshuvlar yuzaga chiqdiki, bu esa ijodkorning tarixiy voqelikni badiiy talqin etishga bo‘lgan asosli talqinlarini yuzaga chiqardi. Shu jihatdan, iste’dodli adib Isajon Sultonning tarixiy romanchilikdagi asarlarini maydonga kelishiga ham imkoniyat yaratdi.

Tarixiy davr va buyuk siymolarning badiiy talqiniga bag'ishlangan asarlar, jumladan, tarixiy romanlarni nazariy tadqiq va tahlil qilish, ulardagi yutuq va kamchiliklarni xolis o'rganish zaruratini taqozo qilmoqda. Bu esa O'zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sulton tarixiy asarlarida bevosita ko'zga tashlanadi.

Tariximizda Alisher Navoiy, Amir Temur avlodlari, Abu Rayhon Beruniy va boshqa shu kabi tarixiy shaxslarimiz o'zining munosib o'rniga ega. Ana shunday tarixiy shaxslarning faoliyatlarini yozuvchi Isajon Sulton asarlarida ham kuzatish mumkin. Har qanday yozuvchining ham iste'dodi uning qancha asar yozgani—yu, qancha ijod qilgani bilan emas, balki badiiy tafakkurga qanday o'zgarishlar olib kirib, adabiy jarayonga qanday ta'sir o'tkazgani, mushtariylarini qanday qilib o'ziga "ipsiz" bog'lagani bilan o'lchanadi. Isajon Sulton ham, shaksiz, shunday yangi jarayonning faollari, adabiyotimizning keyingi avlodlari orasida jadal o'sib kelayotgan ijodkor yozuvchilaridan sanaladi. Adib ijodi misolida adabiyotimizning tariximizga bo'lgan aloqasi qanchalar mustahkamligiga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin. Shuning uchun ham yozuvchining yaratgan har bir to'qima obrazdan yoki tarixda munosib iz qoldirgan insonlardan o'zi uchun nimadir yoki qaysidir ma'noni olishga intiladi. Sababi yozuvchi badiiy asoslashdan va bu boradagi badiiy detallardan juda o'rinli foydalanadi. Bu esa kitobxonlarda tarixiy shaxslarni real hayotda ko'rib turgandek tasavvurni hosil qiladi.

Yozuvchining "Alisher Navoiy" romanida ham tarixiy shaxslar mahorat bilan talqin qilingan. Romandagi har bir qahramon o'z muhiti uchun, o'z sohasi va o'z yaqinlari va kitobxon uchun haqiqiy qahramonligicha qoladi. Shunga ko'ra, adibning romanlarida yaratilgan xoh to'qima obraz, xoh tarixiy shaxs bo'lsin, o'ziga yuklatilgan vazifaning qay darajada bajarishiga qarab ham o'z o'quvchilarini topa oladi, shuningdek, shubhasiz, juda katta ma'naviy—estetik ozuqa beradi.

Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanini o'qir ekanmiz, undagi Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Alisher Navoiyning tog'alari bo'lmish Mir Said Kobuliy va Muhammad Ali G'aribiy, Shohrux Mirzo, Navoiyning ustozlari Abu Abdulloh Kulohiy, mavlono Abulays Samarqandiy, shuningdek, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abulxayrxon, Shayboniyxon, Said Hasan Ardasher, Lutfiy, Jomiy va boshqa shu kabi ko'plab tarixiy shaxslarsiz asar mohiyati ochilmaydi, chamamizda.. Chunki asardagi aynan shu shaxslar ishtiroki kitobxon ruhiyatiga o'ziga xos ta'sir ko'rsata oladi, asar qahramoni bilan birga yashaydi, ko'z oldida gavdalantiradi.

Asarda Alisher Navoiy kelajak avlod uchun ham ma'naviy ozuqa berish quvvatiga egaligiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Alisher Navoiy buyuk mutafakkirlardan biridir, nafaqat o'z davrining, balki bugungi kun muammolarini V asr oldin his qila olgan ijodkordir. Isajon Sulton romanida Navoiy obrazi mahoratli shoir, o'sha davr dardlarini chuqur his qila oladigan shaxs, har bir murakkab, ziddiyatli vaziyatdan to'g'ri yo'lda chiqib keta oladigan, muxtojlariga ko'mak

berishni sevuvchi shaxs sifatida gavdalanadi. Alisher Navoiy doimo jamiyat va davlat ichida tasvirlansa ham, uning ichki dunyosi ochib berilishga erishilgan. Alisher Navoiy obraziga kamtarlik, odamiylik, saxovatpeshalik, doimo xalqning g'ami bilan yashash, do'stga vafo va sadoqat singdirilgan. Uning o'z hisobidan "Shifoia", "Ixlosiya", "Xalosiya", "Dorul-huffoz" va boshqa shu kabi ko'plab inshootlarning qurilishi uning naqadar saxovatligiga, doimo xalq g'ami bilan yashashiga yana bir ishoradir. "Ixlosiya" madrasasi qurilib, bitkizilgandagi unga nom berishda Navoiyning kamtarligiga yana bir bor tahsin aytsak, arziydi.

Madrasa yoki jome' barpo qilgan qilgan kishilar unga o'z nomini berishi urf edi. Shu sababli kimdir "Madrasai Alisheriy", kimdir "Navoiy" bo'lishini taklif qilardi.

-Yo'q-yo'q, - dedi Alisher Navoiy. – Toliblar ilm istab, ixlos ila kelgaydirlar, "Ixlosiya" bo'laqolsin. [1: Sulton, 2021: 247]

Romanda Husayn Boyqaro yoshlik davridan Navoiy bilan maktabdosh bo'lishi tasviri bilan boshlanadi. Yoshlikdan kitob mutolaasidan ham ko'ra jang usullarini, harb ishlarini, chopqin saboqlarini o'rganishga qiziqib ulg'ayadi. Bu saboqlarda Navoiy ham uning yonida hmroh bo'lardi. Ammo oradan vaqt o'tgach, Alisher o'zining o'rni ilmi ash'orda ekanini anglab yetadi. Bu orada Shohruh Mirzo vafotidan keyin, Abulqosim Bobur taxtga keladi. Abulqosim Bobur vafotidan keyin taxt uchun kurash boshlanadi. Husayn Boyqaro yosh bo'lganligi uchun, kuch to'plash maqsadida Marvga ketadi.

-Marvga ketgaymen! – dedi alam bilan. –Yaxshi kishilar zamoni bitdi. Bundan buyog'iga neki bo'lgay, jang-jadal ila qo'lga kiritilgaydir! Sulton Abusaid endilikda Xuroson taxtiga mendan o'zga haqli kishi yo'qligini yaxshi bilar. Shu sabab meni yo'q qilish uchun hech narsadan toymas.

-Shunday, sulton Abusaiddan uzoq turganingiz ma'qul,- deb javob qildi Alisher. Vaqti kelib, albatta, Hiriya qaytgaysiz. Eng katta darbozadan kirgaysizki, oti "Fath" bo'lgay. [1: Sulton, 2021: 99]

Darhaqiqat, Navoiy bashorati to'g'ri chiqadi. Husayn Boyqaro taxtga egalik qilib, eng avvalo, yaqin hamrohi, sodiq do'sti Navoiyni yoniga chorlaydi va unga eng ulug' unvon "Muqarrabi shohiy" unvonini ham taqdim etadi.

Shuningdek, Husayn Boyqaro va Navoiy orasidagi sadoqat, do'stlik, o'zaro ishonch, hamfikrlilik ularga umri davomida hamrohlik qiladi. Boyqaro saltanat ishlarida, janglarda, oilaviy munosabatlarida doimo Alisher Navoiy bilan maslahatlashgan holda ish yuritadi.

Hatto Husayn Boyqaro va o'g'li Badiuzzamon o'rtasida nizo kelib chiqqanda ham shahzoda Badiuzzamonga shunday maslahatlar beradiki, bu bilan saltanat osoyishtaligiga yana bir bor o'z hissasini qo'shadi.

Ayniqsa, Navoiyning “Xamsa” dostonini yakunlagandagi Husayn Boyqaroning unga e’tirofini zavqlanmay o‘qimay bo‘lmaydi.

Sulton Husayn o‘zining “Aqzab” laqabli oq otini olib kelishlarini buyurib, unga Alisher Navoiyni mindiradi va o‘zi jilovdorlik qiladi. Bu tarixda bo‘lmagan noyob hodisa sanaladi. Butun saltanat egasi, shoh bir shoirga jilovdorlik qiladi.

Bu yerda ham Sulton Husayn va Alisher Navoiyning do‘stlik rishtalari mustahkamligiga, ikkisi ham aslida oddiy inson ekanligiga ishora bor.

Alisher Navoiy hayot ichida, oddiy va saltanat odamlari orasida juda tabiiy ravishda beriladi. Unga havas qiladiganlar ko‘p, ayni damda romannavis shaharlarni ham xuddi odamdek jonlantiradi. Masalan, o‘quvchi ko‘zi o‘ngida Hiriya qaytayotgan Alisher Navoiy haqida yozadi: “Nozu ne‘matini ayamagan, zumrad kuzi, nuqra qishi, zabarjad bahoriyu simobiy yozi ila har turluk ne‘matlarini beminnat tutgan Samarqand Hiriya fasohat bilimlarini olgan, qora kunlarda cheriklik qismatiga rozi bo‘lib kelgan Alisherni o‘z yurtiga olim qilib qaytarmoqda edi”. Shu zaylda Navoiyni Samarqand kuzatib qoladi...[2: Karimov, <https://yuz.uz>]

Isajon Sulton romanga har bir obrazni bekorga kiritmaydi. Har bir shaxs mohirlik bilan tanlangan, Navoiy dahosini tanishimizga yordamchi bo‘lib xizmat qiladi. Yozuvchi go‘yoki biz Alisher Navoiyni, mutaffakirimizni yanada teran anglashimiz, ko‘z oldimizda gavdalandirishimiz uchun roman tarkibiga kiritgan go‘yo. Uning atrofidagi insonlarning ham, u yashagan muhitning ham Navoiyning mutafakkir Alisher Navoiy darajasiga ko‘tarilishiga bevosita hissasi bor.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yozuvchi bu romanini 2016-2020-yillar oralig‘ida yozgan bo‘lsa-da, romanni o‘qigan kitobxon o‘zini moziyda, Alisher Navoiy davrida yashayotgandek his qiladi. Darhaqiqat, muallif Alisher Navoiy va uning atrofidagi insonlarga yondosh boshqa asarlardan o‘tmish voqealarini yangi usulda bayon etishi, asar poetik tilining betakrorligi bilan maqsadiga erisha olgan. Ijodkor ongida yetilgan asarning yaratilmasligi aslo mumkin emas. Shunday ekan, Isajon Sulton yaratgan asarlarning barchasi uning ongida yetilgan ijod mahsuli va bu esa asarlardagi personajlarning insonlarga yanada yaqinligini ta’minlaydi va o‘qishlilikini oshiradi.

Shuni ikkilanmay aytish mumkinki, hajm jihatidan salmoqdor bo‘lgan bu roman yillar o‘tsa-da o‘z ahamiyatini, qadr-qimmatini aslo yo‘qotmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isajon Sulton. Alisher Navoiy. Toshkent: “Adabiyot” nashriyoti, 2021.- 99-247-b.
2. Раҳимов А. Роман санъати. –Фарғона, ФарДУ, 2001. – 100 б.

3. Karimov B. Hazrat Alisher Navoiyga ehtirom yohud Insoniyat quyoshi ta'rifida bitilgan roman to'g'risida bir-ikki og'iz so'z. <https://yuz.uz>.
4. Nosirov A. Badiiylik va hayotiy haqiqat. O'zR FA "Fan" nashriyoti, 2001.- 115-b.
5. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Т., Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 356 б.

OLIM TOSHBOYEVNING “KISHAN” ROMANIDA IJTIMOIIY HAYOT TASVIRI

Mahfuza YASHINOVA,

*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
1-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Olim Toshboyevning asarlari “Kishan” romani haqida fikr yuritilib, romandagi ijtimoiy hayot tasviri ko‘proq tahlil qilingan. Qahramonlar va voqealar asosida asar mazmuni ochib berilgan. Bundan tashqari Asqartog‘ obrazi hamda asar tiliga qisman to‘xtalib o‘tilgan.

Annotation: This article discusses the works of Olim Tashbayev particularly the novel Kishan. The main focus is on the depiction of social life in the novel. The content of the work is revealed through the analysis of characters and events. Additionally, the image of Askhartog and the language of the work are briefly discussed.

Kalit so‘zlar: Asqartog‘, Oqdara, Qo‘shbuloq, Boybo‘ri, Oltiboy, mirshab, mulla, mansabparast.

Key words: Askhartog, Okhdara, Koshbulokh, Boybori, Oltiboy, policeman, mullah, careerist.

Bugungi kun yangi o‘zbek adabiyoti nasrning yangidan yangi namunalari bilan boyib bormoqda. Bizgacha o‘tgan asrda Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Said Ahmad, Tohir Malik, Abdulla Qahhor, Murod Muhammad Do‘st, Tog‘ay Murod kabi zabardast yozuvchi adiblarimiz kitobxonlar yuragidan o‘z badiiy asarlari orqali chuqur o‘rin egalladilar. Albatta, unutilmas ijodkorlarning unutib bo‘lmas, kishi qalbini jumbushga keltiradigan, mutolaa jarayonida hayajon uyg‘otadigan, kishi ruhiyatiga ajib hislar tug‘yonini soladigan asarlarni biz ham, bizdan keyingi avlodlar ham sevib o‘qiydilar.

Zamonaviy adabiy jarayonda Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Ulug‘bek Hamdam, Ma’suma Ahmedova kabi ijodkorlar bugungi kun kitobxonlari e’tiboriga tushib ulgurgan. Men ular safiga Olim Toshboyevni ham qo‘shmoqchiman. Sababi asl kasbi jurnalist bo‘lsa-da yaxshigina qalam tebratadigan yozuvchimizning ijod sandig‘ida “Adabiy zamandosh”, “Botindagi bo‘ron”, “Ultontoz”, “Kishan”, “Oybolta ostidagi olomon” kabi bir qator asarlar mavjud.

“Badiiy ijodning imkoniyatlari nihoyatda katta. San’at bunyod bo‘lganidan boshlab san’atkorlar ijod qiladilar, lekin bir-birlarini takrorlamaydilar. Har bir san’atkor o‘z ovozigacha ega bo‘lganidek, har bir san’at sari o‘ziga xos yo‘l bilan

yaratiladi.”- degan edi Matyoqub Qo‘shjonov.³⁰ Darhaqiqat, tanqidchi olimimiz aytganlaridek Olim Toshboyevning asarlari bilan tanishar ekanmiz asardagi til kishini o‘ziga rom etadi. Sababi asarlarda o‘zbek xalqining shevalaridagi rang-baranglik, so‘z boyligi kitobxonni yanada xayratga soladi. Birgina “Kishan” romanida ham biz buungi kunda deyarli uchratmayotgan, kishilar tilidan chiqmayotgan so‘zlarni ko‘rishimiz mumkin. Yozuvchi shevaga oid so‘zlardan mahorat bilan foydalangan. “Cho‘qlab”, “cho‘ydasidan”, “subayni”, “o‘tirik”, “kovtuk”, “to‘rvayirtar”, “lodon”, “tovushqan”, “huylama” kabi so‘zlar bunga misol bo‘la oladi. Biz bu misollarni yana ko‘plab keltirishimiz mumkin.

Ijodkorning “Kishan” romani sovet tuzumidan so‘ng o‘lkamizda hukm surgan ijtimoiy hayot haqida hikoya qiladi. Roman qahramonlari o‘z mansabi, obro‘-e‘tibori uchun hech nimadan toymaydigan, hatto jigarchilik, qarindoshlik aloqalaridan uzoq bo‘lgan aka-ukalar hayotini yoritadi. Roman markazida Oltiboy oqsoqol va uning kenja o‘g‘li Boybo‘ri (Oltmishboy) turadi. Asar voqealari *Asqartog‘*, *Qo‘shbuloq*, *Oqdara* kabi joylarda bo‘lib o‘tadi. Shu o‘rinda Asqartoqqa alohida to‘xtalsak.

Nima uchun muallif aynan Asqartog‘ni tasvirladi? Nima uchun aosiy voqealar aynan Asqartog‘ bilan bog‘liq? Bu o‘rinda dostonlarimizga nazar solsak. Chunki “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi dostonlarda ham Asqartog‘ bilan bog‘liq voqealar nihoyatda ko‘p sodir bo‘ladi. Demak Asqartog‘ mifologik obraz. Muallif aynan bu obrazni bejiz asarga kiritmagan nazarimda.

“Asqartog‘ nafaqat “Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish” kabi o‘zbek xalq dostonlarida, balki qardosh xalqlar eposida ham keng qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. Bu hol Asqartog‘ obrazining qo‘llanish doirasi kengligini ko‘rsatish bilan birga uning qadim ildizlarga ega an‘anaviy obraz ekanidan dalolat beradi”.³¹ O‘zbek folklorshunosligida Asqartog‘ obraziga alohida diqqat qaratilgan emas. Faqat Sh.Turdimov Asqar so‘zini 2 qism: ”as”(az) - olov, ”qar”(qir)-tog‘ ma‘nosidagi so‘zlardan hosil bo‘lib, so‘zma-so‘z “olov tog‘”, keng ma‘noda quyosh tog‘i, quyosh makoni yoki ma‘budlar, homiy eranlar, ajdodlar ruhi yashovchi makon mazmunida talqin etgan. Sh.Turdimov fikriga ko‘ra, Asqartog‘ yerning markazi hisoblanib, dunyo daraxti va tiriklik bulog‘i joylashgan joy, Xizr unga yordamchi eranlar – chiltanlarning makoni sanaladi.

Asqartog‘ obrazining romanga kiritilishiga xalqimizning tog‘ bilan bog‘liq qadimiy e‘tiqodiy qarashlari ham asos bo‘lgan. Mifologik jihatdan “Yerning kindigi” deya ta‘riflangan Asqartog‘ romanda o‘zgacha ulug‘vorlik, yetuklik va

³⁰ Matyoqub Qo‘shjonov. Hayot va nafosat. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. 1970-yil.54-bet.

³¹ E.Eshanova, F.Qozoqova. Asqartog‘ obrazining mifologik talqiniga doir. Andijon davlat universiteti. 2014-yil. Maqola.

poklik ramzi sifatida tasvirlangan bo'lsa ajab emas. O'zida qanchadan-qancha sir-sinoatni saqlagan bu tog'larda oqko'ngil, soddadil xalq bilan yonma-yon Oltiboy oqsoqol kabi mansabparast, xalq oldida o'zini ko'z-ko'z qiladigan, balandparvoz gaplardan nariga o'tmaydigan "Hokim buva bilan 15 marta ko'rishganini "aytib charchamaydigan e'tiqodsiz kishilar ham yashardi. Avval partiyaga xizmat qilgan, so'ng mirshablik qilib begunoh insonlarning yostig'i qurishiga "hissa qo'shgan" Oltiboy oqsoqolning qilmishlariga mana shu Asqartog' va uning yonbag'rodagi Oqdara guvoh bo'lgan.

Oqdaraga ko'milgan "kishan" oqsoqolni 63 yil orqaga qaytib, mansabdor bo'lgan davrlarini eslashga majbur qilardi. O'sha kezlarda bir muallimni "odamlarni o'qitgani uchun" ayblab qo'lini kishanlagani, so'ngra gapiga kiravermagach, uni nishonga olib, boshining orqa qismidan otib tashlagani hech ko'z oldidan ketmaydi:

*-Potirlab, -potirlab, dodlab jon berdi. Borib qarasam, kishan qonga botgan. Shu enag'arni ko'p tush ko'raman. Tirilib kelib qo'lidagi kishanni menga taqadi, keyin chopib ketadi. Quvib yetolmayman....*³²

O'sha muallimning o'limidan oldin aytgan so'zlari oqsoqolni qulog'ida jaranglaydi. "Iloyo, zot-zurriyoding bilan kishanband bo'lib o't. Mening qo'limni bog'lading, Xudo sening tilingniyam, dilingniyam bog'lasin...."deya yig'lab duoibad qildi". Xalqni savodli qilishga uringan muallimning duosi ijobat edi go'yo. Sababi dindan yiroq bo'lgan Oltiboy oqsoqol va uning o'g'li ham e'tiqod nimaligini bilishmasdi. Musulmon edilar-u, kofirdek hayot kechirardilar. Kunda kunora aroqxo'rlik, maishat hayotining bir qismiga aylangan aka-ukalar aslida begonadek edilar. Oltiboy oqsoqolning qoni bor aka-ukalarning otasi bir edi xolos. Hamjihatlikda begonadan qolishmasdilar. Ora-sirada yig'ilib qolganda bir-birini kamsitish, mensimaslik ba'zan urush-janjal bilan yakunlanardi. Ayniqsa Qilich va Orol Oltiboyevichlar o'z mansablaridan faxrlanib, ukalarini oyoqosti qilardilar.

To'g'rida Hoji maqomini olgan bo'lsa-da, Hajga borib Haj amallarini bajarishga eringan, boshqa Hojilarning xatti-harakatlari ustidan kulgan, yoshi bir joyga borsa-da xalqqa manfaati tegmagan, hali-hanuz "katta"lar ko'z o'ngida o'zini yaxshi ko'rsatishga urinadigan Oltiboy oqsoqolning o'g'illaridan odamiylikni kutish no'to'g'ridir.

Romanda bir oila misolida o'sha davr ya'ni Sovet itifoqining kishilar hayotiga ta'siri, tuzum "yetishtirgan" mansabdorlar, ularning xalq uchun emas hukumatning foydasi uchun qilgan ishlari gavdalantirilgan. Oltiboy oqsoqol partiyani ko'rgan inson bo'lsa, uning o'g'illari va nabiralari misolida bugungi kun kishilarini

³² Olim Toshboyev.Kishan.Oltin qalam nashriyoti.2024-yil.37-bet.

ko‘ramiz. Ruslar bosqini tufayli diniy e‘tiqoddan, bilim olishdan, o‘zligidan, milliyligidan mahrum bo‘lishga majbur qilingan xalq qonida yillar o‘tsa-da, xorijliklarga qulluq qilish hissi singib ketgan edi. O‘z tili va milliyligini osonlikcha almashtiradigan insonlar hali hanuz atrofimizda bor.

Asardagi Qilich Oltiboyevich, uning xotini Jumagul va o‘g‘li Tolik (To‘lqin) ana shunday obrazlardan. O‘zini Yevropaga taqlidona tutib, ruscha gapiradigan, go‘yo zamonaviy insondek ko‘rsatishga intiladigan Tolik va Jumagul aslida o‘zligini yo‘qotgan, boshqa milatga ko‘r-ko‘rona ergashayotgan insonlardan edilar. Buni Tolikning to‘yida Mulla Qarshi kelin-kuyovga nikoh oqish uchun kelganida nihoyatda achinarli holatligiga guvoh bo‘lamiz.

To‘yning ertasiga Mulla Qarshi nikoh o‘qishga keldi .Xurpaygan boshiga kichkina do‘ppini omonat qo‘ndirgan Tolikka qarab bilinar-bilinmas bosh chayqadi.

-Kalima keltiring, kuyovjon.

Tolik o‘tirgan joyida bir qimirlab gird-atrofga alng-jalang qarandi. So‘ng o‘rnidan turib, derazaning bir tavaqasini ochib hovlining adog‘i-yozgi oshxona tomon bo‘ynini cho‘zdi:

-Мам у нас калима есть?

O‘choq boshidagilarga nimanidir uqtirayotgan Jumagul shang‘illadi:

-Нет у нас калима нет!³³

Yuqoridagi parchadan ham ma‘lumki Tolikning ham o‘zligi, ham e‘tiqodi kishanlangan edi. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” deganlaridek “Aroq zavodi”dan tushayotgan xarom pullarni yeb katta bo‘lgan o‘g‘ildan boshqa narsani kutish xatodir.

Roman bejizga “Kishan”deb nomlanmagan. Kishan faqatgina begunoh mullalar, xalq dardi bilan yashaydigan insonlar, muallimlarning qo‘liga taqilgan kishan emasdi. Kishan aslida xalqning, millatning tafakkuri kishanlanganidan dalolat edi. Sababi o‘sha davrda xalqning ustida ot o‘ynatishni istagan qahramonlarning tovlanuvchan qiyofasi shu elning farzandi bo‘lsa-da, xalqiga nafi tegmagan tafakkuri kishanlangan insonlar o‘zlarining kishanlangani yetmaganidek, xalqning ichidagi ziyoli qatlamni yo‘qotishga intilishi chinakam kishanlanish edi. Ana shunday kimsa sifatida o‘z hayotini ,yoshligini boy bergan Oltiboy oqsoqolning tilidan aytilgan quyidagi so‘zlarga diqqat qilaylik:

³³ Olim Toshboyev.Kishan.Oltin qalam nashriyoti.2024-yil.235-bet.

*-O'qitganing miltiq bergandan yomon. O'qimasin!-dedim do'q urib. -Hamma aqlli bo'b ketsa buyruqni kim bajaradi?*³⁴.

Buyruq bajarib “kattalar” maqtovini eshitishga odatlangan bu kimsa nazdida qolgan avlod ham buyruq bajaruvchi robotdek hayot kechirishi lozim edi. Mahbuslar, qurbonlar qo‘lidagi kishan kishan emas, uning tafakkuriga bog‘langan kishan chinakam kishan edi.

Ammo romanda Marqa cho‘pon, Boybo‘ri, Bibimaryam (Mariya Vasilevna) kabi obrazlar ham borki ularda odamiylik, iymon-insof, insoniylik kabi fazilatlar saqlanib qolganini ko‘ramiz. Oltiboy oqsoqolning ukasi bo‘lmish Marqa cho‘pon akasining qilmishlarini bilsa-da, unga, uning maqtovlarga to‘la, ammo yurtiga 15 tiyinlik foydasi tegmagan balandparvoz nutqlariga achinib qaraydi. Akasining oxiratidan tashvishlanadi.

Oltinchi kenja o‘g‘il sifatida tasvirlangan Boybo‘ri ham romandagi bosh qahramonlardan. U roman boshlanishidan so‘ngiga qadar akalarini birlashtirishga, ota yurtiga otasining holidan xabar olgani borishlari uchun juda ko‘p harakat qiladi. Boybo‘ri Oltiboyning oltmishga kirganda bo‘lgan kenja o‘g‘iligi, uning ustiga onasi boshqaligi sabab akalari uncha chiqishtirmasliklarini sezadi. Ammo aka-ukalarini hamjihat bo‘lishlarini chin dildan xohlaydi. Bu esa o‘quvchiga o‘zgacha umid bag‘ishlaydi. Sababi o‘zining manfaati yo‘lida hech ishdan toyimaydigan kimsalar orasida Marqaboy, Boybo‘ri, Bibimaryam kabi insonlarning borligi kitobxonga o‘sha kishanlarning uzilishiga umid beradi.

Asar so‘ngida aka-ukalar anchadan beri ishlar bilan bo‘lib, ota-onasini ko‘rishga bora olmaganlari sabab yig‘ilib Asqartoqqa yo‘l oladilar. Yo‘l uzoq edi. Ular to‘rtta avtomobilda ketma-ket yo‘lga tushib uzoq yurishadi, ammo Asqartoqqa yaqin qolganda havo aynib, yomg‘ir yog‘ib, sel keladi. Aka-ukalar uylariga qaytib ketishadi. Nazarimda tabiatdagi bu o‘zgarish ham bejiz emasdi. O‘zligidan ayrilgan bu kimsalarni Asqartog‘ o‘ziga yaqinlashtirishni istamadi.

Uzoq yillar Moskvada yashagan Oltiboy oqsoqolning nabirasi Bibimaryam timsolida qadriyatlarni xurmat qiladigan inson gavdalantiriladi. Yoshligi Asqartog‘ ya‘ni Qo‘shbuloqda o‘tgan qizaloq 5-sinfidan so‘ng onasi bilan Moskvaga ketadi. Uzoq yil ota yurtiga qaytmagan Bibimaryam ulg‘aygunga qadar Qo‘shbuloq sog‘inchi bilan yashaydi. Tog‘dagi qishloq hayoti, Jupor momo yopgan nonlar, soddadil odamlarning chin o‘zbekona shevasi uni nihoyatda rom qilgandi. Ammo yillar o‘tib Qo‘shbuloqqa kelgan Bibimaryam na o‘sha qadriyatlarni, na o‘sha o‘zbekona shevani topa olmadi. U o‘ziga rus tilida gapirishga harakat qilib

³⁴ Olim Toshboyev. Kishan. Oltin qalam nashriyoti. 2024-yil. 36-bet

chiranayotgan kimsalarni ko‘rib xafsalasi pir bo‘ldi. Nahotki u sog‘inib yashgan Qo‘shbuloq shu holga kelgan bo‘lsa.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki romanda yoritilgan ijtimoiy hayot qahramonlarning yashash tarzi bugungi kunimizga mos keladi. Tolikning qo‘lidagi planshet bugungi kunimizdan darak. Erta-yu kech telefon o‘yinlaridan bo‘shamaydigan yoshlar atrofimizda ham bisyor. Bundan tashqari o‘z tilidan uyalibmi, orlanibmi bilmadim, xoriждан kelgan mehmonlarga ularning tilida muomala qilayotgan laganbardonlar ham talaygina. Shunday ekan zamonaviy o‘zbek nasrida bu kabi ijtimoiy mavzularni yoritayotgan asarlarning dunyoga kelayotgani quvonarli holdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.Qo‘shjonov Hayot va nafosat-T:G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1970-yil.
2. E.Eshanova, F.Qozoqova. Asqartog‘ obrazining mifologik talqiniga doir. Maqola. Andijon davlat universiteti. 2014-yil.
3. O.Toshboyev Kishan -T: Oltin qalam nashriyoti. 2024-yil.
4. Sh.Turdimov “Go‘rog‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari -T: Fan. 2011.

**ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА НАУЧНОЙ
ФРАЗЕОЛОГИИ
LINGUISTIC PROBLEMS OF TRANSLATION OF SCIENTIFIC
PHRASEOLOGY
ILMIY FRAZEOLOGIYA TARJIMASINING LINGVISTIK
MUAMMOLARI**

Shirin SHERALIYEVA,
*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

Аннотация. Основная цель данного исследования заключается в выявлении лингвистических проблем перевода научной фразеологии. Задачи исследования включают теоретическое обоснование понятия фразеологической единицы и ее роли в научном тексте, выявление основных проблем, связанных с переводом таких единиц. На эту тему написано ряд научных работ. В качестве примера приведены взгляды разных ученых на эту концепцию.

Ключевые слова: словосочетание, фразеология, устойчивые сочетания, словосочетании, фразеологические единицы, перевод, научный текст, научный фразеология.

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad – ilmiy frazeologiya tarjimasining lingvistik muammolarini yoritishdan iborat. Ushbu mavzu bo'yicha bir qator ilmiy ishlar tadqiq qilindi. Mazkur masalaga turli olimlarning qarashlari misol tariqasida keltirilgan.

Kalit so'zlar: ibora, frazeologiya, turg'un birikmalar, so'z birikmalari, frazeologik birliklar, tarjima, ilmiy matn, ilmiy frazeologiya.

Annotation. The main goal of this research is to identify linguistic problems in translating scientific phraseology. The objectives of the study include theoretical justification of the concept of a phraseological unit and its role in a scientific text, identifying the main problems associated with translating such units. A number of scientific papers have been written on this topic. As an example, the views of various scientists on this concept are given.

Key words: phrase, phraseology, stable combinations, word combinations, phraseological units, translation, scientific text, scientific phraseology.

В современном мире перевод является неотъемлемой частью международного общения и обмена информацией. Исследование лингвистические проблемы перевода научной фразеологии также имеет высокую актуальность в современном мире, где научная информация переводится на различные языки для распространения и обмена знаниями. Перевод научной фразеологии представляет собой сложное и многогранный процесс, требующий глубокого понимания не только языков, но и специфики научных терминов и выражений. Изучение лингвистических проблем перевода научной фразеологии поможет улучшить качество переводов, обеспечивая точное и адекватное воспроизведение научной информации на различных языках.

Теоретические аспекты перевода научной фразеологии имеют особое значение в современной лингвистике и переводоведении. Понимание и умение корректно переводить научную фразеологию является необходимым навыком для специалистов в различных областях знаний, таких как медицина, техника, экономика и другие. Научная фразеология представляет собой особую разновидность фразеологии, которая характеризуется использованием специфических терминов, устойчивых выражений и оборотов, присущих определенной научной дисциплине.

По мнению М.Л. Ковшовой, “определение научной фразеологии может быть дано как совокупность устойчивых выражений, используемых в научных текстах для передачи специфической информации и понятий, а также как система специализированных терминов и терминологии, применяемых в научных областях. Научная фразеология отличается от общей фразеологии тем, что она обычно содержит более сложные и специализированные выражения, которые требуют особого внимания при переводе» [Ковшова, 2009].

Как отмечают А.Г. Карипиди и О.Е. Павловская, “одной из основных проблем перевода научной фразеологии является сохранение точности и специфичности терминов и выражений, которые могут иметь узкую специализацию и не иметь прямого эквивалента в другом языке. В таких случаях переводчику необходимо проявить креативность и найти наиболее подходящий аналог или перифраз, который передаст смысл и контекст оригинала” [Карипиди, Павловская, 2021:432-440].

“Еще одной важной проблемой перевода научной фразеологии является сохранение стилистической и грамматической целостности текста. В научных текстах часто встречаются сложные конструкции и специфические грамматические обороты, которые требуют особого внимания при переводе, чтобы сохранить структуру и логику высказывания” [Ковшова, 2009].

Кроме того, перевод научной фразеологии также требует знания и понимания специфики научной дисциплины, в которой используются те или иные термины и выражения. По мнению И.Ю. Ессина и Э.В. Семеновой, “переводчику необходимо быть хорошо осведомленным в данной области знаний, чтобы точно передать смысл и контекст научного текста” (Ессина, Семенова, 2018:123-127).

Изучая проблему перевода фразеологизмов, Я.И. Рецкер говорит о том, что “переводчик должен уметь рассматривать разные значения фразеологизмов, передавать их эмоционально-экспрессивные функции и, кроме того, разбираться в основных теоретических вопросах фразеологии” [Рецкер, 2004:145].

В.Л. Архангельский к трудностям перевода фразеологизмов относит: неодинаковые фразеологические возможности двух языковых систем; полисемию многих фразеологических единиц; расхождение стилистических и эмоционально-экспрессивных оттенков структурно и семантически идентичных фразеологических единиц в разных языках; идеоматичность” [Архангельский, 1985:76].

Кроме того, по мнению автора при переводе фразеологических единиц необходимо учитывать следующие факторы: особенности национального колорита фразеологических единиц; переносное употребление фразеологических единиц; конкретные социально-исторические наслоения и ассоциации, определяющие понимание и употребление отдельных фразеологических единиц [Архангельский, 1985:76].

Таким образом, перевод научной фразеологии представляет собой сложный и многогранный процесс, который требует от переводчика не только знания языка и грамматики, но и специализированных знаний в области науки и техники. Важно учитывать особенности научной фразеологии при переводе, чтобы добиться максимальной точности и адекватности передачи информации. В ходе исследования было установлено, что успешный перевод фразеологических единиц возможен только при условии комплексного подхода, включающего анализ, адаптацию и использование различных методов перевода.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Архангельский В.Л. Фразеология. – М.: Высшая школа, 1985. – 144 с.
2. Ессина И. Ю., Семенова Э. В. Вариативность перевода фразеологизмов английской юридической терминологии вне контекста // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2018. – №. 7-1 (85). – С. 123-127.
3. Карипиди А. Г., Павловская О. Е. Проблемы перевода фразеологизмов с русского языка на английский, французский и немецкий // Преподаватель XXI век. – 2021. – №. 4-2. – С. 432-440.
4. Ковшова М.Л. «Семантика и прагматика фразеологизмов (лингвокультурологический аспект)». – 2009. Автореф. дис д. филол. наук. – М, 2009. – 49 с.
5. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. Очерки лингвистической теории перевода. – М.: Р. Валент, 2004. – 240 с.

TARJIMADA MILLIYLIKNING AKS ETISHI

Charos KARIMBOYEVA

Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi

Rezyume. Ushbu maqolada adabiy aloqalarning rivojlanishida tarjimaning ahamiyati va tarjima jarayonida milliylikning aks etishi haqida so'z yuritilgan. Qoraqalpoq shoiri Ibroyim Yusupovning o'zbek tiliga tarjima qilingan she'rlari misolida tarjima jarayonida milliylikni aks ettirish uchun e'tibor qilinishi lozim bo'lgan jihatlar tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar. I.Yusupov, o'zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalari, tarjima, mutarjim, milliylik, detal, obraz, mahorat.

Resume. This article talks about the importance of translation in the development of literary relations and the reflection of nationality in the process of translation. On the example of Karakalpak poet Ibrayim Yusupov's poems translated into Uzbek, aspects that should be taken into account in order to reflect his nationality during the translation process were studied.

Keywords. I. Yusupov, Uzbek-Karakalpak literary relations, translation, translator, nationality, detail, image, skill.

Adabiy aloqalar qadim zamonlardanoq mavjud bo'lib, turli mamlakatlarda yashab, turli tillarda ijod qiluvchi adiblar ijodiy hamkorligini, hamdo'stligini ta'minlovchi omil sifatida xizmat qilib kelgan. Adabiy aloqalar orqali muayyan millatga xos adabiy hodisa va an'analar ikkinchi xalq ma'naviy estetik mulkiga aylanadi, badiiy qarashlari takomilini ta'minlaydi. Bunda badiiy tarjimachilik juda katta vazifa bajaradi. "Badiiy tarjima murakkab va ma'suliyatli, qiyin ijodiy mehnat. Bu ish hamma ijodkorning qo'lidan kelavermaydi. Aytaylik, mutarjim tarjima qilinayotgan asarning tilini bilishi mumkin, lekin unda shoirlik yoki yozuvchilik qobiliyati bo'lmasa, yaxshi tarjima asari yarata olmaydi. Yoki, aksincha. Tarjimon asl nusxa tilini yaxshi bilmaydi, biroq ijodkorning iste'dodi bor, mahoratli shoir yoki yozuvchi. Bunday holatda ham baribir badiiy mukammal tarjima asari chiqishiga ishonish qiyin". [Qurambayev, 2011:144] Tarjima jarayonida e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan yana bir jihat bor. U ham bo'lsa milliy elementlarning tarjimada aks

etishi masalasidir. Tarjimada milliylikni saqlab qolish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor berish muhim:

Leksik moslik – Milliy ruhni yo‘qotmaslik uchun tarjimada o‘zbek tiliga xos so‘z va iboralarni ishlatish lozim. Masalan, begona so‘zlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘girish o‘rniga, ularning o‘zbekcha muqobilini topish muhim.

Masalan, qoraqalpoq xalq shoiri I.Yusupovning qalamiga mansub quyidagi misralarni olaylik:

Amu! Joq bul sózdi basqa sózlerdey
Jay paraxat tınlap aytalmas xalqım!
O‘zbek tilida:

Amu! Yo‘q, bu so‘zni men sizga aytsam,

Beparvo talaffuz qilolmas xalqim. [Yusupov, 2019:7]

Qoraqalpoq tilidagi “jay paraxat” iborasi o‘zbek tiliga “beparvo” shaklida to‘g‘ri tarjima qilingan.

Frazeologizmlar va iboralar – Tarjimada asl matn tiliga xos frazeologizmlar va maqollarni saqlab qolish yoki ularga ekvivalent topish zarur.

Sen miywalı daraq, mendur jemisiń,
Boylarımdı kórseń piter kemisiń,
Hár bir alğan ğaniybetli dem ushın,
Mángi minnetdarman sağan, anajan.[Yusupov, 2018:226]
O‘zbek tilidagi tarjimasi:

Sen - mevali daraxt, mevangman o‘zim

Bo‘ylarimni ko‘rsang, yashnaydi ko‘zing,

Menga baxsh aylagan kecha-kunduzing

Uchun minnatdorman sendan, onajon! [Yusupov, 2019:193]

Yoki I.Yusupovning qoraqalpoq xalqining o‘ziga xos va milliyligini yaqqol aks ettirib turadigan quyidagi she’riga e’tibor qilaylik:

Shól hám bostan mángi óshlesken jerde,
Gúl hám juwsan qońsı ósken óńırde.[Yusupov, 2018:316]
O‘zbek tilida:

Cho‘l va bo‘ston mangu qo‘shilgan yerda

Gul va yovshan yondosh o‘sgan o‘ngirda

Eshigi lang ochiq uyim bor mening.

Sayrga qiziqib ot boshin Burma

Yo'l azobin tortib qiynalib yurma

Chaqirib tinkangni quritmay sening. [Yusupov, 2019:299]

Matn uslubi – Asliyatdagi uslub va ohangni o'zbek tilining nutqiy va adabiy me'yorlariga mos ravishda yetkazish lozim. Xalqona, badiiy yoki rasmiy til talab etilsa, shunga mos tarjima qilinishi kerak.

Haw, qonaq, jambasqa kópshik pás ğoy dım

Jáne biyikletip birin qoyıp al.

Aldıńa as, qollarıńdı bos qoydım,

Qarnıń qampayǵansha mıqlım toyıp al.[Yusupov, 2018:270]

O'zbek tiliga tarjimasi:

Hoy mehmon yoningda buncha yostiqlar past,

Yana baland qilib birin qo'yib ol.

Qo'ling bo'sh oldingda taom bemalol-

Bemalol tanovul qilib to'yib ol. [Yusupov, 2019:30]

Madaniy kontekst – Tarjimada o'zbek madaniyati va qadriyatlariga zid keladigan jihatlarni moslashtirish kerak. Masalan, ba'zi milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi atamalarni tushuntirish yoki milliy madaniyatimizga mos so'z bilan almashtirish mumkin.

Artıq-aspay emes uy hám uskene,

Ashıq turar bárha esik, sharbaǵım.

Qonaq- qudaydan tek bir jas kishkene,

Xosh keldiń, márhamat! Buyır qonaǵım! [Yusupov, 2018:270]

O'zbek tilidagi tarjimasiga diqqat qilaylik:

Uyum oddiygina bag'ri keng, ammo

Eshigi lang ochiq kelsangda qachon.

Mehmon axir derlar atoyi Xudo,

Xush kelding, marhamat! Buyurgil, mehmon! [Yusupov, 2019:30]

Shuningdek, tarjima jarayonida ism va joy nomlariga hamda milliy timsollarga ham diqqat qaratish lozim. Milliy ism va joy nomlarini o'zgarishsiz qoldirish yoki fonetik jihatdan to'g'ri yozilishiga e'tibor berish kerak. Agar aslyat matnda biror xalqning ramziy obrazlari (masalan, shoh, botir, donishmand kabilar) uchrasa, ularni o'zbek mentalitetiga yaqin obrazlar bilan ifodalash maqsadga muvofiq bo'lishi

mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tarjima jarayonida milliy o‘ziga xoslikni saqlash uchun tilimizga xos so‘z boyligini to‘g‘ri qo‘llash, madaniy tafovutlarni hisobga olish va o‘zbek tilining tabiiyligini saqlab qolish juda muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Qurambayev K.Maxtumduli – ilhom chashmasi. T.:Tafakkur. 2011
- 2.Ibroyim Yusupov. Tanlamali shig‘armalari. I tom-Nukus, Bilim. 2018
- 3.Ibroyim Yusupov. Tanlangan asarlar. Tanlangan asarlar-T, Sharq.2019.
- 4.Quromboyeva G.Milliy kolorit va badiiy talqin//O‘zbek tili va adabiyoti.2015№5, 53-bet
- 5.Yarkinova B.Turkiy tillardan tarjimada tarixiy koloritning aks ettirilishi.T.:2002

THE ETYMOLOGY OF HOSPITALITY IN UZBEK LANGUAGE
O‘ZBEK TILIDA MEHMONDO‘STLIK TUSHUNCHASINING KELIB
CHIQISHI VA ETIMOLOGIYASI

Nargiza ERKABOYEVA

*PhD researcher in Tashkent State University of the
Uzbek language and literature named after Alisher Navoiy*

Abstract. This article is devoted to the study the etymology of Hospitality in Uzbek language and the significance of the concept guest in the social life, values, and customs of the Uzbek people is analyzed. The origin of the word "guest" is explained based on scientific sources. The values of hospitality in the national traditions of the Uzbek people are also highlighted. The role of hospitality in the national identity of our people and its place in today's cultural life will be discussed in this article.

Abstrakt. Ushbu maqola o‘zbek tilidagi mehmondo‘stlikning kelib chiqishi va etimologiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, mehmon tushunchasini o‘zbek xalqining ijtimoiy hayoti, qadriyatlari va urf-odatlaridagi ahamiyati tahlil qilinadi. "Mehmon" so‘zining etimologiyasi ilmiy manbalarga asoslanib tushuntirilgan. O‘zbek xalqining milliy an‘analarida mehmondo‘stlikning qadriyatlari ham alohida ta’kidlanadi. Mehmondo‘stlikning o‘zbek xalqining milliy o‘zligidagi o‘rni va uning bugungi madaniy hayotdagi ahamiyati ham ushbu maqolada muhokama qilinadi.

Key words: Hospitality , etymology , the concept of host and guest , Uzbek national values , Eastern culture.

Kalit so‘zlar: mehmondo‘stlik ,etimologiya, mehmon va mezbон tushunchalari, o‘zbek milliy qadriyatlari ,Sharq madaniyati.

One of the ways to express politeness and speech etiquette is through the concept of hospitality. There is no single definition or model of hospitality, nor is there one theory, because researchers from various academic fields have discussed this topic from their own perspectives. For example, philosophers and theologians focus on studying ideal hospitality, historians emphasize how this concept has developed over time, while sociologists and anthropologists study the exchange of

hospitality between peoples, countries, and cultures.

What is hospitality? Hospitality is an exchange process in which both the host and the guest participate. The host provides for the guest, and the guest responds with gratitude or by returning the favor. Hospitality is not conditional: there are implicit rules between the host and the guest, such as one person must not harm the other, and this is not a new phenomenon. Hospitality has existed since the beginning of humanity and has always played a role in society as a personal, social, and commercial event. Hospitality is studied from many perspectives, including anthropology, philosophy, history, religion, sociology, and environmental psychology. This experience includes giving special attention to the individual, offering, nurturing, and creating comfort, fostering closeness of hearts, providing calmness and trust, personalization, warm welcoming, special relationships, direct heartfelt connections, and expressing comfort.

The concept of a guest has deep roots in Uzbek language and culture, holding special significance in the social life, values, and customs of the people. Welcoming guests and showing them respect is not only a social duty for Uzbeks but also an important way to strengthen national identity, demonstrate politeness, and show a strong work ethic. This concept has developed over centuries, encompassing unique cultural and religious aspects. The traditions of Uzbek hospitality are closely tied to historical and cultural roots, playing a crucial role in regulating social relationships within families, communities, and nations, and ensuring the stable development of society.¹

The core of the value of hospitality consists of the lexemes *mehmondo'st* and *mehmonnavoz* (hospitable). *Mehmon* (guest) refers to a person who visits (or goes to) for a celebration, feast, etc. (1); a person invited from outside to a meeting, gathering, council, etc. (2); or a person who comes temporarily from outside (3) — all of which reflect the meanings of a guest (O'TIL). The concept of a "guest" (a newly born or soon-to-be-born infant) arises from these meanings, symbolizing a new arrival. From these definitions, we can infer that the meaning of a guest as a

¹ Zilolakhon Umarova, "The concept of "Guest" in the Uzbek language and its etymology", 25 November 2024
<https://inscience.uz/index.php/foreign-linguistics>

"temporary visitor" also suggests that every human's life in this world is temporary, meaning that we are all guests in this world. Furthermore, the meanings of "celebration" and "feast" in the initial definition of hospitality *mehmondo'stlik* inherently imply the presence of guests.²

The etymology of the word *mehmon* traces back to the Persian adjective "meh," meaning "great" or "honorable." It is said to have evolved into the form *mehman* or *muhman* from the verb *manestan* (meaning "to resemble" or "to be like") with the addition of the present tense root "man" (O'TIL). Sh. Rahmatullayev, on the other hand, writes that the etymology of the word *mezbon* (host) originates from the word *miz* (meaning "the seat where food is placed" or "dining mat") and the suffix *-bon*, which means "to look after" or "to care for" (O'TIL). D. Edelman provides a more detailed explanation of the etymology, noting that the word originates from *mēz* or *myz* (meaning "food consumed from sacrifice," "feast," or "written cloth"), combined with *pā*, which means "to protect, care for, or guard."³

Thus, the word host (*mezbon*) is based on the concepts of tablecloth "dasturxon" (a spread or mat for food) and "care" or "attention." The author further explains that the term "feast" and the meaning of "a cloth spread with delicacies" or "delicacies arranged on a cloth" led to the semantic shift towards the meaning of "table," which is characteristic of the Persian language. In Central Asia and the Middle East, where tables were not common, food was placed on a tablecloth (dasturxon), and people would sit or recline around it. This shift is not coincidental but reflects the customs of these regions.

This cultural aspect is expressed in the following way through the example of this value: Uzbek families always welcome guests with a warm face and ready table; they prepare food that was not made for themselves specifically for the guest; they slaughter livestock in honor of the guest, and so on. In K. Mahmudov's "*Mehmonnoma* ", the customs associated with welcoming guests in Uzbek culture

² F.Usmanov "Mehmondo'stlik o'zbek qadriyatining lingvomadaniy tahlili". Til va adabiyot elektron jurnali, 2024 yil 9-son

³ Эдельман Д.И. Этимологический словарь иранских языков. Том 5. – М.: Наука – Вост. лит., 2000. – С. 364; 364. (566)

are depicted as follows: "...Since ancient times, Samarkand residents have respected guests as they would respect bread and sustenance. Special breads, called *patir*, were baked for guests, and when making the bread, the surface was decorated with a design from the dough. Sometimes, poetic verses and the names of honored guests were even written on the bread. When guests left, they were given beautifully decorated bread, often inscribed with blessings. The guests, in turn, would treat these loaves as a work of art and hang them on the walls of their homes. The bread, which served as a sign of the hospitality, also continued to fulfill its decorative function."⁴

The historical roots of the concept of *mehmon* trace back to the ancient cultures of the East, particularly the Babylonian and Egyptian civilizations. In these cultures, welcoming guests and showing them respect were linked to specific religious rituals and social norms. In Babylonian culture, the process of welcoming guests held both religious and social significance. The arrival of a guest was not only an act of hospitality but was often accompanied by religious ceremonies. There were traditions of wishing prosperity and blessings for the guest, and their arrival was seen as an event that elevated the social status and brought blessings to the household. Additionally, special prayers were performed for the guest's health and safety. The entry of a guest into a home was regarded as a reflection of the family's social prestige and their desire for prosperity. This shows how the role of the guest, hospitality, and the associated rituals have deep historical and cultural significance, particularly in shaping the way guests are treated and the social importance attributed to their presence.⁵

In Egyptian culture, the tradition of welcoming guests was carried out within a religious and social context. When a guest arrived, prayers were offered to ensure their safety and to increase prosperity. Various rituals were organized to please the guest, and gifts were presented. The arrival of a guest was seen as an event that brought blessings and prosperity to the family or community. This tradition also reflected obedience to the religious and social rules and norms of society,

⁴ Маҳмудов К. Меҳмоннома. –Т., “Ёш гвардия”, 1989. - Б. 8.

⁵ Zilolakhon Umarova, "The concept of "Guest" in the Uzbek language and its etymology", 25 November 2024
<https://inscience.uz/index.php/foreign-linguistics>

underscoring the importance of hospitality as part of maintaining harmony and social order.

In *Avesto*, an important written source regarding the religious and spiritual life of ancient Iran and Central Asian peoples, the concept of a guest is interpreted in relation to social relationships, respect, and the values of hospitality. Receiving and showing respect to guests is depicted as a supreme duty: "Ahura Mazda commands humans to welcome and take care of guests, for the guest is a symbol of prosperity and blessings. To the homes that honor guests, the mercy of God will descend" (*Yasna 16.3*).⁶ It highlights the deep spiritual and moral significance attached to hospitality, emphasizing that honoring guests is not only a social obligation but also a divine command linked to prosperity and divine favor.

Furthermore, rejecting hospitality or welcoming a guest with disrespect was considered a mistake: "Whoever rejects a guest or harms them is a criminal in the eyes of Ahura Mazda and will face the punishment for their sin" (*Vendidad 3.2*). In addition, even during the medieval period, hospitality held an important place in the social structure of Nomadic people. Among the Nomads, protecting and assisting guests was integrated into ancient laws and even personal obligations. They regarded sincerity, respect, and caution as core values when welcoming guests. This further emphasizes how hospitality was not only a social norm but also a deeply ingrained cultural and moral principle across different societies⁷.

In conclusion, the concept of "guest" occupies a central place in the national identity, cultural life, and values of the Uzbek people. This concept is not only a part of personal relationships but also serves as a key unifying factor in society from both a social and spiritual perspective. Hospitality has been highly valued in our people's centuries-old historical and cultural traditions and has become an integral part of our national culture. By welcoming guests and showing them respect, our people demonstrate their tolerance, sincerity, and nobility.

⁶ Avesto: qadimgi diniy-ma'naviy yozuvlar to'plami. Yasna va Vendidad qismlari, Toshkent, 2004.

⁷ Lukmanov R. Qadimiy sharq madaniyatlarida mehmondo'stlik. Moskva, 2003

References

1. Avesto: qadimgi diniy-ma'naviy yozuvlar to'plami. Yasna va Vendidad qismlari, Toshkent, 2004.
2. F.Usmanov "Mehmondo'stlik o'zbek qadriyatining lingvomadaniy tahlili". Til va adabiyor electron jurnali ,2024 yil 9-son
3. Zilolakhon Umarova ,”The concept of "Guest" in the Uzbek language and its etymology” , 25 November 2024 <https://inscience.uz/index.php/foreign-linguistics>
4. O'zbek tilining etimologik lug'ati (O'TEL). III jild. Toshkent, 2009-136
5. Махмудов К. Мехмоннома. –Т., “Ёш гвардия”, 1989. - Б. 8.
6. Эдельман Д.И. Этимологический словарь иранских языков. Том 5. – М.: Наука – Вост. лит., 2000.– С. 364; 364. (566)

Internet sources

- 1.www.researchgate.net
- 2.ProQuest
- 3.Google Scholar

MAKTAB TA'LIMIDA "ALPOMISH" DOSTONINI O'RGANISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Dilrabo XURRAMOVA,

Tosh DO 'TAU II bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada xalqimizning ma'naviyati va madaniyati tarixida o'ziga xos ahamiyat kasb etgan "alpomish" dostonini maktab ta'limida o'qitishning dolzarbligi, yosh avlodni ona vatanga, ajdodlar qadriyatiga sadoqat, milliy urf-odatlarimizga muhabbat ruhida tarbiyalash, adabiyot darslarini samarali tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, xususan, mustaqil ishlash uchun topshiriqlar yaratish masalasi o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ta'lim, xalq og'zaki ijodi, "alpomish" dostoni, metod, interfaol metod, "tushunchalar tahlili", "klaster", "bumerang", "limerik", "baliq skeleti" metodlari.

Abstract. The urgency of teaching the epic "Alpomish" in school education, which has a special place in the history of spirituality and culture of our people, educating the younger generation in the spirit of devotion to the motherland, ancestral values, love for our national traditions, effective literature lessons. The use of modern pedagogical technologies in the organization, in particular, the creation of assignments for independent work.

Keywords: spirituality, education, folklore, epic "Alpomish", method, interactive method, "Concept analysis", "Cluster", "Boomerang", "Limerick", "Fish skeleton" methods.

Xalqning ma'naviyati, barkamol shaxsni tarbiyalash masalasi hamma zamonlarda ham dolzarb masala hisoblangan. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ma'naviyatning ma'no-mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni, murakkab, serqirra tushunchaning nazariy va amaliy jihatlarini har tomonlama keng qamrovli fikr-xulosalar orqali tahlil etganlar. Umuman, I.A.Karimovning bu asaridagi fikr- mulohazalariga tayanib aytish mumkinki, bizgacha yetib kelgan ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar, muqaddas dinimiz, tarixdagi bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlar, kundalik

hayotdagi oila va mahallaning roli, uning samarali ta'siri, keng qamrovli ta'lim-tarbiya tizimi, juda boy so'z san'ati va badiiy adabiyot, ma'naviy tarbiyaga javobgarlik hissi va mas'uliyat bilan yondashish, shuningdek, milliy urf-odatlarimiz, ajdodlarimizning tarixiy xotirasi "ma'naviyat" tushunchasini shakllantiradigan, uning ma'no-mazmunini boyitadigan asosiy mezonlar va omillar sanaladi. I.A.Karimov ma'naviyat tushunchasining inson hayotida tutgan o'rni haqida ham yaxlit va sermazmun yakuniy xulosa berdilar: "Ma'naviyat- insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir".

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Davlatimizning "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida mustaqillik yillarida milliy ta'lim va tarbiyashunoslik ham shaklan, ham nazmunan yangilandi, ma'nau barkamol avlodni tarbiyalash maqsadi ustuvor ahamiyat kasb etdi. Professor Q.Yo'ldoshev haqli ravishda ta'kidlaganidek, "Maktab adabiyoti ta'lim berish vositasi emas, balki tarbiyalash vositasidir. Aslida adabiyot tarixga daxldor biror dalilni sharillatib aytib bera oladigan, ammo ma'naviyatida ezgu fazilatlar bo'lmagan o'quvchilardan ko'ra, ayrim adabiy ma'lumotlar tizimini bilmasa ham, badiiy asarlarning qahramonlariga xos eng insoniy fazilatlarni o'z tabiatiga singdira bilgan, sirtdan qaraganda, nafaolday tuyuladigan o'quvchilar jamiyatimiz uchun ko'proq zarurdir... Badiiy adabiyot go'zal dunyo ichida go'zal ruhiy dunyo yaratishdir". Olimlarning fikricha, adabiyot o'qitishning vazifasi har bir xalqni o'zigagina xos ma'naviy qadriyatlar majmuida idrok etish mumkin ekanligini o'quvchilarga singdirish hamdir. Zero, o'z ma'naviyatini qanday qadriyatlarga tayanib shakllantirishni bilmagan shaxs xaritasiz noma'lum yurtga sayohat qilgan kishiga o'xshaydiki, ko'zlangan manzilini aniq tasavvur eta olmay, uzoq sargardon bo'lish xavfi bor. Professor S.Matchonov "Avlod- ajdodlarimiz asrlar mobaynida intilib kelgan ma'naviy – axloqiy barkamollik, avvalo, insonning o'z o'zini anglashi bo'lib, ta'lim- tarbiya orqali amalga oshiriladi. O'z- o'zini anglash esa boshqalarni anglash demakki, dunyoni anglash,...uning sir-asrorlarini tushunishning

ildizini kishilik jamiyatining ilk davrlaridan, xalq og'zaki ijodi namunalari ijrosidan izlamoq kerak"- deydi. Xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan dostonlar markazidagi insonparvarlik g'oyalari insoniy baxt, erkinlik, ma'naviy-axloqiy barkamollik, vatanni sevis, inson zotini yuksaklikka ko'tarish, unga nisbatan hurmat-e'tiborli bo'lishga undaydi. Bu g'oyalar zamirida esa ajdodlarimizning o'z ona yeriga muhabbati, vatanparvarligi, bosqinchilarga nafrati, mardona kurashi, ayollarga hurmat va muhabbati qalqib turadi. Dostonlarda vatanparvarlik, haqgo'ylik, yurt tinchligi, birdamlik, sevgisadoqat, do'stlik g'oyalari o'z aksini topgan bo'lib, ularni tahlil qilish turli ta'lim metodlaridan foydalanishni taqazo etadi. Ta'lim tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar pedagoglar zimmasiga ulkan vazifalarni qo'yimoqdaki, bugun o'sib kelayotgan yosh avlodni ilm-u ma'rifatli qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, darslarni samarali tashkil etish bugungi kun talabiga aylanib ulgurgan. "Metod" yunoncha so'z bo'lib, "usul, yo'l- yo'riq" degan ma'nolarni anglatadi. Pedagogik adabiyotlarda "Metod- ta'lim jarayonida taqdim etilayotgan amaliy va nazariy bilimlarni egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun xizmat qiladigan yo'l yo'riqlar, usullar majmui " deb ta'riflanadi. Ta'lim metodlari- o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lsa, ularni shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin : an'anaviy, noan'anaviy va zamonaviy. Har bir metod og'zaki, yozma va ko'rsatmali-amaliy usullarda olib boriladi. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Multimedia vositalari, proyektor, interfaol sinf taxtalari (doskalar) va panellar, videokonferensiya aloqa tizimlari, ovozlash tizimlari avval mavjud bo'lgan muammolarning ko'pchiligini hal etishni osonlashtirmoqda. Interfaol atamasi lotincha "interakt" so'z birikmasidan olingan bo'lib, "inter" – o'zaro, birgalikda va "akt" – faoliyat ma'nolarini anglatadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Demak, interfaol metodlar ta'lim mazmunining to'liq o'zlashtirilishida

o'quvchilarning o'zaro bir- birlari va o'qituvchilari bilan birgalikda faoliyat ko'rsatishlarini tashkil etishni ko'zda tutadi. Bu metodlar o'quvchilarning faolligi, erkin fikrlashi, mustaqil izlanishi, o'zlashtiriladigan ma'lumotlarga ijodiy yondashishiga tayanadi. . Mamlakatimiz qo'lga kiritgan mustaqilligini mustahkamlashda va rivojlantirishda o'quvchi – yoshlarni har tomonlama kamol toptirish, ularda milliy hamda umumbashariy qadriyatlarni shakllantirish bugungi kunning dolzarb muammosiga aylanib bormoqda. Mehr- muruvvat, adolat, to'g'rilik, vijdon, ornomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko'plab insoniy xislat va fazilatlar majmui bo'lgan komil inson g'oyasi asosini xalqimizning azaliy ezgu orzulari tashkil qiladi. Ana shu ezgu ozularning ro'yobini xalq og'zaki ijodining gultoji bo'lgan "Alpomish" dostonida misolida ko'rishimiz mumkin. "Alpomish" dostonidagi umuminsoniyatga, milliy qadriyatlarga to'la badiiyatni o'sib kelayotgan yosh avlodga singdirish lozim. Bu kishini barkamol shaxs bo'lib tarbiyalanishida muhim sanaladi. Shunga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim "Adabiyot"saboqlari dasturida "Alpomish" dostonini o'rgatishga alohida e'tibor berilgan. O'rta maktablarning to'qqizinchi sinflarida dastlab o'rganiladigan birinchi badiiy asar "Alpomish" dostonidir. Dostonni o'rgatish uchun dasturda besh soat dars ajratilgan.

1. "Alpomish" dostoni
2. "Alpomish" dostonidan o'qish
3. Doston matni ustida ishlash
4. Doston timsollari tahlili
5. Nazariy ma'lumot.

Xalq dostonlari va ularning turlari Qo'shimcha sifatida dars yakunida "Dostondan olgan taassurotim" mavzusida insho va uning tahliliga ikki soat dars ajratilgan. O'qituvchi belgilangan dars soatlarida doston va uning shakllari haqida ma'lumot berishi, darslikdagi parcha bilan o'quvchilarni to'la tanishtirishi, mazkur parchani atroflicha tahlil qilishi hamda dasturda nazarda tutilganiga ko'ra asardagi badiiy obrazlar haqida o'quvchilarda muayyan tushuncha shakllantirishi kerak bo'ladi. Darsning birinchi soatida "Alpomish" dostonini sharhlab o'rganish lozim. Chunki doston mazmunini, baxshichilik san'atini yoritib berishda katta yordam

beradi. “Alpomish” dostoni bir oila taqdiri misolida butun bir millat birlashuvi o‘z ifodasini topgan qahramonlik namunasi bo‘lib, qirqdan ortiq nusxalari olimlar tomonidan yozib olingan. Shulardan voqealarining qiziqarliligi, ifodaning ta’sirchanligi, tasvirning izchilligi o‘ziga xos badihago‘ylik va hofiza qadratiga ega bo‘lgan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li aytgan doston nusxasi o‘zbek baxshichilik san’atini yanada rivojlantirgan. Baxshi so‘zi ustod, ma’rifatchi degan ma’nolarni anglatib, xalq qo‘shiqlari va dostonlarini yoddan kuylovchi shoirlarga nisbatan qo‘llanadi. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li 1872-yilda hozirgi Jizzax viloyatining Baxmal tumaniga qarashli Loyqa qishlog‘ida tug‘ilgan. Baxshichilik san’ati sirlarini davrining taniqli baxshisi Yo‘ldosh shoirdan o‘rgangan. “Alpomish” dostoni shoir ijodining gultojiga aylangan. Doston “Burungi o‘tgan zamonda o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elida Dobonbiy degan o‘tdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan o‘g‘il farzand paydo bo‘ldi. Alpinbiydan tag‘in ikki o‘gil paydo bo‘ldi: kattakonining otini Boybo‘ri qo‘ydi, kichkinasining otini Boysari qo‘ydi. Boybo‘ri bilan Boysari- ikkovi katta bo‘ldi. Boysari boy edi, Boybo‘ri esa shoy edi, bul ikkovi farzandsiz bo‘ldi ” degan an’anaviy qo‘ng‘irot urug‘larining farzandsizligi tasviri bilan boshlanadi. Boybo‘ri bilan Boysarining chupronto‘yda bir chapanitop boyvachchasidan eshitgan: “Ey, Boybo‘ri bilan Boysari! Bu to‘y o‘g‘illining o‘glidan qaytadi, qizlining qizidan qaytadi, sening nimangdan qaytadi?! O‘zing o‘lsang, molingga har merosxo‘r chiqadi, og‘ziga odam kirib ketadi ” degan so‘zlari orali el oldida izza bo‘lishi, qahramonlarning farzand tilab Shohimardon pir ravzasida qirq kun toat-ibodat qilganliklarini musulmon xalqiga xos bo‘lgan ishonch, e’tiqod, iymon va ibodat qiluvchi, topinuvchi aziz-avliyolari, ulug‘ qadamjolari misolida ko‘rsatib o‘tish, ta’bir joiz bo‘lsa, otashyurak shoir Abdulla Oripovning bu haqda hazin tuyg‘ularga to‘la bir she’rini keltirish joiz bo‘ladi: Dunyodan roziman, dema hech qachon, Desang ham so‘ylagil sahroga, toqqa. Chunki seni tinglab, kimdir o‘sha on, Nega rozisan, deb tutgay so‘roqqa. Bu ixlosning mukofoti sifatida aka-uka farzand deb atalmish ne’matga ega bo‘ladilar. Dars davomida farzandlarga ism qo‘yish, beshikkerti marosimlarining bugungi kundagi ahamiyati, aka-uka o‘rtasidagi ziddiyatlarni yuzaga keltiruvchi sabablar haqida atroflicha mulohaza yuritiladi. O‘qituvchi mavzuni mustahkamlash uchun

“Klaster” metodida foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. “Klaster” so‘zi “g’uncha”, “bog’lam” ma’nosini anglatadi. Eng ko‘p qo‘llaniladigan interfaol metodlardan biri sifatida har bir o‘quvchini o‘z fikrini ifoda etishga o‘rgatadi. O‘quvchilar “Alpomish” dostonida aks etgan davr va dostonidagi bosh qahramonlar shajarasini aks ettirish orqali mavzu yuzasidan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishadi. “Alpomish” dostonida aks etgan davr. Dostonidagi bosh qahramonlar shajarasi va kattalar ko‘magida o‘zingiz mansub bo‘lgan ajdodlaringiz shajarasini tuzishga harakat qiling.

O‘quvchilarni mustaqil o‘z ustida izlanishlari uchun “Boshqotirma” beriladi . “BOSHQOTIRMA”ni yeching. «Alpomish» dostonidagi bosh qahramonlaridan biri. Hakimbekning singlisi. Hakimbekning bobosi. Surxayl kampirning kichik o‘g‘li. Surxayl kampirning o‘g‘illaridan biri. Zakotni rad etgan qahramon. Aka-ukalarning farzand tilab borgan joyi. Hakimbekning oti. Voqealar bo‘lib o‘tgan joy nomi. Surxayl kampirning katta o‘g‘li.

XULOSA

Darsning samaradorligi, o‘qituvchining bilimi va ijodkorlik qobiliyatini, darsni tashkil etishdagi pedagogik mahoratini belgilovchi omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchining badiiy adabiyot olamiga mehrini hamda ulardan ta’sirlanish hissini uyg‘otadi.

REFERENCES

1. Karimov I.A.Yuksak manaviyat-yengilmas kuch.- Toshkent, “Manaviyat”, 2008.
2. Yo‘ldoshev Q.Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T.O‘qituvchi,1996.
3. Yo‘ldoshev Q, Qodirov V,Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot darsligi,Toshkent “O‘zbekiston”2019.
4. Urinboyeva D.Xalq og‘zaki ijodi asarlarini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari.- Samarqand VXTXQTMOHM,2017.

MUNDARIJA

Shuhrat SIROJIDDINOV SO‘ZNI TAQDIRGA AYLANTIRGAN SHAXS.....	4
I SHO‘BA. IBROHIM G‘AFUROVNING TARJIMONLIK MAHORATI VA ADABIY MUNAQQIDLIK FAOLIYATI	7
Shuhrat RIZAEV IBROHIM G‘AFUROV MANSURALARI.....	7
Zuhriddin ISOMIDDINOV INTELLEKTUAL MUTARJIM VA TARJIMA NAZARIYOTCHISI.....	18
Ashurali JO‘RAEV MANSURA.....	23
Qosimboy MAMUROV USTOZ ADIB IBROHIM G‘AFUROV – ALLOMA TARJIMON	26
Xurram RAXIMOV IBROHIM G‘AFUROV – UNIVERSAL DAHO.....	29
Ziyodaxon TESHABOYEVA IBROHIM G‘AFUROVNI YODGA OLSAM	31
Marhabo QO‘CHQOROVA IBROHIM G‘AFUROV BADIY PUBLITSISTIKASI HAQIDA	34
Ma‘rifat ALIMQULOVA IBROHIM G‘AFUROV – SO‘Z QAHRAMONI	40
II SHO‘BA. ADABIYOTSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI	45
Sayyora SHODMONOVA “BOBURNOMA”DAGI O‘LCHOV BIRLIKLARI TARJIMALARI VA LINGVOKULTUROLOGIK JIHLAR.....	45
Hamida JURAQOBILOVA MADANIY KONTEKSTDA KOGNITIV METAFORALAR TARJIMASI MUAMMOLARI	53
Ra‘no ISAMUTDINOVA ZUHRIDDIN ISOMIDDINOV – TARJIMASHUNOS OLIM.....	59
Zuxra ZULFIQOROVA ERNEST XEMINGUEY ASARLARI INGLIZCHA VA O‘ZBEKCHA TARJIMASINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	68
Barchinoy ALLANAZAROVA COMPARATIVE ANALYSIS OF DIPLOMATIC VOCABULARY DURING TRANSLATING FROM ENGLISH INTO UZBEK	72
Shaxnoza ISMOILOVA “BOBURNOMA” ENDI RIMDA.....	76
Madinaxon XAYITBAYEVA MADANIYATLARNI ULASHISH VA SAN‘ATNING GLOBAL OLAMIGA YO‘L OCHISH.....	81
Yulduz ZAYNIYEVA “BOBURNOMA” DAGI IZOFIY BIRIKMALI BOG‘ NOMLARINING INGLIZCHA TARJIMALARI QIYOSIY TAHLILI	83
Mahbuba QUVONDIQOVA TARJIMASHUNOSLIK FANIDA DINIY TARJIMA O‘RNI VA AHAMIYATI	92

Baxrom ISKANDAROV	
IJODKOR TARJIMON VA TARJIMA MASALASIDA	95
Madinaxon XAYITBAYEVA	
TEATR SAN'ATIDA TARJIMANING ROLI.....	98
Mashhura NAZAROVA	
GYOTE ASARLARIDA TABIAT TASVIRLARINING TUTGAN O'RNI.....	101
Dilnoza SHONAZAROVA	
SINXRON TARJIMADA SIYOSIY VA DIPLOMATIK NUTQLARNING TERMINOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	105
Sabina AHMEDOVA	
PROVERBIAL WISDOM: A CROSS-CULTURAL AND LINGUISTIC EXAMINATION OF UZBEK AND ENGLISH PROVERBS.....	111
Nodira SATTAROVA	
DECODING DIPLOMATIC TRANSLATION: STRATEGIES FOR TRANSLATING COMPLEX SENTENCES	116
Ollayor RAXIMOV	
HOSPITALITY-RELATED TEXTS IN VARIOUS FORMS	120
Nafisa HAMIT	
TIL – SIVILIZATSIYANING ASOSIY POYDEVORI JAMIYATNI BIRLASHTIRUVCHI VOSITA VA MOJAROLAR QUROLI.....	123
Zuhriddin ISOMIDDINOV	
INTELLEKTUAL MUTARJIM VA TARJIMA NAZARIYOTCHISI	126
Ma'suma OBIDJONOVA	
FANTASTIKANI BADIY TIZIM SIFATIDA ANGLASH BORASIDA BA'ZI CHIZGILAR: QIYOSIY-NAZARIY TAHLIL	131
Hamida JURAQOBLOVA	
MADANIY KONTEKSTDA KOGNITIV METAFORALAR TARJIMASI MUAMMOLARI	136
Nozimaxon ABDURASHIDOVA	
XX ASR VYETNAM ADABIYOTIDA "YANGI SHE'RIYAT" XUSUSIYATLARI	142
Mohigul RAHIMQULOVA	
TIL O'QITISHDA FE'L MAVZUSI ORQALI KOMPETENSIYALARNI MUSTAHKAMLASH	146
Abdirosul TASHPULATOV	
ALISHER NAVOIY KULLIYOTINING FIHRISTNOMASI HAQIDA	152
Farangiza NORBEKOVA	
"DISCOVERY" KANALI ILMIY-OMMABOP KO'RSATUVLAR NOMINING TARJIMA MUAMMOLARI	160
Yo'ldosh ABDURAHMONOV	
TIBBIYOT SOHASI MATNLARIDA TARJIMA USULLARI TAHLILI VA UNING AHAMIYATI	165
Xasan GAFFOROV	
NUTQDAGI GENDER FARQLAR HAMDA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	170
Xasan GAFFOROV	
ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI NUTQIY GENDER STEREOTIPLAR HAMDA ULARNING PRAGMATIK TAHLILI	173

Iroda ISHONXANOVA	
ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGANISHDA SAVOL VA TOPSHIRIQLARNING AHAMIYATI.....	176
Omonboy BOLTABOYEV	
BAXTIYOR NAZAROV G'AFUR G'ULOM IJODI TADQIQOTCHISI SIFATIDA	182
Dinara USTEMIROVA	
RESEARCH OF 20TH CENTURY UZBEK LITERATURE AND CURRENT LITERARY PROCESS	187
Yulduz ZAYNIYEVA	
“BOBURNOMA” ASARINING TARJIMALARIDAGI BADIY VA MAZMUNY FARQLAR.....	192
Aziza AXMEDOVA	
ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA PSIXOLOGIZM.....	196
Fotima ISMOILOVA	
ISAJON SULTONNING “ALISHER NAVOIY” ROMANIDA TARIXY SHAXSLAR TALQINI	199
Mahfuza YASHINOVA	
OLIM TOSHBOYEVNING “KISHAN” ROMANIDA IJTIMOIY HAYOT TASVIRI.....	204
Shirin SHERALIYEVA	
ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА НАУЧНОЙ ФРАЗЕОЛОГИИ.....	210
Charos KARIMBOYEVA	
TARJIMADA MILLIYLIKNING AKS ETISHI	214
Nargiza ERKABOYEVA	
THE ETYMOLOGY OF HOSPITALITY IN UZBEK LANGUAGE	218
Dilrabo XURRAMOVA	
MAKTAB TA'LIMIDA “ALPOMISH” DOSTONINI O'RGANISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	224